M.Q. RAJAPOV

AFRIG‘IYLAR SULOLASI DAVRI TARIXSHUNOSLIGI

(XIX – XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili)



MONOGRAFIYA

Rajapov Mardonbek – 1995-yil Xorazm viloyati Hazorasp tumanida tug‘ilgan. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Ma’mun universiteti Tarix kafedrasi v.b. dotsenti.

2018-yil Urganch davlat universiteti Tarix fakultetini, 2020-yilda Urganch davlat universitetining Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistraturani tamomlagan. U 30 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi. Germaniya va Turkiyada o‘tkazilgan xalqaro ilmiy yig‘inlarda ma’ruzalar qilgan. Turkiyaning “Academic Literature Journal of Social Sciences Research (AKALID)” hamda mahalliy “Insonshunoslik” (Human Sciences) jurnallari tahririy hay’ati a’zosi hisoblanadi.

M. Rajapov mehnat faoliyatini 2020-yilda Urganch shahar 15-umumta’lim maktabida tarix fani o‘qituvchiligi lavozimidan boshlagan. 2021–2022-yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi kichik ilmiy xodimi, 2022–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti, “Harbiy tarixni o‘rganish markazi”da kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Hozirda Ma’mun universiteti “Tarix” kafedrasi v.b. dotsenti lavozimida ishlab kelmoqda.

ISBN 978-9910-10-829-7

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MA’MUN UNIVERSITETI**

RAJAPOV MARDONBEK QOSIMBOY O‘G‘LI

AFRIG‘IYLAR SULOLASI DAVRI TARIXSHUNOSLIGI (XIX – XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili)

MONOGRAFIYA

**“Durdona nashriyoti”
Buxoro – 2025**

UO‘K 94(575.171)
63.3(5O'-4Xor)
R 17
Rajapov, M.Q.
Afrig‘iylar sulolasi davri tarixshunosligi (XIX – XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili) [Matn] / M.Q. Rajapov .- Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2025.- 212 b.

KBK 63.3(5O'-4Xor))

Ushbu monografiya Xorazmning III-X asrlarda hukmronlik qilgan Afrig‘iylar sulolasining tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili orqali afrig‘iylar sulolasi davri tarixshunosligi yoritilgan. Monografiyada sulolaning siyosiy maqomi, etnik mansubligi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti masalalariga oid yozma va moddiy manbalarning tadqiqotlarda jalb etilishi, arxeologik kashfiyotlar, “Afrig‘” atamasining kelib chiqishi, hukmdorlar unvonlari va sulolaning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni kabi masalalar muhokama qilinadi. Tadqiqot davomida sovet davri tarixshunosligida shakllangan bir qator noto‘g‘ri talqinlar inkor qilinib, yangi arxeologik topilmalar va pahlaviy matnlar asosidagi xulosalar bilan to‘ldirilgan. Monografiya 28 ta yozma manba va 274 ta ilmiy adabiyotni tahlil qilgan holda, sovet davri va mustaqillik yillaridagi yondashuvlarni tanqidiy baholangan hamda yangi ilmiy xulosalar taklif etilgan. Mazkur monografiya Afrig‘iylar sulolasining Markaziy Osiyo mintaqaviy tarixidagi o‘rnini yangicha ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rsatib berishga qaratilgan bo‘lib, tarixchi olimlar, manbashunoslar, sharqshunoslar, Xorazm tarixiga qiziquvchi barcha kitobxonlar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
Nigora Allaeva, tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
Azimxo‘ja Otaxo‘jayev, tarix fanlari doktori, professor
Qudrat Masharipov, tarix fanlari doktori, professor

Monografiya Ma’mun universiteti 2025-yil 29-noyabrdagi ilmiy kengashining 4-son yig’ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-10-829-7

MUNDARIJA

So‘zboshi 4
Kirish 14
I bob. Afrig‘iylar davri aks etgan yozma va moddiy manbalar tadqiqi 17
§ 1.1. Yozma manbalarning tadqiqotlarga tortilish qamrovi: tahlil va talqin 17
§ 1.2. Arxeologik tadqiqotlar va ularning xulosalari 44
I bob yuzasidan xulosalar 65
II bob. Afrig‘iylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi va ularning o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni masalasi 67
§ 2.1. “Afrig‘” atamasi va Afrig‘iylar sulolasining kelib chiqish masalasi: yondashuvlar va qarashlar 67
§ 2.2. Afrig‘iylarning siyosiy maqomi masalasi 91
II bob yuzasidan xulosalar 109
III bob. Afrig‘iylar davri (305–995) Xorazmda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot masalalarining o‘rganilishi 111
§ 3.1. Ijtimoiy–mulkchilik va pul munosabatlari, savdo-sotiq masalalarining o‘rganilishi 111
§ 3.2. Shaharsozlik madaniyati, til va yozuv hamda diniy e’tiqod masalalarining tadqiq etilishi 132
III bob yuzasidan xulosalar 151
Xulosa 153
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati 156
Ilovalar 180
Qisqartmalar ro‘yxati 210

SO‘ZBOSHI

O‘zbek davlatchiligi tarixida eng uzoq hukm surgan sulolalaridan biri – afrig‘iylar sulolasi tarixi o‘n yilliklar davomida ilmiy izlanishlarga turtki bo‘lib kelayotgan, lekin hanuzgacha ko‘plab masalalari oydinlashtirilmagan yo‘nalishlardan biridir. Xorazmning III-X asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, sulolaning mintaqaviy geosiyosatdagi tutgan o‘rni, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarining talqini tarixshunoslikda turli davrlarda turlicha yoritilgan. Mazkur monografiya aynan shu murakkab va ko‘p qirrali masalalarning ilmiy-nazariy tahliliga bag‘ishlangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, sulola tarixi bo‘yicha XIX asr oxiridan boshlab to XXI asrning 20-yillarigacha to‘plangan ulkan ilmiy merosni bir tizimga solib, tanqidiy tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki milliy o‘zlikni anglash nuqtayi nazaridan ham dolzarb vazifa hisoblanadi.

Muallifning Afrig‘iylar sulolasining hukmronlik davriga oid qator masalalarni qayta ko‘rib chiqishi — xususan, sulolaning davriy chegaralarini aniqlashtirishi, Xorazmning Sosoniylar bilan aloqalariga doir yangi talqinlarni ilgari surishi, “Xorazmshoh”, “Xorazm maliki” va “Xorazm xusravi” kabi unvonlarning real siyosiy ierarxiyadagi o‘rni va tabiatini izohlagan ilmiy xulosalari mazkur monografiyaning yangiligi va bahs-munozaraga loyiq jihatlaridir.

Shuningdek, tadqiqotda Afrig‘iylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar — shaharsozlik madaniyati, mulkchilik munosabatlari, savdo-sotiq tizimi, numizmatika, diniy-etnik jarayonlarning manbashunoslik asosida qayta tahlil qilinishi mintaqa tarixining ushbu bosqichini yanada aniqroq tasavvur qilish imkonini beradi. Eng muhimi, muallif har bir davrning mafkuraviy, metodologik va manbashunoslik xususiyatlarini ochib bergan, yutuq va kamchiliklarni aniq ko‘rsatgan hamda o‘nlab yillar davomida takrorlanib kelingan ba’zi qarashlarni yangi dalillar asosida qayta ko‘rib chiqqan. Bundan tashqari, mavjud manbalarni tanqidiy tahlil qilish orqali sovet davrida shakllangan ba’zi bir mafkuraviy yondashuvlarning ilmiy asoslari qay darajada zaif bo‘lganini ko‘rsatib bergan.

Monografiya zamonaviy tarixshunoslik talablariga to‘la javob beradi. Unda qo‘llanilgan qiyosiy-tarixiy tahlil, fanlararo yondashuv, tilshunoslik, arxeologiya va madaniyatshunoslikdan olingan

dalillarning tatbiqi tadqiqotning nazariy hamda metodologik poydevorini mustahkamlagan. Shuningdek, muallif tomonidan tuzilgan 300 dan ortiq ilmiy-adabiyotlar tahlili, 28 ta yozma manba identifikatsiyasi va ular asosida ishlab chiqilgan xulosalar ushbu yo‘nalishda yangi ilmiy bosqichni boshlab bergan.

Monografiyaning amaliy va ilmiy ahamiyati, shuningdek, uning O‘zbek tarixshunosligidagi o‘rni alohida e’tiborga loyiq. Ushbu ish ilk bor Afrig‘iylar sulolasi tarixiga oid tadqiqotlarni mustaqil ob’ekt sifatida o‘rganib, ularni XIX asr oxiridagi dastlabki sharqshunoslik ishlaridan tortib, bugungi kunda xalqaro miqyosda olib borilayotgan eng so‘nggi arxeologik va numizmatik loyihalargacha bo‘lgan keng doirada yorigan. Muallifning tahlilida nafaqat milliy olimlarning ishlari, balki xorijiy tadqiqotchilarning yondashuvlari ham qiyosiy tahlil etilgan. Bu esa o‘zbek tarixshunosligining jahon ilmiy maydonidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Monografiyada ilgari surilgan ilmiy xulosalarning yana bir dolzarb jihati — Afrig‘iylar sulolasi tarixining o‘zbek davlatchiligidagi o‘rnini qayta talqin etish masalasi bo‘lib, unda sulolaning siyosiy legitimatsiyasi, mintaqadagi davlatlararo aloqalardagi o‘rni hamda Xorazmning o‘sha davrdagi regional markaz sifatidagi mavqeining mustahkamlanish omillari batafsil ochib berilgan.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati – manbashunoslik masalalariga alohida e’tibor qaratilganligidadir. Muallif xitoy, vizantiya, pahlaviy, arman, suryoniy, hind, arab va fors manbalarini bir tizimga solib, har bir guruhning mafkuraviy holatini, siyosiy kontekstini va mualliflarning dunyoqarashini chuqur tahlil qilgan. Xitoy manbalaridagi sinotsentrizm va “samoviy mandat” konsepsiyasi, vizantiya matnlaridagi geosiyosiy raqobat, arman va suryoniy manbalardagi nasroniy antagonizmi, pahlaviy matnlaridagi “Eronshahr–Turon” qarama-qarshiligi va Somoniylar davridagi legitimlik kurashi – bularning barchasi muallif tomonidan aniq ko‘rsatilib, manbalarning “ob’ektivligi” emas, balki ularning yaratilgan sharoit va maqsadlari asosida qayta ko‘rib chiqilgan. Aynan shu yondashuv tufayli ko‘p yillar davomida bir-biriga ziddek ko‘ringan ma’lumotlar o‘zaro to‘ldiruvchi manba sifatida birlashtirilib, afrig‘iylar sulolasi davrining yanada aniqroq tasavvuri yaratilgan.

Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘lining ushbu tadqiqoti o‘zining izchil yondashuvi, manbalarga mas’uliyat bilan murojaat

qilishi va tarixiy jarayonlarga xolis baho berishga intilishi bilan ajralib turadi. Mazkur monografiya Afrig‘iylar sulolasi tarixi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga munosib hissa qo‘shadi, deb hisoblayman. Muallifning kelajakdagi ilmiy ishlariga muvaffiqayt tilayman.

Nigora Ashirovna Allaeva
Tarix fanlari doktori, professor

Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar siyosiy tarixi, ayniqsa, Xorazm vohasining o‘ziga xos davlat tuzilmalari va siyosiy jarayonlari, uzoq vaqt davomida manba kamligi va tarixiy tafsilotlarning qisman noaniqligi tufayli murakkab tadqiqot sohasi bo‘lib kelgan. Mintaqaning eng uzoq hukmron sulolalaridan biri — Afrig‘iylar sulolasi tarixi ana shu murakkablikning markazida turadi. Chunki sulolaning kelib chiqishi, davlat boshqaruvi, boshqa davlatlar bilan munosabatlari, iqtisodiy hayoti, diniy muhit va madaniy rivojlanish jarayonlari to‘g‘risida turli manbalarda keltirilgan ma’lumotlar ko‘pincha bir-biriga zid, talqinlar esa turlicha bo‘lgan.

Mazkur monografiya aynan shu tarixiy manzarani ilmiy jihatdan qayta ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Afrig‘iylar davri tarixiga doir mavjud yozma manbalar qiyosiy o‘rganilgan. Shuningdek, Xorazm arxeologiyasining so‘nggi natijalari, numizmatik materiallar, moddiy madaniyat yodgorliklari sulola tarixini qayta tiklash jarayonida birinchi darajali daliliy material sifatida qo‘llangan.

Monografiya, bir tomondan, XIX-XXI asrning 20-yillar tarixshunosligining Afrig‘iylar haqidagi ilmiy yondashuvini tizimlashtiradi, ikkinchi tomondan esa, III-X asrlar Xorazm tarixiga oid tarixiy-siyosiy jarayonlarni yangicha ilmiy baholash uchun konseptual asos yaratgan.

Monografiya IV-VI asrlarda mintaqada kuzatilgan iqtisodiy tanazzulni faqat tashqi bosqinlar bilan emas, balki ichki siyosiy kurashlar, tabiiy-iqlimiy omillar va daryo o‘zanining o‘zgarishi kabi kompleks jarayonlar bilan bog‘liqligi asoslangan. Bu yondashuv Xorazm tarixidagi “noma’lum davrlar”ni ilmiy asosda izohlash imkonini beradi.

Yozma manbalar va arxeologik dalillarning o‘zaro bog‘lanishiga tayanib, Afrig‘iylar sulolasining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni, ularning davlat boshqaruvi modeli, mintaqaviy siyosiy tizimda tutgan mavqei, Xorazmning urbanizatsiya jarayonlari, savdo-iqtisodiy

aloqalari, diniy-amaliy hayoti kabi masalalarga yangicha ilmiy-nazariy baho berilgan.

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna,
Tarix fanlari doktori, professor

Vatanimiz tarixining muayyan mavzulari jahonda qay tarzda talqin etilishi, tadqiqotchilarning yondashuvlari va munosabatini o‘rganish, yangi ilmiy yondashuvlar va metodologiyalarni qo‘llash orqali O‘zbek davlatchiligi tarixning turli xil masalalariga oydinlik kiritish va boyitish imkoni mavjud. Shu jihatdan, O‘zbek davlatchiligi tarixida eng ko‘p hukmronlik qilgan Afrig‘iylar sulolasi tarixini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif tomonidan bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston, balki dunyo tarixshunosligida dolzarb hisoblangan mavzuga qo‘l urilgan. Tadqiqotchi tomonidan ishda birlamchi manbalar va turli tillardagi adabiyotlarning keng ko‘lami jalb etilgan. Shuningdek, tarixshunoslik va manbashunoslik ilmining oxirgi yutuqlaridan ishda keng foydalanilgan.

Monografiyada Xorazm tarixining III-X asrlar davri tarixiga oid yozma manbalar va ularning tadqiqotlarga jalb etilish holati, xususan milliy tarixshunoslikda bugungi kungacha yetarlicha o‘rganilmagan pahlaviy, suryoniy va arman tillaridagi manbalar ma’lumotlari ilk marta tadqiqot tahliliga tortilgan. Shuningdek, o‘tgan asrning 30-yillaridan hozirgi kungacha olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari asosida afrig‘iylar sulolasi tarixiga oid ilmiy yondashuvlar, talqinlar va xulosalar tadrijiy rivojlanib, boyib borishi hamda sulola tarixiga oid bilimlar rivoji yoritilgan.

Bundan tashqari, afrig‘iy hukmdorlar ismlari, entik mansubligi hamda sulolaning sosoniylar, eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, tohiriylar va somoniylar davrida siyosiy maqomi kabi masalalarda tadqiqotchilarning izlanishlar, masala yuzasidan olimlarning xulosa va yondashuvlar keng va har tomonlama tahlil etilibgina qolmasdan, muallifning o‘z qarashlarini ham ilgari surilganligini alohida e’tirof etish mumkin.

Abdalov Umidbek Matniyozovich,
Tarix fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor

Afrig‘iylar sulolasi, Xorazmni uzluksiz ravishda yetti asr davomida boshqargan bo‘lib, insoniyat tarixidagi eng uzoq yashagan

va eng sirli siyosiy tuzumlardan biridir. Afrig‘iylar davrida Xorazm Markaziy Osiyoning siyosiy va harbiy kuchlar dinamikasining ajralmas qismiga aylandi, Buyuk Ipak yo‘li hamda Mo‘yna yo‘lining xalqaro savdo markazida turdi va sivilizatsiya taraqqiyotiga muhim hamda bebaho hissa qo‘shdi. Shunday darajadaki, insoniyat va ilm-fanni yuksaltirishga xizmat qilgan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ko‘plab mutafakkirlar, olimlar, shoirlar va mualliflar aynan Afrig‘iylar homiyligida Xorazmda voyaga yetgan. Jumladan, Abu Ja’far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Biruniy, Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq, Abu Bakr Muhammad ibn Abbos al-Xorazmiy kabi allomalar ana shu sulola homiyligida kamol topganlar.

Mardonbek Kosimboy o‘g‘li Rajapov Xorazm tarixi yo‘nalishida chop etgan ilmiy maqolalari orqali o‘ziga e’tibor qaratdi va istiqbolli yosh tarixchi sifatida ajralib turadi. Xorazm tarixi haqida tadqiqot olib borayotgan olim sifatida men uning “Afrig‘iylar sulolasi davri tarixshunosligi (XIX–XX asrlar tadqiqotlarining tahlili – XXI asrning 20-yillarigacha)” nomli monografiyasini mamnuniyat bilan qabul qilaman.

Xorazm mintaqasi o‘tmishdan beri tarix, arxeologiya, antropologiya, tizimli va kasbiy ilmiy yo‘nalishlarda ishlaydigan tadqiqotchilar uchun haqiqiy ilmiy laboratoriya vazifasini o‘tab kelgan. XIX asrdan boshlab ushbu hudud bo‘yicha izchil va professional tadqiqotlar uzluksiz davom etmoqda. Turli davlatlardan kelgan ko‘plab tadqiqotchilar Xorazm tilshunosligi, tarixi, madaniyati, geografiyasi va sivilizatsiyasiga oid keng ko‘lamli ilmiy meros yaratishga hissa qo‘shganlar.

Ushbu adabiy merosni tarixshunoslik nuqtayi nazardan tekshirish va baholash Xorazmda Afrig‘iylar sulolasi davriga oid tarixiy-akademik muammolarni mavjud kontekstda aniqlash, ilmiy tadqiqotlarga yangi nafas olib kirish, kelajak izlanishlariga yo‘nalish berish, yangi tadqiqotchilarga tizimli va puxta bilim asosini yaratish, ularning ilmiy salohiyatini mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, Afrig‘iylar davri bo‘yicha mustaqil va kompleks ilmiy tadqiqot hali keng miqyosda amalga oshirilmaganligi, mazkur mavzudagi adabiyotlarning ilk bor chuqur ilmiy tahlil qilinishi Rajapov Mardonbek monografiyasini ilmiy ahamiyatini yanada

oshiradi. Ushbu tadqiqot nihoyatda zarur, amaliy jihatdan muhim va qimmatlidir.

Aykut O‘zbayraktar,
Tarix fanlari doktori, professor
Amasya Universiteti, Turkiya

Ilk o‘rta asrlar O‘zbek davlatchiligi tarixi, shuningdek, Xorazm o‘lkasi tarixi Afrig‘iylar sulolasi davrini chuqur o‘rganilmasdan to‘liq bo‘lmaydi. Ushbu monografiya aynan shu muhim bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan fundamental tadqiqotdir.

Bugungi kunda Afrig‘iylar sulolasining mavjudligi tarixiy matn va rivoyatlarga, arxeologik va numizmatik kashfiyotlarga asoslanib, ilmiy doiralarda keng qabul qilingan. Mavjud ma’lumotlarning parokandaligi Xorazm tarixini tadqiq qilishda jiddiy qiyinchiliklar tug‘dirgan bo‘lsa-da, muallif ushbu qiyinchiliklarni muvaffaqiyat bilan yengib o‘tgan. Xorazmning qadimiy davri bilan islom davri o‘rtasidagi chegara sifatida aynan Afrig‘iylar sulolasining tugashi to‘g‘ri belgilangan.

Xorazm Buyuk Xurosondan shimolda eng sirli va afsonaga boy mintaqadir. Uning Eron bilan sharqiy chegaradoshlik madaniy o‘ziga xosligini ta’kidlaydi. Numizmatika, epigrafika, tilshunoslik va arxeologiya yordamida muallif afsona bilan qoplangan bu davrni ilmiy jihatdan yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Ayniqsa, Afrig‘iylar sulolasi, Oli-Iroq xonadoni, Ma’mun davridagi Afrig‘ va keyingi Xorazmshoh turklari o‘rtasidagi tub farqlar aniq ko‘rsatib berilgani alohida e’tirofga loyiq.

Mihail Fedorov va Edmund Bosvort singari ba’zi tadqiqotchilar Afrig‘iylar mavjudligini shubha ostiga qo‘ygan bo‘lsalar-da, “Osor ul-boqiya” kabi manbalar, topilgan tangalar va xorazm yozuvlarning Qutayba ibn Muslim buyrug‘i bilan yo‘q qilinishi kabi tarixiy faktlar bu sulolaning haqiqiy mavjudligini shubhasiz isbotlaydi. Muallif ushbu dalillarni tizimli ravishda yig‘ib, ilmiy muhokamaga qo‘ygan.

Mazkur monografiyada Xorazmning “yo‘qolgan” davri siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ilk bor yaxlit tahlil qilingan. Turli tillardagi (xitoy, vizantiya, pahlaviy, arman, suryoniy, arab, fors) manbalar chuqur va kontekstli o‘rganilgan. Arxeologik va numizmatik materiallar keng jalb etilib, yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Tadqiqot fanlararo xarakterga ega bo‘lib, zamonaviy metodologiyaga asoslangan. Sosoniylar davrida Eronning Xorazm ustidagi ta’siri va vassallik munosabatlari aniq dalillar bilan isbotlangan.

XX asr sovet marksistik qoliplaridan chiqib, yangi avlod tadqiqotchilarining yondashuvlari asos qilib olingan. Boshqa tadqiqotchilar e’tiborsiz qoldirgan xitoy manbalari ilk bor tizimli ravishda ishlatilgan. Pahlaviy, suryoniy va arman manbalari o‘zbek tarixshunosligida ilk bor shu darajada keng qamrovda jalb etilgan.

Ushbu monografiya o‘zbek tarixshunosligida yangi bosqich boshlab berganini e’tirof etish mumkin. Kelajakda Afrig‘iylar sulolasi va umuman ilk o‘rta asrlar Xorazm tarixi bo‘yicha yoziladigan har qanday jiddiy ish mazkur monografiyaga murojaat qilmasdan imkonsizdir.

Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘lining “Afrig‘iylar sulolasi davri tarixshunosligi (XIX asr – XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili)” nomli monografiyasi O‘zbek davlatchiligi tarixi uchun chinakam muhim voqea bo‘ldi. Ushbu monografiyaing chop etilishi yosh olimning katta g‘alabasi sifatida baholash mumkin.

Javad Heraviy,
Tarix fanlari doktori, professor
Islom Ozod universiteti, Eron

Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi siyosiy va madaniy qiyofasini to‘liq anglash, eng avvalo, bu mintaqa taqdiriga yo‘nalish bergan Afrig‘iylar sulolasini har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etadi. Qariyb yetti asr davomida hukmronlik qilgan ushbu sulola nafaqat Xorazmning ichki siyosiy tizimini shakllantirgan, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining keyingi taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Shunga qaramay, Afrig‘iylar davri hali ham tariximizdagi eng murakkab, ko‘p pardalangan va manbalari eng qiyin qo‘lga kiradigan bosqichlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu monografiya aynan shu tumanli davrni ilmiy asosda yoritishga qaratilgan, uzoq yillardan beri kutib kelingan dolzarb ilmiy izlanish natijasidir.

Bugunga qadar Afrig‘iylarga oid ma’lumotlar rivoyatlarning tarqoq bo‘laklari, numizmatik topilmalar, turli xalqlarga mansub qisqa yozma eslatmalar va arxeologik ishoralar orasida sochilib yotardi. Shu sababli davrga oid tasavvurlar ba’zan haddan tashqari afsonaviy

shaklda, ba’zan esa umuman inkor qilinadigan tarzda talqin etilgan. Fedorov va Bosvort kabi ayrim olimlarning Afrig‘iylar mavjudligining o‘zini shubha ostiga olishlari ham aynan shunday parokandalik oqibatidir. Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘li turli tillardagi birlamchi manbalarni jamlab, ularni izchil, qat’iy ilmiy mezonlar asosida tahlil qilgani bilan ushbu bahsga yangi ilmiy nafas berdi va Afrig‘iylarning tarixiy o‘rnini aniq, asosli ravishda ko‘rsatib berdi.

Asarning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, unda Xorazmning mazkur “o‘tish davri” siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar bilan uyg‘un holda, yaxlit tarixiy jarayon sifatida tahlil etilgan. Xitoy yilnomalari, Vizantiya xronikalari, pahlaviy va suryoniy manbalar, arab va fors tarixchiligi hamda arxeologik topilmalar ilk bor ana shunday keng qamrovda bir butun holda o‘rganilgan. Natijada, nafaqat sulolaning siyosiy tarixi, balki davrning xalqaro munosabatlari, madaniy ta’sirlashuvlari va mintaqaviy kuchlar muvozanati ham puxta ilmiy asosga qo‘yilgan.

Mavzuning o‘zagini tashkil etgan masalalardan biri – Sosoniylar va Xorazm o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarning aniq dalillar asosida ochib berilishidir. Bu yo‘sinda monografiya Afrig‘iylarning kelib chiqishi, hokimiyat tizimi va ularning davlat sifatida shakllanishi borasidagi ko‘plab mavhumliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek, Oli- Iroq, Ma’muniylar hamda keyingi Xorazmshohlar tarixining ayrim nuqtalarda Afrig‘iylar bilan adashtirib yuborilishiga sabab bo‘lgan qarashlar ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqilib, tarixshunoslikdagi jiddiy chalkashlik bartaraf etilgan.

Muallifning avvalgi tadqiqotchilar tomonidan yuzaki tilga olingan, ammo izchil tahlil qilinmagan Xitoy manbalarini markaziy o‘ringa qo‘ygani esa tadqiqotning eng yirik ilmiy yutuqlaridan biridir. Aynan shu manbalar orqali Afrig‘iylar davrining xalqaro diplomatiyasi, mintaqaviy aloqalari va geosiyosiy pozitsiyasi butunlay yangi ravishda qayta tiklangan.

Mazkur monografiya faqat bir sulola tarixini bayon qilish bilangina cheklanmaydi. U Xorazm tarixshunosligining metodologik yangilanishi yo‘lida muhim bosqichdir. U ma’lumotlarni yagona tizimga keltirgani, eskirgan talqinlarni tanqidiy qayta baholagani va yangi avlod tadqiqotchilari uchun mukammal ilmiy asos yaratgani uni yaqin yillarda Afrig‘iylar va ilk o‘rta asrlar Xorazm tarixiga oid har qanday jiddiy izlanish uchun yo‘l ko‘rsatadigan qo‘llanma darajasiga chiqadi.

Xorazm tarixining ko‘pincha “soyalarda” qolib ketgan ushbu murakkab qismiga ilmiy mas’uliyat, chuqur tarixiy idrok va teran tadqiqot madaniyati bilan “yorug‘lik” bergani uchun Rajapov Mardonbek Qosimboy o‘g‘lini chin dildan tabriklayman. Uning bu asari nafaqat o‘zbek tarixshunosligi, balki keng ma’nodagi turkiy-islom sivilizatsiyasi tadqiqotlari uchun ham muhim ilmiy yutuqdir.

Murat ÖZKAN
Tarix fanlari doktori, professor
Ordu universieti, Turkiya

O‘rta asrlar, xususan uning ilk davrini tarixshunoslik jihatidan o‘rganish murakkab bo‘lib, bu sohada O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar kam uchraydi. Shunga qaramay, ushbu davrni ilmiy asosda o‘rganish tarix fani uchun nihoyatda dolzarb va milliy tarixni chuqur anglash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Mardonbek Rajapovning “Afrig‘iylar sulolasi davri tarixshunosligi (XIX–XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili)” nomli monografiyasi aynan shunday kam sonli tadqiqotlardan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo ilk o‘rta asrlar tarixiga oid manbashunoslik va tarixshunoslik muammolarini kompleks ko‘rib chiqishi bilan ajralib turadi. Asar Afrig‘iylar sulolasining siyosiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy-urbanistik jarayonlari va ularning o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rniga oid ilmiy merosning XIX asr oxiridan to bugungi kungacha bo‘lgan tadqiqotlar kontekstida tahliliy sintezini taklif etadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, avvalo, manbashunoslikka yondashuvda namoyon bo‘ladi. Muallif 10 ga yaqin turli tillardagi manbalarini mafkuraviy kontekst va yaratilish sharoitlari bilan birgalikda tahlil qilib, mavjud tarixshunoslikdagi yondashuvlar va sovet davrida shakllangan ilmiy qarashlarning zaif metodologik asoslarini ochib beradi. Xususan, Xorazmning VI-VIII asrlardagi xalqaro aloqalarini ifodalovchi elchiliklar, Menandr Protektor asaridagi siyosiy mazmun va “Afrig‘” atamasining kelib chiqishi bo‘yicha taklif etilgan talqinlar, mavjud konsepsiyalarga muhim tuzatishlar kiritadi.

Arxeologik va numizmatik materiallarning tahlili bo‘limida muallif S.P. Tolstovdan boshlangan davrlashtirish an’anasining o‘zgarish bosqichlarini, undagi paradigmatik cheklanishlarni va

zamonaviy tadqiqotlarda yuzaga kelgan yangi ilmiy qarashlarni tizimli ravishda ko‘rsatib beradi. Xususan, numizmatikadagi nomlarning o‘qilishi, Beruniy rivoyat qilgan shajara bilan numizmatik dalillar o‘rtasidagi nomuvofiqlik, VI asrdagi inqirozning ichki va tashqi omillar bilan bog‘liqligi haqidagi bahslar zamonaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilgan.

Monografiyaning metodologik ustuvorligi – qiyosiy-tarixiy, sivilizatsion, manbashunoslik va fanlararo (arxeologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik) yondashuvlarning uyg‘un qo‘llanganidadir. Bu esa Afrig‘iylar davrini nafaqat siyosiy tarix doirasida, balki iqtisodiy tizim, mulkchilik shakllari, shaharlashuv, savdo-sotiq, diniy tasavvurlar va etnik jarayonlar bilan birgalikda kompleks ko‘rib chiqishga imkon yaratgan.

Tadqiqotning tarixshunoslikdagi yangiligi, avvalo, XIX-XXI asrlar davomida shakllangan konsepsiyalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishdadir. Muallif milliy va xorijiy adabiyotlarda uchraydigan eroniy yoki turkiy etnogenez haqidagi bahslarning mafkuraviy ildizlarini ochib beradi hamda mavjud dalillarni qayta baholash zarurligini ilmiy asoslaydi. Sulolaning siyosiy maqomi, unvonlar tizimi va regional geosiyosatdagi o‘rni bo‘yicha keltirilgan xulosalar mazkur mavzuni yangi ilmiy bosqichga ko‘taradi.

Umuman olganda, mazkur monografiya Afrig‘iylar sulolasi tarixiga oid tarixshunoslikni to‘laqonli ravishda qamrab olgan birinchi fundamental tadqiqotlardan biri sifatida e’tiborga loyiqdir. Asarning ilmiy xulosalari, qo‘llangan metodologiyasi va ko‘tarilgan nazariy muammolarning dolzarbligi uni tarixchi olimlar, manbashunoslar va tarixshunos mutaxassislar uchun muhim namuna deb, ta’kidlash imkonini beradi.

Tarixshunos-olim Mardonbek Rajapovni ushbu monografiyasi nashr etilayotganligi bilan tabriklab, kelajakdagi ilmiy rejalarini amalga oshirishda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

Jamshid Xasan o‘g‘li Adilov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Milliy arxeologiya markazi Fanlararo tadqiqotlar
bo‘limi katta ilmiy xodimi, PhD

Ushbu monografiya meni tarbiyalagan,
ilm yo‘lida doim qo‘llab-quvvatlagan aziz
bobojonim Eshnazarov Rajapboyning yorqin
xotirasi va buvijonim Sobirova Sunaga bag‘ishlanadi

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni har bir xalqni o‘z milliy davlatchiligi an’analari yutuqlaridan foydalanish, uni avaylab-asrash hamda rivojlantirishdek ustuvor vazifalarni qo‘ymoqda. Zero, mintaqadagi sulolalarning siyosiy tizimlari, tarixan shakllangan davlat boshqaruvi tajribasi zamonaviy jamiyatda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, o‘zbek davlatchiligi tarixida eng ko‘p hukmronlik qilgan sulolalardan biri hisoblangan afrig‘iylar sulolasi tarixi mintaqada yuz bergan hodisalar, ayniqsa, madaniy taraqqiyot fenomenining ko‘plab jihatlarini ochib berishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonning bir qator ilmiy tadqiqot-markazlari va oliy ta’lim muassasalarida afrig‘iylar sulolasi tarixi, xususan, uning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarini tadqiq etish, sulolaning etnik mansubligini aniqlash, sosoniylar, eftaliylar, Turk xoqonligi davridagi siyosiy maqomini o‘rganish, Arab xalifaligining Xorazmni bosib olganidan keyin yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni ochib berish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, mintaqaning 600 yillik tarixida katta o‘rin tutgan afrig‘iylar sulolasi tarixiga doir atamalar, jumladan “Afrig‘” atamasining kelib chiqishini chuqur tahlil etish, afrig‘iy hukmdorlarining ismlarini tilshunoslik jihatidan tadqiq etilishiga baho berish, tanga zarb qilish va tashqi savdoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri masalalariga aniqlik kiritish, Xorazmshohlar tomonidan ishlatilgan unvon turlari va ularning tarixiy voqeyliklar bilan bog‘liqligi hamda sulola tarixining o‘zbek davlatchiligi shakllanishida tutgan o‘rni va rolini tarixiy nuqtayi nazardan ko‘rsatib berish masalalari o‘z yechimini kutmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish, tarix fani sohasida, ayniqsa, kam o‘rganilgan, ammo mintaqa hayotida

alohida o‘rin tutgan davrlar tarixi yuzasidan amalga oshirilgan yirik izlanishlarni tashkil etish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda ushbu masala bo‘yicha ishlarni yangi sifat bosqichiga chiqarish maqsadida “Xorazm tarixini eng qadimgi davrdan boshlab yilma-yil o‘rganib, odamlarga sodda tilda tushuntirishni yo‘lga qo‘yish”[1] masalasi tarixchilar oldiga maxsus vazifa sifatida qo‘yildi. Shu jihatdan, mazkur monografiya doirasida afrig‘iylar davri tarixi aks etgan yozma manbalarni arxeologik tadqiqotlar hamda milliy va xorijiy tarixshunoslikdagi xulosalar bilan qiyoslab tadqiq etish, nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasi tarixini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitish imkonini beradi.

Monografiya XIX asrning ikkinchi yarmidan XXI asrning 20-yillarigacha bo‘lgan tadqiqotlarni tahlil qilish orqali sovet davridagi mafkuraviy cheklovlarni tarixshunoslik nuqtai nazardan ko‘rsatish bilan birga yangi arxeologik topilmalar asosida xulosalar chiqarishga qaratilgan. Bu orqali afrig‘iylar sulolasining Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni yangicha ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rsatishga harakat qilingan.

Shuningdek, tadqiqotda xitoy, vizantiya, arman, suryoniy, pahlaviy va arab-fors manbalarining mafkuraviy konteksti chuqur tahlil qilinib, ularning obyektivligi baholangan.

Monografiyaning maqsadi – afrig‘iylar sulolasi davri tarixshunosligini tizimli ravishda o‘rganish, mavjud manba va adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish orqali yangi ilmiy xulosalar taklif etishdir. Tadqiqot jarayonida 28 ta yozma manba va 274 ta ilmiy adabiyot tahlil qilinib, sovet davri va mustaqillik yillaridagi yondashuvlar qiyoslangan. Natijada, sulolaning siyosiy maqomi, etnik mansubligi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti masalalariga oid noto‘g‘ri talqinlar inkor etilib, yangi dalillar asosida to‘ldirilgan.

Har bir bobda tadqiqotlarning rivojlanish bosqichlari, asosiy xulosalar, konseptual yondashuvlar va tanqidiy baholar berilgan. Ushbu yondashuv orqali monografiyada afrig‘iylar sulolasi tarixini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Iqtisodiyotni innovatsiyalarni keng jalb etgan holda har tomonlama rivojlantirish – xalq farovonligini yuksaltirishning muhim omili”ga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi // www.gazeta.uz/uz/2018/11/29/turizm/

yangi ilmiy darajada yoritishga qaratilgan bo‘lib, u kelajakdagi tadqiqotlar uchun poydevor yaratadi.

Mazkur monografiya Afrig‘iylar sulolasi tarixini tarixshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilish orqali mintaqa tarixini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitishga, sovet davridan hukmron bo‘lgan bir tomonlama talqinlarni inkor etishga va Markaziy Osiyodagi qadimiy davlatchilik an’analarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

I BOB. AFRIG‘IYLAR DAVRI AKS ETGAN YOZMA VA MODDIY MANBALAR TADQIQI

§ 1.1. Yozma manbalarning tadqiqotlarga tortilish qamrovi: tahlil va talqin

Tarixiy manbalar o‘tmishdagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, tarixiy haqiqatni tiklashda muhim rol o‘ynaydi. Ular katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olsa-da, har doim ham xolis va obyektivlik nuqtayi nazaridan yoritilmagan. Shu sababli, manbalar va adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish orqali tarixiy jarayonlarni xolis va to‘liq baholash imkoniyati yaratiladi.

O‘zbek davlatchiligi tarixida eng ko‘p hukmronlik qilgan sulolalardan biri – afrig‘iylar sulolasi davri tarixini o‘rganishdagi muammolar yozma manbalarning kamligi va ulardagi ma’lumotlarning biri-biriga zid kelishi bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, sulola tarixini to‘liq tadqiq etish uchun arab va fors manbalaridan tashqari, xitoy, pahlaviy, arman va suryoniy manbalarini o‘rganish va ulardagi bugungi kungacha ilmiy muamolaga kirtilmagan ma’lumotlarni aniqlash, manbalarni o‘zaro qiyosiy tahlil qilish zaruriyati mavjud.

Afrig‘iylar sulolasining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda 300 dan ortiq ishlar tahlil qilinganida, tadqiqotchilar 28 ta manbadan foydalanganliklari ma’lum bo‘ldi.

Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixiga oid manbalarni guruhlashtirish T. Matyoqubov, A. Ro‘zimovlarning risola va maqolalarida hamda A. Otaxo‘jayev, Q. Masharipov, M. Abdullayevlarning “O‘zbekiston tarixi” (XI jild) asarida alohida paragraf sifatida kiritilgan “Ilk o‘rta asrlarda Xorazm” nomli qismda bu manbalar ikki guruhga ajratilgan: 1) V-VII asrlar Vizantiya va Xitoy manbalari; 2) VIII-XIIIasrlarda arab-fors manbalari [2] . Tadqiqotchilar o‘zlari guruhlarga ajratgan manbalar masalasida fikr

[2] Matyoqubov T. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligi tarixi. – Chisinau: GlobeEdit, 2020. – B. 5; Ro‘zimov A. IV–X asrlarda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixi // Journal of Universal Science Research. –2023. – № 6. – B. 584–587.; Otaxo‘jayev va b. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm.O‘zbekiston tarixi. XI jild / Mas’ul muharrir Sagdullayev A.S. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 147.

bildirishib, birinchi guruh manbalaridagi ma’lumotlarning kamligi va noaniqligini ta’kidlab, ularning tarixiy tadqiqotlar uchun yetarli darajada emasligini ayrim masalalar misolida ko‘rsatishga harakat qilganlar. Ikkinchi guruh manbalarda esa Xorazmning siyosiy, iqtisodiy tarixiga oid muhim ma’lumotlar mavjudligi, biroq bu manbalarni arxeologik, numizmatik manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish zaruriyati mavjudligi bilan izohlaganlar. Ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarida Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixiga oid u yoki bu darajadagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan pahlaviy, arman va suryoniy yozma manbalariga deyarli e’tibor berilmagan.

Bugungi kungacha ilmiy muomalaga tortilgan manbalar yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning yutuq va kamchiliklaridan kelib chiqib, Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixiga doir yozma asarlarni tiliga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: 1) Xitoy tilida yozilgan manbalar; 2) Vizantiya manbalari; 3) Pahlaviy manbalari; 4) Arman tilidagi manbalar; 5) Suryoniy manbalari; 6) Musulmon manbalari (arab va fors tilida yozilgan manbalar). Manbalarning tili aslida ular muomalada bo‘lgan mamlakatning nuqtayi nazarini, ya’ni u yerda Xorazmga bo‘lgan munosabat, bu hudud haqida shakllangan tasavvur va tushunchalarni aks ettiradi. Shu jihatdan guruhlarga ajratilgan manbalarni qiyosiy tahlil qilish orqali bir xil voqealarning turlicha talqinlarini aniqlash, manbalarning xolisligini baholash imkonini oshirib, yangi tadqiqot yo‘nalishlarini ochib berishi mumkin.

I. Xitoy tilida yozilgan manbalar. Tadqiqot jarayonida Xitoy manbalarining o‘rganilish holati hamda qamrovini ko‘rsatish maqsadida xitoylik olimlar tomonidan chop etilgan fundamental asarlarining ingliz, rus va boshqa tillardagi tarjimalaridan keng foydalanildi.

Xitoy manbalaridan 1) Vey shu (Vey sulolasi tarixi), 2) Da Tan Si Yuy Szi (Tan imperiyasining G‘arbiy hududlari bo‘yicha sayohat hisobotlari), 3) Szyu Tang shu (Tan sulolasi eski tarixi) va 4) Sin Tan shu (Tan sulolasi yangi tarixi) kabi manbalarda afrig‘iylar sulolasi tarixi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan[3]. Biroq mazkur manbalardagi

[3] Vey shu 551–553-yillarda Vey Shou yozib tugatgan. Datan Siyu Szi 12 jildni o‘z ichiga olib, jami 138 mamlakatning hududi va poytaxti, geografiyasi, qishloq xo‘jaligi, savdo, urf-odatlar, til, yozuv, pul, din va boshqalar haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Muallif 627–645-yillarda ko‘plab hududlarga sayohat qilib, ko‘pincha o‘zi ko‘rgan voqealarni yozgan. Asar buddist rohibi Syuan Szyan (596–664-yillar) 646-yilda Tan imperatori Tayzongning taklifiga

tarixiy ma’lumotlar Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixini yoritishda juda qisqa va noaniq bo‘lib, ularda asosan elchilik va savdo aloqalari, Xitoydan Xorazmgacha bo‘lgan masofa, Xorazmning boshqa hududlar bilan chegaralari va tabiati haqida ma’lumotlar qayd etilgan. Xususan, “Tan shu”da Xorazm Vuhu (Amudaryo) daryosining janubida joylashganligi, janubi-sharqda Shudi(Betik)dan 600 li uzoqlikda, janubi-g‘arbda esa Kesagacha (Xazar) cho‘zilganligi keltirilgan. Shu bilan birga keltirilgan manbada Xorazm xalqi “Xu” nomi bilan atalgan. Bundan tashqari, Tianbao davrining o‘ninchi yilida (750/751), Huoliximijia (Xorazm) hukmdori Shaoshifen (Shoushafar) Xitoy saroyiga qora tuz sovg‘a qilish uchun elchilar yuborgani, Baoying yilida (762) uning elchilari yana kelishgani qayd etilgan[4].

Afrig‘iylar davri haqida ma’lumot beruvchi xitoy manbalari ham o‘rta asrlar Xitoy hukumati bosh mafkurasini tashkil etgan *sinotsentrizm*[5] va *“samoviy mandat”* konsepsiyasini[6] ifodalaydi. Unga ko‘ra, dunyoning markazi hisoblangan Xitoyning imperatori ilohiy qudratga ega (samo-osmon tomonidan tanlangan) hukmdor, boshqa davlatlardan kelgan elchilar hamda ular keltirgan sovg‘a-salomlari esa tobelik (o‘lpon) belgisi sifatida qabul qilingan[7]. 645–755-yillarda Xitoyga tashrif buyurgan Xorazm elchi va savdogarlarining sovg‘a-

binoan yozib tugatilgan. Szyu Tan shu 941–945-yillarda Liu Syu va Shi Jinlar tomonidan yozilgan. Sin Tan shu 1045–1060-yillarda Ouyan Syu va Song Qilar tomonidan yozilgan.

[4] Ying L. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm // Archivum Eurasiae Mediiaevi. – 2000. – №11. –P. 340–341.

[5] Sinotsentrizm – Xitoyning o‘zini dunyoning markazi va boshqa davlatlarga nisbatan o‘z tarixi, madaniyati va siyosiy tizimida ustun deb bilish konsepsiyasidir. Sinotsentrizm ko‘pincha Xitoyning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarida, xususan, o‘lpon tizimi va “Samoviy mandat” konsepsiyasi orqali namoyon bo‘lgan.[https://www.newworldencyclopedia.org/entry/Sinocentrism] Murojaat sanasi 15.08.2024.

[6] Samoviy mandat konsepsiyasi – Xitoyda hukmronlik qilgan imperator yoki sulolaning hokimiyatini qonuniylashtirish uchun ishlatilgan qadimiy Xitoy falsafasi va siyosiy ideologiyasidir. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, Osmon (yoki Koinotning oliy kuchi) adolatli va xalqparvar hukmdorlarni Xitoyni boshqarish uchun tanlaydi [https://www.worldhistory.org/Mandate_of_Heaven/] Murojaat sanasi 15.08.2024.

[7] Pankenier D. The cosmo-political background of Heaven's Mandate/ Early China. Vol.20. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 123–124; Feng L. Bureaucracy and the State in Early China. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – P. 26–27; Dingxin Zh. The Mandate of Heaven and performance legitimation in historical and contemporary China // American Behavioral Scientist. – 2009. – №53. – P. 420–424.

salomini ham Xitoy hukumati o‘ziga o‘lpon (tribut) sifatida qabul qilganligi tadqiqotlarda keltirilgan[8].

Xorazm hududi va uning aholisi haqidagi tasavvurlar Xitoyga tashrif buyurgan elchilar bilan o‘tkazilgan savol-javoblar hamda Turkistonga yuborilgan Xitoy sayyohlarining ko‘rgan-kechirganlari orqali hosil bo‘lgan. Xitoyda xorijiy davlatlarning vakillarini kutib oluvchi rasmiy vakil va tarjimon odatda mehmonlardan savdogar yoki elchi davlatining nomi, Xitoygacha bo‘lgan masofa, vassal davlatlar va shaharlar, ulardagi aholi soni hamda savdo mahsulotlari kabi savollarni aniqlashga harakat qilgan[9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 50 ga yaqin tadqiqotchilar masalaning u yoki bu jihatlarini yoritishda Xitoy manbalaridan foydalanishgan. Albatta, ulardan foydalanishda mafkuraviy jihatlarni hisobga olish lozim va bu borada D. Pankenir, S. Yunlin, S. Allan, L. Feng, Ch. Dinsin kabi olimlar o‘z ilmiy asarlarida Xitoy manbalaridan foydalanish jarayonida mafkuraviy jihatlarning tahliliga alohida e’tibor qaratish, ularni tanqidiy nuqtayi nazardan baholash hamda tadqiqot davomida obyektivlik va xolislik prinsiplariga qat’iy rioya qilishni ta’kidlab o‘tganlar[10].

Xitoy manbalarining mafkuraviy jihati bilan bog‘liq kamchiliklariga qaramay eng qadimgi yozma manba sifatida e’tirof etgan qator olimlar avvalo, ularning ayrim qismlarini rus, ingliz, fransuz nemis va yapon tillariga tarjimalarini amalga oshirishgan. Xususan, 1952-yilda yaponiyalik sinolog I. Miyadzaki “Vey shu”ning ayrim boblarini yapon tiliga tarjima qilgan. Amerikalik sinolog A.E. Diyen 59-bobining bir qismini, Jen-Der Li 111-bobining bir qismini ingliz tiliga tajrima ishlarini amalga oshirganlar[11]. Olimlar

[8] Ying L . Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm… – P. 342–345.

[9] Hirth F. China and the Roman Orient. – Munich/Shanghai: Georg Hirth /Kelly and Walsh, 1885. – P. 28–29.

[10] Pankenier D. The cosmo-political background of Heaven's Mandate… – P. 123–124; Yonglin J. The Mandate of Heaven and The Great Ming Code / Asian Law Series.Washington: University of Washington Press, 2011. – P. 3–8; Feng L. Bureaucracy and the State in Early China…. – P. 26–27; Allan S. On the identity of Shang Di and the origin of the concept of a Celestial Mandate Early China. Vol.31. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 1–46. Dingxin Zh. The Mandate of Heaven and Performance Legitimation … – P. 420–424.

[11] Dien A.E. The Disputation at Pengcheng: Accounts from the Wei Shu and Song Shu. Early Medieval China. Robert Ford; Lu, Yang; Choo, Jessey (eds.). – New York: Columbia University Press, 2014. – P. 57–84; Lee, Jen-Der. Crime and Punishment: the Case of Liu Hui

manbaning ishonchliligi xususida fikr bildirib, undagi ma’lumotlar imperatorga berilgan rasmiy hisobotlardan olinganligini keltirishgan. Shuningdek, manbadagi ma’lumotlar to‘liq mafkuruviylashganligi, geografik joy nomlari va ularning joylashuvida bir qator tafovutlar borligi kabi salbiy tomonlarni ham qayd etishgan. Keyingi manba – “Da Tan Si Yuy Szi”ning birinchi Yevropadagi tarjimasi 1857-yilda S. Jyulen tomonidan nashr etilgan. Uning fransuzcha tarjimasida xitoycha ismlar, geografik nomlar va ularning joylashuvi bo‘yicha xato va kamchiliklar kuzatilsa-da, keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini yaratgan[12]. 1884–1886-yillarda S. Bil mazkur manbaning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Uning tarjimasida S. Jyulen tomonidan geografik nomlar tarjimasi va uning joylashuvi bo‘yicha xato hamda kamchiliklar ko‘rsatilib, nomlarning atalishi bo‘yicha boshqa variantlar taklif etilgan[13]. Biroq T. Uotters 1904 va 1905-yillarda manbaning ikki jildini nashr etib, S. Bil tarjimasini keskin tanqid qiladi[14]. Mazkur manba 1998-yilda Tayvanda tashkil etilgan “CBETA” Assotsiatsiyasi tomonidan 2006-yilda to‘liq ingliz tilida ayrim o‘zgartirish, qo‘shimcha va sharhlar bilan nashr etildi[15]. 2012-yilda mazkur manba N.V. Aleksandrova tomonidan ilk marta to‘liq rus tiliga tarjima qilingan[16].

Masalaga tegishli dastlabki tadqiqotlar XVIII asrning 40-yillarida fransuz sharqshunosi J. Degin tomonidan olib borilgan bo‘lib, tadqiqotchi o‘zining “Xunlar va turklarning kelib chiqishi haqida tarixiy esdaliklar” risolasi hamda “Xunlar, turklar, mo‘g‘ullar va boshqa g‘arbiy tatarlarning umumiy tarixi” asarida xitoy manbalariga tayanib Turon tarixining qadimgi va o‘rta asrlar davri

in the Wei Shu. Early Medieval China. Robert Ford; Lu, Yang; Choo, Jessey (eds.). – New York: Columbia University Press, 2014. – P. 181–184.

[12] Julien S. Hiouen-thsang. Mémoires sur les contrées occidentales, traduit du sanskrit en chinoise, en l'an 648 par Hiouen-thsang et du chinois en français par. – Paris: À l’imprimerie impériale, 1857.

[13] Beal. S. Si-yu-ki. Buddhist Records of the Western World. London: Trübner, 1884–1886.

[14] Watters T. On Juan Chwang’s Travels in India (629–645 A.D.) – London – Delhi: Royal Asiatic Society, Munshi Ram Manohar Lal, 1904–1905.

[15] CBETA. Chinese Buddhist Electronic Text Association. Chinese Electronic Tripitaka Collection, 2006

[16] Александрова Н.В. Сюань-цзан. Записки о Западных странах [эпохи] Великой Тан: Да Тан си юй цзи. – Москва: Восточная литература, 2012.

bo‘yicha tadqiqot olib borgan[17]. Yana bir fransuz sharqshunosi A. Remusat xitoy manbalaridan foydalanib, Xorazm hukmdorlarining kelib chiqishi, ularning “Chjavou” sulolasiga bog‘liqligi, Xorazmning Xan, Vey va Suy sulolalari bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari kabi masalalarga to‘xtalib o‘tgan. Shu bilan birga, sharqshunos olim xitoy manbalarining yutuq va kamchiliklari borasida fikr bildirib, g‘arb tillariga tarjima ishlarida geografik joy nomlarida turli-xil versiyalarning mavjud ekanligi, ularning to‘liq tarjimasi hali amalga oshirilmaganligi kabi muammolarni qayd etgan[18].

Rus xitoyshunosligi asoschisi N.Y. Bichurin tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarning ilmiy qiymati bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda. Olimning 1851-yilda nashr etilgan va 1953-yilda qayta chop etilgan “Qadimgi davrda O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar haqida ma’lumotlar to‘plami” asosan miloddan oldingi II asrdan IX asrgacha bo‘lgan davr tarixini qamrab olib, xitoy manbalari orqali Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi[19]. Uning ikki jildi sovet davri tadqiqotlari uchun fundamental asar vazifasini bajarganligini ta’kidlash lozim. Keyinchalik uning tarjimalarida qator xato-kamchiliklar aniqlangan bo‘lsa-da, ulardan xabarsiz tadqiqotchilarning ishlarida mazkur nuqsonlar qaytarilganini kuzatish mumkin. Jumladan, V.V. Grigorev turon xalqlarining qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda, N.I.Veselovskiy Xorazmning tarixini yoritishda N.Y. Bichurin tarjimalariga suyanganlar[20]. XX asrning 20–30-yillarida va undan keyingi davrlarda V.V. Bartold, A.Y. Yakubovskiy, L.V. Bajenov, L.N. Gumilyov, B.G‘. G‘ofurov, O.I. Smirnova kabi tarixchilar xitoy manbalarining asliga emas, balki

[17] Guignes J de. Mémoire historique sur l’origine des Huns et des Turcs. – Paris, 1748; O‘sha muallif. Histoire générale des Huns, des Turks, des Mogols, et des autres Tartares Occidentaux. – Paris: Desaint & Saillant, 1756.

[18] Rémusat.A. Nouveaux mélanges asiatiques. – Paris: Schubart et Heideloff, 1829. – P. 226–229

[19] Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Санкт-Петербург, 1851; O‘sha muallif. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Москва–Ленинград: Издательство академии наук СССР, 1953.

[20] В.В. Григорьев. О скифском народе саках. – Санкт-Петербург: Типографія Императорской Академіи Наукъ, 1871. – С. 198–203; Н.И. Веселовский. Очерк историко-географический сведений о Хивинском ханстве. – Санкт-Петербург: тип. бр. Пантелеевых, 1877.

N.Y. Bichurin tarjimalariga tayanganlar[21]. Bu borada S.P. Tolstovning xizmatlari ham katta bo‘lib, o‘zining “Qadimgi Xorazm” monografiyasida N.Y. Bichurin, S. Jyulen va E. Shavan tarjimalarini xitoycha asl nusxa bilan taqqoslab, N.Y. Bichurin tarjimalarining shubhasiz afzalligi to‘g‘risida xulosaga kelgan[22].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida S. Bil, F. Xirt, E. Shavan kabi olimlar Xitoy manbalarida Xorazm va uning shaharlari nomi tilga olinganligini, xususan, “Chjavou” atamasining ham Xorazmga bog‘liqligini qayd etganlar. Ular bu ma’lumotlarni Turk xoqonligi davri bilan bog‘liq holda o‘rganib, Xorazmning o‘sha davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida muhim xulosalar chiqardilar. Bu tadqiqotlar Xorazm tarixini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab, Xitoy manbalarining bu boradagi ahamiyatini ko‘rsatib berdi[23].

Fransuz sharqshunosi P. Pelliotning 1938-yilda nashr etilgan “Xitoy matnlarida Xorazm nomi” maqolasi Xorazm nomining Xitoy matnlarida qanday yozilganligi va talaffuz qilinganligini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, Xorazm nomining xitoy manbalarida qanday kelishi, uning turli transkripsiyalari, fonetik o‘zgarishlarini tahlil qilgan va bu nomning Xitoy manbalarida qanday evolyutsiyada berilganini aniqlashga qaratilgan[24]. Muallif M. Benvenist, V. Henning, E. Shavan, G. Xaloun, E. Bretshnayder, de San-Martin va S. Jyulen tadqiqotlariga tayanib, Xorazm nomining Xitoy manbalaridan tashqari, sug‘d va fors tillaridagi yozilishlarining farqlarini aniqlab, bu nomning turli xil fonetik va geografik o‘zgarishlar bilan bog‘liqligini keltirib o‘tgan.

---

[21] Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Акад. наук СССР, 1927. – С. 7; Якубовский А. Ю. Развалины Ургенча. – ИГАИМК, 1930. – С. 5; Баженов В. Древние авторы о средней Азии. VI в. до н.э.. III в. н. э. – Ташкент: Государственное издательство научно-технической и социально-экономической литературы УзССР, 1940; Гумилёв Н. Хунну: Срединная Азия в древние времена. – Москва: Изд-во Восточной литературы 1960; Гафуров Б. Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. – Душанбе: Ирфон, 1989; Смирнова О.И. Тюркологические заметки. Титул жамук у тюрков // СНВ. – Вып. XI. – Москва: Наука, 1971.

[22] Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948. – С. 254–255.

[23] Beal S. Si-yu-ki, Buddhist records of the Western world. – London: Trübner, 1884. – P. 99; Hirth F. China and the Roman Orient. – Munich/Shanghai: Georg Hirth /Kelly and Walsh, 1885. – P. 28–29; Chavannes E. Documents sur les T’ou-kiue (Turcs) occidentaux / Bulletin de l'École française d'Extrême-Orient. – Année, 1904. – P. 136

[24] Pelliot P. Le nom du χwārizm dans les textes chinois // T'oung Pao. – 1938. – № 34. – P. 146–152.

Muammoga tegishli sovet davri tadqiqotlarida faqat “Tan shu” asariga murojaat qilishib, 751-yilda Xorazm hukmdori Shaushifin (Shaushafar) Xitoy saroyiga elchilar yuborilganligi, 762-yilda Baoin hukmdorligi davrida ikkinchi marta elchilik kelganligini qayd etish bilan cheklanishgan [25]. Z.V. To‘g‘on, X. Xaussig, O.I. Smirnova ishlarida N.Y. Bichurin va E. Shavan tarjimalariga tayanib, xitoy manbalarida aks etgan “Chjavou” atamasi bilan arab manbalaridagi “Jamuk” bilan bir xil ekanligini keltirib o‘tishgan [26]. Tadqiqotchi E. Volframning 1949-yilda nashr etilgan “Shimoliy Xitoyning Toubo imperiyasi” asari “Vey Shu” Xitoy yilnomasiga asoslangan bo‘lib, unda Toubo qabilasining etnik kelib chiqishi va uning turkiyligini izohlashga qaratilgan. Ushbu asarining yana bir muhim jihati shundaki, unda ilk o‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo davlatlari, xususan Xorazm haqida boshqa manbalardagi ma’lumotlar keltirilgan[27].

Xitoylik olimlar tomonidan qadimgi manbalarni nashr qilish hamda zamonaviy xitoy tiliga o‘girish ham tadqiq etilayotgan masalani o‘rganishda muhim bosqich hisoblanadi. 1930–1936-yillarda “24 sulolalari tarixi”ning Bainaben nusxasi Shangvu nashriyotida to‘liq nashr qilingan[28]. 1949-yilda Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) tashkil topgandan so‘ng, qadimgi Xitoy tarixini o‘rganish va uni keng ommaga yetkazishga katta e’tibor qaratildi. Buning natijasida “24 sulola tarixi” kabi muhim tarixiy asarlarni zamonaviy xitoy tiliga moslashtirish va nashr etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar boshlandi. Junxuashujuy tashkiloti bu loyihaning markaziga aylandi. Dastlabki to‘rtta tahrirlangan jild 1959-yilda nashr etildi. “Madaniy inqilob” davridagi to‘xtalishlarga qaramay, loyiha 1977-yilda 80 jildlik to‘plam bilan yakunlandi. 1997-yilda 20 jildlik miniatyura nashri, 2000-yilda 63 jildlik soddalashtirilgan nashri, 2011-yilda “100 yillik” yubileyga bag‘ishlangan 241 jildlik nashri, 2019-yilda “XXR tashkil

[25] Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948. – С. 188; O‘sha muallif. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. таржимон: А. Муҳаммадқулов; Масъул муҳаррир: У. Бекмуҳаммад. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 263; Гулямов, Я. Ғ. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. Ташкент: Изд-во Академии наук Узбекской ССР, 1959. – Б. 130.

[26] Togan A.Z.V. Umumî Türk Tarihi’ne giriş. – Istanbul: Ismail Akgün Matbaasî, 1946. Cild I. – S. 51; Haussig H.W. Die Quelle uber die zentralasiatische Herkunft der europaischen Awaren // Central Asiatic Journal. – 1956. – № 1. –S. 21–43; Смирнова О.И. Тюркологические заметки… – С. 64–66.

[27] Wolfram E. Das Toba-Reich Nord Chinas. – Leiden: Brill, 1949. – P. 6–12

[28] [Elektron resurs] https://searchworks.stanford.edu/view/6433580 Murojaat sanasi 23.09.2024.

topganligining 70 yilligi”ga bag‘ishlangan 241 jildlik maxsus to‘plam nashr etildi. 1994-yilda XXR Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan boshlangan “Jinjuben” loyihasi doirasida 600 jildlik ulkan to‘plam yaratildi va 2020-yildan boshlab Ijtimoiy fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan nashr etilmoqda[29].

Yuqorida ta’kidlangan jildlar orasida “Vey shu” asarining “G‘arbiy hududlar” nomli 90-bobi ilk bor 1974-yilda Xitoyda nashr etilgan bo‘lib, manba Xorazmga tegishli geografik nomlar, Xitoydan qancha masofada uzoqligi, yetishtiriladigan mahsulotlarga doir ma’lumotlar borligi bilan ahamiyatlidir[30].

Buddaviylik rohibi Syuan Szyan tomonidan 646-yilda yozib tugatilgan “Tan imperiyasining G‘arbiy hududlari bo‘yicha sayohat hisobotlari”ning ayrim qismlari S. Bel, E. Shavan va E. Bretshneyder tadqiqotlarida keltirilgan[31]. S. Ji, X. Say, J. Li va T. Yuy tadqiqotlarida Xorazm va Amudaryoning nomlanishi, mintaqa tili va tabiati, atrofidagi davlatlardan qanchalik masofa uzoqda ekanligi ko‘rsatilgan[32].

Tan sulolasi (618–907) davriga tegishli eski va yangi “Tan shu” manbalari asosida Markaziy Osiyo tarixini o‘rganish ishlari boshqa Xitoy manbalari bilan taqqoslaganda ko‘pchilikni tashkil qiladi. E. Shavan, E. Bretshneyder, Ch. Fen, S. Vang va Y. Yang, A. Xulseve yuqoridagi manbalarni zamonaviy xitoy, ingliz, nemis va fransuz tillariga tarjima qilishgan va Markaziy Osiyo, xususan Xorazmga tegishli ma’lumotlar qamrab olingan. Xitoylik tadqiqotchilardan S. Shi J. Liyansyuan, J. Syuan, J. Dong, S. Yuylar yuqorida

[29] [Elektron resurs] https://book.douban.com/subject/19897107/ Murojaat sanasi 23.09.2024.

[30] Wei Shou. Wei Shu: Liezhuan 90, Xiyu zhuan. – Beijing: Zhonghua shuju, 1974. – P.2273

[31] Beal S. Si-yu-ki, Buddhist records of the Western world… – P. 99; Chavannes E. Documents sur les T’ou-kiue ... – P. 243; Bretschneider E. Mediæval researches from eastern Asiatic sources. – London: K. Paul, Trench, Trübner, 1910. – P. 92–95.

[32] Ji Xianlin Da Tang Xiyu ji jiaozhu(Emendation and Annotation to the Journey to the Western Regions). – Beijing: Zhonghua shuju, 1985. – P. 101–114; Li Rongxi.The great Tang dynasty record of the western regions. – California: BDK America, 1996. – P. 25; Cai Hongsheng. Tangdai jiuxinghu he tujue wehua (Sogdians and Turkic Culture in the Tang period).–Beijing: Zhonghua shuju, 1998. – P. 75; Юй Т. Эфталиты и Согдиана / Согдийский сборник Вып.4. Ред. Шамсиддин К. – Mauritius: Lap Lambert Academic Publishing, 2017. – С. 76

ko‘rsatilgan asarning manbashunoslik tahlilini qilar ekanlar, Xorazmga oid ma’lumotlarga ham alohida urg‘u berib o‘tganlar[33].

2000-yilda tadqiqotchi L. Ying tomonidan e’lon qilingan maqola [34] xitoy manbalarida Xorazmga oid ma’lumotlarni jamlab, xronologik tartibda tahlil qilgani bilan ahamiyatlidir. Ushbu maqola kichik hajmda bo‘lishiga qaramay, Xorazm tarixini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar ochib berdi. Xususan, Xorazm va uning shaharlari nomlanishi, 645–755-yillarda Xorazm bilan Xitoy o‘rtasidagi elchilik aloqalari haqidagi ma’lumotlar Xorazmning o‘sha davrdagi siyosiy va iqtisodiy ahvoli to‘g‘risida atroflicha tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Uning tadqiqoti nafaqat xitoy manbalarida Xorazmga oid ma’lumotlarni jamlash, balki bu ma’lumotlarni tahlil qilish va ularning asosida Xorazmning o‘tmishdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti to‘g‘risida xulosalar chiqarishga ham qaratilganligini ta’kidlash mumkin.

Milliy tarixshunoslikda xitoy manbalariga tayanilib, Turonning qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixiga bag‘ishlangan ishlarnini ikki guruhga: to‘g‘ridan to‘g‘ri manbaning o‘zi hamda tarjimalar asosida yaratilgan tadqiqotlarga ajratish mumkin.

Qadimgi xitoy manbalaridan bevosita foydalangan holda izlanishlar olib borayotgan yirik olim A. Xo‘jayevning xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz. Uning 300 dan ortiq ilmiy ishlari Buyuk Ipak yo‘li, Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi va Markaziy Osiyo hamda Xitoy munosabatlari kabi muhim mavzularni qamrab oladi[35]. Xitoyshunos olim Turkistonning qadimgi davrini yoritishda eng qadimgi xitoy manbalari, ayniqsa “24 tarix” to‘plamiga kiruvchi manbalar va budda sayyohlari safarnomalari kabi manbalardan foydalangan. Shuningdek, A. Xo‘jayev faoliyatining e’tiborli jihatlari shundaki, u mintaqa xalqlarining Turk xoqonligigacha bo‘lgan

[33] Shi Xuanzang. Records of the Western Regions of the Tang Dynasty. – Beijing: Ancient Literature Publishing House, 1955. – P. 186–191; Zhou Liankuan. Collection of historical and geographical research on the Records of the Western Regions of the Tang Dynasty. – Beijing: Zhonghua Book Company, 1984. – P. 318–320; Xuan Zhuang. Notes on the Records of the Western Regions of the Tang Dynasty. – Beijing: Zhonghu a Book Company, 1985. –P. 76–80; Yu.X. Ancient Manuscripts of the Great Tang Record of the Western Regions // Wen Xian . – 2010. – №4. – P. 30–44; Dong Zhiqiao. Records of the Western Regions of the Tang Dynasty. – Beijing: Zhonghua Book Company, 2012. – P. 72–96.

[34] Ying L. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm… – P. 339–341.

[35] Джумаева Г.С. Забардаст хитойшунос олим Абдул-Аҳад Хўжаев 80 ёшда. – Тошкент, 2022. – Б. 7–8.

qadimgi davrini o‘sha zamon xitoy manbalari asosida tizimli yoritib, N. Y. Bichurin tarjimalaridagi xatolik va kamchiliklarni ko‘rsatib bergan, izohsiz qoldirilgan atamalarga kengaytirilgan sharhlar yozgan, qator etnonim va toponimlarning kelib chiqishi hamda joylashuvini aniqlagan[36].

Xitoy manbalariga tayanib, Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixini yoritgan tadqiqotchilardan Sh. Qo‘ldoshev ishini ham keltirib o‘tish joiz. Uning kichik hajmli maqolasida Xan shu (Xan sulolasi tarixi), Vey shu (Vey sulolasi tarixi) Tan shu (Tan sulolasi tarixi), Shin Tan shu (Tan sulolasi yangi tarixi) manbalarida keltirilgan Xorazm nomining xitoycha shakli, xitoy manbalarida aks etgan Xorazmning o‘rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, Xorazm va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik va savdo aloqalarini yoritganligi bilan ahamiyatlidir[37]. Biroq tadqiqotchi masalani tadqiq etishda Syuan Szyanning “Tan imperiyasining G‘arbiy hududlari bo‘yicha sayohat hisobotlari” asaridan foydalanmagan.

Qadimgi Turkiston va Xitoy o‘rtasidagi elchilik aloqalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar an’anaviy ravishda davom etib kelayotganligini X. Azimov tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. Uning ilmiy ishlari qadimgi Turkiston va Xitoy o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning turli jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa-da, ammo o‘rta asrlar davrning ba’zi jihatlariga ham etibor qaratilgan[38].

---

[36] Хўжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. Второе дополненное издание. – Ташкент: Patent-Press, 2007; O‘sha muallif. Из истории древних тюрков (на основе китайских источников). – Ташкент: Patent-Press, 2010; O‘sha muallif. Из истории древних тюрков (на основе китайских источников). – Алматы: ТОО РПИК “Дәуір”, 2011; O‘sha muallif. Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар (Қадимий ҳамда илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). – Тошкент: Munis design group, 2015; O‘sha muallif. Тюркчские города в китайских источниках. – Ташкент: Extremum-press, 2016; O‘sha muallif. Сведения древнекитайских источников по этнической истории Центральной Азии. – Ташкент: Издательство Навруз, 2017; O‘sha muallif. Ўзбек халқининг этник тарихини ўрганишда қадимги хитой манбаларининг аҳамияти // Ўзбекистон тарихи. – 2020. – № 3. – Б. 80–102.; O‘sha muallif va b. Марказий Осиё тарихи хитой манбаларида (Қадимий ҳамда илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). – Тошкент: Munis design group, 2016; O‘sha muallif va b. Марказий Осиё давлатчилик тарихига оид маълумотлар (Хитой манбалари асосида). – Тошкент: Фан, 2019.

[37] Қўлдошев Ш.Т. Ўрта асрлар хитой манбаларида Хоразм воҳаси тарихига оид баъзи маълумотлар / Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда / Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. –Тошкент -Урганч, 2018. – Б. 305–307.

[38] Азимов Х. Қадимги Хитой манбаларидаги Марказий Осиё ва Хитой муносабатларига оид айрим маълумотлар // ЎзФА Ёш олимлар ахборотномаси. – 2019.– №2. – Б. 38–41;

A. Otaxo‘jayev va G‘. Boboyorovlar Turk xoqonligi tarixini o‘rganish jarayonida Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixiga oid A. Remusat, N.Y. Bichurin tarjimalariga, O.I. Smirnova tadqiqotlariga tayanib ayrim masalalarga to‘xtalib o‘tishgan[39]. Jumladan, ular Xitoy manbalarida tilga olingan “Chjavou” va arabcha “Jamuk” atamalari xususida chuqur tahlil qilingan. Biroq T. Matyoqubov, A. Ro‘zimovlarning risola va maqolalarida, 2023-yilda nashr etilgan O‘zbekiston tarixining (XI jild) “Ilk o‘rta asrlarda Xorazm” nomli qismida A. Otaxo‘jayev, Q. Masharipov va M. Abdullayevlar Xorazmning o‘rta asrlar tarixini aks ettiruvchi xitoy manbalaridan faqat “Tanshu” dagi ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tganlar[40]. So‘nggi yillarda nashr etilgan V – XI asrlarga tegishli O‘zbekiston tarixi va manbalarini o‘z ichiga oluvchi “Xrestomatiya”da A. Xo‘jayev, G‘. Boboyorov, A. Kubatinlar mavjud tadqiqotlardagi tahlillarni yanada chuqurlashtirishib N.Y. Bichurin, E. Shavan tadqiqotlari va tarjimalaridan foydalangan holda Markaziy Osiyo tarixi aks etgan xitoy manbalarining ko‘lami, ulardagi voqealar tafsiloti, davlat va shaharning nomlanishi, diplomatik va savdo aloqalari kabi masalalarga ayrim o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritganlar[41].

Umuman olganda, masalaning u yoki bu jihatlarini tadqiq etgan 50 ga yaqin tadqiqotchilarning ishlari tahlil qilinganida, xitoy manbarlaridagi Xorazmning o‘rta asrlar ijtimoiy-siyosiy ahvoli, elchilik va savdo aloqalari, geografik joylashuvi, tabiati haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Ilk tadqiqotlarda asosan Xorazmning Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalari, shahar va davlat nomlari,

---

O‘sha muallif. Турон ва Хитой ўртасидаги сиёсий-дипломатик алоқалар (қадимги Усун ва Хитой мисолида) // O‘zbekiston tarixi журнали. – 2020. – № 3. – Б. 194–207; O‘sha muallif. Будда динининг Марказий Осиёликлар орқали Хитойга кириб бориши (хитой манба ва адабиётлари асосида) // Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations. – 2021. – № 1. – Б. 488–493; O‘sha muallif. Қадимги Хитой манбаларида Марказий Осиё атамаси ва унинг таҳлили // Илмий йиғин материалллари. – Бухоро, 2021. – Б. 15–18.

[39] Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида Турк-Суғд муносабатлари. – Тошкент: Art Flex, 2010. – Б. 65–66; Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм / Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда / Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. – Тошкент -Урганч, 2018. – Б. 48–50.

[40] Matyoqubov T. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligi tarixi… – B. 5; Ro‘zimov A. IV–X asrlarda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixi // Journal of Universal Science Research. – 2023. – № 6. – B. 584–587. Otaxo‘jayev va b. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm … – B. 147.

[41] Ahmedov A, Bo‘riyev O. O‘zbekiston tarixi: Xrestomatiya, III jild V–XI asrlar O‘zbekiston tarixi va manbalari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 22–52.

“Chjavou” atamasining talqini kabi masalalar ko‘proq o‘rganilgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlarda esa Xorazmning ichki ijtimoiy-siyosiy hayoti, iqtisodiyoti, madaniyati va dini kabi masalalar ham tadqiqot doirasiga tortilgan.

II. Vizantiya manbalari. O‘rta asrlar Vizantiyasining tarixiy manbalari Markaziy Osiyo, xususan Xorazm tarixining o‘rganishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, tadqiq etilayotgan davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xorazmning tarixini o‘rganishda Vizantiya manbalari boshqa manbalar bilan solishtirganda, o‘ziga xos qiymatga ega. Ushbu manbalar mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlarni yoritishda, davlatlarning o‘zaro munosabatlarini tushunishda va mintaqaning rivojlanish jarayonlarini kuzatishda yordam beradi. Vizantiya manbalarida keltirilgan ma’lumotlar boshqa sharq manbalar, xususan, xitoy, arab va fors manbalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali yanada boyitilishi mumkin. Menandrning “Tarix”, Feoflikat Simokattaning “Tarix”, Feofan Tavkaborning “Xronologiya”, Patriarx Nikaforning “Breviariy” asarlarida VI-IX asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, ularning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, iqtisodiyoti, din va e’tiqodlari, urf-odatlari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi manbalarning ingliz, fransuz va rus tillaridagi tarjimalari tahlil qilinganda faqat Menandrning “Tarix” asarida Xorazmga oid ma’lumotlar mavjudligi aniqlandi. Uning asari bizgacha boshqa Vizantiya tarixchilari orqali parchalar va iqtiboslar ko‘rinishida yetib kelgan[42].

Yevropada Menanderning “Tarix” asari ilk bor yunonshunos olim K. Myuller tomonidan 1841–1870-yillar oralig‘ida besh jildlik fundamental asarida lotin tilida fransuzcha sharhlar bilan nashr etilgan[43]. Asarning ayrim parchalari J.P. Min, L. Dindorf, S. de Bor, E. Shteyn kabi tarixchilar ishlarida keltirilgan[44]. 1985-yilda kanadalik olim R. Blokli asarni to‘liq ingliz tiliga tarjima qilgan. Ushbu

[42] Photius. The Bibliotheca /The library of Photius. Ed J.H.Freese. – London-New York: The Macmillan company press, 1920. – P. 149.

[43] Müller K.W. Fragmenta Historicorum Graecorum . – Paris: Parisiis Editore Ambrosio Firmin Didot, 1841–1870.

[44] Migne J.P. Patrologia Graeca Vol. 113. Paris: Imprimerie Catholique, 1864; Dindorf L. Historici Graeci minores Vol. 2. – Leipzig: B. G. Teubner, 1870; Boor C. Theophanis chronographia. Leipzig: B. G. Teubner, 1885; Stein E. Histoire du bas-Empire, trans. J.R. Palanque, Vol. 2. – Paris, 1959.

tarjimaning ahamiyatli jihati shuki, unda tarjima va sharxlar bilan birgalikda tarixshunoslik izohlari ham berilgan[45].

XIX asrning ikkinchi yarmidan ushbu asarni rus tiliga tarjima qilish ishlari boshlandi. Xususan, S. Destunis tomonidan qilingan tarjimada Vizantiya – Turk munosabatlariga alohida urg‘u berilgan[46]. Slavyanlar tarixiga oid ayrim parchalarni zamonaviy rossiyalik tadqiqotchilar S. Toxtasev va I. Levinskaya tarjima qilganlar[47]. Hozirgi kunda ukrainalik olima O. Jdanovich asarni to‘liq rus tiliga tarjima qilish bilan maxsus shug‘ullanmoqda[48]. Olimaning asosiy faoliyati Vizantiya–Turk munosabatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u o‘zining 30 dan ortiq tadqiqotlarida Zemarx elchiligi, Vizantiya va turklar, avarlar, xunlar, “varvarlar” o‘rtasidagi munosabatlar, ilk o‘rta asrlarda turkiy xalqlarning etnogenezi kabi masalalarga e’tibor qaratgan[49].

Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, Menandr “Tarix” asari o‘rta asrlar Vizantiyasi tarixining muhim manbalaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyo, xususan, Xorazm tarixini o‘rganishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Asarning birinchi nashri XIX asrda lotin tilida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, keyinchalik ingliz,

---

[45] Blockley R.C. The History of Menander the Guardsman. – Liverpool: Francis Cairns. 1985. – P. 263–265

[46] Византийские историки Дексипп, Эвнапий, Олимпиодор, Малх, Петр Патриций, Менандр, Кандид, Ноннос и Феофан Византиец, переведенные с греческого Спиридоном Дестунисом. – Москва: Директ-Медиа, 2008.

[46] Менандр Протектор. (И.А. Левинская, С.Р. Тохтасьев) // Свод древнейших письменных известий о славянах. – Том I (I–VI вв.) – Москва, 1994. – С. 311–356

[47] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda

[48] Жданович О.П. Менандр протектор. История: о посольствах тюрков к персам и византийцам в 568 году (перевод и комментарии) // Золотоордынское обозрение. – 2014. – № 1. – С. 23–25.

[49] Жданович О.П. Традиції та звичаї тюрків очима ромеїв (на основі перекладу фрагменту Історії Менандра Протектора // Вісник Київського національного університету імені Тараса Шевченка Історія. – 2012. – № 110. – С. 23–25; O‘sha muallif. Візантійське посольство 568 р. до тюрків за твором Менандра Протектора // Український історичний журнал. – 2012. – №5. – С. 157–164; O‘sha muallif. Авари та їх взаємини з Візантійською імперією у праці Менандра Протектора // Мовні і концептуальні картини світу. – 2014. – № 48. – С. 149–164; O‘sha muallif. Посольство Земарха в ставку тюркского кагана (перевод и комментарии фрагментов труда Менандра Протектора) // Золотоордынское обозрение. – 2014. – № 2. – С. 6–20; O‘sha muallif. Візантійський історик Менандр Протектор та його епоха // Hileya: Scientific Bulletin/Gileya. – 2019. –№ 146. – С. 45–50. O‘sha muallif. Варварська периферія Візантійської імперії (до питання про етногенез тюркських народів раннього середньовіччя). – 2020. – № 62. – С. 60–68.

fransuz va rus tillariga tarjimalari chop etilgan. Har bir tarjima o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ayrim jihatlarga, masalan, Vizantiya-Turk munosabatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

III. Pahlaviy (o‘rta fors) tilidagi manbalar. Tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorij va milliy tarixshunoslikda pahlaviy manbalari asosida Xorazm tarixini tadqiq etish hali ham ochiq turgan masalalardan biri ekanligi ma’lum bo‘ldi. Xorijlik olimlar Eron tarixini tadqiq etishda pahlaviy manbalardagi ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tish bilan cheklangan bo‘lsa, milliy tarixshunoslikda bu manbalarga umuman murojaat etilmagan.

O‘rta fors manbalari Sosoniylar davlati (224–651-yillar) davridagi Eron va unga qo‘shni hududlardagi ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, adabiy va boshqa sohalaridagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Biroq bu manbalarni tarixshunoslik nuqtayi nazaridan baholaganda, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va cheklovlarini hisobga olish zarur. Eronlik olim T. Daryoyiyning ta’kidlashicha, pahlaviy manbalarining aksariyati zardushtiylik kohinlari tomonidan yozilgan va ko‘chirilgan. Kohinlar uchun asosiy maqsad voqealarni xronologik tartibda emas, balki muqaddas an’analarni qayd etish bo‘lgan[50]. Bundan tashqari, o‘rta fors tilidagi adabiyotlar asosida koinot va unda insonning o‘rni masalasiga qaratilgan *kosmologik*[51] va dunyo oxirati borasidagi *eskatologik*[52] qarashlar yotganligi sababli, matnlarda ko‘pincha aniq tarixiy ma’lumotlardan ko‘ra afsonaviy hamda diniy elementlarga ko‘proq e’tibor qaratilgan. Tadqiqotchi G. Videgren pahlaviy manbalaridan “Bundahishn” (“Ilk yaratilish”) va “Karnamag-i Ardashir-i Pabagan” (“Ardashirning ishlari kitobi”) da tarixiy voqealarni xronologik tartibda berilganligini qayd etgan[53]. “Bundahishn” da Xorazm haqida kosmologik va geografik

[50] Daryaee T. The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity: Continuity and Change in the Province of Persis.: diss. for…c.h.s (PhD). – Los Angeles, 1999. – P. 33.

[51] Kosmologik dunyoqarash – bu olamning kelib chiqishi, tuzilishi, evolyutsiyasi va taqdiri haqidagi qarashlar tizimidir. U insonning olamdagi o‘rnini, hayotning ma’nosini va kelajakka bo‘lgan umidlarini shakllantiradigan falsafiy, diniy va ilmiy g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.[https://pages.uoregon.edu/jschombe/cosmo/lectures/lec01.html]

[52] Eskatologik yo‘nalish – bu dunyoning oxiri, qiyomat, oxirat haqidagi diniy yoki falsafiy ta’limot va qarashlar tizimidir. U insoniyat tarixining yakuniy bosqichi, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurashning natijasi, ruhlarning taqdiri va yangi dunyoning yaratilishi mavzularni o‘z ichiga oladi. [https://www.britannica.com/topic/eschatology]

[53] Widengren G. Recherches sur le féodalisme iranien // Orientalia Suecana. – 1957. – № 5. – P. 79–85.

ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, jumladan, Xorazm Ahura Mazda tomonidan yaratilgan muhim hududlardan biri sifatida eslatiladi. Shuningdek, Xorazm hududi yaxshi sug‘oriladigan yerlar, unumdor zamin va aholisining dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanishi bilan tanilganligi keltirib o‘tilgan[54]. Keyingi manba sosoniylar davriga oid afsonaviy va tarixiy rivoyatlar aralashmasidir. Uning o‘ziga xosligi shundaki, unda sosoniylar davrining oxirida tasdiqlangan ko‘plab unvonlar va lavozimlar haqida turli ma’lumotlar keltirilgan[55]. Tadqiqotchi R.N. Fray yuqoridagi manba haqida so‘z yuritib Sug‘diyona va Xorazm sosoniylar shohi Ardashir tomonidan boshqarilganligi hech qanday manbada uchramasligini qayd etgan[56].

Eron sosoniylari va Xorazm o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni yorituvchi muhim manbalardan yana biri Iroqning Sulaymoniya gubernatorligida, Barkal qishlog‘i yaqinida joylashgan “Poyko‘li tosh bitiklari”dir. Mazkur bitik sosoniylar imperatori Narseh (Narses) jiyani Bahrom III ustidan qozongan g‘alabasi sharafiga o‘rnatilgan yodgorlik bo‘lib, o‘z jiyani Bahrom III ni qanday va nima uchun hokimiyatdan ag‘darganligi hikoya qilinadi. U yerda Narsehni qo‘llab-quvvatlagan yoki uning taxtga o‘tirganidan keyin Sosoniylar imperiyasiga bo‘ysungan hukmdorlar ro‘yxati keltirilgan[57]. Ular orasida Xorazm shohining ham tilga olinishi, Sosoniylar imperiyasining Markaziy Osiyo, xususan, Xorazmga bo‘lgan siyosiy va harbiy ta’sirini tasdiqlovchi muhim dalildir.

“Poyko‘li tosh bitiklari” yodgorligining kashf etilishi va o‘rganilishi uzoq yillar davom etgan jarayon bo‘lib, bir necha taniqli olimlarning sa’y-harakatlari bilan amalga oshirilgan. 1844-yilda ingliz sharqshunosi G. Roulinson ushbu yodgorlikni ilk bor kashf etgan[58]. Keyinchalik, 1911, 1913 va 1923-yillarda nemis sharqshunosi E. Gersfeld yodgorlikka tashrif buyurib, u yerdagi yozuvlarni o‘qish

[54] The Bundahishn (“Creation”), or Knowledge from the Zand. Translated by E. W. West, from Sacred Books of the East, Vol.5. – Oxford: Oxford University Press, 1897. – P. 1–3.
[55] Daryaee T. The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity… –P. 33–34.
[56] Frye R.N. The political history of Iran under the Sasanians / The Cambridge History of Iran Vol. 3. Part 1. Ed. Yarshater E. – Cambridge: Cambridge Univercity Press, 1983. – P. 124.
[57] Frye R.N. The political history of Iran under the Sasanians ... – P. 129.
[58] Larsen M.T. The Conquest of Assyria: Excavations in an Antique Land. – London: Routledge, 1996. – P. 79–88.

va ko‘chirish ishlarini amalga oshirgan [59] . 1954-yilda Iroqning “Qadimgi ashyolar va madaniy meros” qo‘mitasining ilmiy xodimlari tomonidan yodgorlikda tadqiqot ishlari olib borilgan. 2007-yilga kelib esa, italiyalik arxeolog J. Filippo Sulaymoniyadagi arxeologlar bilan hamkorlikda 120 dan ortiq tosh lavhalarni bosqichma-bosqich Sulaymoniya muzeyiga ko‘chirishga va ulardagi yozuvlarni o‘qishga muvaffaq bo‘ldi[60].

Xorijlik olimlar, jumladan, N. Fray, T. Daryoyiy, R. Shayegan, J. Pikett, S. Malakzoda va N. Nematullohiylar ilk o‘rta asrlardagi Eron va Xorazm o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni o‘rganishda “Poyko‘li tosh bitiklari”dagi ma’lumotlardan keng foydalanishgan[61].

Sosoniylar va Xorazm o‘rtasidagi siyosiy munosabatlarni yorituvchi muhim manbalardan yana biri “Tansarning maktubi”dir. Mazkur manba sosoniylar davlatining VI asrlardagi targ‘ibot vositasi sifatida nafaqat din va davlat munosabatlarini, balki shahar va tumanlar tizimi, siyosiy, harbiy va fuqarolik boshqaruviga oid muhim ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Maktub sosoniylar davlatining siyosiy maqsadlariga xizmat qilgan tarixiy hujjat bo‘lib, unda arshakiylar davri axloqiy buzuqlik va zardushtiylik diniga zid e’tiqodlar hukm surgan davr sifatida qoralanadi. Bu esa sosoniylar sulolasining hokimiyatga kelishini oqlash va ularning boshqaruvini qonuniylashtirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, maktubda zardushtiylik ibodatxonasi va Eron davlatining birligi g‘oyasi ilgari suriladi. “Tansar maktubi”ning tarixiy ahamiyati shundaki, u sosoniylar davlatining siyosiy maqsadlariga xizmat qilish uchun tarixni qayta talqin qilish va o‘z hukmronligini qonuniylashtirishga urinishining yaqqol namunasidir. Bu hujjat orqali sosoniylar

[59] Skjærvø. P.O. Herzfeld and The Paikuli inscription // Encyclopædia Iranica. – 2003. – № 13. – P. 298–300.

[60] [Elektron resurs] https://web.uniroma1.it/scuola_beniarcheologici/en/terribili-gianfilippo

[61] Frye R.N. The political history of Iran under the Sasanians … – P. 120–129; Daryaee T. The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity… – P. 78–79; Shayegan R.M. Aspects of Early Sasanian History and Historiography: diss.for…c.h.s (PhD). – Cambridge: Massachusetts, 1999. – P. 35–37; Pickett J.R. The Persianate sphere during the age of empires. diss.for…c.h.s (PhD). – Princeton, New Jersey, 2015. – P. 10–14; Malekzadeh S. The Sasanian Empire in the Fifth Century: The Case of Yazdegerd I and Bahrām V.diss.for…c.h.s (PhD).– California, Irvine, 2018. – P. 90; Nematollahi N. The iranian epistolary tradition: origins and developments: 6th century BCE to 7th century CE: diss.for…c.h.s(PhD). – Bloomington, 2019. – P. 150.

o‘zlarining hokimiyatini mustahkamlash, avvalgi sulolani qoralash va din bilan davlatning uzviy bog‘liqligini ta’kidlashga erishganlar[62].

“Tansar maktubi” IX asrda ibn Muqaffa tomonidan arab tiliga tarjima qilgan va keyinchalik, XIII asrda ibn Isfandiyar tomonidan yangi fors tiliga tarjima qilinib, “Tabariston tarixi” kitobiga kiritilgan. Hozirda o‘rta fors tilidagi asl nusxasi va arab tilidagi tarjimasi mavjud emas[63]. Maktubni birinchi marta fransuz sharqshunosi J. Darmesteter 1894-yili “Tabariston tarixi”ning ikki qo‘lyozmasi asosida nashr etgan[64]. 1926-yili eronlik olim A. Dehxudo “Tansarning maktubi”ni tushuntirishlar va izohlar bilan birga nashr etadi. 1965-yilda X. Myuller tomonidan dan tiliga, 1968-yilda M. Boys tomonidan ingliz tilida Rimda nashr etiladi[65].

N.R. Fray, V.G. Lukonin, T. Daryoyiy, R. Shayegan kabi tadqiqotchilar sosoniylar va Xorazmning siyosiy munosabatlarni yoritishda mazkur maktubning tarjimalariga tayanganlar[66].

Ushbu maktubning alohida e’tiborga molik jihati, Eron shohi tomonidan **MLK'** unvonini faqat qirollik oilasi a’zolari va chegara hukmdorlariga berish amaliyotidir. Ushbu unvonga sazovor bo‘lganlar orasida alanlar, g‘arbiy hudud hokimlari, Kobul hukmdorlari bilan bir qatorda Xorazm hukmdori ham tilga olingan[67]. Mazkur ma’lumot ikkitida farazni keltirib chiqaradi. Birinchidan, sosoniylar imperiyasi chegara hududlarida o‘z ta’sirini mustahkamlash uchun mahalliy hukmdorlar bilan ittifoq tuzish va ularga ma’lum imtiyozlar berish siyosatini yuritgan. **MLK'** unvoni ham ana shunday imtiyozlardan biri bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, Xorazmda sosoniylar imperiyasi bilan yaqin aloqada bo‘lgan mahalliy sulola hukmronlik

[62] Boyce M. The Indian fables in the Letter of Tansar // Asia Major. – 1955. – № 5. – P. 50–58; Boyce M, Minovi M. The Letter of Tansar. – Rome: Istituto Italiano per il Medio ed Estremo Oriente, 1968. – P. 12; Siamak A. A Question of Legitimacy: The Case of Ardašir I // Indo-Iranian Journal. – 2003. – № 46. – P. 223–230.

[63] Boyce M. Textual sources for the study of Zoroastrianism. Manchester: Manchester University Press, 1984. –P. 109.

[64] Darmesteter J. Lettre de Tansar au roi de Tabaristan // Journal Asiatique. – 1894. – № 9. – P. 185–250.

[65] Boyce M, Minovi M. The Letter of Tansar. – Rome: Istituto Italiano per il Medio ed Estremo Oriente, 1968. –P. 5,12,26,27.

[66] Frye R.N. The political history of Iran under the Sasanians…. – P. 363; Lukonin V.G. Political, social and administrative institutions, taxes and trade … – P. 689; Daryaee T. The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity… – P. 52,89; Shayegan R.M. Aspects of Early Sasanian History and Historiography. … – P. 22–25.

[67] Lukonin V.G. Political, social and administrative institutions, taxes and trade … – P. 731.

qilgan bo‘lishi mumkin. Bu sulola sosoniylar imperiyasining siyosiy tizimini qisman qabul qilgan va o‘zaro manfaatli munosabatlarni qo‘llab-quvvatlagan.

Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixini chuqur o‘rganish va yangicha talqin qilish borasidagi ilmiy izlanishlarda hal qilinishi lozim bo‘lgan zaif nuqtalardan biri, shubhasiz, pahlaviy manbalarini kompleks va tanqidiy tahlil qilish hamda ulardagi ma’lumotlarni boshqa turdagi manbalar bilan qiyosiy o‘rganishdir.

IV. Arman tilidagi manbalar. O‘rta asr arman manbalaridan V asrda yaratilgan Movses Xorenatsining “Armaniston tarixi”, Agatangelosning “Armaniston tarixi”, Elishaning “Vardan va Arman urushi tarixi”, VI asrda yozilgan “Arbeliya yilnomalari” hamda VIII asrga oid Jon Mamikonyanning “Taron tarixi” asari ushbu davr tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Arman manbalaridagi asosiy yondashuvlardan biri xristian dinining ustunligi va haq din ekanligini isbotlashga harakat qilish hamda Sosoniylar imperiyasini salbiy tusda tasvirlashga harakat qilinganligida edi[68]. E.V. Rtveldze “Arbeliya yilnomalari”ga asoslangan N.V. Pigulevskaya ma’lumotlariga tayanib, Shopur I davrida sosoniylar bilan xorazmliklar o‘rtasida urush bo‘lganligini ta’kidlaydi[69]. Elishaning “Vardan va Arman urushi tarixi”da Xorazm o‘lkasi sosoniylar shohi Yazdigard II ning diniy erkinlik uchun qo‘zg‘olon ko‘targan armanlarga qarshi kurashda qo‘shin to‘plagan hududlaridan biri sifatida qayd etilgan[70]. Tadqiqotchilardan R.N. Fray va B. Kristofer pahlaviy va arman manbalariga tayanib 242–350-yilgacha Xorazm sosoniylar imperiyasi tarkibida bo‘lganligini keltirganlar[71].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga qo‘shimcha ravishda, arman manbalarida Xorazmga oid ma’lumotlarni o‘rganish bo‘yicha milliy va xorijiy tadqiqotlarda boshqa ma’lumotlar deyarli uchramaydi.

---

[68] Daryaee T. The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity... – P. 40.

[69] Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма // Хорезм в государственности Узбекистан. Коллективная монография / Отв. редакторы: Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. – Ташкент: 2013. – С. 91.

[70] Elishe, History of Vardan and the Armenian War. Translation and Commentary by Robert W. Thomson. – Cambridge- Massachusetts-London: Harvard University Press, 1982. – P. 64.

[71] Christopher B. Geographical and Administrative divisions: Settlements and Economy / The Cambridge History of Iran: The Seleucid, Parthian, and Sasanian periods Vol 3(2). – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 747–778; Frye R.N. The political history of Iran under the Sasanians … – P. 116–134.

Bunga asosiy sabab, arman manbalari orqali Xorazm tarixi maxsus tadqiq etilmaganligi va arman va o‘zbekistonlik tarixchilar o‘rtasidagi ilmiy hamkorlikning sustligini ko‘rsatish mumkin. Umuman olganda, arman manbalarida Xorazmga oid ma’lumotlarni o‘rganish hali to‘liq amalga oshirilmagan soha bo‘lib, kelgusida bu yo‘nalishda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilishi Xorazm tarixini yanada boyitishga xizmat qiladi.

V. Suryoniy tilidagi manbalar. Suryoniy manbalar arman manbalari kabi nasroniylik nuqtayi nazaridan yondashilgan. Suryoniy tildagi manbalarning arman manbalaridan farqi shundaki, suryoniy tildagi yozilgan manbalar muallifi Eron sosoniylari tarkibida bo‘lib, arman manbalari singari Eron sosoniylariga nisbatan salbiy munosabatlar ko‘p aks etmagan[72]. Ikkala manba ham nasroniylik nuqtayi nazaridan yozilgan bo‘lsa-da, ularning kelib chiqishi va mualliflarining ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalari turlichadir. Bu esa ularning Sosoniylar imperiyasi va unga qo‘shni bo‘lgan mintaqalarga munosabatlarida muayyan tafovutlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotchi S. Brokning fikriga ko‘ra, suryoniy manbalarining aksariyati solnomalar shaklida bo‘lib, Yaqin Sharq, Eron va unga tutashgan hududlarning IV –XIV asrlar oralig‘idagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha, bu manbalarda Markaziy Osiyo, xususan, Xorazmning madaniy va geosiyosiy ahamiyati haqida ma’lumotlar uchraydi. Biroq tadqiqotchi bu ma’lumotlar qaysi aniq manbalarda mavjudligiga to‘xtalib o‘tmagan[73].

Suryoniy tilida yozilgan manbalardan suriyalik Patriarx Buyuk Mixailning yilnomasi turkiy xalqlarning ilk tarixi, etnik tarkibi va siyosiy tuzilishi haqida kengroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Mazkur yilnomada turkiy xalqlarning uchga bo‘linishi va ularning turli hududlarga tarqalishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, uchinchi guruh turklar Orol bo‘ylarida qolib, to‘qqizta qirollikka asos solgani qayd etilgan[74]. Bu ma’lumotlar Xorazm hududida turkiy qabilalarning mavjudligi va ularning siyosiy tashkilotlarini barpo etish

[72] Daryaee T. The Fall of the Sasanian Empire and the End of Late Antiquity…– P. 41.
[73] Brock S. Syriac historical writing: A survey of the main courses // Journal of the Iraq Academy. – 1979. – № 5. –P. 19–25.
[74] The Chronicle of Michael the Great, Patriarch of the Syrians. Trans by Bedrosian R. – New Jersey: Long Branch, 2013. – P. 172–174.

jarayoniga oid muhim dalillardan biridir. Yilnomada keltirilgan “70 boshliq” va “70 shahzoda” haqidagi ma’lumotlar esa turkiy qabilalar ittifoqining mavjudligi va ularning hokimiyatni taqsimlash mexanizmlariga ishora qiladi. Xitoy manbalaridan “Tanshu”da Xorazm “Jiuxing” (To‘qqiz nom) tarkibiga kiruvchi davlatlardan biri sifatida tilga olinadi [75]. Suriyalik Patriarx yilnomasida keltirilgan “to‘qqiz qirollik” haqidagi ma’lumotlar xitoy solnomalarida qayd etilgan “To‘qqiz nom” bilan bog‘liq. Yuqoridagi tahlil natijalari Xorazmning ilk tarixi haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi. Bu ikki manbani boshqa arxeologik va yozma manbalar bilan solishtirib tadqiq etish Xorazmning o‘rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni yanada kengaytirishga yordam beradi.

VI. Musulmon manbalari (arab va fors tilida yozilgan manbalar). Musulmon manbalari g‘oyaviy jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, ularda afrig‘iylar sulolasining arab bosqini, tohiriylar, somoniylar hukmronligi davridagi Xorazmning siyosiy va iqtisodiy tarixi, sulolaning tugatilishi hamda ma’muniylarning hokimiyat tepasiga kelishi kabi voqealar tafsiloti keltirilgan.

Xorazmning VIII –X asrlar tarixini o‘rganishda arab-fors manbalaridan 15 tasi tadqiqotlarda keng foydalanganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Musulmon manbalariga tayanib Xorazm tarixini tadqiq etish XIX asr oxirlarida boshlangan bo‘lib, V.V. Grigorev, E. Zaxau, De Guye, N.I. Vaselovskiy , H. Landsel, L.G. Strenj kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida Markaziy Osiyo, xususan, Xorazmdagi o‘rta asrlarda shahar tuzilishi, soni, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo munosabatlarini yoritganlar[76].

Arablarning Xorazmga bosqini davrini o‘rganishda sovet davri, xorij va milliy tarixchilar Beruniy, Kufiy, Balazuriy va Tabariyning

[75] Ying L. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm … – P. 339–341.

[76] Григорьев.В.В. Описание Хиванского ханства и дорога туда из Сарайчиковой крепости // ЗИРГО, кн. II, Санкт-Петербург, 1861; Sachau E. Zur geschichte und chronologie von Khwarizm… 1873; Goeje.M.J. Das alte Bett des Oxsus… 1875; Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хиванском ханстве от древнейших времен до настоящего. – Санкт-Петербург, 1877; Landsell H. Russian Central Asia including Kuldja, Bukhara, Khiva and Merv. Vol. I-II/ London, 1885; Strange L.G. The Lands of the Eastern Califate. – Cambridge: Cambridge university press, 1905.

asarlariga tayanganlar[77]. Xususan, E. Zaxau, H. Gibb, V.V. Bartold, A. Kurat va S.P. Tolstov kabi taniqli sharqshunoslar ushbu manbalarni o‘rganish va tahlil qilishga salmoqli hissa qo‘shganlar. Biroq ularning ishlarida asosan tavsifiylikka ko‘proq urg‘u berilganligi, manbalardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar yetarlicha chuqur tahlil qilinmaganligi kuzatiladi[78]. Keyinchalik, A. Qurbonov, J. Hiraviy, I. Hasanzoda, A. O‘zbayraktar, B. Avji, S. Kara, O. Aydinli kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida yuqoridagi olimlarning qarashlarini qayta ko‘rib chiqqanlar[79]. Xususan, I. Hasanzoda arablarning Xorazmni zabt etishi masalasi ko‘pincha Xuroson va Movarounnahr istilolari bilan birga umumiy tarzda yoritilganligini, bu esa mazkur masalani alohida va chuqur o‘rganishga to‘sqinlik qilganligini ta’kidlagan. Uning fikricha, manbalardagi ma’lumotlarning bir-biriga zid va noto‘g‘ri kelishi ham bu masalani o‘rganishni qiyinlashtiradi. A. O‘zbayraktar yuqorida keltirilgan manbalar xususida so‘z yuritib, Kufiy, Balazuriy va Tabariy asarlaridagi ma’lumotlar hajmi turlicha bo‘lsa-da, umumiy jihatlari ko‘pligi, ular arab bosqiniga ijobiy baho berib, uni “fath” sifatida talqin qilishsa-da, ularning asarlarida ba’zi bir ziddiyatlar hamda chalkashliklar mavjud ekanligi ni qayd etgan. Shuningdek, tadqiqotchi Beruniy asari o‘zgacha yondashuv va uslubga ega ekanligi, unda arab bosqinining salbiy oqibatlariga urg‘u berilganligi hamda Xorazm xalqining qahramonligi va qarshiliklari aks etganlgini keltirib o‘tgan[80].

---

[77] Ibn A’sam al-Kufiy “Kitob al-Futux” (Fathlar to‘g‘risida kitob), Balozuriyning “Kitob futuh ul-buldon” (Mamlakatlarni fath etish kitobi), at-Tabariy “Tarix ar-rasul va-l-muluk” (Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi), Beruniy “Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar)

[78] Sachau E. Zur geschichte und chronologie von Khwarizm…. – S. 27–31; Gibb H. The Arab conquests in Central Asia. – London : Royal Asiatic Society, 1923. – P. 43–50; Kurat A. Kuteybe bin Müslim'in Hvârizm ve Semerkand'i zabti. – Ankara: DTCF Dergisi, 1948. – S. 396–400; Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации... – С. 221–234.

[79] Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical analysis:diss.for...c.h.s(PhD). – Berlin, 2010. – P. 205–207;

حسن زاده اسماعیل. تحلیل انتقادی روایتهای فتح خوارزم. مطلعات تاریخ اسلام. سال ۱۳۹۰. شماره ۸. ص. ۸ – ۱۲.; Avci.B. Harezm Bölgesi’nin İslam Orduları Tarafından Fethi. –S. 7–8.; Kara C.Yahyâ b. Zeyd İsyanı ve Horasan’daki Etkileri // Cumhuriyet İlahiyat Dergisi. – 2020. – № 24. – S. 767–787; Özbayraktar A. Hârezm'in Müslümanlar tarafindan fethi(32-93 /652-712)// DTCF Dergisi. – 2023. – № 63. – S. 1064–1069;

هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷.

[80] حسن زاده اسماعیل. تحلیل انتقادی روایتهای فتح خوارزم. مطلعات تاریخ اسلام. سال ۱۳۹۰. شماره ۸. ص. ۸ – ۱۲.

Özbayraktar A. Hârezm'in Müslümanlar tarafindan fethi... – S. 1060–1069.

Xorazmning ilk o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari barcha olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Biroq tadqiqotchilarning asarda yondashuvi va undan foydalanish uslublari turlicha bo‘lib, bu ularning Xorazm tarixiga oid xulosalariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, sovet davri tadqiqotchilardan S.P. Tolstov, Y.A. Yakubovskiy, Y. G‘ulomov kabi olimlar Beruniy asaridagi ma’lumotlarning ishonchliligini arxeologik topilmalar bilan tasdiqlashga harakat qilganlar[81]. E.E. Nerazik, V.A. Livshits ishlarida Tuproqqal’a va To‘qqal’adan topilgan arxeologik dalillarga asoslangan holda, Beruniyning Xorazm tarixini davrlashtirish usulini tanqid qilgan bo‘lsalar, numizmatik ma’lumotlarga tayanuvchilardan B.I. Vaynberg, M. Fedorov, A. Kuznetsov, Y.A. Armarchuk kabi olimlar Beruniy asarida keltirilgan afrig‘iylar sulolasiga oid ma’lumotlar bilan numizmatik topilmalar o‘rtasidagi nomutanosibliklarni ko‘rsatib, Beruniy ma’lumotlariga shubha bildirganlar[82]. Milliy tarixshunoslikda E.V. Rtveladze va Sh. Ismoilov kabi tadqiqotchilar Beruniy asaridagi ma’lumotlarni arxeologik va numizmatik dalillar bilan solishtirib, tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil

[81] Толстов С.П. Бируни и его «Памятники минувших поколений» (Бируни Абу Райхан. Избранные произведения) т.I, стр. 7–21; Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан // Записки коллегии востоковедов, т.V. – Ленинград,1930. – С. 17–19; Ғуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 9–11.

[82] Бартольд В.В.Сочинения III. – Москва: Наука, 1965. – С. 545; Livshits V.A. Decipherment and Interpretation of the Chwarezmian Inscriptions from Tok-Kala // Acta Antiqua Academiae Scientiarum Hungaricae. – 1962. – № 12. – P. 233; E.E.Nerazik. HIstory and culture of Khwarizm.History of Civilizations of Central Asia The crossroads of civilizations A.D. 250 to 750. Editor B. A. Litvinsky. Multiple History Series. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – P. 29–230. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма… – С. 81; Fedorov M. The Khwarazmshahs of the Banu Iraq (Fourth/Tenth Century) // Iran: Journal of the British Institute of Persian Studies. – 2000. – № 38. – P. 146; O‘sha muallif. Money circulation in Central Asia under the Arab Caliphate // AMIT. – 2009. – № 41. – P. 347; O‘sha muallif. The ancient kings of Ḵwārezm chronology and succession // Archäologische Mitteilungen aus Iran und Turan. – 2006. – № 38.–S. 347–348; Fedorov M, Kuznetsov A. On some previously unknown Khwarazmian drachms and the names of rulers on them // Journal of the British Institute of Persian Studies. – 2011. – № 49.–P. 79–88., Kuznetsov A. Silver coins of Khwarezmshah Savshafan // The Numismatic Chronicle (1966).–2016. – №176. –P. 489–490; Гончаров Е. Ю, Армарчук Е.А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме//Вестник института востоковедения РАН. – 2020. – № 2. – С. 168.

asosida asarda noaniqliklar borligini qayd etishgan, lekin ular asarining umumiy tarixiy ahamiyatini inkor etmaganlar[83].

Fors va ingliz tilli tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishini Eron bilan bog‘lash uchun asarga murojaat qilishganini K.E. Bosvort, J. Hiraviy, I. Hasanzoda tadqiqotlarni misol sifatida keltirish mumkin[84]. Turk tilli tadqiqotlarda Beruniy qayd etgan 22 ta hukmdorni afrig‘iylar sulolasi vakillari sifatida qarashmay, oli Iroqning oxirgi hukmdori Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning sajarasi sifatida qarash keng yoyilgan[85].

Masalaga doir shu kunga qadar tadqiqotga tortilgan Xorazmning o‘rta asrlar tarixiga oid fors manbalari sanoqli bo‘lib, ular orasida Narshaxiyning “Buxoro tarixi” hamda muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” asarlarini alohida ta’kidlash mumkin. Garchi, Mahmud Gardiziyning “Zayn ul-axbor”, Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy” asarlari tadqiqotlarda sanab o‘tib ketilgan bo‘lsa-da[86], mazkur manbalardan birorta ma’lumot tadqiqotchilar tomonidan keltirib o‘tilmagan.

Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari 943–944-yillarda arab tilida yozilgan. Biroq uning arab tilidagi nusxasi bizgacha yetib kelmagan. 1128-yil quvalik Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad al-Qubaviy asarni fors tiliga qisqartirib tarjima qilgan. 1178–1179-yillarda asar 2 marta qisqartirilgan. Asardan E. Vaser, E.E. Nerazik, J. Hiraviy, A. O‘zbayraktar kabi olimlar “Buxoroda dirham va kumush tanga zarb qilinishi” qismidan foydalanib, Xorazmning IX asrdagi iqtisodiy ahvoli, xalqaro savdodagi ahamiyatini yoritishda keng

---

[83] Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма… – С. 94; Ismailov Sh. Is the Khorezmshah Mamunids from Turkish Tribe or Arab? // EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO). – 2023. – № 10. – P. 7–8; Ismoilov Sh. The Coins of Khorezmshah in the Treasure of the Vikings // International journal of special education. – 2022. – № 37. – P. 281–287.

[84] Bosworth C. C.E. Bosworth.The Ghaznavids. History of Civilizations of Central Asia, vol IVa. – Paris: Unesco Publishing 1998. – P. 108; O‘sha muallif. Āl-e Afrīḡ” // Encyclopædia Iranica. – 1983. – №7. – P. 743–745; O‘sha muallif. Āl-e Maʾmūn // Encyclopaedia Iranica. – 1984. – № 7. – P. 762–764; هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. حسن زاده اسماعیل. تحلیل انتقادی روایتهای فتح خوارزم. مطلعات تاریخ اسلام. سال ۱۳۸۷. ص. ۱–۳۳. (سال ۱۳۹۰. شماره ۸. ص. ۸ – ۱۲.

[85] Heravi C., Özbayraktar. A. Âl-i ‘İrâk:Hârezm’de Sâmânîlere tâbi yüz yillik bir iktidar hakkinda yeni bir araştirma // ASOBİD. – 2018. – № 2(4). – S. 61–73.; Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de yerel yönetim … – S. 16–17.

[86] Matyoqubov T. Ilk o’rta asrlarda Xorazm davlatchiligi tarixi... – B. 5; Otaxo‘jayev A va b. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm… – B. 147.

foydalanishgan[87]. So‘nggi yillarda yaratilgan O‘zbekiston tarixining XI jildida Xorazmning IX – X asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yoritishda foydalanishgan[88].

Muallifi noma’lum – “Kitobi hudud al-olam minal mashriq ilal mag‘rib” (qisqartmasi “Hudud-ul olam” – olam chegaralari) – tarixiy-geografik asar hisoblanadi. Asar fors tilida 982–983-yillarda Juzjon viloyatida yozilgan bo‘lib, shu viloyat hokimi amir Abul Xoris Muhammad ibn Ahmadga bag‘ishlangan. Bu asar o‘z zamonasida ham, XIX asr oxirigacha ham shu nom bilan hech qaysi manbada qayd etilmagan. Asar jami 60 bob (maqola)dan iborat bo‘lib, muqaddimadan keyin quruqliklarning chegaralari, dengiz va qo‘ltiqlar, orollar, tog‘lar, konlar, daryolar, cho‘llar va qumlar, so‘ngra jahondagi viloyatlar ta’rifi berilgan, shuningdek ko‘plab etnografik va iqtisodiy ma’lumotlar keltirilgan. E. Zaxau, De Guye, N.I. Vaselovskiy, H. Landsel, L.G. Strenjlarning dastlabki ishlarida, sovet davri olimlaridan A.Y. Yakubovskiy, M.V. Voyevodskiy, S.P. Tolstov, Y. G‘ulomov, E.E. Nerazik, xorijlik tadqiqotchilardan K.E. Bosvort, X. Borjian va E. Vaser, J. Hiraviy, A. O‘zbayaktar ishlarida Kat va Gurganch shaharlarning iqtisodiy ahvoli va siyosiy holati, jumladan, shaharlarning savdo markazlari sifatida tutgan o‘rni, iqtisodiy boyligi, asosiy mahsulotlarini keltirib o‘tganlar. Shuningdek, Xorazmning etnik va ijtimoiy tarkibi, shaharsozlik va ekologik muammolar, tarixiy geografiya va toponimika masalalarini o‘rganishda yuqoridagi manbaga murojaat qilganlar[89].

---

[87] Vaissière É. Sogdian traders. Tr.J.Ward. – Leiden-Boston, 2005. – P. 181–190; Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества …. – С. 56; Heravi C, Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk:Hârezm’de Sâmânîlere tâbi yüz yillik bir iktidar hakkinda yeni bir araştirma // ASOBİD. – 2018. – № 2. – S. 81–86; Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de yerel yönetim… – S. 27–28;
هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷.

[88] Otaxo‘jayev A va b. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm … – B. 174.

[89] Sachau E. Zur geschichte und chronologie von Khwarizm. – Wien: Bei Karl Gerolds Sohn, 1873; Goeje.M.J. Das alte Bett des Oxsus Amu-daraja. – Leiden: E.J Brill, 1875; Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хиванском ханстве от древнейших времен до настоящего. – Санкт-Петербург, 1877; Landsell H. Russian Central Asia including Kuldja, Bukhara, Khiva and Merv. Vol. I-II. – London: Houghton, Mifflin, and company,1885.; Strange L.G. The Lands of the Eastern Califate. – Cambridge: Cambridge university press, 1905; M. Voyevodsky. A Summary report of a Khwarizm expedition // Bulletin of the American Institute for Iranian Art and Archaeology. – 1938. – № 5; Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948; O‘sha muallif. По следам древне хорезмиискоӣ цивилизации. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948; Ғуломов Я.Ғ.

IX – XIII asrlar oralig‘ida yozilgan bir qator arab geograflarining asarlari Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shaharlari va savdo yo‘llari haqida muhim ma’lumotlar beradi[90]. Ularning mualliflari asosan geograflar bo‘lib, ular mamlakatlar va shaharlarning joylashuvi, savdo yo‘llari va iqtisodiy salohiyatini tasvirlaganlar. Shuning uchun ularning asarlarida ijtimoiy hayot va siyosiy voqealar haqidagi ma’lumotlar kamroq uchraydi.

XX asrning 30-yillari oxirida tashkil etilgan Xorazm Arxeologiya-Etnografiya Ekspeditsiyasi (XAEE) faoliyati Xorazm tarixining “noaniq davri”ga oid yangi ma’lumotlarni ochib berishda muhim rol o‘ynadi. Ekspeditsiya tomonidan olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan dalillar, yuqorida qayd etilgan arab geograflarining asarlari bilan qiyosiy tahlil qilinganida, Xorazm tarixiga oid ayrim qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga imkon yaratdi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan moddiy madaniyat namunalari, arab geograflarining yozma manbalaridagi ma’lumotlarni to‘ldirdi va boyitdi. Bu esa Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, shaharsozlik madaniyati va savdo aloqalari haqidagi tasavvurlarimizni kengaytirishga zamin yaratdi. Sovet davrida A.Y. Yakubovskiy, M.V. Voyevodskiy, S.P. Tolstov, Y. G‘ulomov, E.E. Nerazik, N.N. Vaktruskaya kabi tadqiqotchilar o‘z ishlarida XAEE ning arxeologik topilmalariga tayanib, arab geograflarining asarlaridagi ma’lumotlarni qayta tahlil qildilar va Xorazm tarixiga oid yangi xulosalar bilan boyitishganini alohida qayd etish lozim[91].

Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1957; Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского периода // ТХАЭЭ, т. IV. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959; Bosworth C.E. Āl-e Afrīḡ” // Encyclopædia Iranica. – 1983. – №7. – P. 743–745; O‘sha muallif. Āl-e Maʾmūn // Encyclopaedia Iranica. – 1984. – № 7. – P. 762–764; Borjian H. Kāṯ // Encyclopaedia Iranica. – 2012. – № 16. – P. 119–121; Vaissière É. Sogdian traders. Tr.J.Ward. Leiden-Boston, 2005; Heravi C, Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk: Hârezm’de Sâmânîlere tâbi yüz yillik... – S. 81–86; Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de yerel yönetim ... – S. 27–28.

[90] Ibn Xurdodbehning “Kitob al-masolik va-l mamolik”, al-Ya’qubiyning “Kitob al-buldon”, Istaxriyning “Kitob masalik va-l-mamolik”, ibn Xavqalning “Kitob ul-masolik va-l-mamolik”, Muqaddasiyning “Ahsan attaqosim fi ma’rifat alaqolim” va Yoqut Hamaviyning “Mu’jam al-buldon”, Ibn Fazlonning “Esdaliklari”

[91] M. Voyevodsky. A Summary report of a Khwarizm expedition // Bulletin of the American Institute for Iranian Art and Archaeology. – 1938. – № 5; Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК 1939 г.) // ВДИ. – 1941. – № 1; Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948; O‘sha muallif. По следам древне хорезмиискоӣ цивилизации. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948; O‘sha

Milliy tarixshunoslikda Xorazmning IV – X asrlar siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti masalasi yoritilishida ma’lum bir cheklovlar va takrorlanishlar kuzatiladi. Sovet davrida shakllangan tarixshunoslik an’analari va yondashuvlari mustaqillik yillarida ham o‘z ta’sirini saqlab qolganligini tahlil qilingan adabiyotlardan ko‘rish mumkin. Tadqiqotchilar asosan sovet olimlarining xulosalariga tayangan holda mavzuni yoritishga intilganlar. Ko‘pgina ishlar sovet davridagi tadqiqotlarning xulosalarini qayta ishlatish bilan cheklanib qolgan. Shu bilan birga, G‘arb va boshqa xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlarning natijalari va yondashuvlari milliy tarixshunoslikda yetarlicha inobatga olinmagan.

Mustaqillik yillarida milliy tarixshunoslikda Xorazmning o‘rta asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti masalasi yoritilishida ijobiy siljishlar kuzatilsa-da, sovet davri tarixshunosligidan to‘liq voz kechilmaganligi va yangi yondashuvlarning yetarli darajada qo‘llanilmaganligini adabiyotlar tahlili asosida kuzatish mumkin. Masalan, O. Masharipov, M. Matniyozov, T. Matyoqubov, B. Turg‘anov, A. Urazboyev kabi tadqiqotchilarning ishlarida mavzuning yoritilishi va xulosalarida sovet davri tadqiqotlardan deyarli farq yo‘qligi kuzatish mumkin[92].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm tarixini o‘rganishda mualliflar yozma manbalarning kamligi, tafsilotlarning yetishmasligi va manbalar o‘rtasidagi ziddiyatlar kabi muammolarni qayd etishgan. Sovet davrida bu masalalarga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-

muallif. Хорезмская археолого-этнографпческая экспедиция Академии Наук СССР (1945–1948 гг.) // ТХАЭЭ, т. I. – Москва: Изд-во АН СССР, 1952; O‘sha muallif. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции 1949–1953 гг. // ТХАЭЭ, т.2. – Москва: Изд-во АН СССР, 1958; Ғуломов Я.Ғ. Ўтмиш излари // Гулистон. – 1937. – № 4; O‘sha muallif. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1957; Неразик Е.Е., Рапопорт Ю.А. Куюк-кала в 1956 г. // МХЭ, вып.1. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959; O‘sha muallif. Керамика Хорезма афригидского периода // ТХАЭЭ, т. IV. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959; O‘sha muallif. Раскопки Якке-Парсана. МХЭ, вып.7. – Москва: Изд-во АН СССР, 1963. O‘sha muallif. Сельское жилище в Хорезме (I-XIV вв.) (Из истории жилища и семьи). Археолого-этнографические очерки // ТХАЭЭ. – Т.IX. – Москва: Наука, 1976; O‘sha muallif. Хорезм в IV–VIII вв. – Средняя Азия в раннем средневековье. – Москва: Наука, 1999.; Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // МХЭ, вып.7. – Москва: Изд-во АН СССР, 1963.

[92] Машарипов О. Хоразм тарихидан сахифалар. – Тошкент, 1994. – Б. 15–23; Матниёзов М. Хоразм тарихи I жилд. – Урганч, 1996. – Б. 122–126; М. Матниёзов, Я. Олламов. Хоразм давлатчилиги тарихи. ўқув–услубий қўлланма. – Урганч, 2009. – Б. 94; Matyoqubov T. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligi tarixi… – B. 11–17; Turganov B., Urazbayev A. Kot qal’asi – Afrig‘iylar sulolasi poytaxti // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – № 2. – B. 551–557.

da, izlanishlar tarqoq bo‘lib, umumiy manzarani to‘liq aks ettirmagan. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda esa yangi yondashuvlar va qarashlar deyarli shakllanmagan, aksincha, oldingi ma’lumotlar va yondashuvlar tadqiqotdan tadqiqotga ayrim o‘zgarishlar bilan ko‘chgan. Xorijiy tarixshunoslikda, xususan, ingliz, eron va turk olimlari tomonidan alohida qiziqish uyg‘otganligini alohida e’tirof etish mumkin. Biroq G‘arb va Eron tarixshunosligida Xorazmni Turon hududidan ajratib ko‘rsatish va uni ko‘proq Eron kontekstida o‘rganishga moyillik kuzatiladi.

§ 1.2. Arxeologik tadqiqotlar va ularning xulosalari

Afrig‘iylar sulolasi tarixi yozma manbalardan tashqari moddiy manbalar asosida ham tadqiq qilingan. Zero, yozma manbalarda yoritilmagan va ochiq qolgan masalalarni arxeologik tadqiqotlar to‘ldiradi. Bu esa ushbu tadqiqotlarning xulosalarini tahlil qilish ahamiyatini oshiradi. Shu nuqtayi nazardan Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning afrig‘iylar sulolasiga oid qismini tahlilga tortish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dastlabki arxeologik tadqiqotlar boshlanganidan hozirgi vaqtga qadar o‘tgan davr mobaynidagi izlanishlar natijasida sulola tarixiga oid turli yondashuvlar, qarashlar va xulosalar ilgari surilgan. Bu jarayonda turli masalalar yuzasidan tadqiqotchilar o‘rtasida qizg‘in bahs-munozaralar bo‘lganligini kuzatish mumkin. Yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishini arxeologiya fanining rivojlanishi, yangi kashfiyotlar, davlat siyosatidagi o‘zgarishlar hamda tarixchilar qarashlarining evolyutsiyasi bilan izohlash mumkin.

Hozirga qadar bo‘lgan arxeologik tadqiqotlarni olingan natijalar salmog‘i hamda muammoga nisbatan yondashuvlarga siyosiy omillarning ta’sir qilishiga ko‘ra ikki bosqichga ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) Sovet davridagi tadqiqotlar (XX asrning 30–80-yillari); 2) Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar (1991–2024-yillar).

Birinchi bosqich ya’ni, sovet davri tadqiqotlari tahlilini XX asrning 30- yillaridan boshlash maqsadga muvofiq. Chunki Xorazm hududidagi arxeologik tadqiqotlar XX asrning 20-yillarida boshlangan bo‘lsa-da, afrig‘iylar sulolasi davriga oid moddiy yodgorliklar o‘rganilmaganligi sababli dastlabki yillardagi ishlar haqida to‘xatlib o‘tishga hojat yo‘q.

Xorazm vohasida dastlabki arxeologik tadqiqotlar boshlanishiga tarixchilar oldiga SSSR xalqlari, xususan Markaziy Osiyo respublikalari xalqlari tarixini yaratish vazifasi turtki bo‘lgan edi. S.P. Tolstov 1938-yilda tarixchilar zimmasiga yuklangan vazifani sharhlar ekan, “...hozirda sovet tadqiqotchilari jamoasining umumiy sa’y-harakatlari bilan yaratilayotgan SSSR qadimgi tarixining besh jildli kitobida O‘rta Osiyo respublikalari tarixi sharafli o‘rinlardan birini egallashi kerak”, deb ta’kidlagan[93]. Ushbu davrdagi qazishma ishlarida vohaning IV – X asrlardagi tarixini yoritish hamda qator masalalarga oydinlik kiritish bilan bog‘liq ma’lumotlar ilmiy muomalaga kiritilgan. Dastlabki tadqiqotlar asosan yozma manbalardagi ma’lumotlarni tasdiqlovchi arxeologik dalillarni izlash va ularni o‘zaro solishtirish orqali amalga oshirilgan.

1937-yilda tashkil etilgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE) mintaqadagi arxeologik tadqiqotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Xorazm vohasidagi 400 dan ortiq arxeologik yodgorlikning o‘rganilishi natijasida ushbu sulolaga mansub 60 dan ziyod yodgorlikda muqim (statsionar) qazish ishlari amalga oshirildi [1.1-ilova].

XAEE faoliyatini maxsus tadqiq qilgan F. Shomukarramova Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga uzoq vaqt davomida puxta tayyorgarlik ko‘rilganini alohida ta’kidlaydi. Bu tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri sovet tadqiqotchilarining arab va fors tillarini puxta o‘zlashtirganidir. Bu esa ularga Markaziy Osiyo tarixi haqidagi qimmatli yozma manbalarni asl nusxalaridan o‘qish, tahlil qilish va qazishmalar natijalari bilan solishtirish imkonini bergan[94]. Bu xususida I. Arjantseva ham dastlabki kuzatuv ishlarini samarali tashkil etish maqsadida, hududning tarixi va geografiyasini chuqur biladigan aholi vakillarining bilim va

[93] Толстов С.П. Основные вопросы древней истории Средней Азии // ВДИ. – 1938. – № 1. – С. 176.

[94] Шамукарамова Ф. «Хорезмская экспедиция» – уникальное явление в археологической науке // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. А. Алимова. –Тошкент–Урганч, 2018. – Б. 434; O‘sha muallif. “Khorezm expedition” – a unique phenomenon in archaeological science // Academicia globe: Interscience Research. – 2022. – № 3. – P. 123–127.

tajribasidan foydalanilgani, bu esa o‘z navbatida ekspeditsiyaning samaradorligini oshirishga yordam berdi deb ta’kidlaydi[95].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda XAEE tadqiqot yo‘nalishlari sezilarli darajada kengaydi va chuqurlashdi. Bu davrda arxeologik tadqiqot usullari ham ancha takomillashib, sovet arxeologiyasida birinchi marta vizual aviakuzatuvdan foydalanish yo‘lga qo‘yildi[96]. Bu davrdagi tadqiqotlar asosan Amudaryo va Sirdaryoning qadimiy o‘zanlari, vohalarga aholining kelib joylashishi, mamlakat tarixi va madaniyatining ayrim davrlari tavsifini kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratildi. Shunigdek, Xorazm vohasiga qo‘shni bo‘lgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholining ijtimoiy tuzilishini o‘rganish kabi yirik muammolar ham qamrab olindi. Urushgacha bo‘lgan davr tadqiqotlarida biror arxeologik yodgorlik alohida ajratilib o‘rganilgan bo‘lsa, urushdan keyingi izlanishlarda kompleks yondashuv qo‘llanildi.

Ekspeditsiyaning asosiy qismi bir vaqtning o‘zida bitta hududning muqim (statsionar) qazishmalariga e’tibor qaratdi. Jumladan, 1945–1951-yillarda Tuproqqal’a, 1952–1957-yillarda esa Qo‘yqirilganqal’a yodgorliklari o‘rganildi[97]. Keyinchalik, ekspeditsiya tarkibida bir nechta mustaqil arxeologik guruhlar tuzilib, ular bir vaqtning o‘zida turli joylarda qazish ishlarini olib bordilar. Bu esa, katta hajmdagi arxeologik dalillarni to‘plash va olingan ma’lumotlarni tezkorlik bilan nashr etish imkonini berdi[98]. Ushbu davrdagi arxeologik izlanishlarning yana bir yutug‘i sifatida ko‘p tarmoqli tadqiqotlar olib boradigan kompleks ekspeditsiya sifatida shakllanganligini ko‘rsatish mumkin. Ularda arxeologlar va etnograflardan tashqari, geologlar, geomorfologlar, tuproqshunoslar, geograflar, antropologlar ham ishtirok etdi. Keng ko‘lamda aerusullarning qo‘llanilishi esa tadqiqotlarning samaradorligini

[95] Arzhantseva I, Härke. The General and his Army: Metropolitans and Locals on the Khorezmian Expedition // Masters and Natives. Ed. Gorshenina S, Bornet P , Michel E. Rapin C. Berlin-Boston: De Gruyter, 2019. – P. 148.

[96] Аржанцева И.А. Хорезм. История открытий и исследований. Этнографический альбом. Ульяновск: ООО “Артишок”, 2016. – С. 52–56.

[97] Yuqoridagi asar. – B. 83.

[98] Arzhantseva I. Terenozhkin and Tolstov:Faustian bargains in Soviet archaeology // Archaeological and linguistic research. Materials of the Humboldt-Conference. – 2012. – P. 53.

oshirdi [99] . Qazish ishlarining asosiy qismi mahalliy ishchilar tomonidan amalga oshirildi. Unda arxeologlar va yordamchilar soni 100 ga, mahalliy ishchilar soni esa 400 ga yaqin bo‘lgan. Ekspeditsiya rahbari S.P. Tolstov yaqin atrofdagi kolxozlardan “ilm-fan uchun” ishchi kuchi so‘ragan holatlar ham mavjud bo‘lib, mahalliy hukumat bu talabni bajargan. Hatto ayollar ham qazishma ishlarida faol qatnashganlar[100].

S.P. Tolstov boshchiligidagi XAEEning 30–50-yillarda olib borgan arxeologik izlanishlarining natijalari masala yuzasidan mavjud bilimlarni kengaytirishga xizmat qildi. Mintaqa tarixining IV – VIII asrlardagi ijtimoiy, siyosiy va madaniyat hayotiga oid ma’lumotlarga tuzatishlar kiritildi hamda sulolaning davriy chegaralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, u davr tadqiqotlarida afrig‘iylar sulolasi tarixiga oid quyidagi yangi bilimlar shakllandi:

– Sulola tarixiga oid Beruniy, Maqdisiy, ibn Xavqal, Yoqut Hamaviy, Ya’qubiy va boshqalarning ishlarida keltirilgan ma’lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijasida isbotlandi. Shungdek, yozma manbalarda Xorazm shaharlar soni 32 tani tashkil qilgan deb, qayd etilgan bo‘lsa, XAEE tadqiqotlari natijasida 40 ta shahar mavjudligi ko‘rsatildi. Xorazmning Xitoy, Sharqiy Yevropa, Vizantiya bilan savdo aloqalariga oid ma’lumotlar mustahkamlandi[101].

– Afrig‘ga tegishli tanganing topilishi natijasida Afrig‘ shaxsi aniqlandi[102].

– Xorazm IV – VI asrlarda chuqur siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy inqirozni boshdan kechirganligi aniqlandi. Shuningdek, ko‘rsatilgan davr “До феодализм” ya’ni “mulkchilik munosabatlari o‘rnatilishidan oldingi davr” sifatida baholandi[103].

– Xorazmning ibtidoiy jamoa tuzimidan XIV asrgacha bo‘lgan 11 ta tarixiy bosqichlari davrlashtirildi. Shulardan: 7-bosqich – kushon-afrig‘iy yoki ilk afrig‘iy davr (IV – VI asrlar); 8-bosqich –

[99] Arzhantseva I. Terenozhkin and Tolstov: Faustian bargains in Soviet archaeology…. – P. 53.
[100] Arzhantseva I. The Khorezmian Expedition: Imperial Archaeology and Faustian Bargains in Soviet ... – P. 12
[101] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. таржимон: Муҳаммадқулов А.; Масъул муҳаррир: Бекмуҳаммад У. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014. – Б. 274.
[102] Толстов С.П. По следам древне хорезмиискоӥ цивилизации. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948. – С. 192.
[103] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества в низовьях Амударьи. – Москва: Гриф и К, 2013. – С. 4–5.

afrig‘iy davri yoki o‘rta afrig‘iy (VII – IX asrlar); 9-bosqich – afrig‘iy-somoniy yoki so‘nggi afrig‘iy davri (X –XI asrlar)[104] [1.2-ilova];

– Topilgan tangalar va sopol buyumlarining o‘rganilishi natijasida Xorazm madaniyatining Kushonlar davlati bilan chambarchas bog‘liqligi va Eron sosoniylaridan keskin farq qilishi aniqlandi. Markaziy Osiyo, Eron va Sharqiy Yevropa xalqlari orasida shu vaqtgacha mavjud bo‘lgan “yagona eron madaniyati” nazariyasi rad etildi[105].

– Xorazm shahrining rejasi tuzildi va Kushon hamda afrig‘iylar davrlariga oid qatlamlar stratigrafik jihatdan bog‘landi[106].

– Xorazmning eftaliylar va Turk xoqonligi davrida o‘z mustaqilligi saqlanib qolganligi, Xorazm G‘arbiy Turk xoqonligiga vassal davlat sifatida emas, balki tengma-teng ittifoqdosh davlat bo‘lganlgi g‘oyasi ko‘tarildi[107].

– 1948–1949-yillarda Tuproqqal’a arxiv hujjatlarini o‘z ichiga oluvchi teriga yozilgan 8 ta hamda yog‘ochga yozilgan 20 ta hujjatlar ilk bor S. P. Tolstov tomonidan o‘qildi. Shu bilan birga ostadonlarga bitilgan yozuvlarning o‘qilishi mintaqada yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi[108].

1956-yilda Xorazmning arxeologiya xaritasining tuzilishi, 1958-yilda O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston filialida “Arxeologiya” bo‘limining tashkil etilishi ekspeditsiya faoliyatini yanada kengaytirdi[109].

XX asrning 30–50-yillarida Xorazm hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning o‘ziga xos metodologik jihati yozma manbalardagi ma’lumotlarni tasdiqlovchi dalillarni izlash va ularni o‘zaro solishtirish orqali amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarning metodologik asosini S.P. Tolstovning ilmiy qarashlari tashkil etdi.

---

[104] Толстов С.П. Хорезмская археологическая экспедиция 1940 г. // Краткие сообщения ИИМК. Вып. XII. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1946. – С. 89–90

[105] Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма (основные итоги работ Хорезмской экспедиции ИИМК 1939 г.) // ВДИ. – 1941. № 1. – С. 9

[106] Аржанцева И.А. Хорезм история открытий и исследований… – С. 37.

[107] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб..... – Б. 253.

[108] Ўзбек давлатчилиги тарихи. I жилд. Маъсул муҳаррирлар: Ртвеладзе Э. В., Алимова Д.А. – Тошкент, 2021. – Б. 487

[109] Дониёров А. Х. Хоразм археология-этнография экспедицияси Ўзбекистон этнография фанида: Ўқув қўлланма. Тошкент, 2007. – Б. 37–39.

Xususan, uning “Qadimgi Xorazm”, “Xorazm madaniyatini izlab” va “Oks va Yaksart daryolarining qadimgi deltalari bo‘ylab” kabi yirik monografiyalarida XX asrning 30-yillaridan boshlab amalga oshirilgan qazishma ishlari natijasida qo‘lga kiritilgan ashyoviy dalillarga qarab Xorazmning IV – VIII asrlardagi tarixi umumiy tavsiflangan [110]. Masalan, S.P. Tolstov fikricha, IV – VIII asrlar Xorazmda “ilk feodal davri” bo‘lib, jamiyatning asosiy tarkibiy qismi feodallar (dehqon) va ularga qaram bo‘lgan hunarmandlar va xizmatkorlardan iborat bo‘lgan. Bu davrda shaharlar dehqonlarning qal’alari majmuasi sifatida tasavvur qilinib, hunarmandchilik esa qal’alar yonida rivojlangan oddiy faoliyat turi sifatida qaralgan[111]. S.P. Tolstovning bu qarashlari o‘sha davr tadqiqotchilari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlandi va Xorazm tarixiga oid ko‘plab ilmiy ishlarda aks etganini adabiyotlar tahlilidan ko‘rish mumkin.

Shunga qaramay, o‘sha davrning siyosiy-mafkuraviy sharoiti tadqiqotlarning yo‘nalishi va natijalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatganini qayd etish lozim. Sovet davlatida hukmron bo‘lgan kommunistik mafkura va markscha-lenincha nazariyasi barcha sohalarda, jumladan, arxeologiyaga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Tadqiqotlar sinfiy kurash va tarixiy materializm nuqtayi nazaridan olib borildi. Bu esa, o‘z navbatida, moddiy madaniyatga ortiqcha urg‘u berilishiga va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, siyosiy tuzilmalar hamda diniy qarashlar kabi muhim jihatlarning yetarli darajada yoritib berilmasligiga olib keldi.

Bu borada, S.P. Tolstovning 1929-yilda marksistik tarixchilarning I Butunittifoq konferensiyasi nutqi hamda 1932-yilda chop etilgan “Sovet o‘lkashunosligiga kirish” risolasida tarixni marksistcha nuqtayi nazardan qayta talqin qilish zarurligi ta’kidlanganini ko‘rish mumkin. I.V. Stalinning 1938-yilda nashr etilgan “Dialektik va tarixiy materializm to‘g‘risida”gi kitobi sovet davlatida marksistcha nazariyaning asosiy manbayi sifatida qabul qilindi [112]. Arxeologlar o‘z tadqiqotlarida siyosiy mafkuraga

[110] Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Издание МГУ, 1948; O‘sha muallif. По следам древне хорезмиискоӣ цивилизации. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948; O‘sha muallif. По древним делтам Окса и Яксарта. – Москва: Восточная литература, 1962.

[111] Толстов С.П. По следам древне хорезмиискоӣ цивилизации. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948. – С. 15.

[112] Толстов С. П. Выступление в прениях // Труды I Всесоюзной конференции историков-марксистов. Т. II. – Москва: Коммунистическая академия // Общество

asoslangan holda, afrig‘iylar davrini ham ishlab chiqarish munosabatlarining besh bosqichi (ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal, kapitalistik va sotsialistik) doirasida o‘rganganlar. I. Arjanseva bu borada S.P. Tolstov siyosiy faoliyatini baholar ekan, o‘z ambitsiyalarini ro‘yobga chiqarish va maqsadlariga erishish uchun sovet davlati bilan “Faust bitimi”ni tuzganligini qayd etgan. Bu bilan I. Arjanseva S.P. Tolstov faoliyatini nemis yozuvchisi Gyote asaridagi qahramon Faustning muayyan maqsadga erishish uchun axloqiy yoki ma’naviy qadriyatlardan voz kechish kabi xususiyatlariga tenglashtiradi. Bu kontekstda sovet hukumati “iblis” rolida, S.P. Tolstov esa o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun murosaga tayyor inson sifatida qaralgan[113].

Sovet davridagi arxeologik tadqiqotlarning bunday mafkuraviy yo‘naltirilganligi va markazlashganligi o‘zining salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqardi. Ko‘plab arxeologik yodgorliklar yetarli darajada o‘rganilmay qoldi. Tadqiqotlarning natijalari ko‘pincha mafkuraviy talablarga moslashtirildi va tarixiy haqiqat buzib ko‘rsatildi. Xususiy mulk va xususiy muzeylarning yo‘qligi hamda tadqiqotlarning o‘ta markazlashuvi topilgan ashyolarning barchasi davlat ixtiyoridagi tashkilotlarga o‘tkazilishiga olib keldi. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning erkinligini chekladi. Shunga qaramay, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining faoliyati mintaqadagi arxeologik tadqiqotlarning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Ekspeditsiya Moskvadagi Moddiy madaniyat instituti, Ermitaj muzeyi, O‘zkomstaris va Qoraqalpoq ASSR Markaziy folklor muzeyi tomonidan moliyalashtirildi[114].

Sovet hukumati arxeologiyadan o‘tmishni o‘rganish vositasi sifatida emas, balki uning natijalaridan zamonaviy iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanishga intilgan. XAEE faoliyati

---

историков-марксистов, 1929. – С. 331–332; O‘sha muallif. Введение в советское краеведение. Москва-Ленинград.1932.; Сталин И.В. О диалектическом и историческом материализме // https://www.marxists.org/russkij/stalin/t14/t14_55.htm

[113] “Faust bitimi” - bu nemis afsonasidan olingan ibora bo‘lib, odatda ma’lum bir maqsadga erishish uchun axloqiy yoki ruhiy qadriyatlardan voz kechishni anglatadi. Ba’zi tarixiy-badiiy asarlarda “Faust bitimi” iborasi “iblis bilan kelishuv” ma’nosida qo‘llaniladi. Tadqiqotchi bu o‘rinda sovet hokimiyatini “iblis”ga qiyoslab, S.P.Tolstov o‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun ma’lum kelishuvlarga borgan, degan fikrni ilgari surmoqchi bo‘lgan.[Arzhantseva I. Terenozhkin and Tolstov:Faustian bargains in Soviet archaeology… – P. 55.

[114] Итина М.Л. К 90-летию С.П. Толстова и 60-летию Хорезмской археолого-этнографической экспедиции // Российская археология. – 1997. – № 4. – С. 189–193.

ham bu siyosatdan chetda qolmadi. Ekspeditsiya vazifalariga Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida yangi irrigatsiya tizimini tashkil etish, Sibir daryolarining oqimini qisman Markaziy Osiyoga yo‘naltirish kabi yirik loyihalarni amalga oshirishda yordam berish ham kiritilgan edi [115] . Davlatga qarashli tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilgan bu loyihalar ekspeditsiya byudjetini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Arxeologlarning vazifasi yer osti amaliyotlari va keyinchalik toshqinlar ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan joylarni ko‘rsatuvchi rejalashtirilgan kanal yo‘llari bo‘yicha arxeologik xaritalarni tuzishdan iborat edi[116].

Shunday bo‘lsa-da, afrig‘iylar sulolasi davri 1930–50-yillarda kam o‘rganilgan mavzulardan biri ekanligini ta’kidlash kerak. Chunki, S.P. Tolstov va uning hamkasblari tadqiqotlari asosan Xorazmning qadimiy davrlariga qaratilgan bo‘lib, ilk o‘rta asrlardagi shahar madaniyati, qurilish ishlari, san’at va madaniy aloqalar kabi muhim jihatlar yetarlicha yoritishmagan. Bu holatni O. Qdirniyozov va B. Sa’dullayev kabi tadqiqotchilar sovet davridagi mafkuraviy cheklovlar bilan izohlaydilar [117] . Ularning fikricha, Xorazm sivilizatsiyasining yutuqlari o‘sha davrda fundamental ilmiy muammo sifatida qaralmagan. Ularning fikrlariga qo‘shimcha qilgan holda aytish mumkinki, arxeologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari boshqa maqsadlarga, ya’ni SSSR xalqlari tarixini yozishda har bitta hududning qadimiyligini aniqlash, unga ilmiy baho berishga qaratilgan edi.

1960–1980-yillardagi arxeologik tadqiqotlarda Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston arxeologiyasida katta yutuqlarga erishdi. D.A. Alimova ta’kidlaganidek, “O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda bu davrdagi asarlarni tahlil qilish uning arxeologiya ilmini rivojlantirishi jihatidan eng samarali va boy davr

[115] Arzhantseva I, Härke. The General and his Army: Metropolitans and Locals on the Khorezmian Expedition // Masters and Natives. Ed. Gorshenina S, Bornet P , Michel E. Rapin C. Berlin-Boston: De Gruyter, 2019. – P. 140–141.

[116] Arzhantseva I. The Khorezmian Expedition: Imperial Archaeology and Faustian Bargains in Soviet Central Asia… – P. 12–15.

[117] Қдырниязов О.Ш. Марказий Осиё цивилизацияси ва илк ўрта аср Хоразм маданияти // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоалари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2013. – Б. 65–69; Саьдуллаев Б., Каримов Я. Жанубий Хоразмда илк ўрта аср қишлоқ манзилгоҳлари ҳақида айрим мулоҳазалар (Хоразм вилояти мисолида) // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоалари ёш тадқиқотчилар талқинида. Самарқанд, 2013. – Б. 66–70.

bo‘lgan”[118]. Bu davrda ayniqsa, IV – VIII asrlarga oid arxeologik yodgorliklarni o‘rganishga katta e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, Orolbo‘yi hududidagi dehqonlar va chorvadorlarning o‘zaro hamkorligi masalasi ham o‘rganildi. Bunga sabab sifatida o‘rta asrlar tarixiga qiziqishning ortishi hamda IV – VIII asrlardagi monumental binolar nisbatan yaxshi saqlanib qolganligini ko‘rsatish mumkin[119]. Mazkur davrdagi tadqiqotlar natijasida Xorazmning ilk o‘rta asrlariga oid ko‘plab yangi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi hamda 30–50-yillardagi yondashuv, shu jumladan, S.P. Tolstovning ayrim ilmiy qarashlari qayta ko‘rib chiqildi va tuzatildi.

Bunga misol sifatida E.E. Nerazikning yillar o‘tib Xorazm jamiyatining tuzilishi va rivojlanish bosqichlari masalasidagi fikrini keltirish mumkin. U S.P. Tolstovning qarashlarini ma’lum darajada inkor etib biryoqlama va soddalashtirilgan deb hisoblagan[120]. Xususan, Xorazm jamiyatining tuzilishini faqat sinfiy munosabatlar bilan tushuntirish, shaharlarning rivojlanishini esa dehqonlarning qal’alari bilan bog‘laganligini tanqid qilib, Xorazm jamiyatining murakkab tuzilishga ega bo‘lganligini, unda turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar mavjud bo‘lganligini keltirib o‘tgan[121]. Shuningdek, tadqiqotchi shaharlarning rivojlanishiga nafaqat dehqon qal’alari, balki savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniyatning rivoji ham muhim ta’sir ko‘rsatganligini qayd etgan[122]. E.E. Nerazikning ushbu fikrlari fanda mazkur masalaga oid yangi qarashlar paydo bo‘lganligini hamda S.P. Tolstov o‘rnatgan ilmiy qarashlar doirasidan chiqish boshlanganini ko‘rsatadi.

Bu paytda arxeologik tadqiqotlarni olib borishda turli qiyinchiliklar kuzatilganligini qayd etib o‘tish kerak. Jumladan, sovet davlatida 1970–1980-yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Markazdan ajratiladigan mablag‘larning qisqarishi natijasida mahalliy ishchilarni yollash imkoniyati cheklandi. Buning o‘rniga, poytaxtdagi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalardan

[118] Алимова Д.А. Ўзбекистон археологияси тарихшунослигидан: Қадимги ва антик давр давлатчилик институтлари. – Тошкент: Bookmany Print, 2024. – Б. 12.
[119] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества … – С. 6–9.
[120] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества … – С. 3–5.
[121] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.
[122] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

ta’tilga chiqqan talabalar va yosh mutaxassislar jalb qilindi. Ularga yo‘l xarajatlari va bepul oziq-ovqat bilan ta’minlash evaziga ekspeditsiya ishlarida qatnashish taklif etildi [123] . Moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, arxeologik tadqiqotlar davom ettirildi va yangi xulosalar fanga olib kirildi. Bu davrda tadqiqotlar ko‘lami toraydi va aniqroq mavzularga yo‘naltirildi. Xususan, afrig‘iylar sulolasi davriga oid arxeologik yodgorliklarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqotlar endilikda tangashunoslik, kulolchilik, hunarmandchilik, yozuv, shahar va qishloqlarda turar joy tizimi, siyosiy va iqtisodiy institutlar, aholining diniy mafkurasi kabi bir nechta masalalarni qamrab oldi. Masalan, afrig‘iylar davrining qishloq aholi manzilgohlari va shaharlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, sopol buyumlari tavsifi E.E. Nerazik va N.N. Vaktruskaya tomonidan tadqiq etildi [124] . Xorazm yozuvining rivojlanish bosqichlari asosan V.A. Livshits tomonidan o‘rganildi[125]. Xorazmning eftaliylar va Turk xoqonligi bilan munosabatlari, shuningdek Kerdar, Xamjird masalalari va ostadonlar A.V. Gudkova va V.N. Yagodin ishlarida aks etdi[126]. Tangashunoslik tadqiqotlar asosan B.I. Vaynberg va E.V. Rtveladze tomonidan olib borildi[127]. G.P. Snesarev ishlarida afrig‘iylar bog‘liq

[123] Arzhantseva I. The Khorezmian Expedition: Imperial Archaeology and Faustian Bargains in Soviet … – P. 14–17.

[124] Неразик Е.Е.Сельские поселения афригидского Хорезма: (По материалам Беркут-калинского оазиса). – Москва: Наука, 1966; O‘sha muallif. О некоторых направлениях этнических связей населения Южного и Юго-Восточного Приаралья в IV—VIII вв //История, археология и этнография Средней Азии. – Москва, 1968. – С. 197–207; O‘sha muallif. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1981. – С. 219–227; Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // МХЭ, вып.7. – Москва: Изд-во АН СССР, 1963.

[125] Лившиц В.А. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II (Юридические документы и письма). Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. – Москва: Издательство восточной литературы, 1962; O‘sha muallif. The Khwarezmian calendar and the eras of the Ancient Chorasmia // Acta Antiqua Acadaemiae Scientiarum Hungaricae. t. 16, fasc. 14. – Budapest, 1968. – P. 433–446; Гудкова А.В, Лившиц В.А. Новые Хорезмийские надписи из некрополя Ток-Калы и проблема “Хорезмийской эры” // Вестник Каракалпакского филиала Академии Наук Узбекской ССР. – 1967. – № 1. – С. 133–158;

[126] Гудкова А.В. Ток-кала. – Тошкент: Фан, 1964; Гудкова А.В. Глава 6 /Топрак-кала Дворец. Ответ. редакторы Ю.А. Рапопорт, Е.Е. Неразик. – Москва: Наука, 1984. – С. 251–287. Ягодин В.Н, Ходжаёв Т.К. Некрополь древнего Миздакхана. – Ташкент: Изд-во Фан Узбекской ССР, 1970.

[127] Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1977; Ртвеладзе Э.В. По поводу династических связей Хорезма и Чаганиана в раннее средневековье // Вестник Каракалпакского филиала Академии Наук Узбекской ССР. –1980. – № 1. – С. 51–58.

madaniy va diniy urf-odatlar, marosimlar o‘rganilgan bo‘lsa [128], M. Mambetullayev, G‘. Xodjaniyozov ishlarida Mizdaxqon aholisining etnik taraqqiyoti va diniy mafkurasi rivoji jarayonlarini tadqiqini kuzatish mumkin [129]. O.I. Smirnova ishlarida arxeologik yodgorliklaring toponimikasi hamda Beruniy asarlarida tilga olingan afrig‘iy Xorazmshoh nomlarining kelib chiqishi atroflicha o‘rganilgan[130].

Ushbu tadqiqotlar natijasida Xorazmning ilk o‘rta asrlariga oid quyidagi yangi ilmiy xulosalar ilgari surildi. Shuningdek, 30–50-yillardagi yondashuv va qarashlar qayta ko‘rib chiqilib, oldingi hukmron xulosalarning aksariyati tuzatildi. 1960–1980-yillarda mavzu yuzasidan quyidagi yangi ma’lumotlar va ilmiy xulosalar olib kirildi:

– An’anaviy qulchilik, majburlash shakllari, natural va pul to‘lovlari haqida ma’lumotlar olindi, bu esa jamiyatning ijtimoiy tuzilishi haqidagi tasavvurlarni kengaytirdi[131].

– Hunarmandlarning shahar erkin aholisining katta qismini tashkil etganligi aniqlandi, bu ularning jamiyatdagi roli haqidagi oldingi qarashlarini o‘zgartirdi[132].

– Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyosining madaniyati va san’ati o‘zining boyligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turishi aniqlandi. Aholining diniy e’tiqodlari haqida yangi ma’lumotlar olindi[133].

---

[128] Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969; O‘sha muallif. Под небом Хорезма. – Москва: Мысль, 1973; O‘sha muallif. Хорезмсие легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – Москва: Наука, 1983.

[129] Ходжаниязов Г. Кзыл-кала (работы 1981–1982 гг.) // Археология Приаралья. Вып. 3 / Отв. Ред: С.К. Камалов, В.Н. Ягодин. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 51–65; Мамбетуллаев М., Манылов Ю.П., Юсупов Н., Кожаниязов Х. Исследования в Хорезмской области // АО. – 1974. – Москва: Наука, 1975; Мамбетуллаев М., Кдырниязов М.Ш. Городище Воянган // Археология Приаралья. Вып.I. – Ташкент: ФАН, 1982; Мамбетуллаев М. Топрак-кала Хивинская (раскопки 1973-I974 гг.) // Археология Приаралья. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1986; O‘sha muallif. Топрак-кала Шаватская (раскопки 1979–1980 гг.) // Археология Приаралья. Вып. III. – Ташкент: Фан, 1986.

[130] Смирнова О. И. Места домусульманских культов Средней Азии (по материалам топонимики) // Страны и народы Востока. Выпуск X. Средняя и Центральная Азия. География, этнография, история. – Москва: Наука, ГРВЛ, 1971.

[131] Литвинский Б.А. Социально-экономические отношения и структуры / Гл. XIII в кн.: История таджикского народа. Т. 1. Древнейшая и древняя история. – Душанбе: 1998. – С. 3–5.

[132] Маршак Б.И. Согд V—VIII вв. Идеология по памятникам искусства // Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. Средняя Азия в раннем средневековье. – Москва: Наука, 1999. –С. 176

– Turli turdagi aholi punktlari va uy-joylar aniqlandi, ba’zi hollarda turli darajadagi ma’muriy markazlarga qaramlik zonalari va ularning iyerarxiyasi belgilandi[134].

– Yirik kanallar boshlanishida joylashgan qal’alar bilan qishloq xo‘jalik oazislarining topografik asoslari o‘rtasidagi yaqinlik aniqlandi[135].

– Xorazm vohasining ayrim joylarida turar joy turlarining almashinuvi kuzatildi, bu esa turli turdagi ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi sifatida talqin qilindi.

– Tarixiy manbalarni tahlil qilish orqali afrig‘iylar sulolasining tarixi aniqlashtirildi. Beruniy tomonidan keltirilgan davrlashtirish va afrig‘iylar sulolasining shajarasi tangashunoslik materiallari bilan solishtirildi. S.P.Tolstovning ayrim ilmiy qarashlari qayta ko‘rib chiqildi va aniqliklar kiritildi. Masalan, Tolstov tomonidan afrig‘ga tegishli deb topilgan tanga aslida Bivasvarga tegishli ekanligi aniqlandi. Xorazmda yangi davrning boshlanishi 305/306-yildan emas, balki I asrning 30–40-yillari bilan belgilandi[136].

– XX asrning 30–50-yillardagi tadqiqotlarda IV – VI asrlardagi inqiroz ko‘chmanchi qabilalar, eftaliy va turklarning hujumlari natijasida yuzaga kelgan degan qarashlar inkor etilib, ko‘chmanchi qabilalar Xorazmning etnomadaniy aloqalarida muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlandi. “До феодализм” atamasi rad etilib, bu davr uchun “ilk feodalizm” atamasi qo‘llanildi[137].

– S.P. Tolstovning Kushonlarning Xorazmga ta’siri va buddaviylik haqidagi qarashlari rad etilib, Xorazm va Eron sosoniylari o‘rtasidagi madaniy aloqalarga e’tibor qaratildi[138].

– Xorazm yozuvi miloddan oldingi III asrda oromiy alifbosi negizida yaratilganligi, Xorazm tili esa qadimgi forsiy tilning Sharqiy Eron lahjasiga yaqin bo‘lganligi, arablar bosqini natijasida Xorazm tili

---

[133] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества … – С. 180–181.

[134] Рапопорт Ю.А. Из истории религии древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1971. – С. 75–76.

[135] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества … – С. 176.

[136] Bu masala batafsil 2.1. paragrafda ko‘rib chiqiladi.

[137] Кабанов С.К. Нахшеб на рубеже древности и средневековья (IIIVII вв.). – Ташкент: Фан Узбекской ССР, 1977. – С. 102–108.

[138] Зеймаль Е.В. Кушанская хронология (материалы по проблеме) // Международная конф. по истории, археологии и культуре Центральной Азии в кушанскую эпоху. – Москва: Наука, ГРВЛ,1968. – С. 119–120.

va yozuvi sekin-asta iste’moldan chiqib, X – XI asrlarda umuman tushunarsiz o‘lik tilga aylanganligi sopol va tangashunoslik tahlillari bilan belgilandi[139].

Ushbu davrda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda afrig‘iylar tangalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etgan. Zero, tangashunoslik arxeologik tadqiqotlarning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘tmishni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Afrig‘iylar sulolasining tangalarini o‘rganish XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo‘lib, hozirgi kunga qadar davom etayotgan ilmiy jarayondir.

Sovet davri tadqiqotchilaridan M.E. Masson, S.P. Tolstov, B.I. Vaynberg, V.A. Livshits [140] hamda ularga zamondosh xorijiy tadqiqochilardan U.L. Velin, E. Zaxau, R.N. Fray, V.B. Henninglar[141] bu borada katta hissa qo‘shganlar.

1928-yilda M.E. Masson 1917–1927-yilgacha Markaziy Osiyodan topilgan tangalarga birinchi marta tavsif bergan[142]. Unda asosan Sug‘d, Baqtriya va Xorazmga tegishli qadimgi tangalar o‘rin olgan. 1938-yilda S.P. Tolstov tomonidan e’lon qilingan “Qadimgi Xorazm shohlari tangalari va qadimgi Xorazm alifbosi” nomli maqolasida A. I. Terenojkin tomonidan Berkutqal’a, Uyqal’a, Katta Guldursin va boshqa yodgorliklardan 1937-yilgacha topilgan 150 ta tangani tahlil qilgan[143]. S.P. Tolstov Xorazm tangalarini tahlil qilar

---

[139] Исхаков М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Ташкент: УМЭД, 2008. – С. 70.

[140] Массон М.Е. Монетные находки, зарегистрированные в Средней Азии в 1917–1927 гг. // Известия Средазкомстариса. Вып. 3. – Ташкент, 1928; Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнохорезмский алфавит // ВДИ. – 1938. – № 4; Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1977; Livshits V.A. The Kwarezmian calendar and the eras of Ancient Chorasmia // Acta Antique Academiae Scientiarum Hungaricae. – 1967. – № 16. – P. 433–437.

[141] U. L. Welin. The Coins from Khwarazmand the Swedish Viking Age Hoards //Meddelanden fran Lunds. – Stockholm: Universitets Historiska Museum, 1961. – P. 172; Sachau E. Zur geschichte und chronologie von Khwarizm. – Wien: Bei Karl Gerolds Sohn, 1873. – S. 31; Frye R.N. Notes on the early coinage of Transoxiana / Numismatic Notes and Monographs, 1947. – P. 20; Frye R.N., Henning W.B. Additional notes on the early coinage of Transoxiana II // Museum Notes (ANS). – 1957. – № 7. – P. 23; Henning W.B. Additional notes on the early coinage of Transoxiana //American Numismatic Sociaty, Museum notes. – 1957. – № 7. – P. 232.

[142] Массон М.Е. Монетные находки, зарегистрированные в Средней Азии в 1917 – 1927 гг. // Известия Средазкомстариса. Вып. 3. – Ташкент, 1928.

[143] Толстов С .П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнохорезмский алфавит // ВДИ. – 1938. – № 4. – С. 124.

ekan, ulardagi yozuvlarning oromiy tilda bo‘lishi o‘sha davrdagi xalqaro aloqalar va savdo yo‘llari haqida muhim ma’lumotlar berishi hamda tangalardagi tamg‘aning yagonaligi mazkur tangalarni kushonlar bila bog‘liqligini ko‘rsatadi, deb ta’kidlagan[144]. Uning ushbu kichik hajmli maqolasida ilk bor Xorazm tangalarida uchraydigan unvon, tamg‘a ham tavsirlar tahlil qilingani e’tirof etish lozim. Keyinchalik S.P.Tolstovning tangalardagi yozuvlarni o‘qish usuli N.R. Fray va V.B. Henninglar tomonidan tuzatildi, B.I. Vaynberg va V.A. Livshits tomonidan qayta ko‘rib chiqildi. Jumladan, 1937-yilda XAEE tomonidan Katqal’ada amalga oshirilgan arxeologik qazishmalar davrida topilgan ilk o‘rta asrlarga oid tangalar, sulola tarixi tadqiqotlarida yangi paradigmaga yo‘l ochdi. S.P. Tolstov tomonidan Afrig‘ga tegishli deb topilgan tangalar Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asaridagi sulola hukmdorlari asks etgan ma’lumotlarga bog‘lashga urinish sifatida qabul qilindi[145]. Biroq Tolstovning ushbu topilma bo‘yicha qilgan xulosalari keyinchalik B.I. Vaynberg va V.A. Livshits tomonidan qayta ko‘rib chiqildi. Ularning tadqiqotlarida Tolstov tomonidan “podsho Afrig‘” deb talqin qilingan tangalar aslida, “Bivarsar” [bwrsr] nomiga – Beruniy ma’lumotlarida aks etgan uchinchi hukmdorga tegishli ekanligini ko‘rsatdi [146] [1.3-ilova]. Bundan tashqari, Tolstovning Xorazm tangalaridagi yozuvlarni o‘qish usuli xorijiy tadqiqotchilar orasida keng qabul qilinmadi. Xususan, N.R. Fray va V.B. Henninglar Tolstovni xorazm tilida yozilgan tangalardagi hukmdor ismlarini Beruniy tomonidan yozib qoldirilgan shajaradagi ismlarga mos keladigan qilib o‘qishga harakat qilgan[147] deb, baho berganlar.

XX asrning 30–70-yillarda arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan Xorazmga tegishli minglab tangalarni B.I. Vaynberg maxsus tadqiq qilgan. Uning izlanishlarida Xorazm tangalari jami 4 guruhga – “A”, “B”, “V” va “G” ajratgan. Har bitta guruh tangalarni mufassal tasvirlagan. Numizmatik materiallarda xorazmshohlarning ismlari ('rt'w, Wrtmuš, Wzm'r, Bywrsr, S'nb'r, R'st, Sy'wsprš, Sy'wtr, Brwyk, Šr'm, Wz/yk'nšw'r, K'nyk, Šy'wršprn) va rutbalar (MR'Y

[144] Толстов С .П. Монеты шахов древнего Хорезма … – С. 124

[145] Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма… – С. 90–94.

[146] Yuqoridagi asar. – B. 93–94.

[147] Frye R.N. Notes on the early coinage of Transoxiana … – P. 20; Frye R.N., Henning W.B. Additional notes on the early coinage of Transoxiana II… – P. 23.

MLK', Hwt'w – shohlar sohi) aks etgan. Ushbu tadqiqotda Xorazm tarixiga oid bo‘lgan tangalar guruhlar va tiplarga ajratilgan holda tahlil qilingan va ularga yozuvlar, tasvirlar hukmdorlar bo‘yicha izohlar berilgan[148]. Xorazm tangalarini guruhlarga bo‘lib tasniflanishi dastlab B.I. Vaynberg tomonidan amalga oshirilganligi va uning keyingi tadqiqotlarga yo‘nalish ochib asos bo‘lib xizmat qilganini alohida ta’kidlash kerak. Ushbu tasniflanish hozirgi kunga qadar o‘z ilmiy qiymatini yo‘qotmagan.

Markaziy Osiyo, jumladan, Xorazmda mustaqil tangalarning zarb etilishining paydo bo‘lishi masalasi E. Zeymalning ishlarida aks etgan[149]. U tanga materiallariga asoslangan holda mintaqadagi tanga zarb etilishining ilk bosqichlariga xos xususiyatlar hamda mavjud tadqiqotlarni tahlil qilib bir qancha muhim nazariy xulosalar chiqargan. E. Zeymalning fikricha, Markaziy Osiyodagi mustaqil tangalar yondosh mamlakatlardagi tangalarga taqlidan zarb etilgan[150]. Uning tadqiqotlarida asosan qadimgi davrga oid tangalar tahlil qilingan bo‘lsa-da, ilk o‘rta asrlarga oid tangashunoslik tahlilini ham keltirib o‘tgan.

1987-yilda e’lon qilingan E.V. Rtveladzening “O‘rta Osiyoning qadimgi tangalari” asarida ilk marta tangalarni mintaqaning siyosiy tarixi bilan bog‘liqlikda tadqiq qilgan. U I – VIII asrlarga tegishli Buxoro, Sug‘d va Xorazm tangalarini o‘zaro solishtirish asosida tahlil qilar ekan, faqatgina Xorazm qadimgi an’analarga sodiq qolganini ta’kidlaydi. E.V. Rtveladze bunga sabab sifatida Xorazmning siyosiy va iqtisodiy turg‘unligi hamda mutaasibligiga bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi[151].

Sovet davrida amalga oshirilgan tangashunoslik tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yozma manbalardagi afrig‘iylar hukmronligining davriy chegarasi sifatida ko‘rsatilgan 305–995-yillar o‘z tasdig‘ini

[148] Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма… – С. 48–52.
[149] Зеймаль Е.В. Начальный этап денежного обращения древней Трансоксианы // Средняя Азия, Кавказ и зарубежный Восток в древности. – Москва: Наука, 1983. – С. 71–75.
[150] Зеймаль Е.В. Начальный этап денежного обращения древней Трансоксианы // Средняя Азия, Кавказ и зарубежный Восток в древности. – Москва: Наука, 1983. – С. 71–75.
[151] Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. – Ташкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – С. 20.

topmagan. Shu bilan birga, sulola asoschisi deb qaralgan Afrig‘ nomi yozilgan tangalarni topishga urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlangan.

Umuman olganda, sovet davrida Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar afrig‘iylar sulolasi tarixini yoritishda muhim bosqichni tashkil etdi. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE)ning faoliyati esa mintaqadagi arxeologik tadqiqotlar rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Arxeologik tadqiqotlarning ilk bosqichida (XX asrning 30–50-yillari) olib borilgan izlanishlar natijasida olingan ma’lumotlar yozma manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, mintaqa tarixiga oid bilimlar boyitildi. Xorazmning qadimiy davrdan XIV asrgacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda davrlashtirildi hamda afrig‘iylar davri alohida bosqich sifatida belgilandi. Shuningdek, bu davrda sulolasining hokimiyatga kelishi, shaharlar hayoti, eftaliylar va Turk xoqonligi sulolaning ijtimoiy-iqtisodiy masalalariga oid muhim ilmiy kashfiyotlar hamda xulosalar yuzaga chiqarildi.

Tadqiqotlarning ikkinchi bosqichida (XX asrning 60–80-yillari) esa S.P. Tolstovning ayrim ilmiy qarashlari tanqidiy nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqildi va muayyan tuzatishlar kiritildi. Bu davrda arxeologlar o‘z tadqiqotlarida mustaqil fikrlashga va yangi ilmiy xulosalar chiqarishga intildilar. Buni S.P. Tolstov yaratgan ilmiy maktab doirasidan chiqib, yangi ilmiy qarashlarni shakllantirishga intilish sifatida baholash mumkin.

Bu davrda hukmron bo‘lgan kommunistik mafkura va markscha-lenincha g‘oyalari arxeologik tadqiqotlar yo‘nalishi va natijalariga o‘z ta’sirini o‘tkazganini qayd etish lozim. Tarixiy jarayonlarning sinfiy kurash nuqtayi nazaridan talqin qilinishi obyektiv tarixiy haqiqatning buzib ko‘rsatilishiga sabab bo‘ldi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, XAEEning tashkil etilishi va uning faoliyati qanday mafkuralar va g‘oyalar ta’sirida bo‘lmasin, Xorazmning qadimi va o‘rta asrlar tarixini o‘rganish bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etdi. Keyingi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladigan ko‘plab arxeologik materiallar to‘plandi.

Ekspeditsiya faoliyati davomida davomida 2000 dan ortiq arxeologik yodgorliklar aniqlandi, xaritaga tushirildi, tavsiflandi va o‘rganildi. Ulardan 107 ta yodgorlikda statsionar qazishmalar olib

borildi, 5000 dan ortiq aerosuratlarni yaratdi[152] , XAEE “Asarlar”ning 16 jildi, XAEE “Materiallar”ning 10 ta juzi, 18 ta tematik to‘plami chop etilgan. Shuningdek, XAEE xodimlarining «Вестник древней истории», «Вопросы истории», «Советская археология», «Советская этнография», «Этнографическое обозрение» va boshqa jurnallarda maqolalar chop etilgan. Bundan tashqari, qazishma ishlari haqidagi hisobotlar KSIIMK (Moddiy madaniyat tarixi institutining qisqa axboroti) hamda KSIE (Etnografiya institutining qisqa axboroti)ning yillik nashrlarida, «Археологические открытия» va boshqa nashrlarda muntazam berib boriladi va jami 900 ga yaqin maqola va monografiyalarni nashr etdi[153]. Xorazm arxeologik va etnografik ekspeditsiyasining butun arxivi Moskvadagi Rossiya Fanlar akademiyasining Mikluxo-Maklay nomidagi Etnologiya va antropologiya institutida saqlanadi. Arxivda dala kundaliklari, topografik xaritalar rejalar, arxeologik yodgorliklar tarixi, topilgan ashyolar rasmi, aerofotosuratlar jamlangan. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy arxivida va Sankt-Peterburg moddiy madaniyat tarixi instituti ilmiy arxivida qisman ekspeditsiya faoliyatiga oid hujjatlar saqlanmoqda. 2012–2015-yillarda Germaniyaning Gerda Xenkel fondi tomonidan arxiv hujjatlarining to‘liq elektron bazasi yaratildi[154]. Bu loyihada rossiyalik, I. Arjanseva, qozog‘istonlik Z. Kurmanqulov va germaniyalik H. Harkelar qatnashdi[155].

2. Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar. Mustaqillikning dastlabki 10 yilligida yetarlicha moliyaviy ta’minotning yetishmasligi oqibatida arxeologik tadqiqotlar deyarli to‘xtab qolgan edi. 1997-yilda Xorazm Ma’mun akademiyasining qayta tashkil etilishi va uning tarkibida “Arxeologiya, tarix va falsafa” bo‘limlarining faoliyat boshlaishi bilan bu sohada jonlanish kuzatildi. Shuningdek, 1998-yilda Birinchi Prezident I.A. Karimovning tarixchilar bilan uchrashuvi arxeologik tadqiqotlarning faollashuviga turtki bo‘ldi[156]. Ushbu uchrashuvda

[152] Дониёров А. Хоразм археология-этнография эскпедицияси… – Б. 37–48; Arzhantseva I. The Khorezmian Expedition... – P. 17; Шамукарамова Ф. «Хорезмская экспедиция» – уникальное явление в археологической науке… – Б. 435.

[153]Дониёров А. Хоразм археология-этнография эскпедицияси… – Б. 37–48; Arzhantseva I. The Khorezmian Expedition… – P. 17–18.

[154] [Elektron resurs]XAEE elektron bazasi: http://photo.iea.ras.ru/khorezm

[155] Elektron resurs] Gerda Henkel fondi: http://gerda-henkel-stiftung.de/conserving-cataloguing-and-digitizing-the-archive-of-the-soviet-chorasmian-expedition?page_id=79991

[156] Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 31

ilgari surilgan “O‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi konsepsiyasi” o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy metodologiyasini shakllantirish, shu asosda o‘zbek xalqi va uning davlatchiligining haqqoniy tarixini yaratish, xalqimizda, ayniqsa, yosh avlodda tarix tafakkuri va tarixiy xotira tuyg‘usini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Konsepsiyada ilk va rivojlangan o‘rta asrlarda o‘zbek davlatchiligining barcha bosqichlari tarixini yaxlit tizim sifatida o‘rganish va uning jahon sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo‘shgan hissasini tadqiq etish vazifasi ham belgilab berilgan[157].

Mustaqillikning dastlabki yillarida arxeologik tadqiqotlar asosan ilgari to‘plangan materiallarni qayta tahlil qilish va yangi nazariy xulosalar ishlab chiqishga qaratildi. Bu davrda xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda olib borilgan arxeologik ekspeditsiyalar soni ortdi. Xususan, 1994-yilda tashkil etilgan Qoraqalpoq–Avstraliya ekspeditsiyasi (KAE) 1995–2018-yillarda Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan bir qancha tarixiy yodgorliklarida qazishma ishlarini olib bordi[158]. Bundan tashqari, YUNESKOning “Cross-cutting project” dasturi doirasida 2006-yildan buyon amalga oshirilayotgan tadqiqotlar [159] hamda 2005-yilda O‘zbekiston-Fransiya hamkorligida tashkil etilgan Markaziy Osiyo neoliti bo‘yicha arxeologik ekspeditsiya (MAFANAK) Xorazmning qadimgi davrlari bo‘yicha ma’lumotlarni olish imkonini berdi. 2016-yilda ish boshlagan Angoqal’a arxeologik ekspeditsiyasi (AGKE) esa Xorazmning qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixini yoritishga xizmat qilmoqda[160].

O‘zR FA Tarix instituti tomonidan 2019–2021-yillarda amalga oshirilgan “Qadimgi Shosh va Xorazmning arxeologiya yodgorliklari va muqaddas qadamjolarini kartalashtirish va tadqiqotini o‘tkazish (xalqaro turizm yo‘nalishlari tarmog‘ini rivojlantirish)” [161] hamda O‘zR FA Tarix instituti va Xorazm Ma’mun akademiyasi tomonidan

[157] “Ўзбекистон тарихи” журналининг 1999 йил 1-сони

[158] [Elektron resurs] KAE Expediton: https://neaf.sydney.edu.au/our-projects/karakalpak-australian-expedition/

[159] [Elektron resurs]Unesco “Cross-cutting project in Central Asia: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000229298

[160] Brunet F. Current researches on Eneolithic period in Central Asia, from a Neolithic perspective. // International scientific conference” Cultures of the Asian part of Eurasia in antiquity and the Middle Ages”. – Samarkand, 2021. –P. 52; Minardi M. The North-eastern Border of the Achaemenid Empire: Introducing the Chorasmian Late Iron Age // Oriental and European Archaeology. – 2021. – № 16. –P. 71.

[161] A-ФА-2019-8 shifrli amaliy loyiha 2019–2021-yillarda amalga oshirilgan.

bajarilgan “Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san’at asarlarining tadqiqotlari asosida SMART texnologiyalarini yaratish” [162] loyihalarida Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarida joylashgan yodgorliklarning tarixiy ahamiyati arxeologik manbalar asosida ochib berildi.

Xorazmning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini arxeologik jihatidan o‘rganish izchil amalga oshirilmoqda. Bu borada arxeologlardan R. Abdrimov, K. Sobirov, O. Qdirniyazov, G‘. Xodjaniyazov, M. Mambetullayev, S. Baratov, Sh. Matrasulov, B. Sa’dullayev , Sh. Rahimov ishlarini alohida qayd etish lozim[163]. Xususan, 2003-yilda Xorazmning Shovot tumanida joylashgan Katqal’ada Xorazmshoh Artav tangasining topilishi[164], Aqchaxonqal’adan topilgan 50 dan ortiq Xorazm shohlarining sulolaviy nomlari aks etgan devoriy lavhalar[165] hamda 2015-yili Xumbuztepadan topilgan sopol parchasi bitiklari[166] Xorazmning qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixidagi ayrim masalalarni aniqlash imkonini vujudga keltirdi. Biroq mazkur topilmalar arxeologik jihatdan tahlil etilmagan.

Mustaqillik yillarida tangashunoslik sohasida ham sezilarli yutuqlarga erishildi. Bu borada rossiyalik tadqiqotchilaridan V.V. Artev, A. Kuznetsov, M. Fedorov, Y.Y. Goncharov [167] ; milliy

[162] И-ФА-2019-25-sonli loyiha 2019–2021-yillarda amalga oshirilgan.

[163] Баратов С. Археологические исследования в Южном Хорезме // Археологические исследования в Узбекистане в 2002 году. – Самарканд. – С. 38–45; Сабиров К. Хорезмийская фортификация на фоне материалов городища Каткала // Вестник ККО АН РУз. – 2006. – № 1; Матрасулов Ш., Садуллаев Б. Археологические раскопки в Кят-кале // В сб: Археологические исследования в Узбекистане 2003 году. – Тошкент, 2004; Мамбетуллаев М. Исследования храмового комплекса Большая Айбуйиркала // Археология Узбекистана. – 2011. – № 1; Садуллаев Б.П. Чап қирғоқ Кат-қалъа – Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри: т.ф.ф.д дисс... – Тошкент, 2022; Абдиримов Р., Садуллаев Б., Каримов Я. Сандиқли бобо – жанубий Хоразмнинг илк ўрта аср ёдгорлиги // Илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш - юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашнинг энг муҳим асоси мавзусидаги анжуман тўплами. 3-жилд. – Урганч, 2015.

[164] Садуллаев Б. Серебряная монета царя Артава из Кат-калы (Шаватской) // В сб.: Нумизматика Центральной Азии. – 2004. – № 7. – С. 36–39

[165] Матниёзов А. Қадимги Хоразмий ёзма ёдгорликларини ўрганишдаги долзарб муаммолар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2016. – Б. 35–37.

[166] Yuqoridagi asar. – B. 37.

[167] Артев В. В. Новое имя в нумизматике античного Хорезма: http://ncoins.ru/publication/16/.; Кузнецов А. В. Серебряные монеты Хорезмшаха Савшафана. Каталог. – Москва: Авторская книга, 2014; M. Fedorov. Money circulation of Khorezm in the early medival period (6th-first half). //ONS. – 2004. – № 179. – P. 20; O‘sha

tadqiqotchilardan E.V. Rtveladze va Sh. Ismoilovlar[168] sulolaga oid tangalarni maxsus tadqiq etganlar. Ular o‘z tadqiqotlarida ilgari noma’lum bo‘lgan tangalarni o‘rganish orqali sulola davri iqtisodiyoti va pul muomalasi haqida yangi ma’lumotlar oldilar. Tangalarning tipologiyasi va zarb etilgan vaqtini aniqlashtirish orqali olimlar sulolaning davriy chegarasini aniqlashtirishda muhim hissa qo‘shdilar. Jumladan, M. Fedorov, A. Kuznetsov, V.V. Artevlarning tadqiqotlarida B.I. Vaynberg tomonidan katalog qilingan va o‘qilgan tangalarni birmuncha to‘g‘irlashga harakat qilingani qayd etish lozim. Masalan, B. I. Vaynberg tomonidan tuzilgan katalogdagi “GV/9” tipidagi 1413 va 1414-tangalar kimga tegishli ekanligi muallif tomonidan o‘sha vaqtda aniqlanmagan. 2008-yili V. Artev o‘sha noma’lum bo‘lgan tangalarning 3 ta nusxasini o‘rganishni boshlaydi va tangadagi yozuvni MR'Y MLK' ŠW'T ya’ni “Janob shoh Shavat” deb o‘qigan bo‘lsa[169], M.Fedorov, A. Kuznetsovlar tanganing davriy chegarasini VII asrning ikkinchi yarmiga oid ekanligini aniqlashtirdilar[170]. Bundan tashqari tadqiqotchilar Toshkentda xususiy shaxslar qo‘lida saqlanayotgan yana 2 ta tangani aniqlashtirib, birini «rwyk'» Arvik I va Arvik II tarzda, boshqa birini «šk'm» yoki «čk'm» Ashqam/Achqam tarzida o‘qishga va uni 943/946-yillar bilan belgiladilar[171].

M. Fedorov va A. Kuznetsovlar sulola davriga oid tangalarni tahlil qilish asosida IV – VIII asrlarga oid 19 nafar afrig‘iy hukmdor

---

muallif. First Reported Find of an Early Medieval Khwarezmian Drachm in the Kyrgyz Republic //American Journal of Numismatics. – 2006. – № 18. – P. 126–127; Гончаров Е. Ю., Е.А. Армарчук. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме// Вестник института востоковедения РАН. – 2020. – № 2 . – С. 168.

[168] Ртвеладзе Е.В. Древние и раннесредневековые монеты… – С. 22–30; Ismailov Sh., Sadullaev B. etc. The coins of Khorezmshah in the treasure of the vikings // International Journal of special education. – 2022. – № 37. –P. 281–287; O‘sha muallif. Алоуддин Муҳаммаднинг ўқ-ёй тасвирли Термиз тангасининг тавсифи // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2022. – № 10. – Б. 105–108; O‘sha muallif .VIII–XIII асрларда Хоразм тангаларида от тасвири // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. – 2021. – № 6. – Б. 99–101. O‘sha muallif. Қуръон оятлари билан зарб қилинган илк Хоразмшоҳ тангаси // Тамаддун нури журнали.–2021. –№ 5. – Б. 60–61. O‘sha muallif. Маъмунийларнинг сиёсий майдонга келиши тарихи // Мозийдан садо. – 2022. – № 3. – Б. 32–36.

[169] Артев В. В. Новое имя в нумизматике античного Хорезма: http://ncoins.ru/publication/16/

[170] Fedorov M, Kuznetsov A. On some previously unknown Khwarazmian drachms… – P. 79–88.

[171] Yuqoridagi asar. – B. 78–79.

ro‘yxatini qayta tuzib, unga afrig‘iy hukmdorlarning hukmronlik yillarini qo‘shishgan va yangi nomlarni kiritganlar [1.5-ilova].

E.V. Rtveladze milliy tarixshunoslikda ilk marta pul muomalasini davlatning taraqqiyoti va moliya siyosatining holati kontekstida o‘rgangan [172] . Muallif shuningdek, sulolaga oid tangashunoslik ma’lumotlarni tahlil qilar ekan, afrig‘iylar sulolasi tarixini III asrning oxirgi choragidan, ya’ni xorazmshoh Vazamardan boshlab hisoblashni taklif qilgan [173] . Uning nasabnomasida ham hukmdorlarning nomlari va ketma-ketligida o‘zgarishlar mavjud [1.6-ilova].

Sh. Ismoilov afrig‘iylar sulolasining 38 tipdagi tangalariga aniqlik kiritib, arablar bosqinidan keyingi tangalarda bo‘lgan o‘zgarish (eski xorazm va sug‘d yozuvlari o‘rniga arab yozuvlari bilan zarb etila boshlangan), o‘g‘uzlar, tohiriylar va somoniylar tomonidan Xorazmda zarb etilgan tangalar tahlilini o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tgan [174]. Shuningdek, tadqiqotchi Xorazm tangalarida uchraydigan MR'Y MLK' unvoni (“mening hukmdorim”) bilan O‘rta Osiyoning boshqa hukmdorlari tangalaridan farq qilgani, bunday tasvirlar arablar Xorazmga kirib kelgandan keyin ham tasvirlashda davom etilgani, biroq IX asr boshidan boshlab Xorazmshoh afrig‘iy hukmdorlarning so‘nggi vakillari va ma’muniy hukmdorlar tangalarida musulmon tanga zarbiga xos an’analar yetakchilik qila boshlaganini keltirib o‘tgan[175].

Mustaqillik yillarida Xorazmning qadimgi va o‘rta asrlar tarixini arxeologik va numizmatik jihatdan o‘rganishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlar, bir tomondan, yangi arxeologik topilmalar va ularning ilmiy tahlili bilan, ikkinchi tomondan, tangashunoslik sohasidagi tadqiqotlarning chuqurlashuvi bilan bog‘liq. Olib borilgan tadqiqotlar Xorazm tarixining ayrim masalalarini yoritish, sulolaning

[172] Алимова Д.А. Ўзбекистон археологияси тарихшунослигидан: Қадимги ва антик давр давлатчилик институтлари. – Тошкент: Bookmany Print, 2024. – Б. 45.
[173] Bu masala batafsil 2.1. paragrafda batafsil ko‘rib chiqiladi.
[174] Ш. Исмаилов. Алоуддин Муҳаммаднинг ўқ-ёй тасвирли Термиз тангасининг тавсифи...– Б.105–108.; O‘sha muallif .VIII–XIII асрларда Хоразм тангаларида от тасвири...– Б.99–101. O‘sha muallif. Қуръон оятлари билан зарб қилинган илк Хоразмшоҳ тангаси... – Б. 60–61. O‘sha muallif. Маъмунийларнинг сиёсий майдонга келиши тарихи… – Б. 32–36.
[175] Ismailov Sh. VIII–XIII asrlarda Xorazmshohlar tangalari: t.f.f.d diss.avtoref... – Urganch, 2024. – B. 9.

davriy chegarasini aniqlashtirish, madaniy va iqtisodiy hayotini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi.

I bob yuzasidan xulosalar

Afrig‘iylar sulolasi tarixini o‘rganishga qaratilgan sovet va zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sulolaning xronologik va hududiy chegaralari, siyosiy tuzilishi masalalari bo‘yicha yagona ilmiy talqin mavjud emas va bu masalalarda tadqiqotchilarning fikrlari turlichadir.

Yozma manbalardagi afrig‘iylar sulolasiga oid ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ulardagi ma’lumotlarning qisqaligi, voqealar tafsilotining yetarli darajada yoritilmaganligi, manbalar o‘rtasidagi ziddiyatli ma’lumotlar tadqiqotchilarning sulola tarixini o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo‘lgan. Ayrim tadqiqotchilar bir manbaga asoslangan holda, boshqa manbalar, xususan, pahlaviy, suryoniy va arman manbalari bilan qiyosiy tahlil qilmaganliklari yoki manbalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni aniqlamaganliklari kabi omillar bugungi kungacha sulola tarixining umumiy manzarasini ochib berishga to‘sqinlik qilgan.

Muammoning tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, yozma manbalardagi ma’lumotlarning yetarli emasligi tadqiqotchilarni arxeologik qazishma ishlari natijalariga tayanishga va manbalar hamda topilmalarni qiyosiy tahlil qilish orqali mavjud muammoga yechim topishga undagan. Biroq aksariyat hollarda yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlar natijasida to‘plangan ma’lumotlar bir-birini to‘ldirish o‘rniga, aksincha, bir-birini inkor qilgan. Bu holat tadqiqotchilarni yozma manbalar yoki arxeologik tadqiqotlar ma’lumotlaridan biriga asoslangan holda, sulolaga oid turli masalalarni o‘rganish bilan cheklanishga olib kelgan. Tangashunoslikga oid tadqiqotlarda esa Beruniy asarida keltirilgan shajara va xronologiya bilan numizmatik ma’lumotlari o‘rtasida tafovutlar mavjud. Xususan, tangalarda uchraydigan ba’zi hukmdorlarning nomlari Beruniy asarida qayd etilmagan. Shuningdek, tangashunoslar asarda keltirilgan sulola shajarasi va davriy chegarasini qo‘llab bo‘lmasligini ta’kidlaganlar.

Umuman olganda, yozma manbalar va arxeologik tadqiqotlarni uyg‘unlashtiruvchi, sulola tarixining umumiy manzarasini aks ettiruvchi maxsus tadqiqotlar yetarli darajada o‘tkazilmagan.

II BOB. AFRIG‘IYLAR SULOLASINING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI VA ULARNING O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXIDA TUTGAN O‘RNI MASALASI

§ 2.1. “Afrig‘” atamasi va Afrig‘iylar sulolasining kelib chiqish masalasi: yondashuvlar va qarashlar

Turonning ilk o‘rta asrlar davri tarixida, xususan Afrig‘iylar hamda ular bilan yaqin aloqador xalqlar tarixidagi asosiy ilmiy muammolardan biri ularning etnik kelib chiqishini aniqlash masalasidir. Etnogenez jarayonini to‘g‘ri talqin qilish esa faqat tarixiy kontekstni chuqur anglash orqali mumkin bo‘ladi. Chunki etnik guruhning shakllanishi, ularning madaniy va siyosiy o‘ziga xosliklari, qanday tabiiy-geografik hamda ijtimoiy resurslardan foydalanishi, xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy takror ishlab chiqarish tizimidagi o‘rni, shuningdek, ma’lum tarixiy sharoitlarda nima sababdan safarbar etilgani kabi omillar aynan tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, etnik kelib chiqish masalasini tadqiq etish faqat genealogik yoki lingvistik izlanishlar doirasida emas, balki keng tarixiy-madaniy kontekstda, ya’ni manbashunoslik, arxeologiya, antropologiya va tarixshunoslik yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘rganishni talab qiladi.

Afrig‘iylarning etnik kelib chiqishi masalasi ilmiy adabiyotda eng ko‘p bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan mavzulardan biri hisoblanadi. XX asr boshlaridan e’tiboran turli tadqiqotchilar ularning etnogenezini izohlashga doir ko‘plab nazariyalarni ilgari surganlar. Mazkur bahslarda Afrig‘iylarni eroniy ildizlarga mansubligi, turkiy guruhlar bilan yaqinligi haqidagi qarashlar alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. Shu bois, ularning asl kelib chiqishiga oid masala bugungi kungacha o‘zining yechimini topmaganligi, manbashunoslik materiallarining tafovutliligi hamda tarixshunoslikdagi qarama-qarshi yondashuvlar tufayli ilmiy muhokamalarning markazida qolmoqda.

Mazkur holat o‘sha davr manbalarida uchraydigan inson ismlari, hukmdor nomlari, etnonimlar, shuningdek til va qabila nisbatlariga oid chalkashliklarning kelib chiqishini qisman izohlashga yordam beradi. Natijada manbalardagi tashqi ko‘rinish tavsiflarini, etnik guruhlararo

aloqalarni yoki qabilalarning haqiqiy identifikatsiyasini aniqlash murakkablashadi.

Odatda etnik kelib chiqishni aniqlashda til, urf-odat, diniy amallar va kiyim-kechak kabi belgilarning majmuasi asosiy mezon sifatida qo‘llanadi. Biroq V. Polning ta’kidlashicha, ushbu belgilarning barchasi tarixiy jarayonlarning ta’siri ostida, jiddiy identitet inqirozini sezdiradigan keskin uzilishlarsiz ham o‘zgarishi mumkin[176]. Demak, ko‘chmanchi jamiyatlarning dinamik tabiati, siyosiy integratsiya jarayonlari hamda madaniy sintez hodisalari etnik belgilarning tezkor transformatsiyasiga sabab bo‘lgan, bu esa etnogenezni aniqlashda qo‘shimcha murakkabliklar tug‘diradi.

P. Giyari ilk o‘rta asrlardagi etnik kelib chiqishni an’anaviy tarzda tasavvur qilinadigan qat’iy va o‘zgarmas obyektiv kategoriya sifatida emas, balki shaxslar va guruhlar o‘zlarini yoki boshqalarni muayyan ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarda, aniq maqsadlarning ta’siri ostida aniqlaydigan murakkab subyektiv jarayon sifatida tushunish lozimligini ta’kidlaydi[177]. Tadqiqotchining fikricha, etnik identitet aslida ko‘p qatlamli bo‘lib, u mavjud bo‘lgan o‘xshashliklar majmuasidan ramziy tarzda foydalanish, ularni qayta talqin qilish yoki bir-biriga moslashtirish orqali shakllantiriladi. Boshqacha aytganda, etnik kelib chiqish tarixiy haqiqat sifatidagi qat’iy belgi emas, balki shaxsiyatni va ijtimoiy guruhlarni legitimlashtirishga xizmat qiluvchi o‘zgaruvchan, elastik va ramziy konstruksiyadir.

F. Kurta ushbu yondashuvni yanada rivojlantirib, etnik o‘zlikning tashqi ko‘rinishda namoyon bo‘lishi, avvalo, moddiy madaniyatni ongli ravishda manipulyatsiya qilish bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Tadqiqotchiga ko‘ra, kiyim-kechak, oziq-ovqat madaniyati, uy-joy arxitekturasi, hunarmandchilik uslublari yoki kulolchilik bezaklari singari elementlardan maqsadli ravishda diakritik belgilar sifatida foydalanish guruhning o‘zini boshqalardan farqlashiga xizmat qiladi[178]. Shuning uchun etnik chegaralar tabiiy tarzda emas, balki muayyan ijtimoiy va siyosiy konfiguratsiyalarda

[176] W. Pohl, Introduction: strategies of distinction. In: W. Pohl / H. Reimitz (eds.). Strategies of distinction. The Contruction of Ethnic Communities, 300-800 (Leiden,Boston, Köln 1998). – P.1-15.

[177] Geary P. J. Ethnic identity as a situational construct in the early middle ages // Mitteilungen der Anthropologischen Gesellschaft in Wien. – 1983. – № 113. – P.15–16.

[178] Curta F. Some remarks on ethnicity in medieval archaeology // Early Medieval Europe. – 2007.– № 15. – P.159.

shakllangan ramziy tizimlar orqali yaratiladi. Bu holat etnik chegaralarning kontekstga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchanligini, ya’ni ularning konstruktiv tabiatini yanada yaqqol namoyon etadi.

F. Kurta, shuningdek, etnik kelib chiqishni shakllantirish jarayoni ikki asosiy omilning — ya’ni tegishli insonlarning standart xulq-atvoriy moyilliklari hamda ular faoliyat yuritgan tarixiy sharoit va ijtimoiy muhitning — kesishgan nuqtasida vujudga kelishini alohida ta’kidlaydi. Shu bois, o‘tmishdagi etnik o‘zlikni aniqlash arxeologiya uchun muayyan chegaralarga ega. Chunki, etnik chegaralarni belgilashda qo‘llangan moddiy madaniyat ramzlariga dastlab yuklangan ma’no bugungi tadqiqot uchun ko‘pincha qayta tiklab bo‘lmaydigan darajada yo‘qolgan. Natijada o‘tmishdagi etnik identitetni to‘liq rekonstruksiya qilish qanchalik muhim bo‘lmasin, u har doim muayyan ilmiy ehtiyotkorlikni talab qiladigan nisbiy talqin sifatida qoladi.

S. Brater fikricha, arxeologik topilmalar biror xalqning etnik kelib chiqishini emas, avvalo jamiyatdagi ijtimoiy mavqe va ijtimoiy o‘zlikning tashqi ko‘rinishlarini aks ettiradi. Uning ta’kidlashicha, qabrga qo‘yilgan shisha idish, qo‘lda yasalgan sopol buyum yoki boshqa kundalik buyumlar orqali marhumning haqiqatan ham biror bir etnosga oid bo‘lganini aniqlashning iloji yo‘q. Shu sababli Brater arxeologlar etnik kelib chiqishni aniqlashga urinmasliklari, agar topilmalar mazmunini tushuntirishga yordam beradigan mustaqil, ayniqsa yozma manbalar bo‘lmasa, bunday izlanishlar ishonchli natija bermasligini ta’kidlaydi. Arxeologik tadqiqotlarning asosiy e’tibori iqtisodiy tuzilma, ijtimoiy tabaqalanish, diniy marosimlar va kundalik hayotning boshqa jihatlarini o‘rganishga qaratilishi lozimligini uqtiradi[179]. Braterning talqinicha, ijtimoiy o‘zlik – jumladan etnik o‘zlik ham – ijtimoiy haqiqatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aksi emas, balki tarixiy jarayonlarda shakllangan ijtimoiy konstrukt bo‘lib, uning mazmuni tashqi belgilar orqali doim ham aniq ko‘rinavermaydi.

Arxeologik madaniyatni etnik guruh bilan tenglashtiruvchi yondashuvlar ilk bor madaniyat tarixi maktabi doirasida tanqid qilingan. Dastlabki tanqidlar, asosan, artefaktlarning to‘liqsizligi, topilmalarning shartli ravishda saqlanganligi va ularni talqin

[179] Brather S. Ethnische Interpretationen in der frühgeschichtlichen Archäologie. In. Geschichte, Grundlagen und Alternativen. – Berlin, New York , 2004. – P. 100-106.

qilishdagi qiyinchiliklarga e’tibor qaratgan. Biroq bu yondashuv artefaktlar bilan etnik birliklar o‘rtasidagi bog‘liqlikning o‘ziga nisbatan shubha bildirmagan. Natijada arxeologiyada xronologiya va tipologiyaga haddan tashqari tayanish kuchaygan, arxeologik turlarning asl ma’nosi haqida bahslar paydo bo‘lgan. Xususan, ma’lum bir buyum turi arxeolog tomonidan tashqi tarzda belgilangan “etnik belgi”ni aks ettiradimi yoki uni ishlab chiqargan jamoaning ichki tasnifini ifodalaydimi, degan savol bugungi kungacha yechilmagan muammo bo‘lib qolmoqda.

F. Kurta ushbu bahslarni davom ettirar ekan, etnik o‘zlikni ijtimoiy o‘zlikning ko‘p shakllaridan biri sifatida ko‘radi va uni genderdan ajratib qo‘yib o‘rganish noto‘g‘ri ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ko‘plab arxeologik tadqiqotlarda etnik belgilarga haddan tashqari urg‘u beriladi, genderning moddiy madaniyatdagi o‘rni esa e’tibordan chetda qoladi. Bu, ayniqsa, kamon broshlari taqib dafn etilgan ayollar qabrlari talqinida yaqqol ko‘rinadi: ayrim tadqiqotlarda broshlar bevosita “etnik belgi” sifatida ko‘riladi, holbuki ularning genderga oid vazifasi va ramziy ma’nosi yetarlicha hisobga olinmaydi. F. Kurta bunday yondashuvni tanqid qilib, arxeologik materialni ijtimoiy identitetlarning murakkab o‘zaro ta’siri doirasida tahlil qilish lozimligini uqtiradi[180].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, ilk o‘rta asrlardagi xalqning etnik kelib chiqishini aniqlash jarayoni qat’iy va o‘zgarmas mezonlarga tayanmaydi. Etnogenezni izohlashda til, urf-odat yoki moddiy madaniyat kabi tashqi belgilar tarixiy jarayonlar davomida tezkor transformatsiyaga uchrab, siyosiy integratsiya, ijtimoiy moslashuv va madaniy sintez ta’sirida o‘z mazmunini o‘zgartirib borgan. Giyari, Pohl, F. Kurta va Brater tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalar etnik o‘zlikning ijtimoiy konstrukt sifatida shakllanishi, uning vaziyatga qarab ramziy ma’noda qayta ishlab chiqilishi hamda arxeologik materialning bunday jarayonlarni aks ettirish imkoniyatining cheklanganligini aniq ko‘rsatdi.

“Afrig‘” atamasining kelib chiqishi masalasi yetarlicha o‘rganilmagan va munozarali mavzular qatoriga kiradi. Garchi

[180] Curta F.The making of the Slavs between ethnogenesis, invention, and migration // Studia Slavica et Balcanica Petropolitana. – 2008.– № 2. – P.155-162.

tadqiqotchilar bu borada yozma manbalar, arxeologik topilmalar va tilshunoslik tahlillaridan foydalangan holda sulola tarixiga oid muhim xulosalar chiqargan bo‘lsalar-da, bu masala bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ayniqsa, milliy tarixshunoslikda “Afrig‘” atamasining kelib chiqishi yetarlicha yoritilib, tahlil qilinmagan. Mavzu asosan xorijiy tarixshunoslikda, xususan, fors va ingliz tillarida olib borilgan tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan. Bu esa milliy tarixshunoslikda mazkur muammoga oid yangi tadqiqotlar olib borish, mavjud ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish va yangi ilmiy xulosalar chiqarish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Afrig‘iylar sulolasi nomining o‘zi tarixiy tadqiqotlarda uning asoschisi Afrig‘ga nisbatan qo‘llaniladi. Sulola haqidagi asosiy ma’lumotlar Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan. Unda 22 hukmdorning ismi keltirilgan bo‘lsa-da, ularning hukmronlik yillari va shaxsiyati haqida aniq ma’lumotlar yo‘q.

Mazkur asar Afrig‘ning milodiy 305-yilda al-Fir ustida saroy qurdirgani, Arsamuxning Muhammad (s.a.v) davrida taxtda bo‘lgani, Askajamuk II ning 712-yilda Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim tomonidan hokimiyatga keltirilgani hamda 995-yilda zo‘rlik bilan taxtdan ag‘darilgan xorazmshoh Abdulloh Muhammadning shahid bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor[181]. Ammo “Afrig‘” atamasining Beruniy asarlaridan boshqa manbalarda uchramasligi sulola tarixini o‘rganishdagi eng muhim muammolardan biridir.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Afrig‘ shaxsi haqidagi tasavvurlar asosan Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga asoslangan edi. Bu davrda Afrig‘ sulolasining asoschisi sifatida qaralgan, ammo uning shaxsiyati haqida batafsil ma’lumotlar mavjud emas edi.

Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (XAEE) tashkil etilishi va olib borilgan qazishma ishlari natijasida S.P. Tolstov Afrig‘ shaxsiyatiga aniqlik kiritishga harakat qildi. Xususan, 1937-yilda S.P. Tolstov boshchiligidagi Xorazm ekspeditsiyasi Katda olib borgan qazishma ishlarida afrig‘iylarga tegishli tangalar topilganligini e’lon qildi. U bu tangalardan birida Afrig‘ning qiyofasi aks ettirilganini

[181] Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. т.I, «Памятники минувших поколений». – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1957. – С. 72–80.

ta’kidlagan[182]. Biroq keyinchalik bu tangalardagi yozuvlarni o‘qish va talqin qilish borasidagi qarashlar o‘zgarib, uning “Podsho Afrig‘” ['pryk] deb o‘qigan tangasi B.I. Vaynberg va V.A. Livshits tomonidan “Bivarsar” [bwrsr] deb o‘qildi[183]. Bundan tashqari, S.P. Tolstovning tangalardagi yozuvlarni o‘qish uslubi tangashunoslar tomonidan, xususan, N.R. Fray va V.B. Henninglar tomonidan qabul qilinmagan. Ular S.P. Tolstovnining Xorazm tangalarida aks etgan hukmdorlar ismlarini Beruniy asarida keltirilgan nasabnomadagi ismlarga moslashtirish yoki mos keladigan qilib harakat qilishi sababli tanqid qilishgan[184]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sovet davridan boshlab bugungi kungacha olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida sulola asoschisi deb hisoblangan Afrig‘ga tegishli birorta tanga topilmagan.

“Afrig‘” atamasining etimologiyasi va tarixiy kontekstini o‘rganishda faqat zamonaviy eron tarixshunosligida tadqiqotlar mavjud bo‘lib, bu borada B. G‘arib, P. Azkoyiy, J. Hiraviy, J. Mufrad va T. Daryoyiy kabi tadqiqotchilarning ishlarini keltirish mumkin. Biroq ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati eronlik olimlar tomonidan amalga oshirilganligi sababli, muammoga nisbatan yondashuv va qarashlar ularning subyektiv xulosalariga bog‘liq bo‘lib qolgan. Ikkinchidan, yuqoridagi tadqiqotchilar ismlarni tahlil qilishda Beruniy asaridan boshqa biror manbaga tayanishmagan. Bu esa, o‘z navbatida, “Afrig‘” atamasining kelib chiqishi va tarixiy rolini har tomonlama va xolisona baholash imkoniyatini cheklaydi. Masalan, B. G‘arib sug‘d tilidagi “frywn”, “prywn” va “pryk” so‘zlarining fors tilidagi shakli va ma’nolarini tahlil qilib, “duo”, “maqtov” va “yuqori martabali” ma’nolarini anglatishini keltirib o‘tgan. Uning izlanishlarida “Afrig‘” atamasining kelib chiqishini yuqorida qayd etilgan so‘zlar bilan bog‘lashga harakat qilgan[185]. P. Azkoyiy esa “Afrig‘” nomini uch qismga ajratib, tilshunoslik jihatidan tahlil qiladi. Tadqiqotchi “af” yoki “ap” – fors tilidagi “afrashtan”

[182] Толстов С.П. По следам древне хорезмиискоӥ цивилизации. – Москва–Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948. – С. 192.

[183] Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма // Хорезм в государственности Узбекистан. Коллективная монография / Отв. редакторы: Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. – Ташкент, 2013. – С. 90–94.

[184] Frye R.N., Henning W.B. Additional notes on the early coinage of Transoxiana II // Museum Notes (ANS). – 1957. – № 7. – P. 23.

[185] Gharib B. Sogidan dictionary. –Tehran: Frarhangan publications, 1995. – P. 2–7.

fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, “ko‘tarmoq” ma’nosini anglatishini; “ar” yoki “air” – “Aryan”,, ya’ni “oriylar”; “ig” esa eroniy tillardagi nisbat qo‘shimchasi bo‘lib, ingliz tilidagi “-ic” yoki fransuz tilidagi “-ique” qo‘shimchalariga o‘xshashligini keltirib o‘tgan. P. Azkoyiyning talqiniga ko‘ra, “Afrig‘” so‘zi “oriylar”ni, “afrig‘iylar” esa “oriylar mamlakati”ni anglatadi[186]. J. Hiraviyning fikricha, “Afrig‘” atamasi sosoniylar davrida paydo bo‘lgan. Uning ta’kidlashicha, Shopur I Xorazmdagi arshakiylarga qarshi isyonni bostirgach, bu hududni Afrig‘ ismli shaxsga topshirgan va unga “shoh” unvonini bergan. Uning talqiniga ko‘ra, “Afrig‘” so‘zi “eronvix” (ya’ni, “eronlik zot” yoki “eron farzandi”) ma’nosini anglatadi va oriylar nasliga borib taqaladi[187]. J. Mufrad “Afrig‘” atamasining kelib chiqishini tahlil qilib, uning “Af/of/ob” (suv) va “rig/riz” (to‘ldirish va to‘kish) qismlaridan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu atama “daryoning quyi oqimida yashovchi odamlar” ma’nosini anglatadi. Bu talqinga ko‘ra, qadimgi eronliklar Amudaryoning quyi oqimida yashovchi xalqlarni umumiy “Afrig‘iylar” nomi bilan ataganlar. Keyinchalik bu nom sulola nomiga aylanganligini taxmin qilgan[188].

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilgan holda aytish mumkinki, “Afrig‘” atamasining etimologiyasi va tarixiy kontekstini o‘rganishda mavjud tadqiqotlar asosan Eron tarixshunosligida olib borilgan. Shunga qaramay, J. Mufradning yondashuvi ilmiy jihatdan eng asosli hisoblanadi. U “Afrig” atamasini “Af/of/ob” (suv) va “rig/riz” (to‘ldirish va to‘kish) qismlaridan iborat deb tahlil qiladi va uni “daryoning quyi oqimida yashovchi odamlar” ma’nosi bilan bog‘laydi. Bu talqin Xorazmning geografik joylashuvi va Amudaryoning tarixiy roli bilan mos keladi. Qadimgi eronliklar Amudaryoning quyi oqimida yashovchi xalqlarni “afrig‘iylar” deb atagan bo‘lishlari ehtimoldan holi emas. Keyinchalik bu nom sulola nomiga aylangan bo‘lishi mumkin.

Yana bir eronlik olim T. Daryoyiyning ta’kidlashicha, sosoniylar an’analari va tarixiy merosi islom davrida ham o‘zining kuchini saqlab qolgan. Uning fikricha, hatto turkiy kelib chiqishga ega bo‘lgan g‘aznaviylar sosoniylarning so‘nggi shohi Yazdigird III ning avlodidan ekanligi, tohiriylar esa fors qahramoni Rustam, safforiylar

[186] اذکائی پرویز. خاندان شاهیه خوارزم . ایران شناخت. سال ۱۳۷۷. شماره ۱۰. ص.۱۴۱.

[187] هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱–۳۳.

[188] [Elektron resurs] https://www.pezhvakeiran.com/maghaleh-108937.html

sulolasi Eron shohi Jamshid; afrig‘iylar Xorazmshohlari ularni qahramon Siyovush bilan bog‘laydigan afsonaga ega ekanligini ta’kidlagan va mazkur turkiy sulolalar qadimgi Eron qahramonlari va hukmdorlariga bog‘lash orqali o‘zlarining siyosiy mavqeyini mustahkamlashga intilishgan[189]. Bu o‘rinda shuni aytish mumkinki, o‘rta asrlarda legitimatsiya uchun ba’zi hukmdorlar o‘zlarini tarixda o‘tgan mashhur sulolalarga bog‘laganliklarini ham e’tiborga olish kerak.

Milliy tarixshunoslikda Afrig‘ shaxsiyati haqida O. Masharipovning tadqiqotlarida ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Uning talqiniga ko‘ra, Afrig‘ Kat shahrini obod qilgan, ariqlar qazitib, savdo yo‘llari qurdirgan buyuk hukmdor sifatida tasvirlanadi[190]. Biroq ushbu talqin yozma va arxeologik manbalarda o‘z tasdig‘ini topmagan. O. Masharipovning bunday yondashuvi Afrig‘ shaxsiyatini ideallashtirishga urinish va tarixiy haqqoniylikdan chetlashish sifatida baholash mumkin. Vaholanki, boshqa milliy tadqiqotchilarning ishlarida “Afrig‘” atamasining kelib chiqishi va uning tarixiy shaxs sifatidagi mavqeyiga doir chuqur tahlillar uchramaydi. Ushbu holat mazkur masalaning hali yetarlicha o‘rganilmaganligidan dalolat beradi. Shu sababli, ushbu tadqiqot doirasida mavjud ma’lumotlar va talqinlarni keltirish bilan cheklaniladi.

Afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi va etnik mansubligi masalasi bugungi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda turli-xil bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotganini ko‘rish mumkin. Mavjud tadqiqotlarda bu masalaga yondashuvlarning turlicha ekanligi kuzatiladi. Ayrim olimlar asosan tilshunoslik tahliliga tayanib, afrig‘iylarning kelib chiqishi va etnik tarkibini aniqlashga harakat qilganlar. Shuni ta’kidlash lozimki, ismlarning tilshunoslik tahlili sulolaning etnik kelib chiqishini aniqlashda yagona mezon bo‘la olmaydi. Chunki tarixiy jarayonlarda turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida ismlarning bir tildan boshqa tilga o‘tishi va o‘zgarishi hollari ko‘p uchraydi.

[189] Daryaee T., Kh.Rezakhani. From Oxus to Euphrates: The World of Late Antique Iran.Vol 1. UK: H&S Media, 2016. – P. 9; Daryaee T. Kings, whores and children. Passing Notes On Ancient Iran And The World That We Live In. – London: Mehri publication, 2018. – P. 134–135

[190] Машарипов О. Хоразм тарихидан сахифалар. – Тошкент, 1994. – Б. 15

Afrig‘iylar sulolasining islomgacha bo‘lgan davr hukmdorlarining ismlarini o‘rganishda sovet davri tadqiqotchisi O.I. Smirnova, eronlik tadqiqotchi J. Hiraviy, milliy tarixshunoslikda G‘. Boboyorov va F. Djumaniyozovalarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Yuqoridagi tadqiqotchilarning ishlarida sulola hukmdorlari ismlarining ma’nolari va ularning tarixiy kontekstdagi o‘rni har tomonlama tahlil qilingan.

Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan, biror sulola yoki xalqning kelib chiqishini faqatgina tilshunoslik ma’lumotlariga asoslanib aniqlash bir tomonlama yondashuvdir. Jumladan, J. Hiraviy fors tiliga asoslangan holda ismlarning ma’nolarini sharhlashga harakat qilgan[191]. G‘. Boboyorov esa o‘z tadqiqotida turkiy xalqlar tarixi va madaniyatiga e’tibor qaratgan holda hukmdor ismlarini tilshunoslik jihatidan tahlil qilgan[192].

J. Hiraviy va G‘. Boboyorovlarning Bo‘g‘ra (Bag‘ra) ismining kelib chiqishi va ma’nosi haqidagi qarashlari bir-biriga ziddir. J. Hiraviy bu ismni “Xudodan berilgan” deb talqin qilsa, Boboyorov uning “Erkak tuya” ma’nosidagi turkiy unvon bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [193] . Turkiyalik tadqiqotchi E. O‘zjan “Siyovushning Xorazmni egallashi va keyinchalik bu hududni Kayxusrav va uning avlodlari boshqarib, “shoh” unvoni bilan tan olingani, fors oilasi boshqaruvi afrig‘iy Bag‘raning hokimiyat tepasiga kelishi bilan tugashi va ushbu hukmdordan boshlab Xorazmda turkiy sulola boshqarishini qayd etgan”[194]. Bu qarash afrig‘iylar sulolasining turkiy ildizlarga egaligi haqidagi taxminlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Beruniy ro‘yxatidagi Saksafan (yoki Saksasek) ismining etimologiyasi haqida faqat J. Hiraviyning talqini mavjud. Uning fikricha, bu ism “Sak” (saklar) va “shek” (shoh) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “Saklar shohi” ma’nosini anglatadi. Bu talqin afrig‘iylar sulolasining ehtimoliy sak ildizlariga ega ekanligi haqidagi

---

[191] هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱۰.

[192] Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 50–52

[193] هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱۰.
Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм … – Б. 50–52.

[194] Özcan E. Ebû’r-Reyhân Muhammed bin Ahmed el-Bîrûnî’nin Hayatı (973–1061) // Milel ve Nihal nanç, kültür ve mitoloji araştırmaları dergisi. – 2013. – № 10. – S. 11–13.

farazni qo‘llab-quvvatlaydi [195] . To‘rtinchi hukmdor Askajamuk I ismining ma’nosi haqida esa turli qarashlar mavjud. J. Hiraviy bu ismni “Aska” (Ashkā) va “Jamuk” so‘zlaridan tashkil topgan deb hisoblaydi. “Aska” so‘zini u Parfiya arshakiylari (Aškānīān) bilan bog‘lasa, “Jamuk” so‘zini esa “go‘zallik” yoki “ulug‘vorlik” ma’nosida talqin qiladi. Natijada, u bu ismni “Ashkon go‘zali” yoki “Sak ulug‘vorligi” sifatida tarjima va talqin qiladi[196]. Biroq E. Vaser bu ismni “Yuqori qadrli” deb talqin qilib, boshqacha yondashuvni taklif etgan[197]. G‘. Boboyorovning tadqiqotida afrig‘iylar sulolasining turkiy ildizlarga egaligi haqidagi farazni qo‘llab-quvvatlaydi. Jumladan, Beruniy ro‘yxatidagi ikki hukmdorning ismi “Askajamuq” shaklida qayd etilgani va ularning Chjaovu xonadoniga mansubligi ta’kidlanadi. Uning fikricha, “Jamuk” so‘zi turkiycha “javohir” ma’nosini anglatadi va ilk o‘rta asrlarda Turk xoqonligida aslzodalar unvoni sifatida qo‘llanilgan [198] . Tadqiqotchi olimalardan F. Djumaniyozova o‘z maqolasida Kushon podshohi Kanik (Kanishka) va afrig‘iy hukmdor Kanik (Kanir) ismlarining o‘xshashligini keltirib, bu o‘xshashlik tasodif emasligini, afrig‘iylar kushon va eftalliylarga tarixan bog‘liqligini qayd etgan. Uning ta’kidlashicha, ismlar o‘xshashligidan tashqari xorazmshoh Kanikning hukmronlik davri (taxminan 713–751-yillar) Kushonlar imperiyasi qulaganidan ancha keyin bo‘lsa-da, Kanishkaning shuhrati o‘sha davrlarda ham saqlanib qolgan bo‘lishi mumkinligini taxmin qilgan. Muallifning fikricha, Xorazmshoh Kanikning ismi Kushon podshohi Kanishkaga taqlidan tanlangan. Bu orqali Xorazm hukmdorlari o‘zlarini Kushon imperiyasi bilan bog‘lab, o‘z hukmronliklarini qonuniylashtirishga harakat qilganlar. Shuningdek, muallif Kushon podshohi Kanikning obro‘si undan keyin ham bir necha asr davomida saqlanib qolganini va keyingi sulolalarga ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlagan[199].

J. Hiraviyning tadqiqotida afrig‘iylar sulolasining qadimgi Eron madaniyati va tarixi bilan bog‘liqligini ko‘rsatish maqsadida Beruniy ro‘yxatidagi oltinchi hukmdor Saxr ismining etimologiyasi fors

[195] هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱۰ – ۱۱.
[196] Yuqoridagi asar. – B. 11–12.
[197] Vaissière É . Asie centrale 300–850: Des routes et des royaumes. – Paris: Les Belles Lettres, 2024. – P. 124.
[198] Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм… – Б. 51.
[199] Djumaniyozova F. Beruniyning “Hindiston” asaridagi Kanik xususida // Sohibqiron yulduzi. – 2023. – № 3. –B. 150.

tilidagi “Xshatra” so‘zi bilan bog‘langan holda tahlil qilinadi. Uning fikricha, bu ism “xursav”, “shoh”, “shahriyor” kabi ma’nolarga yaqin bo‘lib, hukmdorning yuqori martabasini va qudratini ifodalaydi. Yettinchi hukmdor Shovush (Chovush) ismini esa J. Hiraviy “Siyovush” afsonaviy qahramonining arablashtirilgan shakli sifatida talqin qiladi. To‘qqizinchi hukmdor Bo‘zg‘ar ismining etimologiyasini J. Hiraviy sosoniylar davridagi Yazdigird I ga berilgan “Bozahkar” (gunohkor) laqabi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, Bo‘zgar ham Yazdigird I kabi mazdakiylik diniga moyil bo‘lgan va shu sababli zardushtiy kohinlar tomonidan “Bozahkar” deb nomlangan [200] . Shuningdek, ro‘yxatda keltirilgan Arsamux ismi Xorazmda topilgan tangalardagi ismlardan biri bilan mos kelishi ta’kidlab, ismning birinchi qismi “Art” bo‘lib, “tartib” va “adolat” ni anglatishini va bu qism sosoniylar davridagi boshqa ismlarda ham uchrashini keltirib o‘tgan. Ikkinchi qism “muh” esa “ko‘rinish”, “yuz” va “siymo” ma’nolarini bildirishini ta’kidlab, bu ikki qism birlashib, “Adolatli yuz” yoki “Muqaddas siymo” kabi ma’nolarni anglatishini qayd etgan [201] . J. Hiraviyning taxminiga ko‘ra, bu ism Arsamuxning otasidan farqli o‘laroq, uning mamlakatda zardushtiylik dini homiysi sifatida tanilgani va zardushtiy kohinlar tomonidan berilgan bo‘lishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda Arsamux ismining Ozarbayjon hududidagi “Arsax” turkiy qabilalariga tegishli toponimga yaqinligi ta’kidlanadi. Xususan, “Arsax” so‘zining o‘zi esa qadimgi sak qabilasi nomi bilan bog‘lanib, “jasur sak”, “mardonavor sak” yoki “saklik erkak” ma’nolarini bildirishi mumkinligi tadiqotlarda keltirib o‘tilgan [202] . Beruniy ro‘yxatidagi Turkasabos (yoki Turksabas/Turkabos) shaxsining identifikatsiyasi va ismining etimologiyasi masalasida bir nechta qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar, uni 567-yilda Turk xoqonligining g‘arbiy o‘lkalarida (Orol dengizi atroflarida) hukmronlik qilgan Turksanf bilan bir shaxs deb hisoblaydilar. O.I. Smirnova esa Turkasabos ismining lug‘aviy ma’nosini “turk lashkarining sohibi” sifatida talqin qilgan[203]. Masalani

[200] هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱۱ – ۱۲.
[201] هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱۱ – ۱۲.
[202] [Elektron resurs]: Qarabağ: etimologiyasi, ərazisi və sərhədləri: https://www.trt.net.tr/azerbaycan/proqram/2016/04/04/qarabag-etimologiyasi-razisi-v-s-rh-dl-ri-464452.html
[203] Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. Москва: Наука, 1981. – С. 425, 428.

Turk xoqonligi bilan bog‘liq holda o‘rgangan tadqiqotchilar esa Turksanfning asl ismi turkiychada “Turk shad” bo‘lib, Istami xoqonning o‘g‘li ekanligini ta’kidlaydilar[204].

Tahlillar shuni ko‘rsatyaptiki, “Afrig‘” atamasi va afrig‘iylar sulolasining ilk hukmdorlari ismlarining kelib chiqishi va tarixiy konteksti haqidagi tadqiqotlar asosan Eron va milliy tarixshunosligida olib borilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida “Afrig‘” atamasi va hukmdorlar ismlarining etimologiyasi va tarixiy kontekstini yagona va qat’iy talqin qilishga urinish kuzatiladi. Bu esa, mavzuga nisbatan bir yoqlama yondashuv va subyektiv xulosalarga olib kelgan. Masalan, J. Hiraviyning “Afrig‘” atamasini “eronvix” (ya’ni, “eronlik zot”) deb talqin qilishi va sulolaning kelib chiqishini Eron bilan bog‘lashi, yoki G‘. Boboyorovning barcha ismlarni turkiy etimologiya asosida tahlil qilishi kabi yondashuvlar mavzuga nisbatan bir yoqlama qarashni namoyon etgan. Shuningdek, tadqiqotlarda hukmdorlar ismlarining kelib chiqishi va ma’nosi haqidagi qarashlarda bir-biriga zid fikrlar ham mavjud. Bu esa, masalaning hali ham munozarali ekanidan va qo‘shimcha tadqiqotlar talab etilishidan dalolat beradi.

Afrig‘iylar sulolasi hukmdorlarining ismlarini o‘rganishda mavjud tadqiqotlar muhim qadam bo‘lsa-da, ularning yetarli emasligi va bir qator kamchiliklarga ega ekanligini tan olish lozim. Kelajakdagi tadqiqotlarda ko‘proq manbalarni jalb qilish, turli yondashuvlarni qo‘llash va fanlararo hamkorlikni kuchaytirish orqali bu masalani har tomonlama va chuqur o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Beruniy ro‘yxatida keltirilgan xorazmshoh ismlarining tadqiq etilishidan tashqari afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi, eftaliylar, Turk xoqonligi va Arab xalifaligi davridagi siyosiy maqomi, shuningdek, sulolani oli Iroq (Iroq oilasi) sifatida nomlanishi kabi masalalar yuzasidan milliy va xorijiy tarixshunoslikda turlicha yondashuv va qarashlar shakllangan.

Milliy tarixshunoslikda afrig‘iylar sulolasining kelib chiqish tarixi asosan Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga tayanib o‘rganilgan. Bu asarda sulolaning kelib chiqishi, hukmdorlar silsilasi va ularning ayrim faoliyati haqida ma’lumotlar

[204] Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Алимова Д. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 52.

mavjud. Vatan tarixshunoslikda sulolaning mavjudligi va Xorazmni 600 yildan ortiq boshqarganligi ta’kidlansa, xorijiy tadqiqotlarda bu masalaga shubha bilan qaraladi yoki sulolani afsona deb hisoblash holatlari uchraydi. Shu sababdan, tadqiqotchilarning afrig‘iylar sulolasiga oid yondashuv va qarashlarini uch guruhga ajratish mumkin:

1) Afrig‘iylarni eroniy sulola sifatida talqin qilish: Bu guruh tadqiqotchilari sulolaning kelib chiqishini Eron bilan bog‘laydilar va uning hukmdorlarining ismlarini eroniy tillardan kelib chiqqan deb talqin qiladilar. Ularning fikricha, afrig‘iylar sulolasi sosoniylar davridagi Eron madaniyati va an’analarining vorisi bo‘lgan. Masalaga oid fors va ingliz tilli tadqiqotlarning barchasida afrig‘iylar sulolasini eroniy sulola sifatida qayd etishgan va bunga dalil sifatida Beruniy ma’lumotlarini keltirishgan.

S.P. Tolstovning afrig‘iylar sulolasi haqidagi qarashlari o‘sha davr ilmiy muhitida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. U o‘zining dastlabki tadqiqotlarida Beruniy asarida tilga olingan afrig‘iylar sulolasining mavjudligini tasdiqladi hamda ularning kelib chiqishini eroniy xalqlar bilan bog‘ladi [205] . Biroq keyinchalik arxeologik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida S.P. Tolstov o‘zining ayrim qarashlari qayta ko‘rib chiqdi. Xususan, u Xorazm madaniyatining Eron sosoniylari madaniyatidan farq qilishini aniqladi. S.P. Tolstovning keyingi tadqiqotlarida Xorazm madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va “yagona eron madaniyati” nazariyasining noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatishga harakat qilgan [206] . S.P. Tolstov o‘zining avvalgi qarashlarini qayta ko‘rib chiqishi va o‘zgartirganligi uning ilmiy obyektivlikka intilishidan dalolat beradi. Zero, yangi tadqiqotlar natijasida eski qarashlar qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishi tabiiy holdir.

V. Zelda va K. Koutslarning tadqiqotlari XX asr o‘rtalarida sovet davlatida olib borilgan arxeologik qazishmalar, xususan, XAEEning 1937–1950 yillardagi faoliyati natijalariga asoslangan. Ularning tadqiqotlarida afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi masalasi ko‘rib chiqilgan. Mualliflar afrig‘iylar sulolasini “Xorazm xusravlari” deb ataydi hamda ularning kelib chiqishini Eronning afsonaviy hukmdori

[205] Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: МГУ, 1948. – С. 144–145.
[206] Толстов С.П. Древности Верхнего Хорезма … – С. 8–9.

Siyovush avlodi bilan bog‘laydilar[207]. Bu qarash o‘sha davrda G‘arb tarixshunosligida keng tarqalgan edi. Zelda va Koutslarning afrig‘iylarni “Xorazm xusravlari” deb atashi va ularning kelib chiqishini Kayxusrav bilan bog‘lashi “Eron nazariyasi” ta’sirida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

R.N. Frayning tadqiqotlarida “Xorazm maliklari” ning Eron sosoniylari bilan aloqalari va bu aloqalarning Xorazm madaniyatiga ta’siri tahlil qilingan. Uning ta’kidlashicha, Xorazm ilk islom davrida Eron madaniyati va an’analarini saqlab qolgan sanoqli hududlardan biri bo‘lgan[208]. R.N. Frayning qarashlariga “Eron nazariyasi”ning ta’siri bo‘lganligini va Xorazm madaniyatining o‘ziga xosligini yetarlicha baholamaslik holatlari kuzatilganligini ko‘rish mumkin.

Zamonaviy tarixshunoslikda afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi masalasida turli xil qarashlar mavjud bo‘lsa-da, aksariyat xorijiy tadqiqotchilar sulolani eroniy ildizlarga egaligini qo‘llab-quvvatlashgan. Bunga sabab sifatida, eronlik olimlarning faol ilmiy izlanishlari va ularning asarlarining ingliz, fransuz, nemis tillarga tarjima qilinib, keng ilmiy jamoatchilikka yetib borganligini ham keltirish mumkin. Eronlik olimlarning axborot maydonidagi ustunligi natijasida xorijiy tadqiqotlarda sulolaning eroniy ildizlarga egaligi haqidagi fikr keng tarqalgan.

Jumladan, S. Brentes o‘z tadqiqotida afrig‘iylarni “Xorazm xusravlari” yoki “siyovushiylar” deb atab, ularni qadimgi Eron mahalliy sulolasining bir tarmog‘i sifatida ko‘rsatgan[209].

Eronlik olimlardan P. Azkoyiy, J. Hiraviy, T. Daryoyiy, S. Gulshaniylar hukmdor ismlarining etimologiyasi, madaniy va diniy omillarga asoslanib sulolaning eroniy kelib chiqishi haqidagi farazni qo‘llab-quvvatlashgan[210].

---

[207] Zelda K W., Coates P. Soviets in Central Asia. – London: Lawrence & Wishart LTD, 1951. – P. 31.

[208] Frye R.N. Notes on the early coinage of Transoxiana… – P. 16–23.

[209] Brentjes S. Abu Nasr Mansur b. 'Ali b. ‘Iraq (lived circa 950–1036) and Abu l-Rayhan alBiruni (lived from 973-after 1050) as students, teachers, and companions // Models & Optimisation and Mathematical Analysis Journal. –2015. – № 1. – P. 28–30.

[210] Daryaee T. Kings, whores and children. Passing Notes On Ancient Iran And The World That We Live In.. –London: Mehri publication, 2018. – P. 134–135. ایران شناخت. سال ۱۳۷۷. شماره ۱۰. ص.۱۰. ؛ اذکائی پرویز. خاندان شاهیه خوارزم

هروی جواد. آل عراق : پژوهشی تازه در یک قرن حاکمیت تابع سامانیان بر خوارزم. تاریخ تمدن اسلامی. سال ۱۳۹۱. شماره ۴۵. ص. ۱۰۷ ۱۱۶. ؛ S.Golshani etc. Chorasmia Medical School from the beginning

Afrig‘iylar sulolasining eroniy kelib chiqishi masalasidagi tarixiy qarashlarini tahlil qilganda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

a) Eroniy sulola nazariyasining ustuvorligi: Ko‘plab tadqiqotlar, ayniqsa, Eron tarixshunosligida, afrig‘iylarni eroniy sulola deb hisoblashga moyil. Bu qarashning asosiy dalili sifatida Beruniyning asarida keltirilgan ma’lumotlar va hukmdorlar ismlarining eroniy tillardagi talqini keltiriladi.

b) Arxeologik dalillarning qarama-qarshiligi: Arxeologik topilmalar bu nazariyaga to‘liq mos kelmaydi. Xorazm madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari va uning Eron sosoniylari madaniyatidan farq qilishi afrig‘iylarning etnik kelib chiqishi haqidagi savollarni ochiq qoldiradi.

d) Sulolaning etnik kelib chiqishiga oid yozma manbalarning yetishmasligi: Islomgacha bo‘lgan Xorazm tarixiga oid yozma manbalarning kamligi, afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi masalasidagi tadqiqotlarni qiyinlashtiradi. Beruniyning ma’lumotlari esa mazkur masalada yagona manba bo‘lib, uning ma’lumotlarini boshqa dalillar bilan qiyoslash imkoniyati cheklangan.

2) Afrig‘iylarni turkiy sulola sifatida talqin qilish: Bu guruh tadqiqotchilari sulolaning kelib chiqishini Turk xoqonligi bilan bog‘laydilar va uning hukmdorlarining ismlarini turkiy tillardan kelib chiqqan deb talqin qiladilar. Ularning fikricha, afrig‘iylar sulolasi Turk xoqonligining Xorazmdagi hokimiyati davom ettirilishining natijasidir. Jumladan, Xitoy manbalarini tadqiq qilgan N.Y. Bichurin va E. Shavanlar islomdan avvalgi davrlarda hukm surgan Xosyun (Xorazm) viloyatining boshqaruvchilari “Chjaovu” sulolasidan ekanligini keltirganlar [211] . Turkshunos Z.V. To‘g‘onning fikricha, afrig‘iylar sulolasi aslida abdallar (eftaliylar)dan kelib chiqqan va ular o‘zlarini qadimgi eroniy sulolaga mansub qilib ko‘rsatishga harakat qilganlar[212]. Bu fikrni asoslash uchun tadqiqotchi eftaliylar va Xorazm tillarining o‘zaro yaqinligiga, shuningdek, tanga yozuvlaridagi o‘xshashliklarga ishora qiladi. Z.V. To‘g‘onning bunday xulosasida bir

until the Mongol invasion // Journal of Medical Ethics and History of Medicine. – 2015. – № 8. – P. 3–6.

[211] Бичурин Н.Я. Собрание сведений... Т. II. – С. 310; Chavannes E.Documents sur les... – P. 310.

[212] Togan Z.V. Umumi Türk Tarihine Giriş. – İstanbul: Enderun Kitabevi, 1981. – S. 60.

qator munozarali jihatlar mavjud. Birinchidan, eftaliylarning etnik kelib chiqishi haqida yagona fikr mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar ularni turkiy xalqlar bilan bog‘lasa, boshqalar ularni eroniy yoki hatto hind-yevropa xalqlariga mansub deb hisoblaydilar. Ikkinchidan, tanga yozuvlaridagi o‘xshashliklar har doim ham etnik yoki siyosiy birlikni anglatmaydi. Ular madaniy va iqtisodiy aloqalarning natijasi ham bo‘lishi mumkin.

O.I. Smirnova, A. Otaxojayev va G‘. Boboyorov kabi olimlar Beruniy ro‘yxatida keltirilgan ayrim ismlarning turkiy kelib chiqishiga asoslanib, afrig‘iylar sulolasining ham turkiy ildizlarga bog‘langanligi g‘oyasini ilgari surganlar[213].

K. Antiya Markaziy Osiyodagi musulmon hukmdorlar orasida qadimgi Eron podshohlaridan bir ajdodni da’vo qilish tendensiyasi kuchliroq ekanligini va buni “Xorazm maliklari” misolida ta’kidlagan. O‘rta asrlarda hukmdorlar o‘z hokimiyatlarini oqlash va mustahkamlash uchun ko‘pincha afsonaviy yoki tarixiy shaxslarga o‘z nasablarini bog‘lashga harakat qilishgan. Bu holat afrig‘iylardan tashqari, somoniylar, qoraxoniylar sulolasida ham kuzatilgan. Bundan kelib chiqadiki, sulolani eroniy yoki turkiy ildizlarga bog‘lashda mazkur omilni ham inobatga olish lozim.

Yuqoridagi har ikkala yo‘nalishdagi tadqiqotlar tahlil qilinganda, mavjud manbalar va tadqiqotlar bir-biriga zid bo‘lgan turli xil qarashlarni keltirib chiqarganganining guvohi bo‘ldik. Ushbu masalani sintez usulini qo‘llash va tarixiy modellashtirish metodidan foydalangan holda muammoning yechimini topishga yangicha yo‘l ochish mumkin. Sintez usulining asosiy g‘oyasi turli xil nazariyalarni birlashtirish, ularning umumiy jihatlarini topish va yangi, kengroq qarashni taklif qilishdan iborat. Bu yondashuv mazkur tadqiqotda afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishini bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Turkiy va eroniy unsurlarning mushtarakligi tarixiy jihatdan ko‘p qirrali va uzoq davom etgan jarayon bo‘lib, bu ikki madaniyat

[213] Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва: Наука, 1981. – С. 425, 428; Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм … – Б. 52; Отахўжаев А. Африғийлар даври (305–995 йиллар) да Хоразм шаҳарларининг сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти / Хоразм шаҳарлари манбалар ва замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Н.А. Аллаева. – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 61–63.

o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va aloqalarning natijasidir. Bu mushtaraklik til, madaniyat, din, san’at va boshqa sohalarda o‘z aksini topgan. Mazkur masalaga oid turli tadqiqotlar umumlashitirilib, sintez usuli qo‘llanganida sulola etimologiyasida turkiy va eroniy unsurlarning uyg‘unligini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

a) aralash nikohlar: turkiy va eroniy xalqlar o‘rtasidagi aralash nikohlar natijasida hokimiyat tepasiga aralash kelib chiqishga ega bo‘lgan sulola kelgan bo‘lishi mumkin;

b) madaniy almashinuv: turkiy va eroniy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri afrig‘iylar sulolasining madaniyatida o‘z aksini topgan bo‘lishi mumkin. Bu esa sulola hukmdorlarining ismlarida ham aks etgan;

c) siyosiy strategiya: hukmronlikni mustahkamlash va qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish maqsadida afrig‘iylar sulolasi turkiy va eroniy xalqlarning an’analari va qadriyatlarini o‘zlashtirgan bo‘lishi mumkin;

Tarixiy modellashtirishning asosiy g‘oyasi afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishini bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida ko‘rishdan iborat. Bu model sulolaning shakllanishida turkiy, eroniy va mahalliy elementlarning rolini hisobga oladi. Modelning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

a) aralash etnik kelib chiqish: afrig‘iylar sulolasining shakllanishida turkiy, eroniy va mahalliy aholining aralashuvi muhim rol o‘ynagan. Bu aralashuv natijasida yangi etnik guruh vujudga kelgan bo‘lib, u o‘zida turli xalqlarning an’analari, tili va madaniyatini mujassamlashtirgan;

b) madaniy sintez: afrig‘iylar sulolasining madaniyati turkiy, eroniy va mahalliy madaniyatlarning sintezi natijasida shakllangan. Bu sintez sulolaning diniy e’tiqodlari, san’ati, adabiyoti va boshqa sohalarida o‘z aksini topgan;

c) sulolaviy aloqalar: afrig‘iylar sulolasi boshqa sulolalar, jumladan, sosoniylar, eftaliylar Turk xoqonligi va bilan turli davrlarda sulolaviy aloqalar o‘rnatgan. Bu aloqalar sulolaning etnik va madaniy qiyofasiga ta’sir ko‘rsatgan;

Tadqiqotda qo‘llanilgan sintez usuli va tarixiy modellashtirish metodi orqali to‘plangan bilimlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Beruniy asarida qayd etilgan Afrig‘dan to Turksabasagacha bo‘lgan hukmdorlar ismlarining eroniy va turkiy aralash (1–16 hukmdorlar),

undan keyingi ismlarning esa islomiy (17–22 hukmdorlar) ekanligi sulolaning etnik tarkibida eron va turkiy unsurlar uyg‘unlashganligidan dalolat beradi. Shu sababli, sulolani to‘liq turkiy yoki eroniy sulola sifatida talqin qilish tarixiy haqiqatga ziddir. Bu o‘rinda sulolani poli-etnik (aralash) sulola sifatida qarash lozim.

3) Afrig‘iylar sulolasini afsona sifatida talqin qilish: Bu guruh tadqiqotchilari afrig‘iylar sulolasining tarixiy mavjudligiga shubha bilan qaraydilar va afrig‘iylar haqidagi yozma manbalardagi ma’lumotlarni asosan afsona va rivoyatlar qorishmasi deb biladilar. Ularning fikricha, bu sulola haqidagi ma’lumotlar keyingi davrlarda siyosiy maqsadlarda to‘qib chiqarilgan bo‘lishi mumkin.

K.E. Bosvortning tadqiqotlarida afrig‘iylar sulolasining tarixiyligi masalasi jiddiy shubha ostiga olingan[214]. Uning fikricha, bu sulola haqidagi ma’lumotlarning deyarli barchasi Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga asoslangan bo‘lib, bu asarning ishonchliligi shubha ostiga olgan. K.E. Bosvortning ta’kidlashicha, Beruniy islomgacha bo‘lgan Xorazm tarixini yetarlicha bilmagan va uning ma’lumotlari ko‘p hollarda afsona va rivoyatlarga asoslangan.

K.E. Bosvort bunday skeptik qarashlarni asoslashda bir nechta dalillarga asoslangan. Birinchidan, “Afrig‘” atamasi faqat Beruniy asarida uchraydi va boshqa biror manbada tasdiqlanmaganini qayd etgan. Ikkinchidan, keng qamrovli sovet arxeologik qazishmalar davomida Afrig‘ nomi yozilgan birorta tanga yoki boshqa moddiy dalil topilmagani keltirib o‘tgan. Uchinchidan, Beruniyning arablar Xorazmning qadimgi tarixini bilgan barcha olimlarni o‘ldirgani haqidagi ma’lumoti ham mubolag‘a bo‘lishi mumkinligini keltirib o‘tgan. Uning fikricha, agar Afrig‘ haqiqatda hukmronlik qilgan bo‘lsa ham, uning mavqeyi faqat rasmiy xarakterga ega bo‘lgan va u haqiqiy hokimiyatga ega bo‘lmagan.

Biroq keyinchalik K.E. Bosvort o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqqan. Keng ko‘lamli numizmatik tadqiqotlar va boshqa

[214] Bosworth C.E. The heritage of ruler ship in early Islamic Iran and the search for dynastic connections with the past // Journal of the British Institute of Persian Studies. – 1973. – № 11. – P. 55; O‘sha muallif. The transition from Ghaznavid to Seljuq rule in the islamic east. for the degree of Doctor of Philosophy. – Edinburgh: University of Edinburgh, 1961. O‘sha muallif.The Ghaznavids. History of Civilizations of Central Asia, vol IVa. – Paris: Unesco Publishing press, 1998. – P. 108, O‘sha muallif. Āl-e Afrīḡ” // Encyclopaedia Iranica. – 1984. – № 7. – P. 743–745.

manbalarning qiyosiy tahlili natijasida u afrig‘iylar sulolasining mavjudligini tan olgan hamda afrig‘iylar sulolasini oli Iroq (Iroq oilasi) ning oldingi ajdodi sifatida qayd etgan[215]. Bu esa o‘z navbatida, K.E. Bosvortning ilk tadqiqotlaridagi qat’iy skeptisizmdan voz kechganligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy rus tangashunoslaridan M. Fedorov va A. Kuznetsovlarning dastlabki ishlarida V.A. Livshits va B.I. Vaynberg kabi tadqiqotchilarning ta’sirida bo‘lib, afrig‘iylar sulolasining mavjudligiga shubha bilan qaraganlar va Beruniyning ma’lumotlarini afsonaviy deb hisoblashgan[216]. Biroq keyinchalik ular sulolaga tegishli yangi numizmatik manbalar topilishi natijasida o‘z qarashlarini qayta ko‘rib chiqqanlar va afrig‘iylar sulolasining tarixiy mavjudligini tan olib, Beruniyning ma’lumotlarini ishonchli deb baholaganlar. Bu holat tarixiy tadqiqotlar dogmatik bo‘lmasligi va doimo yangi dalillar va tahlillar asosida takomillashtirilishi lozimligini ko‘rsatadi.

Turkiyalik tadqiqotchilardan A. O‘zbayraktarning ham tadqiqotida afrig‘iylar sulolasining tarixiyligi va Beruniyning 22 hukmdor ro‘yxatining ishonchliligi masalasi qayta ko‘rib chiqilgan. Uning fikricha, Beruniy ro‘yxati oli Iroq sulolasining legitimligini ta’kidlash va mustahkamlash uchun to‘qib chiqarilgan degan, ilmiy farazni ilgari surgan[217]. Muallif bu ro‘yxatni xorazmshohlar shajarasi emas, balki oxirgi afrig‘iy xorazmshoh Abdulloh Muhammad ibn Ahmadning nasl-nasabini aks ettiruvchi silsila deb hisoblagan.

A. O‘zbayraktar arxeologik va numizmatik ma’lumotlarga tayangan holda 305–995-yillar oralig‘ida hukmronlik qilgan afrig‘iylar sulolasini uchta guruhga bo‘ladi. 1) islomgacha bo‘lgan ajdod Afrig‘ oilasi (305–711-yillar), 2) olis ajdod Askajavar oilasi (712–896-yillar) va 3) yaqin ajdod Iroq oilasi (897–995-yillar).

A. O‘zbayraktar arxeologik va numizmatik manbalarda o‘z tasdig‘ini topmagan Afrig‘ning Abdulloh Muhammad ibn Ahmadga

---

[215] Bosworth C. E. The Anushteginid Khwarazm-Shahs: Gentle Ascent and Catastrophic Decline. The Coming of the Mongols. Ed. D.Morgan,S.Stewart. – London -New York, 2018. – P. 6–8.

[216] Fedorov M. The Khwarazmshahs of the Banu Iraq (4th-10th century) // Iran: Journal of the British Institute of Persian Studies. – 2000. – № 38; Fedorov M, Kuznetsov A. On some previously unknown Khwarazmian drachms and the names of rulers on them // Journal of the British Institute of Persian Studies. – 2011. – № 49. – P. 79–88.

[217] Özbayraktar A. Afrîğ Hanedanı: Hârezmşâh II Muhammed’in Soyağacı Üzerine Bir İnceleme // İran Çalışmaları Dergisı. – 2023. – № 7.– S.156–157, 164–165.

uzoq ajdodligini ta’kidlagan va yuqorida tilga olingan 22 ta nomlarni faqat shajara ismlari sifatida qabul qilgan [218]. A. O‘zbayraktar xulosasiga ko‘ra, afrig‘iylar sulolasi yagona sulola bo‘lmasdan, turli etnik guruhlarni o‘z ichiga olgan murakkab siyosiy tuzilma bo‘lgan. Uning fikricha, bu sulolaning nasl-nasabini sun’iy ravishda uzaytirish va aslzodalashtirishga urinish kuzatilgan.

Milliy va xorij tarixshunoslikda yuqorida keltirilgan uch guruhga kirmaydigan afrig‘iylar sulolasi kelib chiqishi masalasiga doir o‘zgacha yondashuvlar ham mavjud. Bu yondashuvlar ko‘pincha sulolaning etnik kelib chiqishi masalasida qat’iy pozitsiya bildirmaydi va mavjud dalillarni qayta ko‘rib chiqish hamda tahlil qilishga asoslanadi.

E.V. Rtveladze afrig‘iylar sulolasi tarixini o‘rganishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan olimlardan biridir. 2013-yili e’lon qilingan “O‘zbekiston davlatchiligi tarixida Xorazm” nomli ko‘pmualliflik monografiyasining “Xorazmdagi vazamariylar (afrig‘iylar) davlati” qismida[219] muallif Beruniy asarida keltirilgan ma’lumotlarga tanqidiy yondashuvi, arxeologik va numizmatik materiallarni qiyosiy tahlil qilishi asosida sulola tarixini o‘rganishda yangi yo‘nalish ochdi. Jumladan, E.V. Rtveladze Beruniyning Afrig‘ haqidagi ma’lumotlarini “yarim afsonaviy” deb baholab, III asr oxiri– IV asr boshlarida zarb qilingan tangalarda Afrig‘ nomi yo‘qligini ta’kidlaydi [220]. Uning fikricha, III asr oxiri– IV asr boshlariga oid tangalarda Vazamar nomi uchraydi, shu nuqtayi nazardan Vazamar bu Afrig‘lar sulolasining dastlabki hukmdori hisoblanadi. Yozma manbalarda faqatgina Beruniy asarida tilga olingan Afrig‘ esa hozirga qadar sulola nomi sifatida ko‘rsatiladi. E.V. Rtveladze tangalardagi ma’lumotlardan kelib chiqib afrig‘iylar sulolasi nomini “vazamariylar”ga almashtirish taklifini ilgari suradi [221]. Bu qarash milliy tarixshunoslikda katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lib, 2013-yildan hozirgi kunga qadar bir qancha ishlarda afrig‘iylar nomi bilan birgalikda vazamariylar ham qo‘llanilmoqda[222].

[218] Özbayraktar A. Afrîğ Hanedanı... – S. 160–164.
[219] Ртвелдзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма…– С. 90–100.
[220] Yuqoridagi asar. – B. 94–95.
[221] Yuqoridagi asar. – B. 90–94.
[222] Ro‘zimov A. IV–X asrlarda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixi // Journal of Universal Science Research. – 2023. –№ 6. – B. 584–587; Otaxo‘jayev va b. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm.O‘zbekiston tarixi. XI jild / Mas’ul muharrir Sagdullayev A.S. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 147; Алимова Д.А. Ўзбекистон археологияси

Sh. Ismoilovning tadqiqotida esa afrig‘iylar va ma’muniylar sulolalarining etnik kelib chiqishi haqidagi turli gipotezalar tahlil qilingan. Tadqiqotchi bu masalada yagona va qat’iy xulosaga kelishning qiyinligini qayd etib, afrig‘iylar va ma’muniylar sulolalarining na fors, na turk va na arab, balki, qadimgi Xorazm xalqidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkinligi haqidagi farazni ilgari suradi[223]. Shuningdek tadqiqotchi ma’muniylar sulolasini afrig‘iylarni davomi sifatida ko‘radi.

Xorij tarixshunosligida afrig‘iylar sulolasini boshqa sulolalar bilan adashtirish holatlari ham kuzatilib, bu asosan manbalarning yetishmasligi, atamalardagi noaniqliklar va tadqiqotchilarning turli metodologik yondashuvlari bilan bog‘liq. Xususan, I. Zakiyning tadqiqotida Juzjondagi farg‘uniylar sulolasini afrig‘iylar sulolasi bilan bir deb hisoblagan[224]. Adabiyotlar tahlilidan aniqki, bu ikki sulola hukmronlik qilgan hudud va davrlar bir-biridan farq qiladi. Afrig‘iylar milodiy IV – X asrlarda Xorazmda hukmronlik qilgan bo‘lsa, farig‘uniylar IX – XI asrlarda shimoli-g‘arbiy Afg‘onistonda hukmronlik qilgan. Farig‘uniylar haqida muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” asarida[225] “afsonaviy Faridun avlodi” degan sulola tilga olinadi I. Zakiyning bunday xulosaga kelishiga K.E. Bosvortning afrig‘iylar sulolasini “Katning al-Farig‘unlari” deb atagani sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin[226].

So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda “Afrig‘iylar” atamasi o‘rniga “oli Iroq” yoki “Banu Iroq” atamasi ko‘proq qo‘llanilmoqda. Buning sababi, oli Iroq haqida manbalarda aniq dalillar mavjudligi, afrig‘iylar bo‘yicha esa manbalardagi ma’lumotlar kamligi, aniq dalillar zaifligi bilan bog‘liq. Eronlik tadqiqotchi S.A. Dovud o‘z maqolasida oli Iroq sulolasi birinchi marta Ibn Fazlon asarida keltirilganligi, undan keyin Beruniy, muallifi noma’lum “Hudud ul-olam”, Utbiy, Ibn al-Asir,

---

тарихшунослигидан: Қадимги ва антик давр давлатчилик институтлари. – Тошкент: Bookmany Print, 2024. – Б. 53; Отахўжаев А. Африғийлар даври (305–995 йиллар) да Хоразм... – Б. 61–63.

[223] Ismailov Sh. Is the Khorezmshah Mamunids from Turkish Tribe or Arab? // EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO). – 2023. – №10. – P. 7–8 .

[224] İzzetullah Z.Gençliğe örnek sultanlarin biyografilerinin anlatiminin önemi üzerine // Uluslararasi 21.Yüzyilda gençlik ve inanç eğilimleri. – Ankara: İlãhiyãt, 2022. – S. 373.

[225] Ḥodūd al-ʿālam, tr. V.Minorsky.ed.C.E.Bosworth.E.J.W.Gibb Memorial Series, XI. – Cambridge: Cambridge University Press, 1970. – P. 106.

[226] Bosworth C.E, “ĀL-E FARĪḠŪN,” // Encyclopædia Iranica. –1984. – № 7. – P. 756–758.

Gardiziy, Mirxond va Xondamir asarlarida ham oli Iroq sulolasi haqida ayrim ma’lumotlar mavjudligini keltirib o‘tgan[227]. Tadqiqotchi shuningdek, Beruniy o‘z asarida qayd etgan oli Iroq sulolasini afrig‘iylar sulolasiga bog‘laganini, Bayhaqiy esa Xorazm hukmdorlarining naslini eron qahramoni Bahrom bilan bog‘liq bir qarindoshga yetkazganligini keltirib o‘tgan.

Oli Iroq sulolasining siyosiy maqomi va afrig‘iylar bilan munosabati masalasida tadqiqotchilar orasida turli qarashlar mavjud bo‘lib, ularni 3 guruhga ajratish mumkin:

1) Oli Iroq (Banu Iroq)ni alohida sulola sifatida emas, balki afrig‘iylar sulolasining davomi sifatida talqin qilish. K.E. Bosvort va P. Azkoyiy kabi tadqiqotchilar oli Iroq sulolasini afrig‘iylar sulolasining davomi deb hisoblaydilar. Ular bu fikrni asosan Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida keltirilgan afrig‘iylar sulolasi ro‘yxatining uzviyligiga asoslanadilar. P. Azkoyiyning ta’kidlashicha, Beruniy ro‘yxatidagi hukmdorlardan birining ismi Iroq bo‘lgan va ushbu hukmdordan boshlab “oli Iroq” atamasi “afrig‘iylar” o‘rnida qo‘llanilgan[228]. Mazkur yondashuv ko‘pchilik olimlar tomonidan keng qabul qilingan.

2) Ma’muniylar va Oli-Iroqni bir sulola sifatida talqin qilish. E. Zambuarning 1927-yilda yozilgan asarida oli Iroq va ma’muniylar sulolalari bir sulola sifatida qaralib, ularning kelib chiqishini arablarga borib taqalishini qayd etgan[229]. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ushbu qarash, asar yozilgan davrning ilmiy imkoniyatlari cheklanganligi va asosan Ibn al-Asir, Utbiy kabi o‘rta asr tarixchilarining asarlariga tayanganligi bilan izohlanadi. E. Zambuarning bunday yondashuvi keyingi tadqiqotlarda tanqidga uchradi. Xususan, S. Brentes va A. O‘zbayraktar kabi tadqiqotchilar E. Zambuarning ishini tanqid qilib, oli Iroq va ma’muniylar sulolalarining alohida ekanligini ta’kidlashib, uning ma’muniylar bilan hech qanday aloqasi yo‘qligini qayd etishgan[230].

---

[227] [Электрон ресурс] https://www.cgie.org.ir/fa/article/222387/عراق-آل

[228] اذکائی پرویز. خاندان شاهیه خوارزم . ایران شناخت. سال ۱۳۷۷. شماره ۱۰. ص.۱۴۱.؛ Bosworth C.E. Āl-e Afrīḡ … – P. 743–745.

[229] Zambaur E. Manuel de Genealogie et de Chronologie pour L’histoire de L’Islam. – Hanovre: Librairie Orientaliste heinz lafaire,1927. – S. 224

[230] Brentjes S. Abu Nasr Mansur b. 'Ali b. ‘Iraq… – P. 29; Heravi C., Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk… – S. 61–73.

3) Oli Iroqni afrig‘iylar sulolasidan alohida, yangi sulola sifatida talqin qilish. A. O‘zbayraktar va J. Hiraviylarning tadqiqotlarida oli Iroq sulolasining afrig‘iylardan tubdan farq qilishi va Ismoil Somoniy homiyligida tashkil etilgan yangi sulola ekanligi ta’kidlanadi. Ularning fikricha, afrig‘iylarning so‘nggi hukmdorlari Xurosondagi siyosiy beqarorliklarda faol ishtirok etgan va somoniy-safforiylar kurashida safforiylarni qo‘llab-quvvatlagan. Somoniylar g‘alaba qozongach, afrig‘iylar sulolasi tugatilgan va Ismoil Somoniy Xorazmni boshqarish uchun afrig‘iylar bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan Iroq ibn Mansurni taxtga o‘tkazgan.

Mualliflarning fikricha, Xorazmda qariyb 700 yil hukmronlik qilgan xorazmshohlarni yagona sulola sifatida qarash noto‘g‘ri. Ular afrig‘iylarning kelib chiqishini qadimgi eron ildizlariga, oli iroqning kelib chiqishini turklarga va ma’muniylarning kelib chiqishini arablarga bog‘laydilar[231].

A. O‘zbayraktar va J. Hiraviylarning tadqiqotlari afrig‘iylar sulolasi tarixshunosligiga yangicha yondashuvni taklif etib, an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishganini ta’kidlash mumkin. Ularning tadqiqotlarida afrig‘iylar va oli Iroq sulolalarining alohida ekanligi haqidagi ilmiy qarash ilgari surilgan. Ularning yondashuviga ko‘ra, Xorazmda hukmronlik qilgan bu ikki sulola o‘rtasida uzviylik yo‘q bo‘lib, ular turli davrlarda va turli etnik-siyosiy sharoitlarda shakllangan. Tadqiqotchilar bu ilmiy farazni asoslashda bir nechta dalillarni keltirganlar. Xususan, ular afrig‘iylar sulolasining dastlabki hukmdorlari ismlari asosan eroniy kelib chiqishga ega bo‘lganligini, oli Iroq sulolasi hukmdorlari ismlari arabcha ekanligini keltirishgan va bu ikki sulola o‘rtasidagi etnik va madaniy farqlar mavjudligini ismlarning etimologiyasi nuqtayi nazardan dalillashga urinishgan. Ikkinchidan, ular afrig‘iylar sulolasi va oli Iroq sulolasi o‘rtasida siyosiy uzilish mavjudligi ta’kidlashib, Ismoil Somoniy Xorazmni egallaganidan keyin afrig‘iylar sulolasiga barham bergani va o‘z noibi sifatida Iroq ibn Mansurni tayinlaganini keltirishgan[232].

Tadqioqtchilarning har ikkala dalili sulolalar o‘rtasida qarindoshlik aloqasi yo‘qligini ko‘rsatib, bir-biridan alohida sulola ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan. Yuqoridagi mualliflarning

[231] Heravi C., Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk… – S. 61–73.
[232] Heravi C., Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk… – S. 65–70.

muammoga yonashuviga nisbatan bir qancha savollar tug‘ilishi tabiiy. Birinchidan, Beruniy o‘z asarini yozib tugatganda allaqachon afrig‘iylar sulolasi tugatilgandi. Bu o‘rinda Beruniy oli Iroqning qonuniyligini mustahkamlashdan qanday manfaatdor bo‘lgan bo‘lishi mumkin? Beruniy asaridan ma’lum bo‘ladiki, uning ustozi va homiysi Abu Nasr ibn Iroq bo‘lib, u oli Iroq xonadonining a’zosi edi. Shu sababli, Beruniyning oli Iroq sulolasi tarixini ijobiy nuqtayi nazardan yoritishga moyil bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas. Ikkinchidan, agar bu ikki sulola alohida bo‘lsa, nega Beruniy ularni yagona sulola sifatida qayd etgan? Ehtimol, Beruniy o‘z davridagi siyosiy va ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda, ikki sulolani birlashtirish orqali Xorazmning davlatchilik an’analarini uzviylikda ko‘rsatishga harakat qilgan bo‘lishi mumkin. Yoki uning ma’lumot manbalari yetarli darajada aniq bo‘lmagan va u turli xil rivoyatlarni birlashtirib, yagona tarixiy konsepsiya yaratishga uringan bo‘lishi ham mumkin.

Tarixshunoslik tahlilidan kelib chiqqan holda, afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi va uning Xorazm tarixidagi o‘rni masalasi eng kam o‘rganilgan va murakkab masalalardan biri ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, afrig‘iylar sulolasi haqida turli tarixshunoslik yondashuvlari mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos dalil va asoslarga ega. Xususan, birinchi yondashuv afrig‘iylar sulolasini eroniy kelib chiqishga ega deb talqin qiladi. Bu qarash tarafdorlari Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga tayanib, sulolaning hukmdorlari ismlarini eroniy tillar etimologiyasi orqali tushuntiradilar. Ular afrig‘iylarni sosoniylar madaniyati va an’analarining davomchilari sifatida ko‘radilar va Xorazmda eroniy madaniy ta’sirning kuchli bo‘lganligini ta’kidlashadi.

Ikkinchi yondashuv esa afrig‘iylar sulolasining turkiy kelib chiqishiga urg‘u beradi. Bu tadqiqotchilar sulolaning hukmdorlarining ismlarini turkiy tillardan kelib chiqqan deb hisoblaydilar va afrig‘iylarning Turk xoqonligi bilan siyosiy va madaniy aloqalariga e’tibor qaratadilar. Ular sulolaning turkiy xalqlar bilan o‘zaro ta’sirini va bu ta’sirning sulolaning shakllanishidagi rolini ta’kidlaydilar.

Uchinchi yondashuvda afrig‘iylar sulolasi afsona yoki rivoyat sifatida ko‘riladi. Bu qarash tarafdorlari Beruniyning ma’lumotlariga shubha bilan qarab, sulolaning tarixiy mavjudligini inkor etadilar yoki

uning haqidagi ma’lumotlarni yetarli dalillar bilan tasdiqlanmagan deb hisoblaydilar. Ular arxeologik topilmalarda afrig‘iylar sulolasiga oid ishonchli ma’lumotlarning kamligini asos qilib oladilar.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, har bir yondashuvda subyektivlik va biryoqlamalik mavjud bo‘lib, sulolaning entik mansubligi masalasida yagona va qat’iy xulosaga kelish qiyin. Ismlarning tilshunoslik tahlili, arxeologik va numizmatik manbalarning cheklanganligi, yozma manbalarning yetishmasligi masalaning murakkabligini yanada oshiradi. Shu sababli, sintez usuli va tarixiy modellashtirish metodini qo‘llab, afrig‘iylar sulolasi poli-etnik xarakterga ega bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin. Sulolaning shakllanishida eroniy, turkiy va mahalliy unsurlar birgalikda ishtirok etgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

§ 2.2. Afrig‘iylarning siyosiy maqomi masalasi

Xorazmning III asr oxiridan VIII asr oxirigacha bo‘lgan davri tarixiy voqealar tafsiloti jihatidan juda murakkab hisoblanib, ko‘rsatilgan davrda Kushon imperiyasining tanazzuli va qulashi, Markaziy Osiyoda eftaliylar va Turk xoqonligi hukmronligining o‘rnatilishi bilan ajralib tursa, davrning yakuni arablarning butun mintaqani bosib olishi bilan izohlanadi. Bu asrlar davomida Xorazm vohasining rivojlanishi ikki asosiy omil: mulkchilik munosabatlarning kuchayishi va tashqi bosqinlar bilan belgilanadi. Bu davrda mulkchilik munosabatlarining kuchayishi va tashqi kuchlarning ta’siri ostida Xorazmda yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilmalar shakllandi. [2.1- ilova]

Ushbu davr tarixini o‘rganishda asosan xitoy yilnomalari va vizantiya manbalariga tayaniladi. Biroq G‘. Boboyorov ta’kidlaganidek, bu manbalarda ma’lumotlar yetarli darajada batafsil yoritilmagan va ko‘p hollarda voqealar qisqacha bayon etilgan[233]. Bu holat Xorazm tarixining ushbu davri haqida to‘liq va xolisona tasavvur hosil qilishni qiyinlashtiradi. Tabiiyki, tadqiqot doirasida ko‘rilayotgan masala bugungi kungacha oradan qancha vaqt o‘tishiga qaramay maxsus tadqiq etilmagan. Milliy va xorijiy tarixshunoslikda masalaning ayrim jihatlari tadqiq etilgan bo‘lib, ko‘p hollarda mazkur

[233] Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент, 2018. – Б. 245.

muammoning ba’zi jihatlari tadqiqotchilarning subyektiv xulosalariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda yaratilgan aksariyat adabiyotlarda esa tadqiq etilayotgan masalaga doir ma’lumotlarning tadqiqotlardan tadqiqotlarga ko‘chishi davom etmoqda. Biroq tadqiqotlar orasida afrig‘iylarning eftaliylar, Turk xoqonligi va Arab xalifaligi davrida siyosiy maqomi borasida yangi qarashlar bilan boyitilgan asarlar ham uchraydi. Jumladan, A. Otaxo‘jayev, A. Qurbonov va G‘. Boboyorov R. Ne’matov ishlarida muammoga yangicha yondashuvlarni ko‘rish mumkin[234].

Xorazmni boshqargan afrig‘iylar sulolasining eftaliylar davlati tarkibiga kirishi masalasi tarixshunoslikda haligacha bahsli masala bo‘lib qolmoqda. Bu masalada yagona xulosaga kelinmaganining asosiy sabablaridan biri eftaliylarning kelib chiqishi haqidagi munozaralardir. Ba’zi tadqiqotchilar eftaliylarni Markaziy Osiyoning janubiy hududlaridan kelgan deb hisoblasalar, boshqalari ularning vatani Xorazm bo‘lgan degan fikrni ilgari suradilar. Shuningdek, eftaliylar davlati va uning Xorazm bilan munosabatlari haqida bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalar juda kam va ko‘pincha bir-biriga ziddir. Bu esa masalani turli talqinda baholashga olib kelgan.

Sovet davridagi tadqiqotchilar bu masalaga asosan arxeologik va numizmatik dalillar asosida yondashganliklarini adabiyotlar tahlilidan ko‘rish mumkin. Masalan, S.P. Tolstov Xorazmning eftaliylarga siyosiy qaramligini ta’kidlab, bu fikrini arab manbalarida tilga olingan Kerdar davlatining mavjudligi hamda Baraktom yodgorligidagi arxeologik topilmalar bilan asoslagan [235] . Uning fikricha, Baraktomdagi qal’a xioniy-eftaliy guruhi qabilalariga mansub bo‘lib, afrig‘iy qal’alarining prototipi hisoblanadi va Xorazm an’analaridan

[234] Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида Турк-Суғд муносабатлари. – Тошкент, 2010; Kurbanov A. The Hephthalites: Archaeological and Historical analysis.diss.for…c.h.s(PhD) – Berlin, 2010; Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент, 2018; Ne’matov R, Almanov Q. The role of historical sources in the study of the history of the Turkish empire // American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – № 2. – P. 25–31; O‘sha muallif. Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати // Марказий Осиё тарихи ва маданияти. – 2023. – № 1. – Б. 122–125; O‘sha muallif. Илк ўрта асрларда Хоразмда кечган этномаданий жараёнлар // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. – 2023. – № 3. – Б. 14–23; O‘sha muallif. Хоразм Африғийлар сулоласи – Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари // Фундаментал тадқиқотлар журнали. – 2023. – № 7. – Б. 16–23.

[235] С.П .Толстов. По следам древнехорезмийской цивилизации... – С. 217–220.

tubdan farq qiladi[236]. Bu masalada E.E. Nerazik ham S.P. Tolstovning qarashlarini qo‘llab-quvvatlab, Xorazm madaniyatida ko‘chmanchi xalqlar, xususan, eftaliylarning ta’sirini ko‘rsatishga harakat qilgan[237]. Uning fikricha, Xorazm kulolchiligida kuzatiladigan o‘zgarishlar, ya’ni qizil rang o‘rniga yengil angob ishlatilishi, idishlar va piyolalar kam ishlab chiqarilishi, kosalar o‘rniga bir tutqichli sopol idishlarning keng tarqalishi ham eftaliylar ta’siri ostida yuz bergan [238]. B.I. Vaynberg esa numizmatik materiallar asosida Chag‘on va Askajavarni bir shaxs deb hisoblab, Chag‘oniyonni eftaliylar davlati deb ko‘rsatgan[239]. Biroq u Chag‘onning Xorazm taxtiga qanday kelib qolganligi masalasida aniq dalillar yo‘qligini qayd etgan. Keyinchalik V.N. Plipko va E.V. Rtveladze bu masalalarga tanqidiy yondashib, yangi dalillarni keltirdilar. Jumladan, V.N. Plipko Xorazm hududidan Chag‘onga tegishli tangalar topilmaganini, Chag‘on arablar yordamida taxtga ko‘tarilib, qisqa muddat hukmronlik qilganini ta’kidlagan bo‘lsa, E.V. Rtveladze numizmatik materiallar va tarixiy-topografik ma’lumotlarni tahlil qilib, Chag‘an va Chag‘oniyon o‘rtasida hech qanday aloqa yo‘qligini, Askajavar va Chag‘onning turli shaxslar ekanligini ta’kidlagan[240]. Tadqiqotchi R. Ne’matov o‘z ishlarida A. Gudkovaning fikriga asoslanib, Chag‘on ismining turk-mo‘g‘ul dunyosida keng tarqalganligiga e’tibor qaratgan[241].

K. Shoniyazov izlanishlarida vizantiyalik tarixchi P. Kesserskiy ma’lumotiga tayanib, eftaliylarni xun qabilalariga mansubligini, xunlarni esa qadimiy turkiy xalq ekanligini ta’kidlagan[242]. Biroq A. Sagdullayev fikricha, eftaliylarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanib, arab manbalari va tangashunoslik

[236] Толстов С.П. Древний Хорезм... – С. 277; O‘sha muallif. С.П. По древним делтам … – С. 239.

[237]Неразик Е.Е. Об этнических процессах в раннесредневековом Хорезме // Материалы по этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент, 1986. – С. 37.

[238] Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афрагидского периода // ТХАЭЭ. – Т.,1959. – С. 258–260; O‘sha muallif. Об этнических процессах в раннесредневековом Хорезме // Материалы по этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент, 1986. – С. 37.

[239] Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма… – С. 63, 93–94.

[240] Плипко В.Н. Древнее городище Одей-тепе в Чарджоуском оазисе // Каракумские древности. – № 8. –1979. – С. 53; Ртвеладзе Е.В. По поводу династических связей Хорезма и Чаганьяна в раннее средневековье // Вестник Каракалпакского филиала Академии Наук Узбекской ССР. – 1980. – № 1. – С. 51–58.

[241] Неъматов Р. Хоразм Африғийлар сулоласи … – Б. 20.

[242] Шониёзов К.Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, 2001. – Б. 66.

ma’lumotlarida eftaliylar podshohlari faqat turklarga xos bo‘lgan unvonlar bilan tilga olinishi va bu holatlar ayrim tadqiqotchilarning eftaliylarni turkiy xalqlar deb hisoblashiga sabab bo‘lishini ta’kidlagan [243] . S.A. Yatsenko afrig‘iy va eftaliy tangalaridagi o‘xshashliklarga e’tibor qaratib, tangalardagi bosh kiyimlarning mos kelishi va tamg‘alarning o‘xshashligi bu ikki davlat o‘rtasida yaqin aloqalar bo‘lganidan dalolat berishini qayd etgan[244]. A. Otaxo‘jayev fikricha, xinoy, kidariy va eftaliylarning kelib chiqishi bir tarmoqdan ekanligi, shu boisdan ular o‘rtasida mintaqadagi hokimiyat almashinuvi to‘qnashuvlarsiz ro‘y berganini ta’kidlagan[245].

Ingliz tarixchisi R.S. Blokli o‘zining “Menandr tarixi” asarida eftaliylar davlatining murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi, ya’ni eftaliylar ko‘chmanchi hayot tarzini saqlab qolgan holda, bosib olingan hududlardagi xalqlar, jumladan, Sug‘d va Xorazm aholisi o‘zlarining shaharlarda yashab, o‘troq hayot tarzini davom ettirishlariga yo‘l qo‘yganliklarini qayd etgan [246]. Bu esa eftaliylar davlatida turli madaniyatlarning birga yashashi va o‘zaro ta’sirlashuviga imkon yaratgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, eftaliylar davrida afrig‘iylar sulolasi sezilarli darajada mustaqillikka ega bo‘lgan. Mintaqada eftaliylarning ijtimoiy va madaniy ta’siri kuzatilsada, afrig‘iylar davlat boshqaruvi va siyosatida o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishgan. Vizantiyalik tarixchi Menandr ma’lumotlariga asoslangan holda, shuningdek, o‘sha davr siyosiy vaziyatini tahlil qilgan holda, afrig‘iylar sulolasi eftaliylar hukmronligini tan olgan bo‘lsa-da, asosan ichki va tashqi siyosatda mustaqil yo‘l tutgan, degan xulosaga kelish mumkin. Ularning eftaliylarga bo‘ysunishi asosan soliq to‘lash bilan chegaralangan. Shu nuqtayi nazardan, afrig‘iylar sulolasining eftaliylar davridagi siyosiy maqomiga ma’lum darajada avtonomiyaga ega bo‘lgan siyosiy kuch sifatida qarash mumkin. Ular o‘z hududlarini boshqarish, ichki ishlarni tartibga solish va tashqi siyosatni mustaqil ravishda yuritish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

---

[243] Sagdullayev A.S.O‘zbekiston tarixi I kitob. OTM uchun darslik. – Toshkent, 2021. – B. 291–292.

[244] Яценко С.А. Костюм древней Евразии (ираноязычные народы). – Москва: Восточная литература, 2006. –С. 252–255.

[245] Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида … – Б. 150.

[246] Blockley R.C. The History of Menander the Guardsman. – Liverpool: Francis Cairns, 1985. – P. 264.

G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan afrig‘iylarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti yetarlicha o‘rganilmagan va maxsus tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Mavjud tadqiqotlarda esa afrig‘iylar haqida ma’lumotlar juda kam va ularning aksariyati Markaziy Osiyoning ilk o‘rta asrlar tarixiga bag‘ishlangan umumiy ishlarda uchraydi. Bu ma’lumotlar esa yuzaki bo‘lib, afrig‘iylarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotining turli jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini bermaydi.

Zamonaviy xorijiy va milliy tadqiqotchilardan J.K. Skaff, G‘. Boboyorov va R. Ne’matovlarning ishlarida G‘arbiy Turk xoqonligining boshqaruv tizimi, mahalliy hukmdorlarning maqomi, soliq tizimi va boshqa muhim masalalarga oid ma’lumotlar keltirib, bu davrdagi Xorazmning siyosiy maqomi xususida ham ayrim ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, J.K. Skaff o‘z tadqiqotida G‘arbiy Turk xoqonligi tomonidan qo‘llanilgan boshqaruv tizimini tahlil qilib, uni bevosita va bilvosita boshqaruvga ajratadi. Uning fikricha, xoqonlik mahalliy hukmdorlarning o‘z hududlarida avvalgi mavqeyini saqlab qolishga ruxsat berish orqali o‘z hukmronligini mustahkamlashga harakat qilgan. Tadqiqotchi bu usulni xoqonlik uchun eng maqbul boshqaruv strategiyasi sifatida baholagan[247]. G‘. Boboyorov tadqiqotlarida ham G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Xorazmning siyosiy maqomini masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, xoqonlik o‘z vassallarini “kuchli” va “zaif” guruhlarga ajratganini keltirgan. Shuningdek, u Xorazm va Sug‘d kabi vassallar xoqonlik inqiroziga qadar o‘z mahalliy boshqaruvini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganligini qayd etgan. Bundan kelib chiqadiki, afrig‘iylar “kuchli” vassallik qatoriga kirgan. Bu esa afrig‘iylar sulolasining xoqonlik tarkibida muhim o‘ringa ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Muallif shu bilan birga, mahalliy hukmdorlar, jumladan afrig‘iylarning vassallik darajasi xoqonlikka yilda bir marta o‘lpon to‘lash bilan chegaralanganligini qayd etgan[248]. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, xoqonlik mahalliy hukmdorlarni o‘ziga jalb qilish va ularning sodiqligini ta’minlash uchun eltabar unvonini bergan va ularni nazorat qilish uchun tudunlarni tayinlagan. Biroq bu amaliyot Xorazmga nisbatan qo‘llanilmagan. Bu esa Xorazmning boshqa vassal

[247] Skaff J.K Western Turk Rule of Turkestan’s Oases in the Sixth through Eighth Centuries. The Turks. – Ankara: Yeni Türkiye, 2002. – P. 306–307.
[248] Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм… – Б. 55.

hududlarga nisbatan ancha mustaqil siyosat yuritganligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, G‘. Boboyorov Xorazm hukmdorlari IV –VI asrlar davomida xoqonlikning ichki ishlariga aralashuviga duch kelishmaganligini va o‘z sulolaviy boshqaruvini saqlab qolishganini keltirib o‘tgan[249].

G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibidagi Xorazmning VI asrning 60-yillarida tutgan o‘rni va siyosiy mavqeyi Vizantiya elchisi Zemarxning 569-yilda xoqon qarorgohiga Xorazm orqali borishi va qaytishda faqat Xorazm hukmdoriga o‘z elchilarini xoqon elchilariga qo‘shib yuborishga ruxsat berilishi va Xitoy yilnomalarda keltirilgan 645–755-yillar oralig‘ida 6 marta elchilar yuborganligi ham muhim ahamiyatga ega[250]. Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlar Xorazmning nafaqat xoqonlikning vassali, balki mustaqil tashqi siyosat yurituvchi kuch sifatidagi o‘rnini ham ko‘rsatganligidan dalolat beradi. Bu esa Xorazmning G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibidagi boshqa vassal davlatlarga nisbatan yuqoriroq mavqega ega bo‘lganligini tasdiqlaydi. Biroq sovet davri olimlari, jumladan, S.P. Tolstovning fikricha, Zemarxning Xorazm orqali o‘tishi va Xorazm hukmdoriga o‘z elchilarini xoqon elchilariga qo‘shishga ruxsat berilishi Xorazmning xoqonlikka vassal davlat sifatida emas, balki teng huquqli mustaqil ittifoqdosh sifatida qaralganligidan dalolat berishi sifatida baholagan [251] . Uning masalaga noto‘g‘ri yondashuvi keyingi tadqiqotlarda ham qo‘llab-quvvatlangani va rivojlantirilganini mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlarda ham ko‘rish mumkin[252].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, G‘arbiy Turk xoqonligi davrida (VI – VII asrlarda) afrig‘iylar xoqonlikka tobe davlat bo‘lgan. Biroq ular ma’lum darajada ichki muxtoriyatga ega bo‘lib, o‘z hududlarini boshqarish, soliq yig‘ish va hatto tashqi siyosatda mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Bu holat

[249] Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми… –Б. 266.

[250] Dobrovits M. The Altaic world through Byzantine eyes: Some Remarks on the Historical Circumstances of Zemarchus' Journey to the Turks (AD 569–570) // Acta Orientalia. – 2011. – № 64 – P. 391–396; Ying L. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm // Archivum Eurasiae Mediiaevi. – 2000. – № 11. – P. 340–344.

[251] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 252–253.

[252] Машарипов.О. Хоразм тарихидан сахифалар. –Тошкент,1994. – Б. 15; Матниёзов М. Хоразм тарихи I жилд. Урганч, 1996. – Б. 122; М.Матниёзов, Я.Олламов. Хоразм давлатчилиги тарихи. ўқув–услубий қўлланма. –Урганч, 2009. – Б. 94.

xoqonlikning murakkab boshqaruv tizimini va uning tarkibidagi turli hududlarning har xil siyosiy maqomga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Arablarning Xorazmga bostirib kirishi natijasida afrig‘iylar sulolasining keyingi taqdiri va siyosiy mavqeyi masalasi hozirgi kunga qadar yetarlicha o‘rganilmagan. Mavjud adabiyotlarda asosan 712-yildan keyin Xorazmning ikkiga bo‘linishi va janubiy qismida afrig‘iylar sulolasining saqlanib qolgani qayd etiladi. Biroq 712–995-yillar oralig‘ida Xorazmda sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar, xususan, umaviylar, abbosiylar, tohiriylar va somoniylar davrida afrig‘iylar sulolasining siyosiy mavqeyining qanday o‘zgarganligi haqida ma’lumotlar juda kam, borlari ham tarqoq. Bu davrga oid ayrim tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati umumiy xarakterga ega bo‘lib, afrig‘iylar sulolasining o‘ziga xos xususiyatlari va siyosiy jarayonlardagi roli yetarlicha yoritib berilmagan. Shu sababli, arablar istilosidan keyingi Xorazm tarixi, xususan, afrig‘iylar sulolasining siyosiy taqdiri masalasiga bag‘ishlangan birorta yakuniy tadqiqot yo‘q.

Afrig‘iylar sulolasi davrini o‘rganish asosan Arab xalifaligining Markaziy Osiyoga bosqiniga qaratilgan bo‘lib, bu davrning ichki siyosiy jarayonlari, xususan, Chag‘on va Hurzod voqealari, Kerdar va Xamjird shaharlarining roli, “Xorazmshoh”, “Xorazm xusravi”, “Xorazm maliki” nomlari bilan bog‘liq ziddiyatli ma’lumotlar yetarlicha tahlil qilinmagan. Bundan tashqari, umaviylar va abbosiylar davridagi siyosiy o‘zgarishlar, tohiriylar va somoniylar davrida afrig‘iylarning siyosiy maqomi kabi muhim masalalar ham tadqiqotchilar tomonidan e’tibordan chetda qolgan.

Sovet davri tarixshunosligida arablarning Xorazmga qilgan harbiy yurishlari soni va maqsadi, Chag‘on va Hurzod voqealarining mohiyati, Kerdar va Xamjird shaharlarining roli kabi masalalarga umumiy tavsif berib ketilgan. Masalan, S.P. Tolstovning ishlari o‘z davri va undan keyingi davrlarda katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, uning yondashuvi ko‘pincha sovet mafkurasiga moslashtirilgan va ayrim masalalarda tarafkashlikka yo‘l qo‘yilgan. Xususan, u Chag‘on va Hurzod voqealarini yoritishda sinfiy kurash nazariyasiga asoslangan holda, Chag‘onni salbiy, Hurzodni esa ijobiy qahramon sifatida tasvirlagan[253]. A.V. Gudkova, B.I. Vaynberg, E.E. Nerazik va

[253] Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации… – С. 221–234.

P.G. Bulgakov kabi tadqiqotchilarning ishlarida masalaning ayrim tomonlariga to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, A.V. Gudkova Chag‘on ismi turk-mo‘g‘ul dunyosida keng tarqalganligini qayd etgan bo‘lsa, B.I. Vaynberg Chag‘on ismini tangashunoslik materiallari asosida tahlil qilib, uni Chag‘oniyon bilan bog‘lagan[254]. E.E. Nerazik va P. G. Bulgakov ishlarida Chag‘on shaxsiyati haqidagi ikkita gipotezani ilgari surishgan. Ularning birinchi faraziga ko‘ra, Chag‘on Qutaybaning yordami bilan Xorazmni egallashga uringan mahalliy mulkdor bo‘lib, tanga zarb qilish imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Ikkinchi farazlariga ko‘ra esa, Chag‘on Beruniy asarlarida tilga olingan va numizmatik manbalarda uchraydigan Askajavarning unvoni bo‘lishi mumkinligini keltirishgan[255]. Tarixshunoslik nuqtayi nazaridan, ularning birinchi farazini qabul qilib bo‘lmaydi. Birinchidan, o‘sha davrda har bir mahalliy mulkdor o‘z nomidan tanga zarb qilish huquqiga ega bo‘lganligi ma’lum. Ikkinchidan, manbalarda Chag‘onning Qutayba yordamida taxtni egallagani emas, balki u bilan bitim tuzgani qayd etilgan. Mualliflarning ikkinchi farazi esa ko‘proq asosga ega. Chunki, Askajavar nomi tushirilgan tangalarning mavjudligi bu taxminni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, bu faraz manbalardagi boshqa ma’lumotlarga ham zid kelmaydi.

Mustaqillik yillarida masala bilan maxsus shug‘ullangan O. Masharipov, M. Matniyozov va Y. Ollamov, Q. Masharipov, T. Matyoqubov kabi tadqiqotchilar afrig‘iylar davri tarixiga oid ishlarida bir qator umumiy jihatlar kuzatiladi. Ularning barchasi arablarning Xorazmga yurishlari, Chag‘on va Hurzod voqealari kabi masalalarni yoritishda asosan S.P. Tolstovning qarashlariga tayanganlar. Masalan, O. Masharipov arablarning Xorazmga birinchi yurishi davrida bu hududning daxlsiz qolganini afrig‘iylarning kuch-qudrati bilan bog‘laydi. U Chag‘onni sotqin, Hurzodni esa vatanparvar sifatida baholaydi. M. Matniyozov va Y. Ollamovlar ham Chag‘onni zolim hukmdor sifatida tasvirlab, Hurzod boshchiligidagi xalq qo‘zg‘olonini ijobiy baholaydilar[256]. Q. Masharipov esa arab istilosi arafasida

[254] Гудкова А.В. Ток-кала. – Тошкент: Фан, 1964. – С. 115–120; Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма... –С. 81–82, 91–93.

[255] Nerazik E. E. , P. G. Bulgakov, Khwarizm. In: B. A. Litvinsky (ed.), History of civilizations of Central Asia. The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750 III. – Paris: Multiple History Series UNESCO Publishing, 1996. – P. 230–231.

[256] Матниёзов М, Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи... – Б. 97–98.

Xorazm taxtini Hurzod egallagani va Chag‘onning Qutaybadan yordam so‘raganini ta’kidlaydi[257]. Ushbu tadqiqotchilarning ishlarida ma’lumotlarning takrorlanishi va yangi tahlillarning yo‘qligi kuzatiladi. Buning asosiy sababi sifatida ushbu sulola tarixiga oid barcha manbalarning qamrab olinmaganligi, ularning qiyosiy tahlil qilinmaganligi va xorijiy olimlarning bu masaladagi yondashuv va qarashlari bilan yetarlicha tanishilmaganligi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, 2023-yilda A. Otaxo‘jayev, Q. Masharipov va M. Abdullayevlar hammuallifligida yozilgan O‘zbekiston tarixining XI jildidagi “Arablar istilosi va arablar davrida Xorazm” qismida[258] mualliflar o‘z oldiga arablar istilosi, arablar davridagi Xorazmning ijtimoiy-siyosiy hayotini yoritishni maqsad qilib qo‘yishlariga qaramay, S.P. Tolstovning yondashuvlariga asoslangan holda mazkur davr voqealarining ko‘proq umumiy jihatlarini yoritib, ijtimoiy-siyosiy hayotning o‘ziga xos xususiyatlarini yetarlicha chuqur tahlil qilishmagan.

Xorijiy tadqiqotchilar arablarning Xorazmga bosqini masalasida mahalliy tadqiqotchilardan farqli o‘laroq, avvalo, manbalarga va ularning tadqiqotlarga qay darajada tortilganiga e’tibor qaratganlar. Bu o‘rinda E. Zaxau va H. Gibblar Hurzodni hukmdorning isyonkor ukasi deb ta’riflagan bo‘lsa, A. Kurat Hurzodning zulmi haqidagi ma’lumotlarga shubha bilan qarab, uni shijoatli, dovyurak va or-nomusli deb hisoblaydi[259]. A.O‘zbayraktar bu o‘rinda tangashunos B.I. Vaynberg va E.E. Nerazik va M. Fedorovlar xulosasiga tayanib, arablar bosqini arafasida Xorazmda afrig‘iylarga bevosita bo‘ysunuvchi Kerdar, Xamjird va boshqa kichik davlatlar mavjud bo‘lganligi, ular o‘z nomlaridan sulolaviy tamg‘a surati va MLK' (Shoh) yozuvi tushirilgan mis tangalar chiqarish imtiyoziga ega ekanligi, MR'Y MLK' (Janob Shoh) yozuvi tushirilgan kumush tangalarni faqat oliy hukmdor-afrig‘iylar xonadoni zarb qilish huquqi ekanligi, Hurzod yuqorida ta’kidlangan Xamjirdning oliy hukmdori

[257] Машарипов К. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Ервопа давлатлари савдо марказлари билан билан тарихий алоқалари(V–XV асрлар). – Урганч, 2016. – Б. 23–25.
[258] Otaxo‘jayev A. va b. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm … – B.168–173.
[259] Sachau E. Zur geschichte und chronologie von Khwarizm. – Wien: Bei Karl Gerolds Sohn, 1873. – S. 27–28; Gibb. H. The Arab conquests in Central Asia. – London: Royal Asiatic Society, 1923. – P. 59; Kurat A. Kuteybe bin Müslim'in Hvârizm ve Semerkand'i zabti // DTCF Dergisi. – 1948. – № 6. – S. 396.

ekanligi, arablar Hurzodni yo‘q qilib Xamjirdni bosib olganidan keyin nomini Jurjoniya sifatida nomlashganini ta’kidlagan[260].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazmshoh Chag‘on (Beruniyda Askajavar – MQ) nafaqat isyonchi ukasi Hurzodni, balki boshqa raqiblarini yengish uchun Qutaybadan yordam so‘ragan. Manbalar tahlilidan tushuniladiki, o‘z hukmronligi davrida Xorazmning barcha hududlarini boshqarishda qiyinchiliklarga uchragan va qudratli bo‘lishda muvaffaqiyat qozona olmagan Chag‘on arablar hokimiyatini tan olib, tashqi aralashuv natijasida barcha raqibaridan xalos bo‘lishini yo‘lini tanlagan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Tabariy o‘z asarida Xorazmshohga e’tibor qaratib, raqiblarini qo‘lga olish uchun o‘z xalqi va atrofidagilarni aldash va ayyorlik bilan hokimiyatni mustahkamlash niyatidagi shaxs ekanligini, Hurzodni zolim va qasoskor sifatida tasvirlab voqealar markazidan uzoqlashtiradi. Ibn A’sam Kufiy esa Hurzodni Xorazmshohga parallel kuch sifatida ta’kidlaydi. Tadqiqotchi A. Kurat ikkala manbadagi voqealar tafsilotini tahlil qilish asosida Xorazmshoh va uning tarafdorlarini Qutayba bilan sulh tuzish kerakligi ta’kidlangan bo‘lsa, Hurzod va uning tarafdorlari jang qilish kerak, deb xulosa chiqargan [261] . A. O‘zbayraktar yuqoridagi ikki manba xususida to‘xtalib, Tabariyning hikoyasi Xorazmshoh nuqtayi nazarini, ibn A’sam Kufiy hikoyasi esa Hurzod nuqtai nazarini aks ettirib, manbalardagi turli qarama-qarshiliklar bir-birini to‘ldiradi, deb hisoblagan[262].

Keyingi masalalardan biri manbalarda tilga olingan “Xamjird Maliki” va Hurzod o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi yoki aksinchaligi tadqiqotlarda qayd darajada yoritilishidir. E. Zaxau “Xamjird Maliki” atamasini Hurzod ma’nosida tushungan [263] . A. Kurat manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida “Xamjird Maliki” atamasini Xorazmshohga qarshi chiqqan mulkdorlardan biri ekanligi va Hurzod va “Xamjird Maliki” bir shaxsga nisbatan ishlatilgan degan fikrni ilgari surgan[264]. S.P. Tolstov tadqiqotlarida Hurzod ismi eronchadan tarjima qilinganidek “Quyosh farzandi” emas, balki xorazmcha

[260] Özbayraktar A. Hârezm'in Müslümanlar tarafindan fethi… – S. 1066.
[261] Kurat A. Kuteybe bin Müslim'in Hvârizm ve Semerkand'i zabti … – S. 398.
[262] Özbayraktar A. Hârezm'in Müslümanlar tarafindan fethi… – S. 1066.
[263] Sachau E. Zur geschichte und chronologie… – S. 27–28.
[264] Kurat A. Kuteybe bin Müslim'in Hvârizm ve Semerkand'i zabti … – S. 398–399.

“bagpur” unvonining tarjimasi ekanligi, bu unvon xudolarning timsolini aks ettirib, xalqdan alohida ajralib turishga harakat qilgan zodagonlar xorazmshohning “muqaddas zoti”ga o‘zlarining “muqaddas podshohlari” ni qarama-qarshi qo‘ygan deb fikr bildirgan[265]. E.E. Nerazik VII – VIII asrlarda Xorazm hududida ikkita mustaqil mahalliy hukmdorlar mavjudligi numizmatik dalillar mavjudligi, ularning biri Kerdar – Amudaryoning quyi oqimida bo‘lsa, ikkinchisi Amudaryoning shimolida Xamjird maliki xorazmshohlardan mustaqil ravishda o‘z hududlarini boshqarishganligini ta’sdiqlagan[266]. I. Hazandoza bu borada “Xamjird Maliki” atamasini Hurzod sifatida tushunib bo‘lmasligi, ularning alohida shaxs ekanligi, Hurzod xorazmshohning ukasi hisoblansa, Xamjird Maliki xorazmshoh oilasiga mansub muxoliflardan biri bo‘lganligini qayd etgan[267]. A. O‘zbayraktar Tabariy hikoyasiga tayanib “Xamjird Maliki” Hurzodga nisbatan ishlatilgan unvon degan yondashuvni qo‘llab-quvvatlagan[268]. Aytish mumkinki, Tabariy hikoyasidagi “Xamjird Maliki” va Hurzod voqealari manbada birin-ketin kelishi va numizmatik materiallarida ham o‘z isbotini topgan Xamjird maliklarining tangalari masalaga oydinlik kiritib, arablar bosqini arafasida “Xamjird Maliki” unvoni aynan Hurzodga ishlatilgan degan xulosaga kelish mumkin.

Arablarning Xorazmga bosqini va keyingi davrlarga oid adabiyotlarda 712-yildan keyin Xorazm hududi ikki qismga bo‘linib, janubda afrig‘iylar sulolasi, shimolda esa arablar hukmronlik qilgani qayd etilgan. Biroq umaviylar (712–750), abbosiylar (750–821), tohiriylar (821–893) va somoniylar (896–995) davrlarida Xorazmda sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar yetarlicha o‘rganilmagan. Xususan, arablar bosqinidan keyin afrig‘iylarning siyosiy maqomi qanday darajada saqlanib qolgani, hokimiyat abbosiylarga o‘tishi bilan Xorazmda qanday o‘zgarishlar yuz bergani va keyingi sulolalar davrida Xorazmning siyosiy rivoji qanday kechgani kabi masalalar bo‘yicha yaxlit tadqiqot mavjud emas. Xorazm tarixining o‘rta asrlar

[265] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 260.
[266] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm… – P. 215.
[267] حسن زاده اسماعیل. تحلیل انتقادی روایتهای فتح خوارزم. مطلعات تاریخ اسلام. سال ۱۳۹۰. شماره ۸. ص. ۸ – ۱۲.
[268] Özbayraktar A. Hârezm'in Müslümanlar tarafindan fethi(32-93 /652-712)// DTCF Dergisi. – 2023. – № 63. – S. 1069.

tarixini tadqiq etgan olimlar arab bosqinidan keyingi deyarli 300 yillik siyosiy tarixni yoritishmagan. [2.2- ilova]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Arab xalifaligining Xorazmni bosib olishi natijasida mintaqada ikki qutbli boshqaruv tizimi shakllandi. Arab ma’muriyati siyosiy, moliyaviy va sud ishlarini nazorat qilgan bo‘lsa, afrig‘iylar sulolasi mahalliy aholi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda muayyan darajada o‘z vakolatlarini saqlab qoldi. Afrig‘iy xorazmshohlar o‘zlarining harbiy kuchlari bilan arablarning harbiy yurishlarida ishtirok etib, shu yo‘l orqali xalifalikka sodiqliklarini namoyon etganlar. Arab xalifaligi Xorazmni egallaganidan keyin, islom ma’muriyati mintaqada siyosiy, moliyaviy va sud ishlarini amalga oshirgan bo‘lsa, afrig‘iylar faqat mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari bilan shug‘ullanishlariga izn berishgan. Bundan tashqari, afrig‘iy xorazmshohlar o‘zlarining xorazmliklardan tashkil topgan harbiy bo‘linmalari bilan arablarning harbiy yurishlarida yordamchi kuchlar sifatida ishtirok etganlar. A. O‘zbayraktar afrig‘iylarning siyosiy maqomi masalasida fikr yuritib, afrig‘iylar o‘zlarining muhim qarorlari dehqonlar, merzubonlar(harbiy qo‘mondon) va zardushtiy kohinlardan iborat katta kengash bilan maslahatlashib, qabul qilganliklarini qayd etgan[269]. Muallif shuningdek, Xorazmda voliy yoki amirlar islom hokimiyatiga vakillik qilib, Xorazmdagi harbiy kengashni boshqarishganini, shuningdek, o‘lpon va jizya kabi soliqlarni yig‘ish bilan shug‘ullanuvchi maxsus moliya idorasi tashkil etilganini, qolaversa, huquqiy masalalar bilan shug‘ullanuvchi qozilar kelganligini qayd etgan[270]. T. Matyoqubov risolasida Xorazm vohasi Arab xalifaligi tarkibiga kirgandan keyin islom diniga asoslangan davlat boshqaruvi va diniy qadriyatlari joriy qilinganligini ta’kidlagan[271]. Biroq Xorazm umaviylar davrida to‘liq islomlashmay, avvalgi e’tiqodlariga sig‘inishda davom etganlar. Chunki, bu davrda Xorazm ahlidan jizya solig‘i olingani manbalarda o‘z aksini topgan. I. Hasanzoda arablar Xorazmdagi afrig‘iylar hukumatiga qarama-qarshi bo‘lgan unsurlar va feodalar kuchlarni yo‘q qilib, Xorazm xusravlaridan Askajavar hokimiyatini saqlab qolganligi, shu bilan birga Ya’qubiyga tayanib Abdulloh ibn Abu Abdulloh Kirmoniyni

[269] Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de … – S. 16–17.
[270] Yuqoridagi asar. – O‘sha joyda.
[271] Matyoqubov T. Ilk o‘rta asrlarda … – B. 43–46.

mintaqaga noib qilib tayinlangani, shu vaqtdan boshlab afrig‘iylar hukumati bilan birga arab noiblarining Xorazmda hukmronligi o‘rnatildi deb, fikr bildiradi[272].

Manbalarda Xorazm hukmdorlari 3 xil shaklda: “Xorazmshoh”, “Xorazm xusravi” va “Xorazm maliki” nomlari bilan qayd etilgan. Biroq oxiridagi ikki unvonlar oliy hokimiyat ma’nosida ishlatilmay, biror bir mahalliy mulk egasiga nisbatan qo‘llanganligini anglab olish mushkul emas. Chunonchi, arablar bosqini davrida markaziy hokimiyatga bo‘ysunmagan 3 ta katta mahalliy mulk egalari - Xazorasp, Xamjird va Kerdar hukmdorlarini “Xorazm xusravi” yoki “Xorazm maliki” degan unvon ishlatilganligi, arablar xorazmshohga bo‘ysunishni istamayotgan Xazorasp va Xamjirdning mustaqil harakatlariga 712-yilda nuqta qo‘yib, Xamjirdning nomini Jurjoniyaga o‘zgartirishgan bo‘lsa, 728-yilda Kerdar aholisi arablarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanda Xuroson noibi Ashros tomonidan bostirilib, mintaqada arablarning hukmronligi to‘liq o‘rnatilgan degan fikrni aytish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda umaviylar davrida Xorazm ikki qismga ajratilib, shimoliy qismni arablar nazoratiga olgan va janubiy qismda afrig‘iylar sulolasi saqlanib qolinib, fikrimizcha ularning saqlanib qolishi ko‘proq ramziy ma’no aks etgan. Ingliz tadqiqotchisi E. Beker Orol dengizi mintaqasidagi afrig‘iy va Kerder xalqlari kelib chiqishi haqidagi an’anaviy qarashlarga tanqidiy yondashib, an’anaviy modelni marksistik evolyutsiya va etnogenez nazariyalariga asoslangan holda soddalashtirilganlikda ayblaydi. Uning fikriga ko‘ra, soddalashtirish modeli Orol dengizi aholisining murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik moslashuv jarayonlarini yetarlicha hisobga olmagan va sinfiy kurash nuqtayi nazaridan afrig‘iy va Kerder xalqlarini qarama-qarshi ikki guruh sifatida ko‘rsatgan, vaholanki, ular o‘rtasida murakkab o‘zaro aloqalar va madaniy almashinuvlar mavjud bo‘lgan[273].

Arab xalifaligida umaviylarning zaiflashganidan Xorazm ma’lum ma’noda foydalanib qoladi. Umaviylarga qarshi umumiy norozilikda Xorazm mintaqasi ham asosiy rol o‘ynadi. Bu to‘g‘risida

[272] ۱۰ – ۱۴. حسن زاده اسماعیل. تحلیل انتقادی روایتهای فتح خوارزم. مطلعات تاریخ اسلام. سال ۱۳۹۰. شماره ۸. ص.

[273] Baker E.B. The Archaeology of the Aral Sea Crisis: Environmental Change and Human Adaptation in the Khorezm Region of Uzbekistan ca. AD 300–800: diss.for..c.h.s (DPA). –Los Angeles, 2011.–P.169.

A. O‘zbayraktar ta’kidlaganidek, mahalliy afrig‘iylar sulolasi hokimiyatining tiklanishiga zamin yaratildi [274]. Umaviylar davrida afrig‘iylardan Askajavar va o‘g‘li Askajamuk faoliyat olib borgan bo‘lsa, abbosiylar davrida xorazmshoh Shovushafar hukmronligi boshlangani manbalarda ham numizmatik materiallarda ham o‘z aksini topgan. U o‘z nomidan kumush dirham zarb etib, tashqi savdo aloqalarini mustahkamlaydi. Xususan, Xitoy manbalarida Shovushafarning Xitoyga 3 marta: 751,753 va 755-yillarda elchi jo‘natilganligi qayd etilgan [275]. Sovet va milliy tadqiqotchilar Xorazmshohning Xitoyga elchi yuborishi Arab xalifaligi manfaatlariga zid ish tutganligi, Xorazmning mustaqil kuch sifatida qaytadan maydonga chiqishga urinishi sifatida baholashsa-da [276], Shavushafarning asosiy maqsadi Xitoy yordamida arablardan mustaqillikka erishish emas, balki Ipak yo‘li savdosida Xorazm savdogarlarining tijoriy xafsizligini ta’minlash va ularga ko‘proq imtiyozlar berish asosiy maqsad bo‘lgan. Chunki, Xorazmshoh Shovushafarning kumush dirhamlarini zarb etishi va tashqi savdoda sug‘d tangalari bilan barobar ishlatilishi, uning elchiligini siyosiy maqsadda emas, balki iqtisodiy maqsad ko‘zlaganini aniqlab olish qiyin emas.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, agar umaviylar davrida Xorazmga bir qancha noiblar, amirlar tayinlangan bo‘lsa, abbosiylar Xorazmning mahalliy boshqaruviga aralashishmagan. Chunki, 750–821-yillar oralig‘ida Xorazmga biror noib yoki amirlar tayinlangani haqida manbalarda ma’lumot mavjud emas. Arab xalifaligida Ma’mun va Amin o‘rtasida hokimiyat uchun kurash boshlanganda (809–813-yillar) afrig‘iylar Ma’munni qo‘llab-quvvatlagani manbalarda ham tadqiqotlarda ham o‘z aksini topgan[277]. Xususan, Ma’munning 3000 nafar qo‘shinida 700 ta xorazmlik kamonchilar bo‘linmasi mavjudligi manbalarda o‘z aksini topgan [278]. Xalifa Ma’mun davriga kelib Askajavar II o‘z ismini Abdulloh nomiga o‘zgartirib, afrig‘iy hukumati arab istilosidan bir asr o‘tib musulmon mahalliy hukumatiga

[274]Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93–205/712–821) Hârezm’de … – S. 20.
[275] Ying L . Some Chinese Sources on... – P. 339–341.
[276] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 130.
[277] Özbayraktar A. Râfi’ b. Leys İsyanı // ASOBİD. – 2019. – №6. – S. 169–172.
[278] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

aylandi va tohiriylar va somoniylar davrida ham o‘zining siyosiy o‘zligini saqlab qoldi[279].

Tohiriylar va somoniylar davrida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, uning siyosiy manzarasi haqida bir-ikkita tadqoqtni hisobga olmaganda hech qanday ma’lumot yo‘q. Tadqiqotchilardan B.I. Vaynberg, E.E. Nerazik, U. Velin, B. Kochnev, J. Hiraviy, A. O‘zbayraktar, M. Fedorov, Sh. Ismoilov ishlarida Xorazmning siyosiy maqomi xususida qisman to‘xtalib o‘tishgan[280]. Ular ichidan ayniqsa, Sh. Ismoilov, A. O‘zbayraktar va J. Hiraviy ishlari diqqatga sazovordir. Sh. Ismoliov tangashunoslik materiallari orqali Xorazmda Abdulloh ibn Tohirning tangalari 828-yildan zarb eta boshlaganini ta’kidlagan[281]. U. Velin bu tangalar xususida fikr bildirib, Xorazmda zarb qilingan ilk Abbosiylar tangasi namunasidir, deb qayd etgan[282]. Xorazmni tohiriylar nomidan boshqargan yana bir tohiriylar noibi Amir Mikoil bo‘lib, B. Kochnev noib tomonidan zarb etilgan tangani 838-yil va 845-yillarini ko‘rsatsa[283], tadqiqotchi Sh. Ismoilov 841-yil va 843-yillarda zarb etilgan degan fikrni ilgari surgan[284]. Shuningdek, muallif amir Mikoilning tangalarida ot tasviri aks etganligi bilan ahamiyatli ekanligini, shuningdek, Abdulloh ibn Tohirning Xorazmdagi noibi Muhammad ibn Yahyo tangalari mavjudligini

[279] Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93–205/712–821) Hârezm’de … – S. 20–21.

[280] Вайнберг Б.И.. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1977; Welin U.L. The Coins from Khwarazmand the Swedish Viking Age Hoards//Meddelanden fran Lunds. – Stockholm. Universitets Historiska Museum, 196; Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm. History of Civilizations of Central Asia The crossroads of civilizations A.D. 250 to 750. Editor B. A. Litvinsky. – Paris: Multiple History Series UNESCO Publishing, 1996; Кочнев Б.Д. Заметки по средневековойнумизматике Средней Азии// История материальной культуры Узбекистана. Вы.19. – Ташкент, 1984; Ismailov Sh. Is the Khorezmshah Mamunids from Turkish Tribe or Arab? // EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO). – 2023. – № 10. – P. 7–8; O‘sha muallif.The Coins of Khorezmshah in the Treasure of the Vikings // International journal of special education. – 2022. – № 37; Heravi C, Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk:Hârezm’de Sâmânîlere tâbi yüz yillik bir iktidar hakkinda yeni bir araştirma // ASOBİD. – 2018. – № 2; Fedorov M. The Khwarazmshahs of the Banu Iraq (Fourth/Tenth Century) // Iran: Journal of the British Institute of Persian Studies. – 2000. – № 38. هروی جواد. ملوک خوارزم (آفریغی) از آغاز تا ظهور سامانیان. پژوهشنامه تاریخ. سال ۱۳۸۷. ص. ۱– ۳۳. ؛

[281] Ismoilov Sh. VIII–XIII asrlarda Xorazmshoh tangalari: t.f.f.d diss... – Urganch, 2024. – B. 47–53.

[282] Welin U. L. The Coins from Khwarazmand the Swedish Viking Age Hoards//Meddelanden fran Lunds. – Stockholm. Universitets Historiska Museum, 1961. – P. 172.

[283] Кочнев Б.Д. Заметки по средневековойнумизматике … – С. 185.

[284] Ismoilov Sh. VIII–XIII asrlarda Xorazmshoh tangalari: t.f.f.d diss... – Urganch, 2024. – B. 49.

ta’kidlagan[285]. T. Matyoqubov tangashunoslik materiallarini chuqur tahlil qilmasdan, bu davrda Xorazmda mikoylilar sulolasi hukmronlik qilganini ta’kidlab, noto‘g‘ri xulosa chiqargan[286]. Yuqoridagilardan anglashiladiki, tohiriylar afrig‘iylarga tanga zarb qilish huquqini bermagan. Bu esa afrig‘iylarning ichki va tashqi siyosati to‘g‘ridan to‘g‘ri tohiriylar tomonidan boshqarilganligini anglatadi.

Somoniylar davridagi Xorazmning siyosiy masalasida tadqiqotchilarning fikrlari yakdil emas. Xususan, J. Hiraviy ma’muniylar sulolasigacha bo‘lgan barcha sulolalarni, noto‘g‘ri tarzda afrig‘iylar sulolasi sifatida qarash keng yoyilganligini, afrig‘iylar sulolasi Ismoil Somoniy tomonidan 896-yilda Xorazmni qo‘shib olinganidan keyin tugatilganligi, Ismoil Somoniy Xorazmni boshqarishda Iroq ibn Mansur ismli shaxsni noib sifatida yuborgani, u keyinchalik Xorazmshoh nomini olganini ta’kidlagan[287]. Tadqiqotchi A. O‘zbayraktar esa Iroq ibn Mansurning Afrig‘iylarga hech qanday aloqasi yo‘qligini, somoniylarga bo‘ysungan holda tashkil etilgan va Xorazmshoh unvoni bilan atalgan Iroq ibn Mansur oli Iroq sulolasiga asos solganini, bu yangi sulolani afrig‘iylar va ma’muniylar o‘rtasidagi sulola sifatida qabul qilgan[288]. Tadqiqotchi M. Fedorov oli Iroqning afrig‘iylarga bog‘lanishini to‘liq asossiz hisoblab, oli Iroq avlodlari o‘z legitimligini asoslash va mustahkamlash uchun o‘zlarini afrig‘iylar sulolasiga bog‘lashgan degan fikrni ilgari suradi[289]. S. Brentes somoniylar ko‘magida Xorazmda tashkil etilgan oli Iroq sulolasi ma’muniylar sulolasi davrigacha mavjud bo‘lganligini ta’kidlagan bo‘lsa[290], S. Golshani v.b. 305–892- yillarda Kayxusrav avlodlaridan kelib chiqqan afrig‘iylar, 893–995-yillarda oli Iroq yoki ma’muniylar hokimiyatni boshqargan degan fikrni ilgari surgan. To‘g‘ri, tadqiqotchi bu yerda oli Iroq va ma’muniylarni chalkashtirib, ularni bir sulola sifatida qarashiga qaramay, afrig‘iylarning 892-yilgacha hukm surganligini keltirishini ham alohida inobatga olish zarur[291]. Tadqiqotchi A. Orazsahedov ibn Fazlon ma’lumotlariga asoslanib, Xorazmning VI asrdagi siyosiy holatini yoritshga harakat

[285] Yuqoridagi asar. – B. 49–50.
[286] Matyoqubov T.Ilk o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligi tarixi... – B. 47.
[287] Heravi C., Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk... – S. 81–86.
[288] Heravi C., Özbayraktar A. Âl-i ‘İrâk... – S. 81–86.
[289] Fedorov M. The Khwarazmshahs of the Banu Iraq (4^{th}-10^{th}) ... – P. 172.
[290] Brentjes S. Abu Nasr Mansur b. 'Ali b. ‘Iraq … – P. 28–30.
[291] S.Golshani and etc. Chorasmia Medical School from the beginning … – P. 3–6.

qilgan. Uning tadqiqotida keltirilishicha, Muhammad ibn Iroq somoniylarga qarashli markazi Kat shahrida yashovchi voliy bo‘lib, afrig‘iylar sulolasining yigirmanchi hukmdori hisoblanadi. Ibn Fazlon quriladigan qal’a qurilishida sarflanishi, faqihlar va o‘qituvchilarga berilishi uchun hukmdorga olib boriladigan pul abbosiy xalifasining vaziri Ibn Furatning Gurganjga qarashli qishlog‘idagi xo‘jaliklaridan ajratilganini ta’kidlaydi [292] . Bu ma’lumotdan mahalliy afrig‘iylar sulolasi Xorazmshoh unvoni bilan hukmdor bo‘lishiga qaramay, yerlari abbosiylar va abbosiylarga qarashli somoniylar tasarrufida bo‘lganligi anglashiladi.

Sh. Ismoilov tarixiy asarlar va numizmatik materiallarni qiyosiy tahlil qilib, tangalarda qadimgi Xorazm an’analariga xos bo‘lgan elementlar 893-yilgacha saqlanib qolganligini, Ismoil Somoniy hokimiyati Xorazmda o‘rnatilganidan to 959-yilgacha Xorazm hukmdorlari nomi qayd etilgan birorta tanga zarb etilmaganini alohida ta’kidlagan holda, somoniylar xorazmliklarga tanga zarb qilish uchun ruxsat bermagan degan xulosaga kelgan[293]. Shuningdek, tadqiqotchi 959–967-yillarda Ahmad ibn Muhammadning kumush tangasi zarb etilganini misol keltirib, somoniylar Xorazmning shimoliy qismini alohida ajratib olib markazi Jurjoniya bo‘lgan alohida amirlik tuzishgan degan xulosani bergan[294]. Muallif Abu Said Ahmad milodiy 952-yilda taxtga o‘tirganidan keyin, hukmdor o‘z nomidan “Xorazmshoh” unvoni bitilgan tangalarni zarb qilishi, Xorazm somoniylardan mustaqil faoliyat yuritganini anglash mumkin deb, qayd etgan[295]. Bundan kelib chiqadiki, Xorazm 952–995-yillarda oli Iroq sulolasi tomonidan mustaqil boshqarilgan. [2.3- ilova].

Sh. Ismoilov VIII–XIII asrlarga tegishli Xorazmshohlar tangalarini maxsus tadqiq qilar ekan, Xorazm ustidan nazorat o‘rnatgan davlat yoki sulolarning Xorazmda tangalar zarb etilishi taqiqini 4 bosqichga ajratadi. 1) Arab xalifalari(818–893-yillar); 2) somoniylar (893–959-yilllar); 3) g‘azanviylar (1014–1042-yillar) 4)

[292] Orazsahedov A. Tarihte Gürgenç Şehri (Kuruluşundan Hanlıklar Dönemine Kadar). Doktora Tezi. – Konya, 2018. – S. 62–64.
[293] Ismoilov Sh. VIII–XIII asrlarda Xorazmshoh tangalari: t.f.f.d diss... – Urganch, 2024. – B. 47–53.
[294] Ismailov Sh. Is the Khorezmshah Mamunids … – P. 7–8.
[295] Ismoilov Sh. The Coins of Khorezmshah … – P. 281–287.

saljuqiylar (1041–1129-yillar) [296] . Biroq tadqiqotchi Xorazm hukmdorlariga o‘z nomlaridan tangalar zarb qilish taqiqlanishi sabablarini to‘liq ko‘rsatmaydi. Bunga quyidagi sabablarni keltirish mumkin: 1) diniy omil: Ba’zi hollarda, bosib olgan sulolalar o‘z diniy e’tiqodlarini targ‘ib qilish va mahalliy dinlarni cheklash maqsadida tangalardagi tasvirlar va yozuvlarni nazorat qilgan bo‘lishi mumkin. 2) iqtisodiy omil: Bosib olgan sulolalar Xorazmning iqtisodiy resurslarini nazorat qilish va o‘z foydalariga ishlatish uchun tanga zarb qilishni cheklagan bo‘lishi mumkin. 3) siyosiy omil: Xorazmni bosib olgan sulolalar o‘z hukmronliklarini mustahkamlash va mahalliy hukmdorlarning nufuzini pasaytirish maqsadida tanga zarb qilishni taqiqlagan bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, afrig‘iylar sulolasining siyosiy holati IV – X asrlardagi Xorazmdagi siyosiy vaziyatning murakkabligini aks ettiradi. Mazkur asrlarda sulolaning siyosiy maqomi sezilarli darajada o‘zgarib turgan. Tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib, sulolaning siyosiy maqomini quyidagi to‘rt bosqichga ajratish mumkin:

I bosqich (eftaliylar va Turk xoqonligi davri): Afrig‘iylar ma’lum bir mustaqillikka ega bo‘lishgan va asosan soliq to‘lash majburiyati bilan cheklanganlar. Ichki ishlariga tashqi kuchlarning aralashuvi minimal darajada bo‘lgan.

II bosqich (umaviylar davri): Arablarning Xorazmni istilo qilishi bilan vaziyat tubdan o‘zgaradi. Xorazmda ikki qutbli boshqaruv o‘rnatiladi: shimolda – markazi Gurganch bo‘lgan arab noiblari, janubda – markazi Kat bo‘lgan afrig‘iylar sulolasi. Amudaryo esa Xorazmni geografik jihatdan ikki qismga ajratib turgan. Afrig‘iylarning hukmronligi cheklangan bo‘lsa-da, ma’lum darajadagi mustaqillikni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lganlar.

III bosqich (abbosiylar davri): Afrig‘iylarning siyosiy mustaqilligi yanada kuchayadi. Endilikda ular ichki va tashqi siyosatni mustaqil yuritish, tashqi savdoni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, bu esa sulolaning iqtisodiy qudratining oshishiga olib keladi.

[296] Ismailov Sh. VIII–XIII asrlarda xorazmshohlar tangalari: t.f.f uchun diss.avtoref... – Urganch, 2024. – B. 23.

IV bosqich (tohiriylar va somoniylar davri): Bu sulolalar davrida afrig‘iylar nafaqat ichki, balki tashqi siyosatda ham ularning aralashuviga uchraydilar. 893-yilda sulolaning hukmronligiga barham berilib, somoniylar homiyligida yangi sulola – oli Iroq sulolasi tuziladi. Bu sulola 896–952-yillarda somoniylar tobeligida bo‘lsa, 952–995-yillarda mustaqil siyosat yuritadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, afrig‘iylar sulolasining siyosiy holati mintaqadagi kuchlar nisbatining o‘zgarishi, xususan eftaliylar, Turk xoqonligi, umaviylar, abbosiylar, tohiriylar va somoniylarning ta’siri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ushbu gegemon kuchlar bilan o‘zaro munosabatlar ko‘pincha harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar va strategik ittifoqlar orqali ifodalangan. Natijada, afrig‘iylar sulolasining siyosiy mavqeyi doimiy ravishda o‘zgarib turgan va mintaqaviy kuchlar muvozanatidagi o‘zgarishlarga moslashishga majbur bo‘lgan.

II bob yuzasidan xulosalar

Masalaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Afrig‘” atamasi va afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi masalasida tadqiqotchilarning subyektiv qarashlari mavjud bo‘lib, sulolaning mavjudligi ham shubha ostiga olingan. G‘arb va Eron tarixshunosligida sulolaning eroniy kelib chiqishiga urg‘u berilgan bo‘lsa, milliy tarixshunoslikda “Afrig‘” atamasining kelib chiqishi deyarli o‘rganilmagan. Arxeologik tadqiqotlar esa Afrig‘ shaxsi va u bilan bog‘liq voqealarni inkor etadi.

Afrig‘iylar sulolasining kelib chiqishi va mavjudligi masalasida xorijiy tarixshunoslikda uch xil yondashuv mavjud bo‘lib ayrim tadqiqotchilar eroniy yoki turkiy kelib chiqishga urg‘u bersa, boshqa bir guruh tadqiqotchilar sulolaning mavjudligini inkor etib, uni afsonalarga bog‘lashgan. Yana bir guruh tadqiqotchilar esa sulolani oli iroqning o‘z legitimligini mustahkamlash uchun to‘qib chiqarilgan deb hisoblaydilar. Ushbu masalalar bo‘yicha tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari tarqoq bo‘lib, yagona ilmiy xulosaga kelinmagan. Tadqiqotda qo‘llanilgan sintez usuliga asoslangan holda sulolaning kelib chiqishini aralash (polietnik) sulola degan xulosaga kelish mumkin.

Afrig‘iylarning eftaliylar, turk xoqonligi, arab xalifaligi va somoniylar davridagi siyosiy maqomi masalasida ham turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, tadqiqotchilarning eftaliylar va turk xoqonligi davridagi Xorazmning siyosiy maqomi to‘g‘risidagi fikrlari bir-birini inkor etmaydi. Tadqiqotlar arablar bosqini va uning tafsilotlarida qarama-qarshiliklar borligini ko‘rsatadi. Bunga yozma manbalardagi ma’lumotlar va ulardagi ziddiyatli voqealar tafsilotining ta’siri katta bo‘lgan. Tohiriylar va somoniylar davrida Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy maqomi tadqiqotlarda yetarlicha ochib berilmagan.

Qisqacha aytganda, afrig‘iylar sulolasining siyosiy tarixi mustaqillikdan tortib, vassallikgacha bo‘lgan murakkab va o‘zgaruvchan yo‘lni bosib o‘tgan. Bu yo‘l mintaqadagi kuchlar nisbati va yirik davlatlar bilan bo‘lgan munosabatlar bilan belgilangan.

III BOB. AFRIG‘IYLAR DAVRI (305–995) XORAZMDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT MASALALARINING O‘RGANILISHI

§ 3.1. Ijtimoiy–mulkchilik va pul munosabatlari, savdo-sotiq masalalarining o‘rganilishi

Xorazmning IV – X asrlardagi iqtisodiy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda tadqiqotchilar mintaqaning iqtisodiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishiga sabab bo‘lgan omillar, aholining ijtimoiy hayoti va unga ta’sir etuvchi omillarning darajasi hamda manbalarning ushbu masalani qay darajada aks ettirishiga qarab, bu davrni uchga ajratib o‘rganishgan: IV – VI asrlar; VII – VIII asrlar va IX – X asrlar. [3.1-ilova]

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, IV – VI asrlar Xorazm shaharlari sezilarli darajada tanazzulga yuz tutgan va sug‘orish tarmoqlari qisqargan. E.E. Nerazikning fikricha, bu davrdagi mintaqadagi asosiy tanazzulga ko‘chmanchi qabilalarning hujumlari va ularning ommaviy ko‘chib o‘tishi sabab bo‘lgan. Ko‘chmanchilarning avvaldan mavjud bo‘lgan ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalarni buzishi mahalliy jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatgan[297]. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, IV – VI asrlarda Xorazmdagi ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulga nafaqat ko‘chmanchi qabilalarning hujumlari, balki tashqi bosimlar va savdo yo‘llaridagi o‘zgarishlar ham sabab bo‘lgan[298]. Tadqiqotchi E. Vaser arxeologik izlanishlarga asoslangan holda, IV – V asrlarda Amudaryo o‘z o‘zanini o‘zgartirishi natijasida sug‘oriladigan yerlar yaroqsiz holga kelganini, bundan ayniqsa Amudaryoning janubiy qismi katta talofat ko‘rganini ta’kidlaydi[299]. B.I. Vaynberg Xorazmning IV – VI asrlar tarixi mavjud yozma manbalar va numizmatik materiallarning yetishmovchiligi sababli Xorazmning bu davrini “noaniq tarix” deb ataydi[300].

[297] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm. History of Civilizations of Central Asia The crossroads of civilizations A.D. 250 to 750.Vol.3. Ed. Litvinsky B. A. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – P. 215–216.
[298] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda
[299] Vaissière É . Asie centrale 300–850: Des routes et des royaumes. – Paris: Les Belles Lettres, 2024. – P. 123
[300] Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – Москва: Наука, 1977. – С. 59–65.

S.P. Tolstov o‘zining tadqiqotlarida afrig‘iylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan IV asr boshlarida Xorazmda kuzatilgan ayrim holatlarni mintaqada chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz yuz berganining dalili sifatida ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, aholining shaharlardan qo‘rg‘onlarga ko‘chishi, dehqonlarning kichik qo‘rg‘onlarining maydonlar orasida bir-biridan uzoq masofada joylashganligi, kushon-afrig‘iy madaniyatiga tegishli qal’alarning tashlab ketilishi, sopol buyumlari sifatining keskin pasayishi va turli tamg‘ali mayda mis chaqalarning ko‘plab ishlab chiqarilishi kabi holatlarni inqiroz alomatlari sifatida baholagan[301]. Shuningdek, uning tadqiqotlarida Xorazmdagi sug‘orish tarmoqlarining keskin qisqarishi mintaqaning ijtimoiy-siyosiy tanazzulining asosiy sababi sifatida ko‘rsatilgan. Uning fikricha, sug‘orish tarmoqlarining qisqarishiga mamlakatdagi fuqarolar urushlari, ichki nizolar va tashqi bosqinlar sabab bo‘lgan[302].

Y. G‘ulomov Afrig‘ hokimiyatga kelgan davrda sulolaga qarshi xalq qo‘zg‘olonlari ko‘tarilgani, Anqaqal’a, Qirqizqal’a, Jildiqqal’a, Tuproqqal’ada hayot izdan chiqqani, Katqal’a yonidagi Filqal’aning qurilishi tugallanmay qolgani kabi holatlarni tahlil qilib, bunday ijtimoiy-siyosiy beqarorliklar ikki asr davom etgan, degan xulosaga kelgan[303].

Ingliz tadqiqotchisi E. Beker o‘zining Orol dengizi inqirozi arxeologiyasi bo‘yicha dissertatsiyasida ilk o‘rta asrlarda Xorazmda yuz bergan iqlim o‘zgarishi, siyosiy beqarorlik kabi omillar yirik agrar elitaning parchalanishi va afrig‘iylar sulolasi hukmronligi ostida mayda hokimliklarning shakllanishiga olib kelganligini keltirib, bu jarayon Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalarida ham kuzatilgan umumiy tendensiyaga mos kelishini qayd etgan. Shuningdek, muallif markaziy hokimiyat zaiflashgan davrda mahalliy afrig‘iy dehqonlarining mavqeyi kuchayib, ular o‘z qal’alaridan turib, atrofdagi yerlar va aholi ustidan nazorat o‘rnatganlar. Bu esa, ilk feodal munosabatlarining shakllanishiga turtki berganligini arxeologik dalillar bilan izohlagan[304]. Bundan tashqari, E. Beker siyosiy

[301] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 194,219

[302] Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Издание МГУ, 1948. – С. 51.

[303] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: Фан, 1957. – Б. 123–124.

[304] Baker E.B. The Archaeology of the Aral Sea Crisis: Environmental Change and Human Adaptation in the Khorezm Region of Uzbekistan ca. AD 300–800: diss. for...c.h.s (DPA). – Los Angeles, 2011. – P. 188–189.

beqarorlik va iqtisodiy qiyinchiliklar migratsiyaning kuchayishiga olib kelganini ta’kidlaydi. Xususan, u ko‘chmanchi qabilalarning Quyi Amudaryo deltasiga ko‘chib o‘tishi va mahalliy aholi bilan aralashib, yangi Kerder etno-madaniy guruhini tashkil qilganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu jarayon Markaziy Osiyoning etnik tarkibini boyitib, mintaqada o‘ziga xos madaniyatning rivojlanishiga hissa qo‘shgan[305].

Milliy tarixshunoslikda Xorazmning IV – VI asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga berilgan baho sovet davri tadqiqotlari xulosalariga asoslangan holda shakllangan. Xususan, M. Matniyozov ushbu davrda Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga eftaliylar davlatining o‘z yerlarini kengaytirish uchun olib borgan istilochilik urushlari salbiy ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu urushlar natijasida dehqonchilik maydonlari qisqargan, shaharlarning avvalgi mavqeyi yo‘qola boshlagan, savdogarlar, yer egalari va aslzodalar shahar tashqarisiga chiqib o‘z qo‘rg‘onlarini barpo qila boshlaganlar. Bu esa savdo-sotiq va hunarmandchilikda turg‘unlikka olib kelgan[306]. Shuningdek, M. Matniyozov eftaliylar davrida vujudga kela boshlagan mulkchilik munosabatlari Turk xoqonligi davrida jadal rivojlangani va bunda Turk xoqonligining roli katta bo‘lganini alohida ta’kidlaydi[307].

Tadqiqotchi O. Matqurbonov ilk o‘rta asrlardagi savdo yo‘llarida Xorazm va uning shaharlarining tutgan o‘rni, import va eksport mahsulotlarini atroflicha o‘rgangan[308]. Uning tadqiqotlarida Buyuk Ipak yo‘li yagona magistral yo‘l bo‘lmagani, shuningdek, Lazurit yo‘li, Cho‘l yo‘li, Nefrit yo‘llari ham mavjud bo‘lgani qayd etilgan. Buyuk Ipak yo‘lining janubiy tarmog‘i orqali Xorazmga Afg‘onistondan tosh marjonlar, Hindistondan turli terrakota va suyak haykalchalar olib kelingani ta’kidlangan[309]. Tadqiqotchi E.E. Nerazikning asarlariga asoslangan holda, milodiy IV – VI asrlarda Xorazmda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-etnik munosabatlar

[305] Baker E.B. The Archaeology of the Aral Sea Crisis... – P. 190.
[306] Матниёзов М. Хоразм тарихи I жилд. – Урганч, 1996. – Б. 114
[307] Yuqoridagi asar. – B. 122.
[308] Маткурбонов О. Илк ўрта асрлар даврида Хоразмнинг жанубий йўналишдаги савдо йўлларининг вужудга келиши ва уларнинг аҳамияти// Общество и инновации. – 2023. – № 5. – Б. 66–73; O‘sha muallif. Xorazmning ilk o‘rta asrlar savdo munosabatlari tarixining o‘rganilishi // Tamaddun nuri. – 2023. – № 6. – B. 44–50; O‘sha muallif. XXI asrda Xorazmning ilk o‘rta asrlar savdo munosabatlari tarixi tarixshunosligining o‘rganilishi // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси – 2023. – № 3. – B. 44–50.
[309] Маткурбонов О. Илк ўрта асрлар даврида Хоразмнинг … – Б. 66–73.

tanazzulga yuz tutgani, eftaliylar qabilalarining V asrning 30-yillarida Markaziy Osiyoga qilgan harbiy yurishlari natijasida Xorazm vohasi shimoli-sharqiy hududida Kerdar davlatini tashkil etganini qayd etadi. Shuningdek, afrig‘iylarning ichki kuchlari o‘rtasida taxt uchun vujudga kelgan raqobat siyosiy inqirozga olib kelgani, ichki siyosatning beqarorlashuvi oqibatida sug‘orish inshootlarini qurish va ta’mirlash imkoniyatlari cheklangani, Amudaryo suv sathining beqarorligi tufayli qishloqlar faoliyati tugatilgani ta’kidlanadi[310].

J. Abdullayev o‘z tadqiqotida S.P. Tolstov, E.E. Nerazik va Y. G‘ulomovlarning ilmiy ishlariga tayangan holda, IV asrning boshlarida Xorazmda mahalliy hokimlarning mustaqil siyosat yuritishi markazlashgan davlatning iqtisodiy sohasini yaxshilashi imkoniyatini cheklaganini ko‘rsatib, Amudaryo suvining keskin kamayishi Kaltaminor, Amirobod va Tozabog‘yop sug‘orish inshootlarining markaziy va shimoliy etaklaridagi aholi markazlarida madaniy hayotning izdan chiqishiga olib kelganini qayd etadi. Tadqiqotchi IV – VI asrlarda Xorazmga yangi etnik guruhlarning kelib joylashishi natijasida antik davr madaniyatidan tubdan farq qiluvchi yangi madaniyat shakllanganiga alohida e’tibor qaratadi[311].

Tadqiqotchilardan Q. Masharipov va X. Rahimovalarning fikriga ko‘ra, xioniy, kidariy va eftaliy qabilalarining Xorazmga hujumlari shaharlarning tanazzulga yuz tutishiga va hunarmandchilik ishlab chiqarishining pasayishiga olib kelgan. Bu hujumlar natijasida butun hunarmandchilik sohalari izdan chiqqan[312].

Milliy tadqiqotchilarning ayrim ishlarida Xorazmning IV – VI asrlar ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida bildirilgan fikrlar yuqoridagi tadqiqotlardan keskin farq qiladi. Jumladan, M. Matniyozov va Y. Ollamovlarning o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida eftaliylar va Turk xoqonligining O‘rta Osiyoga hujumlari arafasida Xorazmda shahar va qal’alar, harbiy istehkomlar qurilishi va hunarmandchilik rivojlangani ta’kidlangan. O. Masharipovning tadqiqotlarida esa Afrig‘ hokimiyatga kelganida Kat shahrini obod qilgani, ariqlar qazdirib, barcha mamlakatlar bilan savdo aloqalari uchun yo‘llar qurdirgani

[310] Маткурбонов О. Жанубий Оролбўйи қишлоқлари … –Б. 213–214.
[311] Абдуллаев Ж.Р. Хоразм вохаси илк ўрта аср жамиятида кечган ижтимоий-иктисодий ва этномаданий муносабатларнинг адабиётларда акс этиши // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. – Тошкент, 2021. – Б. 472–474.
[312] Машарипов. Қ, Раҳимова. Х. Калъажиқ-Қалъа. – Урганч, 2016. – Б. 34.

qayd etilgan. Sh. Rahimovaning tadqiqotida IV – VIII asrlar Xorazm yangi yuksalish davrini boshdan kechirgani, xioniylar, kidariylar, eftaliylar va Turk xoqonligi davrida ham o‘z siyosiy mustaqilligini saqlab qolgani, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq yuksak darajada rivojlangani ta’kidlanadi[313]. Biroq ushbu tadqiqotchining fikrlari yozma va arxeologik manbalarda o‘z isbotini topmagan.

Yuqoridagi ma’lumotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Xorazmning IV – VI asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid tadqiqotlar asosan arxeologik ma’lumotlarga tayanadi. Bu davrdagi ichki siyosiy nizolar, tashqi bosqinlar va tabiiy omillar afrig‘iylar davlatining iqtisodiy hayotida tanazzulga olib kelgan. Biroq mavjud tadqiqotlarda masalaning umumiy manzarasi yetarlicha yoritilmagan. Jumladan, davlat iqtisodiyotining asosini tashkil etgan hunarmandchilik turlari, chorvachilik, tovar-pul munosabatlari, ichki va tashqi savdo masalalari milliy tarixshunoslikda yetarlicha o‘rganilmagan.

Afrig‘iylar sulolasi hokimiyatiinng kuchayishi va Xorazmning VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yuksalishi masalasi tarixiy tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Jumladan, E.E. Nerazik bu jarayonni afrig‘iylarning siyosiy tarqoqlikka barham berishi va markaziy hokimiyatning kuchayishi bilan bog‘laydi. Tangalardagi MLK (shoh) o‘rniga MR'Y MLK' (janob shoh) ideogrammasining paydo bo‘lishi buning isboti sifatida keltiriladi. Biroq E. Vaser bu o‘rinda E.E. Nerazik fikrini inkor etib, tangalar titulaturasidagi o‘zgarishlarni afrig‘iylarning kuchayishi bilan emas, balki V asrdanoq boshlangan markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va parchalanishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, tangalardagi yangi unvon (MR'Y-MLK') “shahzoda-qirol” deb tarjima qilinishi va bu markaziy hokimiyatning kuchsizlanishini anglatishi mumkinligini faraz qiladi[314].

S.P. Tolstov Vizantiya tarixchisi Menandrning ma’lumotlariga asoslangan holda, Xorazm VI asrning 60-yillarida faol tashqi siyosat yuritganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, 569-yilda G‘arbiy Turk

[313] Матниёзов. М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи... – Б. 94; Машарипов О. Хоразм тарихидан сахифалар… – Б. 15; Rahimova Sh. Xorazm davlatining tashkil topishi… – B. 63–65.

[314] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm... – P. 215–216; Vaissière É . Asie centrale 300–850… – P. 123–124.

xoqonining qarorgohiga borgan Vizantiya elchisi Zemarxning yo‘nalishi Xorazm orqali o‘tgan. Zemarx qaytishda Markaziy Osiyodagi ba’zi davlatlarning hukmdorlari o‘z elchilarini ham xoqonning elchilariga qo‘shib yuborish istagini bildirgan, biroq xoqon faqat Xorazm hukmdorigagina bunday ruxsat bergan. S.P. Tolstov bu vaziyatni Xorazmning Turk xoqonligiga vassal davlat sifatida emas, balki xoqonlik bilan teng huquqli mustaqil ittifoqdosh davlat bo‘lgani bilan izohlaydi[315]. Uning yuqorida qayd etilgan xulosalari bugungi kunda ham o‘zgarishlarsiz tadqiqotlarda tadqiqotlarda o‘tganini kuzatish mumkin[316].

Xorazmning Turk xoqonligi tarkibiga kirgani yozma manbalar orqali tasdiqlangan bo‘lsa-da, xoqonlikning vassal davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga aralashmaganligi tadqiqotchilarning Xorazmni to‘la mustaqil davlat deb xulosa qilishiga sabab bo‘lgan. S.P. Tolstov afrig‘iylar madaniyati (VI – IX asrlar) davrida mintaqadagi ijtimoiy o‘zgarishlarni tahlil qilib, bu davr boshlarida quldorlik tuzumining yemirilishi va mulkchilik munosabatlarining shakllanishi jarayoni boshlanganini ta’kidlaydi. M. Matniyozov esa Xorazmda mulkchilik munosabatlarining shakllanishida Turk xoqonligi yetakchi rol o‘ynaganini qayd etgan[317].

S.P. Tolstov Xorazmning VI – VIII asrlardagi iqtisodiy hayotida dehqonchilik muhim rol o‘ynaganini arxeologik tadqiqotlar natijasida manzilgohlardan tariq, mosh, uzum, paxta, quritilgan nok, qovoq va boshqa mevalarning urug‘lari topilishi bilan izohlagan[318]. [3.2-ilova] Muallif shuningdek, paxta tolasidan tayyorlangan kiyim kechaklar, qo‘y terisi, namat, qo‘y juni qoldiqlari mintaqada chorvachilik va hunarmandchilik kushon-afrig‘iy (III – V asrlar) madaniyatidan farqli ravishda rivoj topib, Xorazm qishloq xo‘jaligi texnik jihatdan o‘rta asrlardagi kabi xususiyatlar bilan tavsiflangan degan xulosaga kelgan[319]. Muallif shuningdek, mintaqaning ijtimoiy tuzimi haqida to‘xtalib, dehqonlar qal’alari turining bir xilligi ular o‘rtasida hali keskin sinfiy tafovut bo‘lmagan degan firkni ilgari suradi[320].

[315] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 219–220.
[316] Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи... – Б. 94;
Машарипов.О. Хоразм тарихидан сахифалар… – Б. 15.
[317] Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи... – Б. 95.
[318] Толстов С.П. Древний Хорезм... – С. 151.
[319] Толстов С.П. Древний Хорезм... – С. 151–152.
[320] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda

Biroq Y. G‘ulomov bu masalada S.P. Tolstovning VI – VIII asrlarda Xorazmda mulkchilik iyerarxiyasi bo‘lmagan degan fikrini inkor etib, ko‘rsatilgan davrda Xorazm qishloqlarining antik davr qishloqlaridan keskin farq qilishi, mulkchilik munosabatlari jarayonining boshlanganligidan va mulkchilik iyerarxiyasining joriy qilinganligidan guvohlik bera oladi deb xulosaga kelgan [321] . Shuningdek, u mintaqada VII – IX asrlarda kulolchilik buyumlarining sifati yaxshi va bir tekish pishirlgani, arxeologik qazishmalarda topilgan organik qoldiqlar dehqonchilikning rivoj topganini alohida ta’kidlagan[322].

O. Qdirniyozov VII – VIII asrlarda mintaqada yangi qo‘rg‘on-qal’alar qurilgani, ushbu qal’alardan yangi shakldagi sopol idishlar qayd etilganligi, bunday ichki ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish, aholining qo‘shni elatlar, jumladan, ko‘chmanchilar bilan madaniy aloqalar kuchayishi sabab yuz berganini ta’kidlagan bo‘lsa[323], M. Matniyozov Xorazm VI – VII asrlarda qisman iqtisodiy inqirozni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan qizg‘in savdo aloqalarini davim ettirganini, ko‘rsatilgan davrlarda yirik qishloq jamoalari vujudga kelganligi, Xorazmning tabiiy geografik jihatdan chekkada joylashagnligi va ko‘chmanchilar hujumidan himoyalanish zaruriyati aholini oilaviy jamoalarga birlashishiga sabab bo‘lgan degan xulosaga kelgan[324].

Xorazmda afrig‘iylar davrida aholining mulkiy tabaqalanishi mavjudligi yoki aksinchaligi masalasi tarixchilar o‘rtasida turlicha talqin qilinib, munozaralar mavzusiga aylangan. S.P. Tolstov Xorazmda VIII asrga qadar mulkiy tabaqalanish mavjud bo‘lmagan degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, V – VIII asrlarda qurilgan inshootlarning o‘lchami, qurilish uslubi va tuzilishi bir xil bo‘lganligi bunga dalolat qiladi[325]. Y. G‘ulomov esa eftaliylar va Turk xoqonligi davrida qurilgan inshootlar mulkiy tabaqalanishdan dalolat berishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, bu davrda qurilgan inshootlarning turli xil

[321] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Б. 124.
[322] Yuqoridagi asar. – B. 126.
[323] Кдирниёзов О. Ш.Маракзий Осиё цивилизацияси ва илк ўрта асрлар Хоразм маданияти // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоалари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2013. – Б. 65–69.
[324] Матниёзов М. Хоразм тарихи … – Б. 118.
[325] Толстов С.П. Древний Хорезм… – С. 152–155.

o‘lchamlari va bezaklari ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadi[326].

Keyinchalik E.E. Nerazik bu masalaga oydinlik kiritishga harakat qildi. Uning ta’kidlashicha, Xorazmning sug‘oriladigan vohalarida kanallar bo‘yida joylashgan qishloq xo‘jaliklari guruhlari landshafti belgilab qo‘yilganligi, kanallar va uning atrofidagi yerlar mahalliy hukmdorlarning nazorati ostida bo‘lgan. Bu geografik joylashuv mulkchilik jamiyatining iyerarxik tuzilishini aks ettiradi[327].

Ta’kidlash lozimki, har bir olim o‘z davrida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar va tadqiqot usullariga asoslanib mazkur masalada xulosa chiqargan. S.P. Tolstovning V – VIII asrlarda qurilgan inshootlarning bir xilligi haqidagi kuzatishlari mulkiy tabaqalanish umuman bo‘lmagan degan xulosaga kelish uchun yetarli emas. Chunki, arxeologik topilmalar, masalan, qabrlarga qo‘yilgan buyumlarning xilma-xilligi ham ijtimoiy tabaqalanishni ko‘rsatishi mumkin. Y. G‘ulomovning eftaliylar va Turk xoqonligi davridagi inshootlardagi farqlar haqidagi fikri ham e’tiborga loyiq. Biroq bu farqlar faqatgina mulkiy tabaqalanish bilan bog‘liq bo‘lmasligi, balki boshqa omillar, masalan, siyosiy yoki madaniy ta’sirlar bilan ham izohlanishi mumkin.

Yuqoridagi ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, ayrim tadqiqotchilar Xorazmning IV – VI asrlarda iqtisodiy tushkunlika tushishiga sulolaviy nizolar bilan birga eftaliylar va Turk xoqonligining ta’sirini ko‘rsatsa, boshqa tadqiqotchilar guruhi, eftaliylar va Turk xoqonligi Xorazm ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ijobiy ta’sir o‘tgazgan degan xulosalarga kelishgan. Shuni alohida aytish lozimki, ko‘rsatilgan davrda mintaqda tushkunlikning asosiy omillaridan biri ichki nizolar natijasida iqtisodiyotning davlat miqyosida rag‘batlantirilmaganligi bo‘lsa, ikkinchi omil tabiiy ofatlar hisobiga ekin maydonlari, shahar va qishloqlarni vayron qilgan.

Ilk o‘rta asrlarda Xorazmda tabaqalanish masalasi Tuproqqal’a va Mug‘ tog‘idan topilgan hujjatlar natijasida o‘z tasdig‘ini topdi. E.E. Nerazik va V.A. Livshitslar topilgan hujjatlarni qiyosiy o‘rganish

[326] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи… – Б. 122–125

[327] Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма: (По материалам Беркут-калинского оазиса). – Москва: Наука, 1966. – С.109; O‘sha muallif. History and culture of Khwarizm... – P. 216–217; Лившиц В. А.Топрак-кала. Дворец (ТХАЭЭ. XIV) / отв. ред. Ю. А. Рапопорт, Е. Е. Неразик. – Москва: Наука, 1984. – С. 267; O‘sha muallif. Юридические документы и письма. – Москва: Изд-во восточной с гори Муг, 1962. – С. 35–36

natijasida qadimgi Xorazmda aholining ijtimoiy tabaqalanishi mavjud bo‘lgan degan xulosaga kelishgan. Ular bu tabaqalanishni *«ηβ»* deb ataganlar va aholini uch guruhga zodaganlar-*«'rtkr»,* savdogarlar -*«γw'ky»,* ishchilar -*«k'rykr»* ajratganlar[328]. Ular orasidan savdogarlar sinfi Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o‘ynaganini, N.Y. Bichurin tadqiqotlaridan foydalanib, xorazmlik savdogarlarning aravalarda uzoqqa cho‘zilgan sayohat qilishlari hamda Xorazmda savdogarlik muhim va alohida xurmatga loyiq kasblardan biri ekanligiga tadqiqotchilar alohida urg‘ru berib o‘tganlar[329]. Bu Xorazmning qadimgi davrlardayoq rivojlangan savdo aloqalariga ega bo‘lganligini va iqtisodiy jihatdan faol mintaqa bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarda Xorazmda qulchilik munosabatlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan. Xususan, V.A. Livshits xonadonlarda qullarning mavjudligi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni va Xorazm jamiyatining mulkchilik tuzilmasida quldorlik roli patriarxal (uy qulchiligi) xususiyatiga ega ekanligini ta’kidlagan[330]. E.E. Nerazik Tuproqqal’adan topilgan hujjatlar afrig‘iylar xonadonining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlari haqida qimmatli ma’lumotlar berishni alohida ta’kidlab, *«xrytk»* atamasi “sotib olingan” degan ma’noni angalatishi va bu atama qarz qulligida yoki xizmatkorning qandaydir shakllarida bo‘lgan moliyaviy majburiyatlar yoki kelishuvlar tufayli amalda qullik holatida bo‘lgan shaxslarga ishora qilishini keltirgan[331]. Tuproqqal’a hujjatlarini o‘rgangan A.V. Livshits fikricha, *«BYT'»* atamasi “mulkdor”, “uyning egasi” ma’nolarini anglatib, ko‘plab qullarga egalik qilgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan[332]. E.E. Nerazik VII – VIII asrlarga oid ossuariylarda topilgan yozuvlarda *«xunnanik»* atamasi “xun o‘g‘li” ma’nosini angalatishi va bu atama urush asirlari bo‘lgan yana bir muhim qul manbasini ko‘rsatishini, qul

[328] Лившиц В. А.Топрак-кала Дворец … – С. 267; O‘sha muallif. Юридические документы … – С. 35–36.
[329] Лившиц В.А.Юридические документы… – С. 37–40; Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма… – С.109, O‘sha muallif. History and culture of Khwarizm… – P. 221–222.
[330] Лившиц В.А. Юридические документы … – С. 37–40
[331] Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма… – С. 109, O‘sha muallif. History and culture of Khwarizm… – P. 221–222.
[331] Лившиц В. А. Топрак-кала Дворец … – С. 267–269.
[332] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

bo‘lgan shaxslarning kelib chiqishi xilma-xilligini, ularing ba’zilari xunlarning avlodlari ekanligini tasdiqlagan[333].

Aytish mumkinki, Markaziy Osiyodagi boshqa hududlar kabi qul va xizmatkorlardan tashqari badavlat kishilarga xizmat qiladigan “kadivar” lar mavjud bo‘lib, ular shaxsan erkin hisoblansa-da, badavlat dehqonlarga iqtisodiy va itjimoiy jihatdan qaramlik holatida bo‘lib, mulkdorlarning homiyligi va himoyasiga tayangan.

Ilk o‘rta asrlarda o‘z uyi va yeriga ega bo‘lgan shaxslar xorazmcha *«Xwanθa˘cak»* atamasi qo‘llanilib ma’nosi “yaxshi ulushga ega” degan ma’noni anglatishi, undan keyingi o‘rinda esa, *«βãγδarak»* atamasi qo‘llanilib, “ulushga ega” degan ma’noni angalatadi[334]. Tuproqqal’a arxividan topilgan hujjatlarda davlatning iqtisodiy hayotini boshqargan lavozimlar haqida ma’lumotlar ham uchraydi. Xususan, *«prmt'r»* atamasi Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘d hujjatlaridagi *«prm'nð'r»* atamasi “farmonbardor” ma’nosini angalatib, E.E. Nerazik fikricha, butun mamlakatdagi iqtisodiy ishlarni hal etgan[335].

Afrig‘iylar davlatining iqtisodiy hayotini tushunishga yordam beradigan yana bir atama *«srk'r»* atamasi bo‘lib, ma’nosi o‘rta asrlarda keng ishlatilgan “sarkor”dir. Aytish mumkinki, bu so‘z fors tilidan olingan bo‘lib, “ish boshqaruvchi”, “nazoratchi” , “boshqaruvchi” ma’nolarini angalatadi. E.E. Nerazik fikricha, mazkur mansab egasi mintaqada qishloqlarni boshqargan[336].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, “farmonbardor” davlatdagi tanga zarbxonalariga, ichki va tashqi siyosatni rag‘batlantirishga va saroy xazinasi uchun ma’sul shaxs bo‘lgan degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, sarkorlar qishloq jamoalariga boshchilik qilishdan tashqari, belgilangan hududlardan soliq yig‘ish va aholini hasharlarga jalb qilish ishlari bilan ham shug‘ullanganliklarini tahmin qilish mumkin.

IV – VIII asrlar Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma’lumot beruvchi manbalar kamligi bois, mintqaning ko‘rsatilgan davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti arxeologik tadqiqotlar

[333] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm… – P. 220.
[334] Лившиц В. А.Топрак-кала Дворец ... – С. 14.
[335] Лившиц В. А.Топрак-кала Дворец … С. 14; Лившиц В.А.Юридические документы … – С. 206.
[336] Лившиц В.А. Юридические документы … – С. 264.

xulosalariga to‘liq bog‘liqligini alohida ta’kidlash zarur. Jumladan, qadimgi va ilk o‘rta asrlar Xorazm jamiyatining ijtimoiy tuzilishi va oilaviy munosabatlarini o‘rganishda arxeologik topilmalar muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Xususan, S.P. Tolstov V – VII asrlarda Xorazmda katta patriarxal oilalar mavjud bo‘lgan degan xulosaga kelgan. U bu oilalarni “kad” va ularning boshlig‘ini “kadxudo” deb atagan. Kad tarkibiga bir nechta oila a’zolari, qaram kishilar va qullar kirgan[337].

E.E. Nerazik esa “kad” jamoalarining ancha katta bo‘lganini va hatto butun bir qishloqni o‘z ichiga olgan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlagan. Uning fikricha, bu jamoalarda 4000 dan 5000 gacha aholi yashagan[338].

Y. G‘ulomov V – VII asrlarda Xorazmda quldorlik jamiyati inqirozga uchraganini va ilk mulkchilik munosabatlari qishloqlarda shakllana boshlaganini ta’kidlagan. Uning fikricha, bu davrda shaharlarning roli pasaygan va qishloq xo‘jaligi asosiy iqtisodiy faoliyatga aylangan[339].

A.V. Gudkova qishloq jamoalarining kattalashuviga “ko‘pxotinlik” sabab bo‘lgan degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha, badavlat kishilarning bir nechta xotin olishi oila a’zolarining ko‘payishiga va natijada qishloq jamoalarining kattalashuviga olib kelgan[340].

M. Matniyozov sovet davri tadqiqotlarini tahlil qilib, V – VII asrlarda Xorazm shaharlarida ijtimoiy tabaqalanish mavjud bo‘lganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, shaharning markaziy qismida (shahristonda) zodagonlar, savdogarlar va hunarmandlar yashagan, ko‘shklar atrofida esa xizmatkorlar va mulkdorlarga qaram odamlar istiqomat qilgan. Hunarmandlar asosan erkin aholi va qaram qullardan iborat bo‘lgan[341]. Shuningdek, uning ta’kidlashicha, Xorazm vohasida V – VII asrlarda mulkchilik munosabatlari rivojlangan bo‘lsa-da, quldorlik saqlanib qolgan. Bu davrda mamlakatda qullar ko‘p bo‘lib, ular dehqonlarning qo‘l ostida ishlaganlar. Berkutqal’a va

[337] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 197.
[338] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm.... – P. 221.
[339] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи... – Б. 121.
[340] Гудкова А.В, Лившиц, В.А. Новые Хорезмийские надписи из некрополя Ток-Кала и проблема ‘Хорезмийской эры’ // Вестник Каракалпакского филиала Академии Наук Узбекской ССР. – 1967. – № 1. –С. 14
[341] Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи... – Б. 95

Yakkaparson qo‘rg‘on-ko‘shklari ijtimoiy tengsizlikdan dalolat beruvchi manzilgohlar sifatida qayd etilgan[342]. M. Matniyozovning Xorazm ijtimoiy tuzilishi haqidagi xulosalari, asosan, sovet davri tadqiqotlariga asoslangan va ulardan sezilarli darajada chetga yo‘qligini ko‘rish mumkin.

Xorazmning qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixini o‘rganishda ijtimoiy harakatlar va qo‘zg‘olonlarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilish muhim o‘rin tutadi. Ushbu masalaga bag‘ishlangan tadqiqotlarda S.P. Tolstov, Y. G‘ulomov kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyatga egaligini ko‘rish mumkin. S.P. Tolstov va Y. G‘ulomov Markaziy Osiyodagi ijtimoiy harakatlarni Erondagi mazdakiylar harakati bilan bog‘lashga harakat qilganlar. Ularning fikricha, VI asrning 80-yillarida Buxoroda Turk xoqonligiga qarshi qaratilgan Abruy qo‘zg‘oloni va 711–712-yillarda Xorazmda Askajavar (Chag‘on) ga qarshi qaratilgan Hurzod qo‘zg‘olonlari mazdakiylar g‘oyalari ta’sirida yuzaga kelgan[343].

S.P. Tolstov Hurzod qo‘zg‘olonini feodalizmga qarshi qaratilgan, mazdakchilik g‘oyasi bilan sug‘orilgan harakat sifatida baholagan. Uning fikricha, bu qo‘zg‘olon qishloq jamoalari va shahar kambag‘allarining ijtimoiy tengsizlikka qarshi noroziligining ifodasi edi[344].

Milliy tarixshunoslikda M. Matniyozov tadqiqotlari sovet davri tarixshunosligiga asoslangan bo‘lsa-da, Xorazm jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalanish, mulkiy tengsizlik va siyosiy norozilik kabi muammolarni yoritishga qaratilgan. U Hurzod qo‘zg‘oloniga baho berar ekan, unga sabab bo‘lgan omillar sifatida yerlarning jamoalar qo‘lidan tortib olinishi, boylikning feodallar qo‘lida to‘planishi, ayollar huquqining poymol qilinishi va ko‘pxotinlikni keltirib o‘tgan. Uning fikricha, bu omillar xalqning noroziligini kuchaytirgan va Hurzod atrofida birlashishiga olib kelgan[345].

Adabiyotlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, mulkiy tengsizlik va siyosiy norozilik kabi muammolar sinfiy kurash nuqtayi nazardan yoritilgan. Sovet davri va milliy tarixshunoslikda Chag‘on va Hurzod o‘rtasidagi ziddiyatni hukmron tabaqa va xalq ommasi o‘rtasidagi

[342] Матниёзов М. Хоразм тарихи … – Б. 115.
[343] Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи… – Б. 130–131.
[344] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб… – Б. 219.
[345] Матниёзов М. Хоразм тарихи … – Б.124–125.

qarama-qarshilikning ifodasi sifatida ko‘rish mumkin. Chag‘on zodagonlar va yirik yer egalarining manfaatlarini himoya qilgan bo‘lsa, Hurzod kambag‘allar va ezilganlarning himoyachisi sifatida maydonga chiqdi[346].

Umuman olganda, Xorazmning afrig‘iylar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi tarixshunoslikda doimiy munozara mavzusi bo‘lib kelgan. Tadqiqotchilar mulkiy tabaqalanish, qulchilik munosabatlari va ijtimoiy ziddiyatlar kabi masalalar yuzasidan turli xil qarashlarni ilgari surishgan. Ushbu masalalarni o‘rganishda sovet davri va undan keyingi davr tarixshunosligi o‘rtasida muayyan farqlarni kuzatish mumkin.

Afrig‘iylar sulolasi davrida Xorazm iqtisodiyoti tarixshunoslikda keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Ayniqsa, tashqi savdo va pul munosabatlari bu boradagi tadqiqotlarda markaziy o‘rinni egallaydi. Bunga sabab sifatida yozma manbalarning mavjudligi va ularning arxeologik topilmalar bilan tasdiqlanishini ko‘rsatish mumkin.

Xorazmning IV – VI asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixi asosan sovet davri va milliy tarixshunoslik doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, VII – X asrlar tarixi xorijiy tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Bu davrda pul muomalasi va tashqi savdo aloqalari yetarlicha tadqiq etilgan bo‘lsa-da, hunarmandchilik, chorvachilik va ichki savdo kabi sohalar kamroq o‘rganilgan. Buning asosiy sababi yozma manbalarda bu masalalarga oid ma’lumotlarning kamligi yoki umuman yo‘qligidir.

Arxeologik tadqiqotlar kam o‘rganilgan masalalarga ma’lum darajada oydinlik kiritishi mumkin. Biroq bu davrga oid arxeologik topilmalar chorvachilik, hunarmandchilik va ichki savdo kabi sohalarni to‘liq yoritib bermaydi. Bu masalalarni o‘rganishda tarixchilar ko‘pincha arxeologik ma’lumotlarga asoslangan holda taxminlar va farazlarni ilgari surishgaan.

Arab va fors manbalarida Xorazmning IX – XI asrlar ijtimoiy–iqtisodiy hayotiga tegishli ayrim ma’lumotlarni keltirib o‘tish zarur. Muqaddasiy Xurosondan xalifalik o‘lkalariga chiqariladigan mollarni tasvirlar ekan, eng uzun ro‘yxatni Xorazm mollari uchun tuzadi: “...Xorazmdan sobol, kulrang olmaxon, oqsichqon, dasht tulkisi, susar, tulki, qunduz, bo‘yalgan quyon,echki, mum, kamon o‘qi, oq terak po‘stlog‘i, qalpoq, baliq yelimi va baliq tishi chiqariladi; qunduz terisi,

[346] Qarang. – B. 90–91.

anbar, kimuxt (terining bir turi), mis, o‘rmon yong‘og‘i, lochinlar, qilich, sovut, qayin, slavyan qullari, qo‘y va sigirlar-bularning hammasi bulg‘orlardan keladi. Xorazmda uzum, mayiz, ko‘p, pechene, kunjut, yo‘l–yo‘l kiyim-boshlar, gilamlar, ko‘rpalar, ajoyib kimxob, “mulxam” degan choyshab, qulf, rangli kiyimlar, eng kuchli odamlargina ega oladigan kamonlar, alohida bir xil pishloq, zardob, baliq tayyorlanadi. U yerda kemalar yasaladi, yasalganda ham nihoyasiga yetkaziladi”[347]. S.P. Tolstov Xorazm hunarmandchilik sanoati mahsulotlarining Xorazmdan chetga chiqarilgan turlari ancha ko‘payganligini, mahsulotlar ichidan, ayniqsa, metall, qurolsozlik va kemasozlik sanoati mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va boshqa davlatlarga eskport qilinishi Xorazmning iqtisodiy hayoti yangidan yuksala boshlanganligidan dalolat berishi bilan izohlaydi[348]. Istaxriy IX – XI asrlardanoq Xorazmda yerda savdo aloqalari kengayganligi to‘g‘risida ma’lumotlarni qayd etgan bo‘lib unda: “...Xorazm – hosildor, oziq-ovqati va mevalari ko‘p-shahar (madina), faqat yong‘og‘i yo‘q; bu yerda paxta va jundan ko‘p narsalar tayyorlanadi hamda bu narsalar uzoq-uzoq joylarga eltiladi. Aholisining ajralib turadigan xususiyati–boyligi va mardlik ko‘rsatishga intilishidir. Ular Xurosonning butun aholisiga nisbatan tarqoqroqdirlar (birovlarning joylarida) va hammadan ko‘ra ko‘proq sayohat qiladilar; Xurosonda bironta katta shahar yo‘qki, unda ko‘plab Xorazm aholisi yashamasin...Ularning mamlakatida oltin yo‘q, kumush konlari ham, qimmatbaho toshlar to‘g‘risida esa so‘z ham bo‘lishi mumkin emas; boylikning katta qismini turklar bilan savdodan va mol boqib ko‘paytirishdan topadilar. Qo‘shni turk qullari bilan bir qatorda, slavyan va xazor qullarining katta qismi, dasht tulkisi, sobol, tulki, qunduz mo‘ynasining katta qismi ham ularning qo‘liga tushadi”[349]. Muallifi noma’lum “Hudud-ul-olam ” asarida “...Kat–xorazmning bosh shahri, g‘uzlar Turkistoniga kiriladigan darvoza, turklar, Turkiston, Movarounnahr va xazorlar muzofoti mollarining ombori, savdogarlar to‘planadigan joy... shaharning boyligi katta. Bu yerdan yostiq jildi, qavima kiyim-bosh, ip gazlama, kigiz, ruhbin chiqariladi”, deb qayd etgan. Guraganch (Ko‘hna Urganch) haqida: “...qadimgi zamonda xorazmshoh mulklari jumlasiga kirgan shahar bo‘lib,

[347] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 242–243.
[348] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.
[349] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 242–243.

endilikda uning alohida podshosi bor. Shahar podshosini “Gurganj miri” deya ataydilar. Juda boy bo‘lmish bu shahar Turkistonga kiradigan darvoza, hamma joylardan keladigan savdogarlar to‘planadigan bir joydir”, deya ta’riflaydi[350].

Manbalarda afrig‘iy xorazmshohlar markazi Kat shahri haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Kat asarlarda turlicha nom bilan ulug‘langan. Tabariy va Muqaddasiyda “shahriston”, Beruniyda “madina”, Istaxriyda “qasaba”, Tustariyda “shahr-e bozor” sifatida nom berishgan[351]. Muallifi noma’lm “Hudud ul-olam asarida” “...Xorazm poytaxti ko‘p millatli va ko‘p konfessiyaga ega bo‘lgan savdo metropoliyasi edi”, deya ta’riflangan. Asarda Katni mo‘l-ko‘l boylikka ega shahar, “savdogarlar oromgohi”, “Turklarning, Movarounnhar va Hazarlarning emporioumi”, deya ta’rif berilgan. Uning asosiy mahsulotlari yostiq qoplamalari (ruy-e mo̲kadda), choyshablar (qažāgand), paxta matolari (karbās) va namat gilamlari (namad) bo‘lib, paxta mintaqa qishloqlari iqtisodiyotida muhim o‘rin tutganidan dalolat beradi[352]. Muqaddasiy Xorazm poytaxti Katni kattaligi va ulug‘vorligi jihatdan Eron platosining yirik shaharlari va markazlari bilan raqobatlashardi. Istaxriy esa Katni o‘lchami bo‘yicha Nishopurga qiyoslaydi. Istaxriyning qo‘shimcha qilishicha shahar qal’a, qamoqxona, jamoat masjidi va shahar markazidan oqib o‘tuvchi Jardur deb nomlanuvchi kanalning ikkala qirg‘og‘i bo‘ylab qurilgan bozor bilan ajralib turgan. Istaxriy, Ibn Xavqal va muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” asarida Katning tobora suv bosganligi haqida ma’lumot berishadi[353]. Muqaddasiy bozorlar o‘rtasida turgan, qora tosh ustunlar bilan ta’riflagan jamoat masjidi o‘n yil avval Ibn Havqal xabar berganidek, suv toshqini tufayli vayron bo‘lgan eski juma masjidi o‘rniga yangi bino bo‘lib ko‘rinadi. Fir qal’asi tashlab ketilganidan so‘ng, saroy shahar markaziga ko‘chirildi. Bu voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan 25 yoshli Beruniy shunday yozadi: “Al-Fir Amudaryoning toshqini ta’sirida barbod bo‘ldi va har yili Amudaryo uning bir qismini yuvib ketdi va Salavkiylar davrining 1305-yilida (milodiy 994-yilida) butunlay g‘oyib bo‘ldi. Muqaddasiy Katni binolarini va arxitekturasinni va shaharda qurilish ishlarini maqtashiga

[350] Yuqoridagi asar. – B. 244–245.
[351] Borjian H. Kāṯ // Encyclopaedia Iranica. – 2012. – № 16. – P. 119–121.
[352] Borjian H. Kāṯ // Encyclopaedia Iranica. – 2012. – № 16. – P. 119–121.
[353] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб... – Б. 242–245.

qaramay, shahar juda ifloslanib ketganligini va bunga Amudaryo toshqinlarini sabab qilib ko‘rsatadi. Suv toshqinlari va yer osti suvlarining yer qatlamidaan balandda joylashishi kanalizatsiya tizimiga ta’sir qilgan va chiqindilar katta yo‘lga chiqib ketgan va bu holat qayta-qayta takrorlangan. Natijada shahar tozaligiga jiddiy putur yetgan. Natijada Kat aholisi X asr oxirlarida sharqqa qarab siljigan va Kat huvullab qolgan[354].

Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi iqtisodiy tarixi, xususan tashqi savdo aloqalari va pul muomalasi masalasi tarixshunoslikda turlicha yoritilgan. E.E. Nerazikning ta’kidlashicha, III asrda boshlangan iqtisodiy o‘sish IV – VI asrlarda turg‘unlikni boshdan kechirgan. Bu turg‘unlik VI asrning ikkinchi yarmida, Turk xoqonligi mintaqada tinchlik o‘rnatganidan so‘ng bartaraf etilgan. Shuningdek, u VI – VIII asrlarda Xorazmda muomalada bo‘lgan tangalarni tahlil qilib, ularning boshqa mintaqa tangalariga o‘xshashligini va bu davrda Xorazm qishloq jamoalarida iqtisodiyotning nisbatan mustaqil va barqaror bo‘lganligini ta’kidlaydi[355].

AQShlik tarixchi, eronshunos olim R.N. Fray Xorazmning Sharqiy Yevropa bilan savdo aloqalari arablar istilosidan oldin ham mavjud bo‘lganligini Rossiyada topilgan Xorazm tangalari bilan isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, bu tangalar nafaqat savdo-sotiq, balki Xorazmning uzoq vaqtdan beri mustaqil davlat bo‘lganligini ham ko‘rsatadi.[356].

Yana bir AQSHlik tarixchi, xitoyshunos olim E. Chafer mintaqaning iqtisodiy holatiga baho berishda Xitoy manbalariga asoslanib, Xorazmning Xitoy bilan savdosida asosan kiyik terisi, asal va qora tuz kabi mahsulotlar muhim rol o‘ynaganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Xorazm savdosi G‘arbiy hududlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, Ipak yo‘lining Sharqiy tarmog‘ida Sug‘d savdogarlarining yetakchiligini yengib o‘ta olmagan[357].

---

[354] Abu ʿAbd-Allāh Moḥammad Moqaddasi (Maqdesi), Aḥsan al-taqāsim fi maʿrefat alaqālim, ed. Michaël Jan de Goeje, BGA III, Leiden, 1877; tr. Basil A. Collins, The Best Divisions for Knowledge of the Regions. –Reading, 1994. – P. 288.

[355] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm... – P. 221

[356] Frye.N.R. Notes on the Early Coinage of Transoxiana // American Journal of Archaeology. – 1951. – № 1. – P. 23

[357] Schafer. E.Notes on T’ang geisha 3: Yang-chou in T’ang Times // Sinological Papers. – 1984. – №6. – P. 17.

Xitoy manbalari orqali Xorazm tarixini yoritishga harakat qilgan L. Ying 645–755-yillarda Xorazmdan Xitoyga rasmiy 6 marta elchilik kelganligini qayd etib, Xorazm Xitoyga o‘zining qora tuz, kiyik mo‘ynasi va tosh asal kabi savdo mahsulotlarini taklif qilganini, xorazmlik savdogarlarni pulga intilishda yaxshi savdogarlar hisoblab, ular pul topishlari mumkin bo‘lgan har qanday joyga borishlari mumkinligi, Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar orasida faqatgina ho‘kiz tortadigan aravalar Xorazmdan topilishini ta’kidlab, ko‘rsatilgan davrda faol tashqi savdo olib borilganligini tasdiqlaydi[358].

Afrig‘iy hukmdor Shoushafarning 751,753 va 755-yillarda Xitoyga elchi yuborilganligi xitoy manbalaridan va manbalarni o‘rgangan tadqiqotchilanring ishlaridan ma’lum. Biroq mazkur elchilarning Xitoyga safari yuzasidan tadqiqotchilarning yondashuvi turlicha. Xususan, S.P. Tolstov abbosiylar qo‘shining Talos jangida Xitoy qo‘shini yengandan keyin, Xitoyning O‘rta Osiyoda hukmronlik qilish rejalari barbod bo‘lganligi, Xorazmdan shu yili Xitoyga elchilik yuborilishi arablarning manfaatiga zid ish ekanligi, xorazmshoh Shaushafarning bu xatti-harakat arablar bilan xitoylar o‘rtasidagi Xorazmning mustaqil kuch sifatida qaytadan maydonga chiqishga urinishi sifatida baholgan[359]. Tolstovning mazkur masala yuzasidan fikrlari milliy tadqiqotlargaa hozirgi kunga qadar o‘zgarishsiz ko‘chgan bo‘lib, M. Matniyozov, O. Masharipov, T. Matyoqubov tadqiqotlarida yaqqol kuzatiladi.

Turkiyalik tadqiqotchi A. O‘zbayraktar yuqoridagi S.P. Tolstov va boshqa qadqiqotchilarning fikrlariga qo‘shilmagan holda, Shoushafar elchiligidan siyosiy maqsadlar ko‘zlanmaganligi, uning asosiy maqsadi xorazm savdogarlarining Buyuk Ipak yo‘lidagi tijorat faoliyatini ta’minlash va ularga yangi imtiyozlar berish asosiy maqsad ekanligini ta’kidlaydi[360]. Tadqiqotchi bunga Shoushafar tomonidan zarb etilgan tangalarni tahlil qilib, hukmdor tomonidan sof kumushdan dirham zarb etilgani, tangalarda xorazm yozuvi bilan sug‘d yozuvi ham mavjudligini inobatga olib yuqoridagi xulosaga kelgan.

Fransiyalik tarixchi E. Vaserning tadqiqotlari Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi tashqi savdo aloqalarini yoritishda muhim ahamiyatga

[358] Ying L. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm … – P. 350–354.
[359] Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб… – Б. 227.
[360] Özbayraktar A. Hârezm'in Müslümanlar tarafindan fethi… – S.1064.; O‘sha muallif. Erken islamî dönemde (93–205/712–821) Hârezm’de ... – S. 25–26.

ega. Uning asarlarida Xorazm savdogarlarining faolligi va ularning turli mintaqalar bilan savdo aloqalarini rivojlantirganligi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, E. Vaserning ta’kidlashicha, Xorazm VIII asrdan boshlab faol tashqi savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan va bu borada sug‘d savdogarlari bilan raqobatlasha boshlagan. Xorazmning xalqaro savdoda o‘ziga xos o‘rin egallaganligini u VIII asr oxiridan boshlab muomalaga kiritilgan uch tilli (xorazm, sug‘d va arab) kumush tangalar bilan isbotlaydi[361].

E. Vaserning keyingi tadqiqotlari Xorazm savdogarlarining faoliyati Kaspiy bo‘yi bilan cheklanib qolmaganligini ko‘rsatadi. Ular Kaspiy bo‘yi, Sharqiy Yevropa va Volga bo‘yi mintaqalari bilan ham savdo qilganlar. Xorazm va Xazar o‘rtasidagi savdo aloqalari VIII asrda juda muhim bo‘lgan va Xorazmliklar Xazar imperiyasiga mo‘yna, asal, qahrabo va qullar kabi tovarlarni eksport qilganlar[362]. Shuningdek, tadqiqotchi xorazmliklar ko‘pincha savdoda sug‘dliklar bilan hamkorlik qilganlarini ta’kidlab, bunga dalil sifatida VIII asr o‘rtalaridan boshlab Xorazm kumush tangalarida sug‘diy yozuvining ishlatilganligini keltiradi[363].

E. Vaser masalani yoritishda arman geografik matnlarida xorazmiy savdogarlarining eslatmalari, sug‘d yozuvi ishlatilgan xorazmiy kumush tangalari, Kama havzasida topilgan Xorazm va Sosoniy tangalari va Xitoy manbalarida qayd etilgan Xorazm va uning savdosi haqida ma’lumotlardan keng foydalangan.

Ch. Baumer arab va fors manbalarida tilga olingan Gurganch haqida to‘xtalib o‘tib, shaharning boyligi, odamlarning savdo-sotiqda mohirligi va Movarounnahr shaharlarini Volgabo‘yi shaharlari bilan savdo-sotiqda bog‘lashini keltirib o‘tgan[364].

Aytish mumkinki, muallifning dalillari xorazmiy savdogarlarining G‘arb yo‘llarida muhim rol o‘ynagan degan da’vosini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq ba’zi tafsilotlar munozarali bo‘lishi mumkin. Masalan, xorazmlik savdogarlarining sug‘diyliklar bilan qanday darajada hamkorlik qilgani va ular G‘arb savdosida qanchalik ustunlik qilgani haqida turli fikrlar mavjud. Umuman

[361] Vaissière É. Sogdian traders. Tr.J.Ward. – Leiden-Boston, 2005. – P. 181, 256.
[362] Vaissière É . Asie centrale 300–850… – P. 311–312.
[363] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda
[364] Baumer Ch.The History of Central Asia: The Age of Islam and the Mongols, I. – London: Bloomsbury Publishing, 2016. – P. 232.

olganda, muallifning xorazmlik savdogarlar haqidagi fikri asosli va ularning Markaziy Osiyoning iqtisodiy va madaniy hayotida o‘ynagan muhim rolini yoritadi.

So‘nggi yillarda milliy tarixshunoslikda afrig‘iylar davrida Xorazmning tashqi savdo aloqalariga oid ishlar ko‘pyaganini ko‘rish mumkin. Tadqiqotchilar bu davrda Xorazmning Eron, Hindiston, Xitoy, Volgabo‘yi va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan faol savdo aloqalari xususida muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tishgan. Jumladan, M. Matniyozovning ta’kidlashicha, afrig‘iylar davrida Xorazmda dehqonchilik bilan bir qatorda savdo-sotiq ishlari ham ancha rivojlangan. Xorazmshohlar Eron, Hindiston, Xitoy va Volgabo‘yi davlatlari bilan keng savdo-sotiq ishlarini amalga oshirganlar. Xorazmlik ustalar Xitoyga rangli oyna-shisha ishlab chiqarishni o‘rgatganlar. Xalqaro savdoda dastlab sosoniy, keyinchalik sug‘d va xorazm kumush dirhamlari ishlatilgan[365]. Shuningdek, M. Matniyozov VII – VIII asrlar Xorazm shaharlarida savdogarchilikning asosiy o‘rinni egallaganini va Xorazmning Xitoy va Sharqiy Yevropa davlatlaridan tashqari Hindiston bilan ham keng miqyosda savdo aloqalarini rivojlantirganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Xorazm shaharlaridagi bozorlar asosan shahriston devori va darvozasi yaqinida joylashgan bo‘lib, shahristonlar nafaqat siyosiy markaz, balki savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari ham bo‘lgan[366].

Tadqiqotchi O. Matqurbonov shimolda Xorazm orqali Sharqiy Yevropa bilan aloqalar yo‘lga qo‘yilganligi, Buyuk Ipak yo‘li Marv shahriga kelganda turli tarmoqlarga ajralib, bir tarmog‘i Xorazm orqali Volga va Sharqiy Yevropa borganligi, Xitoy, O‘rta Osiyo va Hindistondan keltiriladigan tovar va mahsulotlar shu yo‘l orqali Rus davlati: Kiyev, Novgorod va keyinchalik Moskva shahrigacha yetib kelganligini ta’kidlagan[367].

Xorazm tangalari tadqiqotchisi Sh. Ismoilov IV asrda vikinglar Xazar xoqonligi orqali musulmon dunyosi bilan savdo-sotiq ishlarini olib borganligi, ibn Fazlonning ma’lumotiga tayanib, vikinglar asosoan qullar va charm buyumlarni Xorazmga olib kelganligi, ularni sharqning turli tovarlari va kumush va ipakka almashtirilganligini

[365] Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи… – Б. 86.
[366] Матниёзов М. Хоразм тарихи … – Б. 121–122
[367] Маткурбанов О. Илк ўрта асрлар даврида Хоразмнинг … – Б. 67–72.

keltirib o‘tgan[368]. Muallif shuningdek, 880–900-yillarda Xorazm va viking savdogarlari Volga daryosining o‘rta oqimida savdo aloqalarini yo‘lga qo‘yganligi, IX asr oxiri X asr boshlarida xorazmshohlar rasman somoniylar davlati tarkibiga kirgan va xorazmlik savdogarlar xalqaro savdoda somoniylar tangalaridan foydalangani keltirib o‘tgan[369]. Ta’kidlash mumkinki, bu davrda Bulg‘or xonligi xorazmlik va vikinglar savdogarlarni tutashtirib turadigan hudud vazifani bajargan.

Xorazmning afrig‘iylar davridagi pul muomalasi va tanga siyosati tarixshunoslikda keng o‘rganilgan mavzular qatoriga kiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu davrda Xorazmda ichki va tashqi savdoda xorazm tangalari keng qo‘llanilgan. Xalqaro savdoda ishlatiladigan kumush tangalarda xorazm yozuvi bilan bir qatorda sug‘d yozuvi ham qo‘llanilgan.

Arab xalifaligining umaviylar sulolasi davrida Xorazmda ichki va tashqi savdo ustidan nazorat o‘rnatilgan va mahalliy sulolalarning erkin faoliyati cheklangan. Abbosiy xalifalar esa Xorazmning ichki va tashqi siyosatiga aralashmaganlar. Bunga Xitoyga yuborilgan elchilik guruhi va Askajavar hamda uning vorisi Shoushafarning mamlakatda pul islohoti o‘tkazganligi dalil bo‘la oladi. Masalan, Shoushafar hukmronligining dastlabki yillarida 3,8 gramm og‘irlikdagi sof kumush tangalarni zarb ettirgan [370]. Uning hukmronligining oxirgi yillarida esa Sug‘d tangalari bilan vazni bir xil – 3,2 grammgacha kamaytirilgan, orqa tomonida xorazm, old tomonida sug‘d yozuvlari bo‘lgan dirhamlar zarb etilgan. Bu bilan Shoushafar Xorazm dirhamini qiymati jihatdan Sug‘d dirhamlariga tenglashtirgan va Ipak yo‘li savdosida Sug‘d savdogarlariga qarshi raqobatbardosh siyosat olib borgan[371].

Shoufshafarning 762-yilda vafotidan keyin Askajavar Xorazmni boshqaradi va bobosi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarni davom ettiradi. Shoushafar va Askajavar tangalaridagi farqli xususiyatlaridan biri shuki, Shoushafar davrida kumush dirhamlar 2 tilli–xorazm va sug‘d yozuvlaridan foydalangan bo‘lsa, Askajavar, abbosiylanring

[368] Ismoilov Sh. The Coins of Khorezmshah … – P. 281–283.
[369] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.
[370] Fedorov M. First Reported Find of an Early Medieval Khwarezmian ... – P. 123–129.
[371] Kuznetsov A. Silver coins of Khwarezmshah Savshafan // The Numismatic Chronicle (1966). –2016. – № 176. –P. 489–490.

Xuroson hokimlarining nomlari yoki unvonlarini ham qo‘shib, kumush dirhamlarni 3 tilda–xorazm, sug‘d va arab tilida zarb etgan[372].

A. O‘zbayraktar numizmatik tadqiqotlarni tahlil qilish asosida xorazmshoh Askajavarning kumush dirhamlariga xorazmcha yozuvlardan tashqari arab va sug‘d yozuvlarini qo‘shib, Xorazm kumush dirhamining xalqaro obro‘sini yanada oshirganini, arab tili esa Atlantikadan Xitoygacha bo‘lgan islom geografiyasining rasmiy tiliga aylanganini keltirib o‘tgan. Bundan tashqari, muallif xorazmshoh Azkajvar Xorazm kumush dirhamlarining og‘irligini So‘g‘d kumush dirhamining 2/3 qismiga teng qilib tushirdi. Bu tartib bilan Xorazm dirhamining xarid qobiliyati sug‘d dirhami bilan tenglashtirildi, lekin uning obro‘si va ishonchliligi so‘g‘d dirhamidan ustun bo‘ldi. Chunki Sug‘d dirhamida kumush miqdori taxminan 60% ga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, sug‘d dirhamining umumiy og‘irligining 3/2 qismiga to‘g‘ri keladigan Xorazm dirhami sof kumushdan zarb qilinganligini alohida ta’kidlagan[373].

Bundan xulosa kelib chiqadiki, Xorazm tangalari sofligi va qulayligi jihatdan mis qotishmasi qo‘shilgan sug‘d kumush dirhamdan qimmatroq va ishonchli xarid vositasi sifatida qaralgan. A. O‘zbayraktar Narxshaxiy asaridan foydalanib, 801-yilda Buxoroda Xorazm kumush dirhami muomalada bo‘lib, xalq bu kumush dirhamni norozilik kayfiyatida ishlatib yurganini ta’kidlagan[374]. Darhaqiqat, Narshaxiyning “Buxoro tarixi asarida” quyidagi parcha orqali xorazm kumush dirhami sug‘d dirhamlarini savdodan chiqarib tashlaganaligini anglab olish mumkin. “...shaharda kumushimiz qolmadi. Shunday ekan, Xuroson amiri o‘tmishda Buxoro kumushi bilan zarb qilingan tangalarni biz uchun ham zarb qilishni buyursin. ...kumush shunday bo‘lishi kerak....qo‘limizni tashlab qo‘ymasin, ...shahrimizni tark etmasin, u bilan savdo qilaylik”[375]. Bu holat Xorazmning IX – X asrlarda o‘z iqtisodiy qudratini oshirish maqsadida yangi tanga siyosatini amalga oshirganini ko‘rsatadi. Xorazm dirhamlarining Sug‘d dirhamlarini siqib chiqarishi va ularning Buxoro savdo-sotiq faoliyatida asosiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi, afrig‘iylar hukmronligi davrida Xorazmning savdo markazi sifatidagi mavqeyini

[372] Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de ... – S. 25–30.
[373] Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de ... – S.28.
[374] Yuqoridagi asar. – B. 29–30.
[375] Özbayraktar A. Erken islamî dönemde (93-205/712-821) Hârezm’de ... – S. 29–30.

mustahkamlashga intilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Xorazm dirhamlarining qadri va sifati boshqa hududlardagi tangalarga qaraganda yuqori bo‘lgani sababli, bu tangalar xalqaro savdoda ham keng tarqalgan.

Tohiriylar va somoniylar davrida Xorazmning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi sezilarli darajada cheklangan. Bu davrda Xorazmda “xorazmshoh” oliy unvoni bilan tanga zarb etilishi deyarli to‘xtab qolgan. Buni tanga zarb etish huquqini cheklash orqali ular Xorazmning iqtisodiy mustaqilligini va siyosiy nufuzini pasaytirishga intilish bilan izohlash mumkin[376].

Umuman olganda, Xorazm tangalari sofligi va qulayligi jihatidan sug‘d tangalaridan ustun bo‘lgan va xalqaro savdoda keng tarqalgan. Afrig‘iylar o‘zining iqtisodiy va siyosiy qudratini oshirish maqsadida tanga siyosatini faol qo‘llagan.

§ 3.2. Shaharsozlik madaniyati, til va yozuv hamda diniy e’tiqod masalalarining tadqiq etilishi

Xorazm vohasi – qadimiy sivilizatsiyalar markazlaridan birib bo‘lib, ushbu o‘lka asrlar davomida o‘ziga xos shaharsozlik madaniyatini shakllantirgan. Arxeologik tadqiqotlar va tarixiy qo‘lyozmalar bu madaniyatning boyligi va xilma-xilligidan dalolat beradi. Shu davrgacha to‘plangan arxeologik qazishmalar natijasida olingan ma’lumotlar, yozma manbalar va ularning qiyosiy tahlili natijalari mintaqadagi o‘sha davr shaharlarning rivojlanishi, tuzilishi va iqtisodiy ahamiyati haqida batafsilroq tasavvur qilish imkonini bermoqda.

Sovet davri tadqiqotlarida shaharsozlikning tarkibiy elementlari hisoblangan – saroylar, ibodatxonalar, turar-joylar, bozorlar, yo‘llar shaharni shakllantiruvchi omillar sifatida baholangan va tadqiq etilgan. E.E. Nerazik o‘rta asrlar Xorazmdagi shaharsozlik tadqiqi haqida fikr bildirib, Sug‘d, Panjikent, Poykand, Yerqo‘rg‘on shaharlarini o‘rganishga qaraganda notekis olib borilganligini ta’kidlaydi[377]. AQShlik arxeolog E. Beker esa afrig‘iylar davri turar joy arxitekturasini o‘rganib, uni antik davr arxitekturasidan farqlovchi bir qator xususiyatlarni aniqlagan. Jumladan, afrig‘iylar davrida

[376] Qarang. – B. 99.

[377] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества … – С. 49.

mudofaa va turar joy binolari birlashtirilgan holda qurilgan, bu esa kichikroq va ixchamroq aholi punktlarining shakllanishiga olib kelgan[378].

VI – VIII asrlarda Amudaryoning chap qirg‘oqida nisbatan zich joylashgan Xiva, Xazorasp, Vayangon, Jigerbent va Sadvar kabi yirik va o‘rta shaharlar mavjud bo‘lgan. VI asrda Amudaryo bo‘ylab katta o‘tish joyi yaqinida Darg‘on shahri qurilgan. Bundan tashqari, Qoraqum qumlari orqali Xuroson tomon yo‘l yuzida joylashgan Zamaxshar, Shohsanam kabi shahar tipidagi aholi punktlari mavjud bo‘lgan[379].

Arxeolog B. Sa’dullayevning tadqiqotlariga ko‘ra, Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan Berkutaqal’a, Guldursun, Qavatqal’a, Qizilqal’a, Norinjon, Pilqal’a, Kerdar va Quyuqqal’a kabi shahar yodgorliklari yaxshi saqlanganligi sababli, sovet davri arxeologlari ushbu hududni chap sohilga nisbatan ko‘proq o‘rganganlar. Chap sohilda esa Urganch, Mazdaxkan, Munchoqli, Ketanlar, Darbakir, Qizilqal’a va Ustyurt sarhadlaridagi Shemaxa qal’a, Kulonli, Kichik va Katta Aybug‘ur, Tuproqal’a, Bug‘roxon, Puljoy, Urga kabi shaharlar mavjud bo‘lgan. Biroq bu hududda o‘ng sohildagidan farqli o‘laroq, qadimgi kanallar bo‘ylab joylashgan ko‘shk-qasrlar guruhlarini kuzatish imkoniyati yo‘q. Buning sababi, chap sohilda joylashgan madaniy yodgorliklarning qisman saqlanib qolganligidir[380].

A. Otaxo‘jayev Xorazmning afrig‘iy davridagi shaharsozligi ham mahalliy ham qo‘shni davlatlar me’morchiligi an’analarini mujassam etgan holda rivojlanganligi, Xorazm me’morchiligida uch madaniyat – mahalliy, Qang‘ va Kushon madaniyati sintezi ro‘y berganligini keltirib o‘tgan[381]. Bu fikrga qo‘shimcha qilgan holda, Xorazm me’morchilik an’analariga ko‘chmanchilar va arab bosqinidan keyin musulmon an’analari ham omuxtalashgan.

---

[378] Baker E.B. The Archaeology of the Aral Sea… – P. 209.

[379] Неразик Е.Е. Формирование раннесредневекового общества … – С. 50–51.

[380] Садуллаев Б.П., Каримов Я. Ш. Жанубий Хоразмда илк ўрта аср қишлоқ манзилгоҳлари ҳақида айрим мулоҳазалар (Хоразм вилояти мисолида)// “Марказий Осиё тарихи ва археологияси: Анъаналар, инновациялар ва истиқболлар: Халқаро илмий-амалий анжуман материаллар тўплами. – Тошкент, 2021. – Б. 66–70.

[380] Отахўжаев А. Африғийлар даври (305–995 йиллар) да Хоразм ... – Б. 63.

[381] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

F. Utayeva afrig‘iylar shaharsozlik madaniyati haqida to‘xtalib, ko‘rsatilgan davrda shaharlar yangilarni qurish evaziga emas, balki eskilarni tiklash hisobiga rivojlanganligini ta’kidlagan[382].

Q. Masharipov tarixiy ma’lumotlarni tahlil qilgan holda Xorazmda urbanizatsiyaning 3 hududi mavjud bo‘lganligini, Markaziy Amudaryo bo‘yi hududida odamlar antik davrdan o‘troq yashagan kelganligi, Amudaryoning quyi oqimi hududida shahar tipidagi manzilgohlar nisbatan keyinroq, VII – IX asrlardan so‘ng paydo bo‘lib, ular XII – XIII asr boshlarida gullab-yashnaganligi, Xorazmning shimoli-g‘arbiy va g‘arbiy hududlarida shahar tipidagi manzilgohlar XIV asrdan yangi rivojlanish bosqichiga o‘tganligini ta’kidlgan[383].

Umuman olganda, afrig‘iylar davri shaharsozlik tarixini o‘rganish bo‘yicha yaxlit tadqiqot amalga oshirilmagan. Mavjud ma’lumotlarni qayta tahlil qilish, yangi arxeologik qazishmalar olib borish va turli davrlarga oid shaharsozlik an’analarini qiyosiy o‘rganish bu boradagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Afrig‘iylar davrida iste’molda bo‘lgan yozuv, til va dinning qadimiy ildizlarga bog‘liqligi, xususan, Xorazm yozuvi mil.avv. III asrda oromiy alifbosi negizida yaratilganligi, Xorazm tili esa qadimgi forsiy tilning Sharqiy Eron lahjasiga yaqin bo‘lganligi, arablar bosqini natijasida Xorazm tili va yozuvi sekin-asta iste’moldan chiqib, X – XI asrlarda umuman tushinarsiz o‘lik tilga aylanganligi tadqiqotlardan ma’lum. [3.3-ilova]

Arab mualliflarining fikricha, xorazmliklarning tillari boshqacha bo‘lib, Xurosonda ularning tilida gaplashuvchi shahar yo‘q. Mintaqa aholisi Istaxriy va Muqaddasiy zamonida Movarounnahr va Turkiston odamlaridan farqli bo‘lib, ularga o‘xshamaganlar. Muqaddasiyning fikricha, Xorazm tili unga tushunarsiz bo‘lgan. Xorazm ahlining kiyimlari ham Movarounnahrnikidan farq qilgan[384].

Zardushtiylik dini afrig‘iylargacha ham sig‘iniladigan asosiy din bo‘lib, VIII asrda arab bosqinidan keyin Xorazm xalqi islom diniga

[382] Utayeva F. O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiyasi. – Buxoro, 2021. – B. 113–114.

[383] Машарипов К. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Ервопа давлатлари савдо марказлари билан билан тарихий алоқалари(V–XV асрлар). – Урганч, 2016. – Б. 23.

[384] Descriptio imperii Moslemici al-Mokaddasi / Ed. M.J. de Goeje. – Leiden: E.J. Brill, 1967. – P. 335.

o‘tkazilganligi Xorazm tarixiga oid barcha adabiyotlarda qayd etilgan. Shuni alohida qayd etish mumkinki, afrig‘iylar davrida zardushtiylik dini bilan bir qatorda odamlar buddaviylik, shomonizm va xristian dinlariga e’tiqod qilishgan.

Qadimgi xorazm yozuvi va tilini o‘rganish XX asr o‘rtalaridan boshlab, asosan, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlandi. S.P. Tolstov, M.M. Dyakanov, M.N. Bogolyubov, A. Freyman, V.A. Livshits, V.G. Lukonin, O.I. Smirnova va A.V. Gudkova ishlarida Xorazmning qadimgi yozuvini tiklash va o‘qish ishlarini alohida e’tirof etish zarur[385].

1938-yilda S.P. Tolstov tomonidan e’lon qilingan “Qadimgi Xorazm shohlarining tangalari va qadimgi Xorazm alifbosi” nomli maqolasida ilk marta numizmatik va epigrafik ma’lumotlar tahlil qilinib, Xorazm yozuvi va tilining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari hamda yozuv tizimi, uning mazmuni keltirilgan[386].

XAEEning 1948–1949-yillarda Tuproqqal’ada olib borgan arxeologik qazishma ishlari natijasida teriga, yog‘ochga bitilgan Xorazm hujjatlari arxivi topildi. Unda teriga yozilgan 8 ta hujjat va yog‘ochga bitilgan 20 ta hujjat ilk bor S.P.Tolstov tomonidan

---

[385] Толстов С.П. Древний Хорезм. – Москва: Издание МГУ, 1948; O‘sha muallif. По следам древне хорезмииской цивилизации. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1948; O‘sha muallif. По древним делтам Окса и Яксарта. – Москва: Восточная литература, 1962; Толстов С.П., Лившиц В.А. Датирование надписи на хорезмийских оссуариях с городища Ток - кала // СЭ. – 1964. – № 2; Livshits V.A. The Khwarezmian calendar and the eras of the Ancient Chorasmia // Acta Antiqua Acadaemiae Scientiarum Hungaricae. – Budapest,1968. — №16. – P. 14; O‘sha muallif. Новые хорезмийские надписи из некрополя Ток-калы и проблема «хорезмийской эры» // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – 1961. – № 1. – С. 3–19 (Соавтор А.В. Гудково); O‘sha muallif. Documents In Toprak-kala Dvorec, ed. J.A. Rapoport. – Moscow, 1984. – P. 251–286; O‘sha muallif. Остракиз Хумбуз-тепе, // Памятники истории и литературы Востока, Москва, 1986. – С. 34–45.; O‘sha muallif. Decipherment and Interpretation of the Chwarezmian Inscriptions from Tok-Kala // Acta Antiqua Academiae Scientiarum Hungaricae. – 1962. – №12. – P. 231–251; Lukonin.V.G. Persia II: from the Seleucids to the Sassanids. – London: Barrie & Jenkins,1971; Дьяконов М. М. Образ Сиявуша в среднеазиатской мифологии. // КСИИМК. –1951. – № 50. – С. 34–44; O‘sha muallif. Росписи Пянджикента и живопись Средней Азии // Живопись древнего Пянджикента. – Москва: 1954. – С. 83–158; Боголюбова М. Н.Частицы в хорезмийском языке // Учен. зап. ЛГУ. Сер. востоковедческих наук. – 1961. – № 305; O‘sha muallif. Личные местоимения в хорезмийском языке // Учен. зап. ЛГУ. Сер. Востоковедческих наук. – 1962. – № 306; Фрейман А. А. Хорезмийский язык. – Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1951; Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет Бронза. – Москва: Наука, 1981; Гудкова А.В. Ток-кала. – Тошкент: Фан, 1964.

[386] Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма … – С. 120–145.

o‘qildi. V.B. Henning tomonidan ma’lum tuzatishlar kiritildi. Keyinchalik V.A. Livshits tomonidan matndagi yozuvlarning transliteratsiyasi va tarjimasi bilan e’lon qilindi[387].

E.E. Nerazik III – VIII asrlarni o‘z ichiga olgan xorazmlik yozuvi va tili haqida to‘xtalib, arxeologik tadqiqotlar natijasida ma’lumutolar tobora ortib oydinlashib borayotganligini qayd etib, tanga va sopol buyumlardagi yozuvlardan tashqari, ossuariylardagi 100 ortiq yozuvlar, Tuproqqal’adan topilgan teri va yog‘ochga yozilgan 18 ta hujjat, VIII asrga tegishli Yakka-Parson manzilohidan topilgan 2 ta hujjat xorazm yozuvini oromiy yozuviga asoslanganligjni, xorazm tilini esa sharqiy eroniy guruhiga aloqadorligini to‘liq asoslanganligini istisnosiz holda ta’kidlaydi[388]. Muallif shuningdek, topilgan xorazm yozuvlarida ko‘rsatilgan davrga oid sanalar, salomlashish shakllari, ismlar, qarindoshlikni aks ettiruvchi atamalar, kun va oy nomlari yozuvlari mavjudligini qayd etgan[389].

V.A. Livshits saqlanib qolgan xorazm yozuvlarini 4 guruhga ajratib ko‘rsatadi:1) tangalardagi yozuvlar; 2) kumush idishlardagi yozuvlar; 3) Tuproqqal’a arxividagi hujjatlar; 4) To‘qqal’a qabristonidagi ossuariy bitiklari[390]. V.A. Livshits shuningdek, XAEE tomonidan olib borilgan qazishma ishlari natijasida xorazm yozuvining rivojlanish bosqishlarini aniqlashga, tangalardagi yozuvlarni Beruniy asarida keltirilgan ma’lumolarga qiyosiy tahlil qilish orqali Xorazmning “noaniq tarixi”ga ayrim to‘g‘irlash ishlari amalga oshirilganini keltirib o‘tadi[391]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm yozuvlari numizatik tangalardan tashqari, teriga, xum sirti va gardishiga, sopol parchasiga, ishlov berilgan yog‘ochga, paxsa devorlarga, hayvon suyaklariga, ostadon sirtiga yozilgan bo‘lib jami 12 ta yodgorlikdan – Oybo‘g‘irtepa, Xumbuztepa, Qal’aliqir, Govur, Aqcha, Burli, Ayoz, Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a, Mizdahkon, To‘qqal’a, Yakkaporson manzilohohlaridan, bundan tashqari, Ural,

[387] Толстов С.П По древним делтам Окса и Яксарта… – С. 219–221; Henning W.B. The Choresmian Documents … – P. 166–179;
[388] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm… – P. 226.
[389] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.
[390] Livshits V.A. The Kwarezmian calendar … – P. 433–434.
[391] Livshits V.A. The Kwarezmian calendar … – P. 434–435.

Volga va Kamabo‘yi hududlaridan aniqlangan kumush idishlaridagi xorazmiy matnlar arxeologik qazishmalar davomida aniqlangan[392].

S.P. Tolstov 1962-yilda To‘qqal’ada qazishma ishlari natijasida xorazm yozuvlari topilishini Xorazm hujjatlarining oxirigi guruhini o‘qishni tezlashtirish sifatida baholab, hujjatlarning ko‘pchiligi VII, VIII, va IX asrlar bilan belgilanganligi, ularni umumiy “afrig‘iy davr” deb atash qabul qilinganligini keltirib o‘tgan[393].

V.A. Livshits To‘qqal’ladan topilgan VIII asrga tegishli yozuvni va Tuproqqal’adan arxiv hujjatlar, III asr o‘rtalariga tegishligi Dura-Evropos harflari, shuningdek Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘d yozuvlarini solishtirib qiyosiy tahlil qilish asosida To‘qqal’adagi xorazm yozuvi boshqa yozuvlarga qaraganda kursiv [394] kam qo‘llanilganligi, IV asrdan VIII asrgacha bo‘lgan xorazm yozuvi kelib chiqishi oromiy alifbosiga asoslangan Eron va Markaziy Osiyoning boshqa huddularida uchraydigan yozuvlarga qaragandan kam o‘zgarishlarga uchragnini keltirib o‘tgan[395].

S.P. Tolstov va V.A. Livshits To‘qqal’a ossuariylarda bitilgan yozuvlarni tadqiq etib, bitiklar nisbatan sodda tuzilishga ega ekanligi, ularda asosan sana(marhumning vafot etgan yili, oyi va kunini o‘z ichiga oladi, lekin ba’zida faqat yil) ko‘rsatilganligi, sana bilan birga barcha ostadonlarda *«tnbry'k»* atamasi kelib, bu atama “ostadon” ma’nosini anglatishi, shuningdek, marhumlar va ularning otalarining ismlari ko‘rsatilgan bo‘lib, mualliflarning fikricha bu shaxsiy identifikatsiya va nasl-nasab ma’lumotlarini beradi[396].

Tadqiqotchilardan E.E. Nerazik, A.V. Gudkova va V.A. Livshitslar Xorazm arablar tomonidan bosib olingandan keyin, eski xorazm yozuvi o‘zgarishlarga uchrab, arab alifbosida mavjud bo‘lmagan bir nechta harflar qo‘shilgan arabcha bo‘lgan arab-fors tiliga almashtirilgani, bunga az-Zamaxshariyning arab tilining izohli lug‘atining xorazmcha variantida yozilgan “Muqaddimat al-adab”

---

[392] Матниёзов А. Қадимги Хоразмий ёзма ёдгорликларини ўрганишдаги долзарб муаммолар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2016. – Б. 35–37.

[393] Tolstov S.P., Livshits V.A. Decipherment and Interpretation … – P. 233.

[394] Kursiv yozuv-so‘z ichidagi harflar o‘zaro bir-biriga birikkan yozuv uslubi bo‘lib, harflar bir-biriga tutashib ketadi.

[395] Tolstov S.P, Livshits V.A. Decipherment and Interpretation … – P. 235.

[396] Livshits V.A. The Kwarezmian calendar …– P. 433–437.

asari arabcha so‘zlar xorazm tiliga tarjimasi bilan berilganini keltirib o‘tishgan[397].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatyaptiki, milodiy III asrdan VIII asrgacha bo‘lgan davrda xorazm yozuvi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari Tuproqqal’a arxivlari, To‘qqal’a, Yakkaparsan bitiklari, kumush idishlardagi bitiklar, arab-fors yozuvidagi matnlardan ma’lum bo‘lgan xorazm tili, kelib chiqishi oromiy alifbosiga asoslangan boshqa yozuvlar bilan xorazm yozuvlar o‘rtasidagi munosabatlar, xorazm taqvimi muammolariga asosiy e’tibor qaratilgan.

Xorazmning tili va yozuvi xorijlik tadqiqotchilarning ishlarida ham to‘xtab o‘tilgan bo‘lib, ularning asosiy yutug‘i sovet davri tadqiqotlaridan tashqari, Eron va boshqa hududlardagi arxeologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanganliklari bilan ahamiyatlidir. Xususan, V.B. Henning, R.N. Fray, E. Zaxau, F. Alzeyim, Z.V. To‘g‘on, J. Benzing, D.N. Makkinzi, G. Azarpay, V.A. Livshits, L. Pavel , D.V. Bryukov, A.I. Naymark, V.V. Napolskix, V.V. Ponaryadovlarning tadqiqotlarida Xorazmning qadimgi davridan XI – XII asrlargacha bo‘lgan tili, yozuvi va san’atiga oid muhim ma’lumotlar o‘rin egallaydi[398].

---

[397] Гудкова А.В. Ток-кала… – С. 86; Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm. … – P. 226; Livshits V.A. The Kwarezmian calendar … – P. 433–437.

[398] Henning W. B. The Choresmian Documents // Asia Major. – 1965. – № 11; R.N.Frye,W.B.Henning.Additional notes on the early coinage of Transoxiana II // Museum Notes (ANS). – 1957. – № 7. – P. 23; Sachau E. Zur geschichte und chronologie von Khwarizm. – Wien: Bei Karl Gerolds Sohn, 1873; Altheim, F., Stiehl, R. Chwarezmische Inschriften // Biblioteca Orientalis. – 1965. – № 12; Azarpay G. Nine Inscribed Choresmian Bowls // Artibus Asiae. – 1969. – №31. – P. 185–203; Togan Z.V. Duments on Khorezmian Culture, Part 1. Muqaddimat al-Adab, with the translation in Khorezmian. – Istanbul, 1951; Benzing, J.Chwaresmischer Wortindex. –Wiesbaden, 1983; Mackenzie D.N. Khwarazmian language and literature / Cambridge History of Iran Vol 1.ed. E. Yarshater. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – P. 1244–1249; Livshits.V.A. Three Silver Bowls from the Isakovka Burial-Ground No. 1 with Khwarezmian and Parthian Inscriptions // Ancient Civilizations from Scythia to Siberia. – 2003. – № 9. – P. 147–172; O‘sha muallif. Some Khwarezmian Names // Studies on Iran and the Caucasus, ed. U. Bläsing et al. – Leiden: Brill, 2015. – P. 317–324; Pavel L. Some Unpublished Chorasmian Inscriptions from Tok-Kala // Scripta Antiqua. – 2013. – № 3. – P. 728–740; O‘sha muallif. Some New Readings of Chorasmian Inscriptions on Silver Vessels and their Relevance to the Chorasmian Era // Ancient Civiliations from Scythia to Siberia. – 2018. – № 24. – P. 279–306; Бирюков Д.В. «От «Артава» до «Африга» или становление традиционного облика древнехорезмийской монеты // Нумизматика Центральной Азии. – 1997. – №2. – С. 37–40; Наймарк А. И. Замечания о восточноевропейских находках бухарских и хорезмских монет VI–IX веков.// В сб.: Эпоха викингов в Восточной Европе в памятниках

Xorij tadqiqotlari asosan, mavjud manbalar orqali xorazm lug‘atini tuzish, yozuv va til ishlatiladigan hududlar va uning davriy chegarasi, grammatik tuzilishi, oromiy kelib chiqishli boshqa yozuvlar bilan solishtirish asosida xorazm yozuvini tiklash masalalariga e’tibor qaratishgan. Xususan, V.B. Henning xorazm va sug‘d yozuvini solishtirib, xorazm yozuvi sug‘d yozuvi kabi yetarli darajada kursiv ekanligini ta’kidlagan[399]. Biroq V.A. Livshits mazkur masalada V.B. Henning fikrlarini inkor etib, xorazm yozuvi kursivlashmagan yozuv ekanligi, V.B. Henning tadqiqotlarida Xorazmda zarb etilgan tanganing old tomonida xorazm yozuvi, orqa tomonidan sug‘d yozuvi aks etgan bo‘lib, tadqiqotchi tangalardagi yozuvlardan kelib chiqib bunday xulosaga kelgani, yog‘och va mato parchalaridagi yozuvlar buning aksini ko‘rsatishini ta’kidlaydi[400].

Tadqiqotchilardan R.N. Fray, E. Zaxau va Z.V. To‘g‘on ishlarida, Tuproqqal’a va To‘qqal’adagi xorazm yozvulari ko‘p o‘zgarishlarga uchramaganini, shuningdek, VIII asrga tegishli To‘qqal’adan topilgan ossuariylardagi xorazm bitiklari Beruniy asaridagi arab tilida yozilgan xorazmcha lug‘ati orqali solishtirilganda katta o‘zgarishlarga uchramagani, Beruniy musulmonlardan oldingi Xorazm imlosining asosiy tamoyillarini yaxshi bilganini keltirib o‘tishadi[401].

L. Pavel, A.I. Naymark va V.V. Napolskix tadqiqotlarida To‘qqal’a bitiklari tilini XI – XII asrlar xorazm tili bilan batafsil qiyoslash orqali xorazm yozuv uslubi arab tili kabi o‘ngdan chapga qarab yozilgani, xorazm yozuviga oid materiallarning yetishmovchiligi grammatik va fonetik jihatdan qayta tiklash ishlarni murakkablashtiganini, biroq mavud dalillarga asoslanib, xorazm tili

нумизматики VIII–XI вв. – Санкт-Петербург: Старая Ладога, 2015. – С. 28–33; Напольских В. В. Уральско-арийские взаимоотношения: история исследований, новые решения и проблемы. //В сб.: Индоевропейская история в свете новых исследований. Сборник трудов конференции в память профессора В. А. Сафронова. – Москва: Московский государственный областной университет, 2010. – С. 231–244; Понарядов В. В. Хорезмийские заимствования в пермских языках// Индоевропейское языкознание и классическая филология – XXI // Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. – Санкт-Петербург: Издательство Институт лингвистических исследований РАН, 2017.

[399] Frye R.N.,W.B. Henning. Additional notes on the early coinage … – P. 231–232;

[400] Tolstov S.P, Livshits V.A.Decipherment and Interpretation … – P. 235.

[401] MacKenzie D. N. The Khwarezmian Glossary-I … – P. 540–549.

grammatikaning flektiv [402] turiga mansubligi, xorazm yozuvining grammatik yozuv xususiyatlari, so‘z boyligi, sintaktik tuzilishi sug‘d tiliga yaqinligini kelirib o‘tishgan[403].

Tadqiqotchilar xulosasiga ko‘ra, xorazm yozuvining asosiy sintantik xususiyatlaridan biri gap tuzilishida bo‘lib, “ega + kesim + to‘ldiruvchi” shaklida bo‘lib, ko‘pchilik eroniy tillardan farq qilishini ta’kidlashgan[404]. Fransuz tadqiqotchisi E. Vaser Xorazm o‘zining eron tiliga, oromiy yozuviga va o‘ziga xos madaniyatiga egaligini, ammo mazkur masalaga oid ma’lumotlar kam va tarqoqligini keltirib o‘tgan[405].

Ko‘rilayotgan masala milliy tarixshunoslikda ham tadqiq etilgan bo‘lib, tadqiqotlar sovet davri adabiyotlari negizida shakkllanganligini ta’kidlash lozim. Ularda masalaning ayrim jihatlari ko‘p sonli maqolalarda, monografiyaning boblarida afrig‘iylar davri tili va yozuviga umumiy tasnif berilib, mintaqada qaysi tillar ishlatilganligiga urg‘u berishgan xolos.

Milliy tarixshunoslikda afrig‘iylar davri tili, yozuvi va dini M. Is’hoqov, O. Masharipov, M. Matniyozov, M. Abdullayev, O. Qdirniyozov, I. Jobborov , F. Utayeva, N. Davletova, Q. Masharipov, A. Matniyozov tadqiqotlarida yoritilgan [406] . Ulardan, ayniqsa, M. Is’hoqov va M. Matniyozovlarning ishlari ahamiyatlidir.

---

[402] Fleksiya (lotincha: flexi – egilish, bukilish; bukik) – so‘z o‘zgarishlarida namoyon bo‘ladigan grammatik kategoriyalar majmui ko‘rsatkichi; shunday ko‘rsatkichlardan foydalanadigan so‘z o‘zgarishi tizimining o‘zi. Fleksiyada qo‘shimchalar qo‘shilishi yoki o‘zakdagi ba’zi tovushlarning o‘rin almashinishi natijasida so‘zlar dastlabki shaklini yo‘qotadi yoki o‘zgartiradi.

[403] Humbach H. Choresmian / Compendium Linguarum Iranicarum. – Wiesbaden, 1989. – P. 193–203; [Elektron resurs] Benkato A. Khwarazmian // IE-CoR. http://iecor.clld.org/contributions/287

[403] Durkin-Meisterernst D. Khwarezmian / The Iranian languages.ed. Windfuhr G.–London-New York:Routledge, 2009. –P. 336–376.

[404] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

[405] Vaissière É . Asie centrale 300–850... – P. 122.

[406] Исҳоқов М.М. Қадимги ёзма ёдгорликлар (мавзули монография). – Тошкент: Ёзувчи, 2000; O‘sha muallif. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Ташкент: УМЭД, 2008; O‘sha muallif. Слово о хорезмской письменности // O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishi. –2008. – № 1; O‘sha muallif. Хоразмда кадимги сиёвушийлар сулоласи. Асотирми ёки хакикат? // Шарқшунослик. –2009. – № 1; Машарипов О. Хоразм тарихидан сахифалар. – Тошкент, 1994; O‘sha muallif. Хоразмнома: Хоразм, юксалиш ва инқироз. – Хоразм, 2007; Матниёзов М., Я.Олламов. Хоразм давлатчилиги тарихи. ўқув–услубий қўлланма. – Урганч, 2009; O‘sha muallif. Хоразм тарихи I жилд. – Урганч, 1996; Абдуллаев

D.A. Alimova ta’kidlagnidek, M. Is’hoqovning 2008-yili chop etilgan “Markaziy Osiyo jahon yozma madaniyati tizimida (qadimgi davr va ilk o‘rta asrlar)” monografiyasi mintaqaning yozuv tizimi va yozuv madaniyati tarixiy tahlil bilan birga tilshunoslik jihatidan ham tahlil qilingan birinchi asardir[407]. Ushbu asarda sug‘d va xorazm yozuvlarining rivojlanish tarixi, ularning oromiy yozuvi bilan aloqadorligi chuqur tahlil qilingan. Muallifning eng katta yutug‘i shundaki, u sug‘d va xorazm yozuvlari aks etgan yodgorliklarni islomgacha bo‘lgan Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o‘rganishda muhim manba sifatida ko‘rib chiqadi. Monografiyada ilk bor sug‘d, xorazm va parfiya yozuvlarining grafik asoslarining umumiyligi qayd etilgan[408].

Xorazm yozuvi va tili, ularning rivojlanish bosqichlari masalasi A. Matniyozov tomonidan ham maxsus tadqiq etilgan. Uning ishlarida ilk xorazmiy yozuvi mil.avv. IV – III – mil. VII – VIII asrlar oralig‘ida muomalada bo‘lganligini, “Ilk xorazmiy” atamasi oromiy alifbosi asosidagi xorazmiy yozuviga nisbatan uni arab alifbosiga asoslangan so‘nggi xorazmiy yozuvidan farqlash uchun shartli ravishda qo‘llanishini, eronshunoslikda qabul qilingan tasnifga ko‘ra, ilk va so‘nggi davr xorazmiy tili (yozuvi bilan) o‘rta eroniy tillarning sharqiy guruhiga kirishini, har ikkala yozuv turi (to‘liq tadqiq qilinmagan, maxsus o‘rganilmaganni ta’kidlagan[409].

A. Matniyozov shuningdek, B.I. Vaynberg va V.A. Livshitslar ishlariga to‘xtalib, B.I. Vaynberg qadimgi xorazm tangalarini maxsus o‘rganib, tangalarning davriy katalogini yaratganligi, kataloglashtirish jarayonida tangalardagi bitiklarning paleografik jihatiga e’tibor

---

М.С.Қадимий Хоразм тарихи ва Хоразм давлатчилиги. – Тошкент, 2019; Кдирниёзов О.Ш. Маракзий Осиё цивилизацияси ва илк ўрта асрлар Хоразм маданияти // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоалари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2013; Джаббаров И. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). – Москва, 2014; Utayeva F. O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiyasi. – Buxoro, 2021; Давлетова Н.Н. Қадимги хоразм тили: унинг тарқалиши ва баъзи халқлар тилига таъсири // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. – Урганч, 2020; Машарипов Қ., Раҳимова Х., Калъажиқ-Қалъа. – Урганч, 2016; Матниёзов А. Қадимги Хоразмий ёзма ёдгорликларини ўрганишдаги долзарб муаммолар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2016.

[407] Алимова Д.А. Ўзбекистон археологияси тарихшунослигидан... – Б. 56.

[408] Исҳоқов М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры … – Б. 85–96.

[409] Матниёзов А. Қадимги Хоразмий ёзма ёдгорликларини … – Б. 35–37.

qaratilganligi, ularni qadimgi xorazmiy yozma yodgorliklarining qolgan epigrafik matnlariga nisbatan qo‘llab bo‘lmasligini, Xorazm qal’alaridan aniqlangan epigrafik matnlar asosida V.A. Livshits keltirgan paleografik ma’lumotlar aksariyat hollarda tarqoq va ma’lum bir davr bilan chegaralanganligini keltirib o‘tgan[410].

Ko‘rib chiqilgan ko‘p sonli maqolalar hamda masalaga bag‘ishlangan monografiya bo‘limlarida afrig‘iylar davri tili va yozuviga umumiy tasnif berilib, mintaqada qaysi tillar ishlatilganligiga urg‘u berishgan xolos. Masalan, M. Matniyozov ishida afrig‘iylar davrida davlatlararo munosabatlarda xorazm tilidan tashqari, sug‘diy, forsiy va turkiy tillar qo‘llanganligini keltirib o‘tgan bo‘lsa[411], M. Abdullayev xorazm yozuvi 20 ta harfga asoslanganligi, biroq uni o‘qish murakkab ish ekanligini ta’kidlagan[412]. Ta’kidlash kerakki, bu ko‘p tillilik davlatning geografik joylashuvi va turli madaniyatlar bilan aloqalari bilan bog‘liq. Biroq M. Matniyozov bu tillarning qo‘llanilish doirasi va o‘zaro ta’siri haqida batafsil ma’lumot bermagan. Xorazm yozuvini o‘rganishdagi qiyinchiliklar esa, bu yozuvning kam saqlanganligi va uning oromiy yozuvidan farqli o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan bog‘liq.

Tadqiqotchi N. Davletova xorazm yozuvining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini 4 davrga: 1) mil.avv. VIII – IV asrlar; 2) mil.avv. IV asr – milodiy III asrlar; 3) milodiy III – VIII asrlar va 4) milodiy VIII – XI asrlarni ko‘rsatib, xorazm yozuvi VIII asrdan boshlab arab alifbosi ta’sirida asta-sekin o‘zining qadimgi qiyofasini yo‘qotganligini, qadimgi xorazmiy tili esa milodiy XIV asrga kelib, o‘lik tillar guruhiga qo‘shilib ketganligini keltirib o‘tgan[413]. Muallif shuningdek, Qadimgi Xorazm yozuvi haqida o‘rta asrlar olimlaridan Abu Rayxon Beruniy va XIII asr fiqhshunos olimi Najmiddin al-Haziniy asrlarida ma’lumotlar berib o‘tganligini ta’kidlagan[414].

I. Jabbarov Tuproqqal’a arxivi hujjatlari ma’muriy-iqtisodiy harakterga ega ekanligi, mazkur hujjatlar oromiy alifbosida

[410] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda

[411] Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. ... – Б. 96.

[412] Абдуллаев М.С.Қадимий Хоразм тарихи ва Хоразм давлатчилиги. – Тошкент, 2019. – Б. 19–20.

[413]Давлетова Н.Н. Қадимги хоразм тили… – Б. 288–290.

[414] Yuqoridagi asar. O‘sha joyda.

yozilganligini keltirib o‘tgan[415]. Bu hujjatlar afrig‘iylar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, davlat boshqaruvi va huquqiy tizimi haqida muhim ma’lumotlar beradi.

Keyingi davrlarda aniqlangan epigrafik matnlar orasida Aqchaxonqal’adan topilgan 50 dan ortiq Xorazm shohlarining sulolaviy nomlari aks etgan devoriy lavhalar muhim ahamiyatga ega. Hozirgacha ushbu nomlardan faqat bittasini o‘qishga muvaffaq bo‘lingan [416] . 2015-yili Xumbuztepada arxeologik qazishma olib borayotgan Xorazm Ma’mun akademiyasi xodimlari sopol parchasiga bitilgan bir so‘zdan iborat bitikni aniqlaganliklari xorazm yozuviga oid ayrim masalalarni hal qilish imkoniyatini yaratadi[417].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xorazm yozuvi masalasi maxsus tadqiq etilmagan. To‘g‘ri, o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab amalga oshirila boshlangan sovet olimlari va xorijlik tadqiqotchilarning ishini alohida e’tirof etish zarur. Biroq bugungi kungacha Xorazm hududidagi manzilohlardan xorazm yozuviga tegishli barcha yozuv namunalari e’lon qilinmagan. Xususan, To‘qqal’adan 100 dan ortiq epitafiyalarning atigi 10 tasi, Aqchaxonqal’adan topilgan 50 dan ortiq Xorazm shohlarining sulolaviy nomlarining faqat bittasi, Humbuztepadan topilgan sopol parchasiga bitilgan 1 ta bitik nashr etilgan xolos.

Butun xorazmiy yozuvini o‘z ichiga olgan xorazmiy yuzuvi maxsus tadqiq etilmaganini hisobga olib quyidagi muammolarni hal qilmasdan yakuniy xulosaga kelish qiyin. Birinchidan, arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lga kiritilgan barcha materiallarni yagona platformaga yig‘ish va ularni nashr etish; Ikkinchidan, xorazmiy paleografiyasiga oid sovet davrida va xorijiy davlatlarda amalga oshirilgan barcha tarqoq manzilgohlarni umumlashtirish orqali, xorazm yozuvining rivojlanish bosqichlari va yo‘nalishlarini aniqlash; Uchinchidan, xorazmiy yozuv paleografiyasini yaratishda jahon tajribasida qo‘llanilgan va qo‘llanilayotgan usul va vositlarni qo‘llash; To‘rtinchidan, xorazmiy yozuvining xususiyatlarini aniqlash, uning oromoiy yuvi bilan yaqinlashish va uzoqlashish jarayonlariga tarixiy

[415] Джаббаров И. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). – Москва, 2014. – С. 96.
[416] Матниёзов А. Қадимги Хоразмий ёзма ёдгорликларини …– Б. 35–37.
[417] Yuqoridagi asar. – B. 36.

nuqtayi nazardan baho berish; Beshinchidan, epitafik[418], kursiv, ligaturiv[419] xususiyatlariga baho berish orqali uning sug‘d va boshqa oromiy yozuvlariga o‘xshash va farqli jihatlatini aniqlash masalalarini hal etish.

Afrig‘iylar davri yozuv va til masalalaridan tashqari eng ko‘p tadqiq etilgan mavzulardan biri bu xorazmliklarning diniy qarashlari hisoblanadi. Xorazm ilk o‘rta asrlarda ham qadimgi davrlarda vujudga kelgan diniy g‘oyalar va urf-odatlar mavjudligi arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘z isbotini topgan. Xususan, Tuproqqal’a arxiv hujjatlarini tadqiq etgan S.P. Tolstov qadimiy e’tiqodlardan dalolat beruvchi xudolar – Mitra (quyosh), Vaxsh (suv), Vayu (shamol va olov) haqida ma’lumotlar mavjud bo‘lib, diniy g‘oyalarning davomiyligi ularning Xorazm tarixiy–madaniy konteksida chuqur ildiz otganligini tasdiqlaydi[420].

E.E. Nerazik arxeologik tadqiqotlarni tahlil qilish asosida IV – VI asrlarga oid qatlamlarda but haykalchalarining topilishi, mintaqa aholisi orasida butparastlik kultlarining davom etayotganligini ko‘rsatishini ta’kidlab, butparastlik Turk xoqonligi davrida Xorazm chekkasida istiqomat qiluvchi ko‘chmanchi guruhlar tomonidan sig‘inilganligini keltirib o‘tgan[421]. Tadqiqotchi shuningdek, Beruniy ma’lumotlaridan foydalanib, zardushtiylik Eron va Xorazmda turlicha bo‘lganligi, Eronda zardushtiylik davlat dini darajasida qabul qilinganligi va turli xil qonunlar bilan tartibga solingan bo‘lsa, Xorazmda davlat dini darajasiga ko‘tarilmagan va qat’iy amal qilinmaganligini ta’kidlaydi[422].

Y.A. Rapaport ham zardushtiylik Eron va Xorazmda turlicha ekanligi, Xorazmda zardushtiylik butparastlik e’tiqodlari bilan aralashgan mahalliy varianti ekanligini ta’kidlagan[423].

---

[418] Epitafiya (yunoncha: – qabr ustida) – qabr ustidagi yozuv. Epitafiya marhumni sharaflaydigan qisqa matn bo‘lib, ko‘pincha qabr toshiga yoki yodgorlikka yozilgan. Unda odatda shaxsning ismi, tug‘ilgan va o‘lim sanalari, qisqacha xabar yoki his-tuyg‘ulari kiradi.

[419] Ligatura – ikki yoki bir necha belgini qo‘shib yozish, harf terishda bir litera ko‘rinishida qo‘yiladigan qo‘shaloq harf. Ligaturalar dastlab qo‘lda yozilgan yoki kalligrafik skriptlarda keng tarqalgan.

[420] Лившиц В.А. Топрак-кала Дворец … – С. 272.

[421] Bulgakov P.G. Al-Biruni on Khwarizm … – P. 226–230.

[422] Bulgakov P.G. Al-Biruni on Khwarizm … – P. 227–229.

[423] Рапопорт Я. А. Из истории религии древнего Хорезма. труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, Том 6. –Москва,1971. – С. 115

E. Gerzfeld Xorazm zardushtiyligi Eron shaklidan dafn etish marosimlari bilan keskin farq qilganini, Eronda o‘lganlarning suyaklari qoyalarga yoki gumbazli qabrlarga ko‘milganligini, xorazmliklar esa ossuariylardan foydalanganligini keltirib o‘tadi[424].

A.V.Gudkova E. Herzfeld fikrini qo‘llab-quvvatlab, Eronlik zardushtiylarda o‘lganlar uchun motam tutishi taqiqlanganligini, VIII asrga tegishli To‘qqal’adan olingan ossuariylardagi yozuvlardan, Beruniy ma’lumotlaridan Xorazmda marhumlar uchun a’za ochish marosimi mavjud ekanligini qayd etgan[425]. Darhaqiqat, Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar asari”da xorazmliklar yilning 4-may kuni marhumlarni yod olish kuni sifatida qayd etgan [426].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida qo‘lgan kiritilgan dalillar asosida S.P. Tolstov zardushtiylik ibodatxonalari IV – VIII asrlarda ham saqlanib qolgani, bunga hosildorlik va suv ilohasi Anahitaning kumush idishdagi tasviri, Mitraning ramzi hisoblangan chavandozlar va otlar haykalchalari Siyovush siymosi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlagan[427].

A.V. Gudkova, V.N. Yagodin va T.K. Xo‘jayovlar xorazmliklarda ajdodlar ruhiga sig‘inish kuchli bo‘lganligini, bunga tozalangan suyaklarni ossuariylarga qo‘yish, ossuariylarga marhumning ismi, vafot etgan yilining yozilishi, marhumga bo‘lgan cheksiz hurmatdan dalolat berishini ta’kidlab o‘tishgan[428].

Y.A. Rapaport diniy e’tiqodlar tizimida olovga sig‘inish katta ro‘l o‘ynaganligini, arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm vohalarida kichik gumbazsimon minoralar ko‘rinishidagi olov saqlaydigan qo‘riqxonalar topilganini ta’kidlagan bo‘lsa [429] , E.E. Nerazik Xvarna [430] ibodatxonasi ham olov ibodatxonasi kabi qo‘chqor shoxlari bilan bezatilganligini qayd etgan[431].

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari Xorazmda islom dini kirib kelishigacha bo‘lgan davrda ma’lum

[424] Herzfeld E. Iran in the Ancient East. – London-New York, 1941. – P. 217–218.
[425] Гудкова А.В.Ток-кала… – С. 95–97.
[426] Bulgakov P.G. Al-Biruni on Khwarizm … – P. 227–230.
[427] Толстов С.П. Древний Хорезм… – С. 201.
[428] Ягодин В.Н, Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздахкана. – Ташкент, 1970. – С. 140–142.
[429] Лившиц В. А.Топрак-кала Дворец … – С. 294–296.
[430] Xvarna-“Avesto”da Adolat homiysi hisoblanadi
[431] Неразик Е.Е Жилище народов Средней Азии … – С. 144–146.

bo‘lgan diniy va dunyoviy bayramlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan yagona yozma manba hisoblanadi. Darhaqiqat, mazkur asarda Xorazmda jinlarga, yaxshi va yovuz ruhlarga ishonish kabi animistik qarashlar o‘z davrigacha saqlanib qolganligini keltirib o‘tib, mintaqa xalq orasida Vaxsh – suvga sig‘inish, Vaxshga atab har yili oxirgi oyning o‘ninchi kunida bayram sifatida nishonlab, odamlar qurbonliklar keltirishganini, ta’kidlab o‘tadi[432]. Beruniy shuningdek, Xorazmda islomgacha ajdodlar ruhiga katta hurmat bilan qaralganini, 12- oyning oxirgi 5 kuni va yangi yilning dastlabki 5 kunida dafn xonalariga taom qo‘yish xorazmliklarning urf odati bo‘lganligini, ajdodlarni “ovqatlantirish” marosimi dalalarning unumdorligini oshirish bilan ham bog‘liqligini keltirib o‘tgan[433].

V.V. Bartold Xorazmda animizm va shomonizm unsularni va an’analari haqida to‘xtalib, Xorazmda malika Minaga bag‘ishlangan marosim ham ajdodlar ruhiga sig‘inish bilan bog‘liqligini tahmin qilgan[434]. S.P. Tolstov tadqiqotlarida Beruniy asaridan foylangan holda afsonaviy podshoh Siyovush xotirasiga bag‘ishlangan marosimlar dastlab Xorazmda keyin, Sug‘dda ham nishonlana boshlaganini ta’kidlab, Siyovush O‘rta Osiyo o‘simliklarining o‘lishi va tirilishi xudosi sifatida ham ulug‘langan keltirb o‘tadi[435].

Yuqoridagi adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib tahlil qilinganda, zardushtiylik Xorazmda davlat dini darajasiga ko‘tarilmagan va Erondagi zardushtiylik urf-odatlari va marosimlaridan keskin farq qilib, mintaqa aholisi qadimdan butlarga, ajdodlar ruhiga, suvga, olovga sig‘inganliklarini aytish mumkin. Y.A. Rapoport Xorazmda ilk o‘rta asrlar va islom kirib kelishigacha bo‘lgan davrda diniy va dunyoviy marosimlarni, xususan ossuariylarning ishlatilishini zardushtiylik aqidalaridan emas, balki oldingi e’tiqodlardan izlash kerak deb, fikr bildirgan[436]. Bundan xulosa kelib chiqadiki, Xorazmda mavjud bo‘lgan diniy qarashlar zardushtiylik dini vujudga kelishidan oldin ham mavjud bo‘lib, zardushtiyliik dini natijasida taraqqiyotni o‘z boshidan kechirgan.

[432] Bulgakov P.G. Al-Biruni on Khwarizm .... – P. 230–232.
[433] Yuqoridagi manba:–B.231–232.
[434] Бартольд В.В. К истории персидского эпоса. Сочинения, Том 7. – Москва, 1971. – С. 81–83.
[435] Толстов С.П. Древний Хорезм… – С. 200–202.
[436] Рапопорт Я.А. Из истории религии древнего Хорезма … – С. 32–32.

Xorazm hududida buddizm tarqalgani yoki aksinchaligi tadqiqotchilarda o‘rtasida bahsli masalalardan biri hisoblanib, ayrim tadqiqotchilar Kushonlar ta’siri natijasida Amudaryo–Sirdaryo oralig‘idagi hududlarda buddizm tarqalganligini ta’kidlashsa, boshqa bir tadqiqotchilar guruhi Kushon imperiyasining ta’siri Xorazmga sezilmaganligini, arxeologik tadqiqotlar xulosalari mintaqada buddizm yoyilmagani ko‘rsatadi, deb xulosaga kelishgan. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunga qadar Xorazm Kushonlar imperiyasi tarkibida bo‘lganligini inkor etuvchi dalillar mavjud emas. Bu masalada V.M. Masson va B.I. Vaynberg tadqiqotchilarning fikrlarini tahlil qilib, Kushonlarning Xorazmga ta’sir darajasining kamligi tangalardan ma’lum bo‘lib, kushon tangalari Xorazmda kam muomalada bo‘lgani sababli Xorazm boshqa mintaqalarga qaraganda mustaqilligi, Xorazmdan topilgan arxeologik materiallar kushonlar bilan mustahkam aloqada bo‘lmaganligini, buning natijasida mintaqada buddizmning sezilarli izlari deyarli yo‘qligini keltirib o‘tganliklarini ta’kidlashgan[437]. Masala E.E. Nerazik tomonidan ham tadqiq etilib, yozuv, til va din sohasidagi bir davlatning ikkinchi davlatga ta’siri faqat bosib olish bilan belgilanishi tarixiy xatolik bo‘lib, san’at madaniy va tarixiy aloqalar orqali paydo bo‘lishi va tarqalishini keltirib o‘tgan [438] . Biroq tadqiqotchi arxeologik tadqiqotlarga tayanib, buddaviylik Xorazmda tarqalmaganligini ta’kidlagan. Masala S.P. Tolstov tomonidan ham atroflicha tadqiq etilib, Tuproqqal’adan topilgan arxeologik izlanishlar Xorazmda buddaviylik dini ta’siri mavjud bo‘lganligini keltirib o‘tadi [439] . Tadqiqotchilardan V.P. Zelda va K. Kouteslar 1937–1948-yillarda XAEE tomonidan amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlarni tahlil qilib, mintaqada arab bosqinidan oldin Xorazm san’atida hind motivlari aniq ajralib turishini, Kushonlar davrida buddaviylik Xorazmga kirib kelganligini, buni VII – VIII asrlarga oid idishlar va muhrlarni bezatishda ishlatilgan to‘rt qo‘lli ayol xudosida, VIII asrga tegishli karkidon haykalchalarini keltirib o‘tishgan[440].

[437] Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма… – С. 88–90.
[438] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm… – P. 212–213.
[439] Толстов С.П. Древний Хорезм… – С. 200–202.
[440] Zelda W.P., Coates.K. Soviets in Central Asia. – London: Lawrence & Wishart LTD, 1951. – P. 26.

Biroq keyingi tadqiqotchilardan E.E. Nerazik, A.V. Gudkova va Y.A. Rapaportlar yuqorida qayd etilgan to‘rt qo‘lli xudo buddaviylik diniga aloqasi yo‘qligi, u hosildorlik va suv ilohasi Anahita ekanligini aniqlashgan[441].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, buddaviylik dinining Xorazmga ta’sir masalasi maxsus tadqiq etilmay, tadqiqotchilarning tarqoq fikrlaridan iborat bo‘lib, yakdil xulosa mavjud emas.

Xorazm hududida zardushtiylik, buddaviylik dinlaridan tashqari xristianlikning kirib kelishi va tarqalishi, uning ta’sir darajasi sovet davri, xorijiy tadqiqotlarda va milliy tarixshunoslikda atroflicha o‘rganilgan. Xususan, S.P. Tolstov Beruniy ma’lumotlaridan foydalanib Xorazmda yashovchi xristian jamoalari, ularning turmush-tarzi haqida ma’lumotlarni alohida e’tirof etib, nasroniylar mintaqada o‘zlarining bayramlarini erkin o‘tkaza olganliklarini qayd etib o‘tgan[442].

V.N. Yagodin Mizdaxkon yodgorligini o‘rganish natijasida manzilgoh hududlarida VII – VIII asrlarda aholi orasida xristianlik dini yuzaga kelib, tarqala boshlagan degan fikrni keltirib o‘tgan[443]. Shuningdek, muallif nasroniylar tomonidan o‘tkazilgan bayramlar hamda diniiy e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar xususida ham to‘xtalgan.

E.E. Nerazik 1937–1980-yillardagi arxeologik tadqiqotlarni tahlil qilib, mintaqada xristian jamoalarining mavjudligini, ayniqsa Gavurqal’a qabristonida xristian jamoasiga tegishli dafn xonasi topilganligini keltirib o‘tgan[444].

Kerdar madaniyatining markazi bo‘lgan Quyuqqal’ani tadqiq etgan M.M. Mambetullayev xoch tasviri tushirilgan taqinchoqning topilishini Kerdarda ham xristian jamolari yashagan degan fikrni keltirib o‘tadi[445].

---

[441] Bulgakov P.G. Al-Biruni on Khwarizm / History of Civilizations of Central Asia The crossroads of civilizations A.D. 250 to 750.Vol.3. Ed. Litvinsky B. A. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – P. 224.

[442] Толстов С.П. Новогодний праздник «каландас» у хорезмийских христиан начала XI в. // Советская этнография. – 1946. – № 2. – С. 291.

[443] Ягодин В.Н., Ходжайов Т.К. Некрополь древнего Миздакхана. – Ташкент, 1970. – С. 151–152

[444] Nerazik E.E. History and culture of Khwarizm… – P. 225–226.

[445] Мамбетуллаев М.М. Куюккала – раннесредневековая столица Кердера //Археологические исследования в Узбекистане. – Самарканд, 2012 – № 9. – С. 89–92.

A.A. Musakayeva Markaziy Osiyo hududidan topib o‘rganilgan xochsimon ko‘rinishdagi xristianlik belgilari V – VII asrlardan tarqala boshlaganganligini keltirib o‘tgan bo‘lsa[446], B. Eshquvatov xoch belgilari bilan bir qatorda xristianlik dinida muqaddas sanalgan jonzotlar tasvirini turli xil buyumlar va tangalarda aks ettirish xristianlikning boshqa e’tiqod shakllaridan farqli xususiyatlaridan biri ekanligini ta’kidlab o‘tgan[447].

Milliy tarixshunoslikda masalaga doir ko‘plab ishlar mavjudligiga qaramay, tadqiqot xulosalarida yangi fiklar yo‘qligini kuzatish mumkin. Ularda asosan afrig‘iylar sulolasi davrida yozuv, til va diniy tasavvurlar aks etib, davr nuqtayi nazardan umumiy manzara hosil uchun keltirib o‘tilgan. Xususan, G. Abdullayeva ishida Xorazmda shamanizm bilan bog‘liq urf-odatlar tadqiq etilib, ildizlari qadimiy bo‘lgan bunday diniy tasavvurlar ilk o‘rta asrlarda ham saqlanib qolganini keltirib o‘tadi[448].

Q. Sobirov, U. Abdalov, A. Ashirov, S. A’zamova va M. Rahimova ishlarida xorazmliklarning diniy qarashlarida olovning ahamiyati yoritilgan[449].

O.Sh. Qdirniyozov Mazdakqon va To‘qqal’a yodgorligidan topilgan ossurariylarda marhumlar uchun a’za ochish, mahalliy irq belgilarini ko‘rsatuvchi tasvirlar borligini, mazkur tasvirlar etnik belgilarga asoslanib, ularni turk va markaziy osiyoliklarning irqiy

---

[446] Мусакаева А.А. О несторианах в Средней Азии (по нумизматическим данным) // Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. – Ташкент, 1994. – С. 46.

[447] Эшкуватов Б. Хоразм ҳудудларидаги христианлик тарихига назар // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида . – Урганч, 2020. – Б. 288–290.

[448] Абдуллаева Г. Хоразмда шаманизм билан боғлиқ урф-одатлар // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. – Урганч, 2020. – Б. 167–171.

[449] Собиров Қ. Хоразм вилоятида оташгоҳларнинг вужудга келиш тарихидан // Авесто – Ўрта Осиё халқлари маданияти тарихида.Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Нукус-Хива, 2001. – Б. 79–81.; Абдалов У. Зардуштийлик дини тарихи, анъана ва маросимларини тадқиқ қилишнинг асослари // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. – Урганч, 2020. – Б. 113–115; Аширов А. Зардуштийлик маросими ва урф-одатлари // Шарқ ва Ғарб: Зардуштийлик ва Авестонинг ғарб дунёқарашига таъсири. Халқаро илмий-назарий семинар материаллари. – Наманган, 2001. – Б. 61–62; Аъзамова С. Авестода аёл образи // Шарқ ва Ғарб: Зардуштийлик ва Авестонинг ғарб дунёқарашига таъсири. Халқаро илмий-назарий семинар материаллари. – Наманган, 2001. – Б. 68–69; Раҳимова М. Қадимги хоразмликлар диний қарашларида олов тимсоли // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. – Урганч, 2020. – Б. 157–159.

sintezi sifatida baholagan[450]. Bundan tashqari, muallif masala yuzasidan E.E. Nerazik, V.N. Yagodin, M.M. Mambetullayev fikrlariga tayanib VII – VIII asrlarda Quyi Sirdaryo, Kerdar madaniyati va Xorazm sivilizatsiya aloqalarining kuchayganligini ta’kidlab, Qo‘rg‘oncha va Hayvonqal’adan topilgan Umay ona haykali, Quyuqqal’adan topilgan qanotli ot tasviri, Yakkaparson, Katta Qirqqiz qal’a va Shohsanmadan topilgan sirlangan alebastr but afrig‘iylar madaniyati bilan belgilanishini keltirib, ko‘chmanchi dala sivilizatsiyasiga xos dunyoviy va diniy mazmundagi tushunchalar mahalliy madaniyat bilan tutashib, yangi umumiy sivilizatsiya belgilarini shakllantirganligini qayd etadi[451].

R. Ibrogimov xorazmliklarning g‘oyaviy hayotida antik davr zardushtiylik dini e’tiqodi saqlanib qolganligi, VI asrdan boshlab ostadonlarni ma’lum andozaga qat’iy amal qilib, to‘rtburchak shaklida loy, tosh va alebastrdan ishlanganligini, ossuariylar sirtiga marhmumning ismi-sharifi va uning ruhiga bag‘ishlangan ezgu tilaklar, ayrim hollarda marhumga aza tutish bilan odatlari bilan bog‘liq bo‘rtma tasvirlar bitilganini keltirib o‘tgan[452].

M. Matniyozov mintaqada IV – VIII asrlarda diniy e’tiqodlarda zardushtiylik dini hukmron ekanligi, bunday xulosaga kelishida Markaziy Osiyonning boshqa hududlaridagidek, Xorazm vohasida VI – VII asrlarga tegishli otashparaslarning dafn qilish marosimi bilan bog‘liq sopol ostodonlar (ossuariylar) ham ko‘plab topilishini keltirib o‘tgan[453]. Muallif shuningdek, arablar Xorazmni bosib olganidan keyin islom dinini joriy qilish va yoyish uchun turli usul va vositlardan, xususan ma’rifiy va iqtisodiy vositlardan foydalanganliklarini, mahalliy xalqlar orasida islom diniga o‘tishni targ‘ib qilish uchun missonerlar yuborilganligi (Yusuf Hamadoniy va Sulton Uvays), musulmon ulamolari islomning otashparastlikdan ustunligini asoslash uchun ko‘plab rivoyatlar to‘qib tarqatganligi (Qori olov Xo‘ja rivoyati), boshqa dinga e’tiqod qiluvchi kishilardan “juzya” solig‘i undirilganligini keltirib o‘tgan[454].

---

[450] Кдирниёзов О. Ш.Маракзий Осиё цивилизацияси ва иллк ўрта асрлар Хоразм маданияти // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоалари ёш тадқиқотчилар талқинида. – Самарқанд, 2013. – Б. 65–69.

[451] Yuqoridagi asar. – Б. 68–69.

[452] Ibrogimov R.Arxeologiya.O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2022. – B. 208–209.

[453] Матниёзов М. Хоразм тарихи … – Б. 119.

[454] Матниёзов М. Хоразм тарихи … – Б. 124–126.

I. Jabbarov tadqiqotlarida ham masalaga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, sovet davri tadqiqotlari negizida xorazmda ilk o‘rta asrlarda ham zardushtiylik, but-sanamlarga sig‘inish, ajdodlar ruhiga xurmat qilish, mintaqa aholisi orasida VI – VII asrlarda xristian jamoalari mavjudligi, VIII asrda arablar bosqini va islom dini kirib kelishi natijasida aholi yoppasiga islom diniga majburiy o‘tkazilishi natijasida aholining eski dinlarni tark etish holatlari kuzatilganini, biroq hozirgi kunda ham qadimgi diniy e’tiqodlarning ayrim jihatlari, Xorazmda saqlanib qolganligini keltirib o‘tadi[455].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng chop etilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrdagi tadqiqotlarning asosiy metodologik poydevori sovet davrida shakllangan. Bu esa ma’lum bir darajada ilmiy qarashlarning inersionligiga va yangicha yondashuvlarning yetishmasligiga olib kelgan. Xususan, afrig‘iylar davriga oid tadqiqotlarda asosan sovet davridagi xulosalar takrorlangan va ularning tanqidiy qayta baholanishi kam kuzatilgan.

Shu bilan birga, mustaqillik yillaridagi tadqiqotlarda ijobiy tendensiyalar ham mavjud. Xususan, ayrim olimlar diniy e’tiqodlar, dafn marosimlari va mintaqadagi madaniy o‘zgarishlarga e’tibor qaratib, yangi ma’lumotlar va talqinlarni ilgari surdilar. Jumladan, zardushtiylikdan islom diniga o‘tish jarayoni, missionerlik faoliyati, islom dini e’tiqodlarining tarqalishi kabi masalalar kengroq yoritilgan.

III bob yuzasidan xulosalar

Xorazmning IV – X asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzuga doir ilmiy adabiyotlarda bir qator masalalarda qarashlarning turfa xilligi va hatto qarama-qarshiliklar mavjud.

Tadqiqotchilarning asosiy e’tibori afrig‘iylar sulolasining VII – X asrlardagi faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, bu davrdagi Xorazmning iqtisodiy o‘sishi, tashqi savdo va pul munosabatlari, shaharlarning rivojlanishi kabi jihatlar nisbatan kengroq yoritilgan. Biroq IV – VI asrlarga oid ijtimoiy-iqtisodiy holat tadqiqlarda yetarlicha o‘z aksini topmagan. Xususan, iqtisodiy tushkunlikning sabablari, ijtimoiy

[455] Джаббаров И. Древний Хорезм … – С. 65–66.

iyerarxiya, mulkchilik va qulchilik munosabatlari kabi masalalarda tadqiqotchilar o‘rtasida yagona qarash mavjud emas.

Xorazmning VII – X asrlardagi tashqi savdosi va pul munosabatlarining rivojlanishi, xorazmlik savdogarlarning xalqaro savdodagi o‘rni kabi masalalar tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan bo‘lsa-da, ushbu jarayonlarning chuqur tahlili hamda Xorazm savdogarlarining G‘arb yo‘lidagi roli va ichki savdo masalalari yetarlicha yoritilmagan.

Xorazm yozuvi va tilining kelib chiqishi haqida ham tadqiqotchilar o‘rtasida turli qarashlar mavjud. Ayrim olimlar uning oromiy alifbosiga asoslanganligini ta’kidlasa, boshqalar bu fikrga qarshi chiqib, xorazm yozuvining o‘ziga xos xususiyatlarini qayd etadilar. Bu boradagi qarama-qarshiliklarning sabablaridan biri sifatida sovet davrida olib borilgan tadqiqotlar va keyingi arxeologik topilmalar o‘rtasidagi tafovutlar tadqiqotlarda qiyosiy o‘rganilmaganligini keltirish mumkin.

Shuningdek, Xorazmda buddizmning mavjudligi, kushonlarning madaniy ta’siri, zardushtiylikning davlat dini darajasiga ko‘tarilgan yoki ko‘tarilmaganligi, aholining islomlashish jarayonlari kabi masalalarda ham tadqiqotchilar o‘rtasida yakdil fikr mavjud emas. Minataqada xristian dinining kirib kelishi va yoyilishi milliy va xorij olimlari tomonidan eng ko‘p tadqiq etilgan masalalardan biri bo‘lib, tadqiqotlar o‘rtasida qarama-qarshi fikrlar mavjud emas.

XULOSA

Mavzuni o‘rganilishida ilmiy adabiyotlarning manbaviy asosiga e’tibor berish nihoyatda muhim bo‘lib, milliy tarixshunoslikda tadqiqotlarning aksariyati sovet davrida ilmiy muomalaga kiritilgan afrig‘iylar sulolasi davriga oid xitoy (Tan shu va yangi Tan shu), arab-fors (15 ta) singari yozma manbalar bilan cheklanganini ko‘rsatadi. Xususan, xitoy manbalarida qadimgi va ilk o‘rta asrlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan 645–762-yillar oralig‘ida Xorazmdan Xitoyga yuborilgan 6 ta elchilik qayd etilgan, ammo, shundan faqatgina ikkita elchilik (751 va 762-yillardagi) haqidagi ma’lumotlar tahlil etilgan.

Menandr Protektorning (VI asr) “Tarix” asarida keltirilgan Zemarx elchiligiga oid ma’lumotlar ya’ni, *“Zemarxning 569-yilda G‘arbiy Turk xoqonligi qarorgohiga Xorazm orqali borishi va qaytishida faqat Xorazm hukmdoriga o‘z elchilarini xoqon elchilariga qo‘shib yuborishga ruxsat berilishi”* sovet davri tarixshunosligida ma’lum bir siyosiy kontekstda shakllangan va noto‘g‘ri tarzda Xorazm G‘arbiy Turk xoqonligiga vassal davlat sifatida emas, balki ittifoqchi davlat sifatida baholangan bo‘lib, keyinchalik milliy tarixshunoslikda undan xabarsiz tadqiqotchilarning ishlarida mazkur nuqsonlar qaytarilgan.

Turli tillardagi yozma manbalardan eng ko‘p foydalanilgani musulmon (arab-fors) manbalari hisoblanib, 28 tarixiy asardan 15 tasi ilmiy tadqiqotlarda jalb etilgan bo‘lsa, pahlaviy, suryoniy, arman tillardagi birlamchi manbalar ilmiy iste’molga nihoyatda kam kiritilgan, milliy tarixshunoslikda esa umuman e’tibordan chetda qolgan.

Arxeologik tadqiqotlarning ilk bosqichida IV – X asrlar afrig‘iylar sulolasi tarixini o‘rganishda S.P. Tolstovning davrlashtirish modeli, tangalardagi yozuvni o‘qish uslubi, etnik kelib chiqish masalasi jihatidan yondashuvi va ilmiy konsepsiyasi ustuvor bo‘lgan. Keyingi davrlarda E.E. Nerazik, B.I. Vaynberg, V.A. Livshits kabi olimlar yangi arxeologik kashfiyotlarga asoslanib, S.P. Tolstovning davrlashtirish modelida siyosiy jarayonlarga urg‘u berilganligi, unda faqat hokimiyat almashinuvi ifodalanishi, tangalardagi yovuzlarni yozma manbalardagi ma’lumotlarga moslashtirishga urinish sifatida baholab, unga “paradigmatik tuzatish” kiritishdi.

Tarixchilar tangashunoslik tadqiqotlarining ko‘pchiligida sulola davriga oid yozma manbalardagi ma’lumotlarning aksariyatini ishonchsiz deb baholashgan. Mavjud ishlarda Beruniy asarida keltirilgan davriy chegara (305–995-yillar) ni qo‘llash tasdiqlanmagan hamda sulola asoschisi sifatida qaralgan Afrig‘ nomining tangalarda o‘qishga urinishlar muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Bundan tashqari, Beruniyda asarida keltirilgan VII asr boshlarigacha bo‘lgan 13 afrig‘iy hukmdorlarning nasabnomasi tangalar bilan mos kelmaydi. Ulardan faqat Azkajavar va Shaushafar nomlari Beruniy nasabnomasida ko‘rsatilgan tangashunoslik materiallariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, Muhammad (s.a.v) zamondoshi sifatida tilga olingan Arsamux (VII asr) tangashunoslik xulosalarida III asr oxirlariga to‘g‘ri keladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib B.I. Vaynberg va V.A. Livshistlar va ularning tadqiqotlariga tayangan zamonaviy ishlarda Beruniy asarida keltirilgan Xorazmshoh shajarasi va davriy chegarasini shubha ostiga olinib I asrdan VII asrlargacha Xorazmda mavjud bo‘lgan sulolani afrig‘iylar deb qabul qilishga hech qanday asos yo‘qligini keltirishgan.

Xorijiy tarixshunoslikda afrig‘iylar sulolasi tarixiga qiziqish va e’tibor bevosita etnogenez masalasi, ya’ni sulolaning eroniy (Eron va inglizzabon olimlarda) yoki turkiy (milliy, turk tilli tadqiqotlarda) kelib chiqishini asoslash bilan bog‘liq bo‘lgan.

IV – VI asrlarda Xorazmning siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqirozi borasida asosan ikki xil yondashuv bo‘lib, bir guruh tadqiqotchilar bu holatni tashqi omillar, ya’ni eftaliylar va turklarning bosqini, ikkinchi guruh tadqiqotchilari esa, ichki sabablar, ya’ni tabiiy ofatlar (suv toshqini, Amudaryoning o‘zanini o‘zgartirishi) va sulolaviy ichki nizolar bilan bog‘lashgan. VI asrga oid tanga va sopol buyumlarning kam topilgani hamda ularning nisbatan past sifatda ekanligi haqiqatda bu davr Xorazmda chuqur inqiroz yuz berganligidan dalolat beradi. Arxeologik va yozma manbalar, shuningdek, tashqi savdoda ishlatilgan tangalar va hunarmandchilik buyumlari VII – X asrlarda yangi yuksalish boshlanganligini ko‘rsatadi.

Xorazm vohasi shaharsozligini o‘rganish boshqa mintaqalarga, masalan, Sug‘d, Panjikentga nisbatan notekis olib borilgan. Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi shaharlar o‘ng qirg‘oqdagilarga

qaraganda kamroq o‘rganilgan. Bunga chap qirg‘oqdagi yodgorliklarning yaxshi saqlanmaganligi sabab bo‘lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Me’yoriy–huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktaybardagi PF-6097-son farmoni. “Ilm-fani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”. .
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi. https://lex.uz/docs/-6600413
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son Qarori. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari”. https://lex.uz/docs/-3211987
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrdagi 792-son qarori. “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/-4524476

II. Manbalar

6. Abu ʿAbd-Allāh Moḥammad Moqaddasi (Maqdesi), Aḥsan al-taqāsim fi maʿrefat alaqālim, ed. Michaël Jan de Goeje, BGA III, Leiden, 1877; tr. Basil A. Collins, The Best Divisions for Knowledge of the Regions. –Reading, 1994.
7. Beal. S. Si-yu-ki. Buddhist Records of the Western World. – London: Trübner, 1884–1886.
8. Biruni. The Chronology of Ancient Nations. trans. By Sachau. – London, 1879.
9. Blockley R.C. The History of Menander the Guardsman. – Liverpool: Francis Cairns, 1985
10. Boyce M, Minovi M. The Letter of Tansar. – Rome: Istituto Italiano per il Medio ed Estremo Oriente, 1968.
11. Dien A.E. The Disputation at Pengcheng: Accounts from the Wei Shu and Song Shu. Early Medieval China. Robert Ford; Lu,

Yang; Choo, Jessey (eds.). – New York: Columbia University Press, 2014.
12. Ebn Aʿṯam Kufi, Ketāb al-fotuḥ, ed. M. ʿA. Khan et al., Vol. 8., Heyderabad, 1968–75; the old lithographs of the Persian translation by Moḥammad b. Aḥmad Mostawfi Heravi (e.g., Tarjama-ye tāriḵ-e Aʿṯam-e Kufi, Bombay, 1883; repr. Tehran, n.d.) have now been replaced by al-Fotuḥ, ed. Ḡolām-Reżā Ṭabāṭabāʾi Majd, Tehran, 1993.
13. Elishe, History of Vardan and the Armenian War. Translation and Commentary by Robert W. Thomson. – Cambridge-Massachusetts-London: Harvard University Press, 1982.
14. Frye R.N. The History of Bukhara / Translated from a Persian abridgement of the Arabic original by Narshakhi. – Cambridge, 1954.
15. Ḥodūd al-ʿālam, tr. V. Minorsky.ed.C.E., Bosworth.E.J., W.Gibb Memorial Series, XI.Cambridge University Press, 1970.
16. İbn Fadlân, Risâletu İbn Fadlân. thk. Sâmî Dehhân. – Beyrut, 1987.
17. Ji Xianlin Da Tang Xiyu ji jiaozhu(Emendation and Annotation to the Journey to the Western Regions). – Beijing: Zhonghua shuju, 1985.
18. Julien S. Hiouen-thsang. Mémoires sur les contrées occidentales, traduit du sanskrit en chinoise, en l'an 648 par Hiouen-thsang et du chinois en français par. – Parij: À l’imprimerie impériale, 1857.
19. Kitab al-a’lak an-nafisa auctore Abu Ali Ahmed ibn Omar ibn Rosteh et Kitab al-Buldan auctore Ahmed ibn Abu Jakub ibn Wadhih al-Katib al-Jakubi (ed. M.J.Dc Goeje), edit.2, (BGA, VII). Lugduni Batavorum, 1892
20. Li Rongxi.The great Tang dynasty record of the western regions. – California: BDK America, 1996.
21. The Chronicle of Michael the Great, Patriarch of the Syrians. Trans by Bedrosian R. – New Jersey: Long Branch, 2013.
22. Watters T. On Juan Chwang’s Travels in India (629–645 A.D.) London – Delhi: Royal Asiatic Society, Munshi Ram Manohar Lal, 1904–1905.

23. Yāqūt Ibn-ʿAbdallāh ar-Rūmī/ Wüstenfeld, Ferdinand, 1808–1899 [Herausgeber]: Jacut's Geographisches Wörterbuch aus den Handschriften zu Berlin, St. Petersburg und Paris auf Kosten der deutschen morgenländischen
24. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахи. Бухоро тарихи / Форс-тожик тилидан таржима А.Расулевники, масъул мухаррир А.Уринбоев. – Тошкент: Фан, 1966.
25. Абу-л-Касым ибн Хаукаль. Книга путей и стран // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) /Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. – М. – Л.: Наука, 1939.
26. Абу-Насра ал-Утби. Извлечения из "Китаб ал-Йамини" // Перевод С.Волина. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Том I. VII–XV вв. Арабские и персидские источники. – М. – Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939.
27. Ал-Бе лазури. Китаб футух ал-будан (текст 431). МИТТ.Т. 1. – М. – Л., 1939.
28. Александрова Н.В. Сюань-цзан. Записки о Западных странах [эпохи] Великой Тан: Да Тан си юй цзи. – Москва: Восточная литература, 2012.
29. Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). Т.1. – М. – Л.: Наука, 1939.
30. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. – М. – Л.: Наука, 1939.
31. Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд, – Т., Фан, 1968.
32. Жданович О.П. Менандр протектор. История: о посольствах тюрков к персам и византийцам в 568 году (перевод и комментарии) // Золотоордынское обозрение. – 2014. – № 1.
33. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент – Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005.

34. Извлечения из «Китаб му‘джам ал-булдан» Якута, по изданию F.Wustenfeld'a (Jacuts geographisches Wörterbuch) пер. С.М.Богдановой-Березовской // Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ), Арабские и персидские источники. VII–XV вв. Труды института востоковедения. Т.1. – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1939.
35. Извлечения из «Худуд Ал-Алем» – анонимного персидского географического сочинения // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. Арабские и персидские источники. (VI–XV вв.) / Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича, А.Ю. Якубовского. – М. – Л.: Наука, 1939.
36. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. (Д.Юсупова муҳаррирлигида) – Тошкент: Фан, 2019.
37. Менандр Протектор. (И.А. Левинская, С.Р. Тохтасьев) // Свод древнейших письменных известий о славянах. - Том I (I–VI вв.) – Москва, 1994.
38. Мухаммад ан-Наршахи. Та'рих-и Бухара. История Бухары / Вступительная статья Д.Ю.Юсуповой. Перевод комментарии и примечания Ш.С. Камолиддина. Археолого-топографический комментарий Е.Г.Некрасовой. – Ташкент: SMI-ASIA, 2011.
39. CBETA. Chinese Buddhist Electronic Text Association. Chinese Electronic Tripitaka Collection, 2006.
40. Ҳудуд ул-Олам. (Масъул муҳаррир М.Исҳоқов) – Тошкент: O‘zbekiston, 2008.

III. Monografiya va to‘plamlar, ilmiy maqolalar.
O‘zbek tilida

41. Ahmedov A, Bo‘riyev O. O‘zbekiston tarixi: Xrestomatiya, III jild V–XI asrlar O‘zbekiston tarixi va manbalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
42. Egamberdiyeva N. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
43. Ibrogimov R. Arxeologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2022.
44. Matqurbonov O. XXI asrda Xorazmning ilk o‘rta asrlar savdo munosabatlari tarixi tarixshunosligining o‘rganilishi // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси – 2023. – № 3.
45. Matyoqubov T. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm davlatchiligi tarixi. – Chisinau: GlobeEdit, 2020.

46. Nurmuhamedov S.A. “Tarix al-yaminiy” asarida Xorazm // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2023. – № 9.
47. Otaxo‘jayev A, Masharipov Abdullayev M. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm / O‘zbekiston tarixi XI jild (Xorazm tarixi). Ma’sul muharrir: A.S. Sagdullayev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
48. Ro‘zimov A. IV–X asrlarda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixi // Journal of Universal Science Research. – 2023. – № 6.
49. Sagdullayev A. S. O‘zbekiston tarixi I kitob. OTM uchun darslik. – Toshkent, 2021.
50. Utayeva F. O‘rta Osiyoning qadimgi va o‘rta asrlar urbanizatsiyasi. – Buxoro, 2021.
51. Абдалов У. Зардуштийлик дини тарихи, анъана ва маросимларини тадқиқ қилишнинг асослари // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. Конференция материаллари тўплами. – Урганч, 2020.
52. Абдиримов Р., Садуллаев Б., Каримов Я. Сандиқли бобо – жанубий Хоразмнинг илк ўрта аср ёдгорлиги // Илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш - юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялашнинг энг муҳим асоси мавзусидаги анжуман тўплами. 3-жилд. – Урганч, 2015.
53. Абдуллаев Ж.Р. Хоразм вохаси илк ўрта аср жамиятида кечган ижтимоий-иктисодий ва этномаданий муносабатларнинг адабиётларда акс этиши // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2021.
54. Абдуллаев М.С. Қадимий Хоразм тарихи ва Хоразм давлатчилиги. – Тошкент, 2019.
55. Абдуллаева Г. Хоразмда шаманизм билан боғлиқ урф-одатлар // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. Конференция материаллари тўплами . – Урганч, 2020.
56. Азимов Х. Қадимги Хитой манбаларидаги Марказий Осиё ва Хитой муносабатларига оид айрим маълумотлар // ЎзФА Ёш олимлар ахборотномаси. – 2019. № 2.
57. Алимова Д.А. Ўзбекистон археологияси тарихшунослигидан: Қадимги ва антик давр давлатчилик институтлари. – Тошкент: Bookmany Print, 2024.

58. Аширов А. Зардуштийлик маросими ва урф-одатлари // Шарқ ва Ғарб: Зардуштийлик ва – Авестонинг ғарб дунёқарашига таъсири. Халқаро илмий-назарий семинар материаллари тўплами. – Наманган, 2001.
59. Аъзамова С. Авестода аёл образи // Шарқ ва Ғарб: Зардуштийлик ва Авестонинг ғарб дунёқарашига таъсири. Халқаро илмий-назарий семинар материаллари тўплами. – Наманган, 2001.
60. Баратов П. Ўзбекистоннинг табиий георгафияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
61. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлигининг Мовароуннаҳрдаги бошқарув тизими ҳақида // O‘zbekiston tarixi. – Тошкент, 2000.
62. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент, 2018.
63. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. – Тошкент-Урганч, 2019.
64. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т.: Фан, 1957.
65. Давлетова Н.Н. Қадимги хоразм тили: унинг тарқалиши ва баъзи халқлар тилига таъсири // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. Конференция материаллари тўплами. – Урганч, 2020.
66. Джумаева Г.С. Забардаст хитойшунос олим Абдул-Аҳад Хўжаев 80 ёшда. – Тошкент, 2022.
67. Дониёров А. Хоразм археология-этнография эскпедицияси Ўзбекистон этнография фанида. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2007.
68. Исмаилов Ш. Алоуддин Муҳаммаднинг ўқ-ёй тасвирли Термиз тангасининг тавсифи// Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. –202. – № 10.
69. Исмаилов Ш. VIII–XIII асрларда Хоразм тангаларида от тасвири // Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси. – 2021. – № 6.
70. Исмаилов Ш. Қуръон оятлари билан зарб қилинган илк Хоразмшоҳ тангаси // Тамаддун нури журнали. – 2021. – № 5.

71. Исмаилов Ш. Маъмунийларнинг сиёсий майдонга келиши тарихи // Мозийдан садо. – 2022. – № 3.
72. Исҳоқов М.М. Қадимги ёзма ёдгорликлар (мавзули монография). – Тошкент: Ёзувчи, 2000.
73. Исҳоқов М.М. Хоразмда кадимги сиёвушийлар сулоласи. Асотирми ёки хакикат? // Шарқшунослик. – 2009. – № 1.
74. Кдирниёзов О.Ш. Маркзий Осиё цивилизацияси ва илк ўрта асрлар Хоразм маданияти // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоалари ёш тадқиқотчилар талқинида. Конференция материаллари тўплами. – Самарқанд, 2013.
75. Қўлдошев Ш.Т. Ўрта асрлар хитой манбаларида Хоразм воҳаси тарихига оид баъзи маълумотлар // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Д. Алимова. – Тошкент-Урганч, 2019.
76. Маткурбанов О. Жанубий Оролбўйи қишлоқлари тарихига оид баъзи мулоҳазалар (IV–V аср биринчи ярими) // Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. Конференция материаллари тўплами. – Тошкент, 2021.
77. Маткурбанов О. Илк ўрта асрлар даврида Хоразмнинг жанубий йўналишдаги савдо йўлларининг вужудга келиши ва уларнинг аҳамияти // Общество и инновации. – 2023. – № 5.
78. Матниёзов А. Қадимги Хоразмий ёзма ёдгорликларини ўрганишдаги долзарб муаммолар // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. инновациялар ва истиқболлар. Конференция материаллари тўплами. – Самарқанд, 2016.
79. Матниёзов М, Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. ўқув–услубий қўлланма. – Урганч, 2009.
80. Матниёзов М. Хоразм тарихи I жилд. – Урганч, 1996.
81. Машарипов К. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Ервопа давлатлари савдо марказлари билан билан тарихий алоқалари(V–XV асрлар). –Урганч, 2016.
82. Машарипов Қ, Раҳимова Х. Калъажиқ-Қалъа. – Урганч, 2016.

83. Машарипов О. Хоразм тарихидан сахифалар. – Тошкент, 1994.
84. Машарипов О. Хоразмнома: Хоразм, юксалиш ва инқироз. – Хоразм, 2007.
85. Неъматов Р. Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати // История и культура центральной Азии. – 2023. – № 1.
86. Неъматов Р. Илк ўрта асрларда Хоразмда кечган этномаданий жараёнлар. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. –2023. –№3
87. Неъматов Р. Хоразм Африғийлар сулоласи – Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари // Фундаментал тадқиқотлар журнали. – 2023. – № 7.
88. Отахўжаев А. Африғийлар даври (305–995 йиллар) да Хоразм шаҳарларининг сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти /Хоразм шаҳарлари манбалар ва замонавий тадқиқотларда. Кўпмуаллифлик илмий монография. Масъул муҳаррир Н.А. Аллаева. – Тошкент: Фан, 2024.
89. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида Турк-Суғд муносабатлари. – Тошкент, 2010.
90. Раҳимова М. Қадимги хоразмликлар диний қарашларида олов тимсоли // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. Конференция материаллари тўплами. – Урганч, 2020.
91. Сагдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва Жамият тараққиёти. I қисм. – Тошкент: Академия, 2000.
92. Садуллаев Б.П., Каримов Я.А. Жанубий Хоразмнинг илк ўрта аср қишлоқ манзилгоҳлари ҳақида айрим мулоҳазалар (хоразм вилояти мисолида) // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. Конференция материаллари тўплами. –Самарқанд, 2016.
93. Собиров Қ. Хоразм вилоятида оташгоҳларнинг вужудга келиш тарихидан // Авесто – Ўрта Осиё халқлари маданияти тарихида. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Нукус - Хива, 2001.

94. Толстов С. П. Қадимий Хоразм цивилизациясини излаб. таржимон: А. Муҳаммадқулов; Масъул муҳаррир: У. Бекмуҳаммад. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.
95. Ходжаниязов Г. Қадимги Кҳоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007.
96. Хўжаев А .Ўзбек халқининг этник тарихини ўрганишда қадимги хитой манбаларининг аҳамияти // Ўзбекистон тарихи. – 2020. – № 3.
97. Хўжаев А, Қўлдошев Ш, Жуманиёзова Ф. Марказий Осиё давлатчилик тарихига оид маълумотлар (Хитой манбалари асосида). – Тошкент: Фан, 2019.
98. Хўжаев А, Айтбаев А, Қўлдошев Ш, Жуманиёзова Ф. Марказий Осиё тарихи хитой манбаларида (Қадимий ҳамда илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). – Тошкент: Munis design group, 2016.
99. Хўжаев А. Марказий Осиё халқлари тарихига оид маълумотлар (Қадимий ҳамда илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва тадқиқотлар). – Тошкент: Munis design group, 2015.
100. Шониёзов К.Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент, 2001.
101. Эшкуватов Б. Хоразм ҳудудларидаги христианлик тарихига назар // Хоразм - Марказий Осиё цивилизацияси тизимида. Конференция материаллари тўплами. – Урганч, 2020.
102. Я.Ғуломов .Ўтмиш излари // – Гулистон. – 1937. – № 4.

Rus tilida

103. Аржанцева И.Н. Хорезм история открытий и исследований. Этнографический альбом. – Ульяновск, 2016.
104. Артев В.В. Новое имя в нумизматике античного Хорезма. // http://ncoins.ru/publication/16/
105. Баратов С.Р, Рахманов У.В., Матрасулов Ш., Садуллаев Б.П., Рахимов Ш.Б. Археологические исследования поселения Хумбузтепа в 2011–2012 годах // Археологические исследования в Узбекистане -2012 год. –2012. – № 9.
106. Бартольд В.В. К истории персидского эпоса. Сочинения, Том 7. –Москва, 1971.
107. Бартольд В.В. Сочинения III. – Москва,1963.

108. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. // Сочинения, Т. I. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963.
109. Бендезу-Сармиенто Х. Средневековое население Приаральского микрорайона по данным антропологии Археология Приаралья. – 2008. – № 7.
110. Бирюков Д.В. «От «Артава» до «Африга» или становление традиционного облика древнехорезмийской монеты // Нумизматика Центральной Азии. – 1997. – № 2
111. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в СреднейАзии в древние времена. – М.: Л, 1950.
112. Боголюбова М. Личные местоимения в хорезмийском языке // Учен. зап. ЛГУ. Сер. Востоковедческих наук. – 1962. – № 306.
113. Боголюбова М. Н.Частицы в хорезмийском языке // Учен. зап. ЛГУ. Сер. востоковедческих наук. – 1961. – № 305.
114. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: Наука, 1977.
115. Вактурская Н.Н. О раскопках 1948 г. на средневековом городище Шемаха кала // ТХАЭЭ, т. I. – М., 1952.
116. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // МХЭ, вып.7. – М.: Изд-во АН СССР, 1963
117. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Садвар // Археологические открытия-1973. – М., 1974.
118. Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX—XVII вв.) // ТХАЭЭ, т. IV. – М.: Изд-во АН СССР, 1959.
119. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. - СПб. – 1877.
120. Воробьева М.Г. Керамика с городища Кюзел-гыр // ТХАЭЭ, Т. II. (Под. ред. С.П.Толстова и Т.А.Жданко). – М.: Изд-во АН СССР, 1958.
121. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода // ТХАЭЭ, т. IV. – М., 1959.
122. Воробьева М.Г., Лапиров-Скобло М.С., Неразик Е.Е. Археологические работы в Хазараспе в 1958–1960 гг. // МХЭ, Вып.6. – М.: Изд-во АН СССР, 1963.

123. Гафуров Б. Г. Таджики: Древнейшая, древняя и средневековая история. – Москва, 1972
124. Гончаров Е. Ю, Армарчук Е.А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме // Вестник института востоковедения РАН. – 2020. – № 2.
125. Григорьев В.В. О скифском народе саках. – Санкт-Петербург, 1871.
126. Гудкова А.В, Лившиц, В.А. Новые Хорезмийские надписи из некрополя Ток-Кала и проблема Хорезмийской эры // Вестник Каракалпакского филиала Академии Наук Узбекской ССР. – 1967. – № 1.
127. Гудкова А.В, Лившиц В.А. Новые Хорезмийские надписи из некрополя Ток-Калы и проблема Хорезмийской эры. Вестник Каракалпакского филиала Академии Наук Узбекской ССР. – 1967. – № 1.
128. Гудкова А.В. Ток-кала. – Ташкент: Фан, 1964.
129. Гумилёв Н. Хунну: Срединная Азия в древние времена. – Москва, 1960.
130. Джаббаров И. Древний Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). – Москва, 2014.
131. Добрев. И. Българите на територията на Средна Азия. – София, 2017.
132. Дьяконов М.М. Росписи Пянджикента и живопись Средней Азии // Живопись древнего Пянджикента. – М., 1954.
133. Дьяконов М.М.Образ Сиявуша в среднеазиатской мифологии. // КСИИМК. – 1951. – № 40.
134. Исҳоқов М.М. Слово о хорезмской письменности // O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi. – 2008. – № 1.
135. Исҳоқов М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры (древность и раннее средневековье). – Ташкент: УМЭД, 2008.
136. Кдырниязов М.Ш., Кдырниязов О.Ш. Керамическое ремесло миздахкана // Археология Узбекистана. – 2014. – № 2.
137. Кочнев Б.Д. Заметки по средневековойнумизматике Средней Азии//История материальной культуры Узбекистана. – 1984. – № 19.

138. Кузнецов А. В. Серебряные монеты Хорезмшаха Савшафана. Каталог. – М: Авторская книга, 2014.
139. Лившиц В.А. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. Выпуск II (Юридические документы и письма). Чтение, перевод и комментарии В. А. Лившица. – М., Издательство восточной литературы, 1962.
140. Лившиц В.А. Среднеперсидские и согдийские надписи на произведениях торевтики // Вестник Древней Истории. – 1964. – № 3.
141. Лившиц В.А. Топрак-кала. Дворец (ТХАЭЭ. XIV) / отв. ред. Ю. А. Рапопорт, Е. Е. Неразик. – М.: Наука, 1984.
142. Лившиц В.А. Юридические документы и письма. – М., 1962.
143. Мамбетуллаев М. Городище Кят (левобережный) и Зарлыкишан-бобо. В сб: Археологические исследования в Каракалпакии. – Ташкент: Фан, 1981.
144. Мамбетуллаев М., Кдырниязов М.-Ш. Городище Воянган // Археология Приаралья. – 1982. – № 1.
145. Мамбетуллаев М.М. Хумбуз тепе – керамический центр южного Хорезма // Археология Приаралья. – 1984. – № 2.
146. Массон В.М. Монетные находки, зарегистрированные в Средней Азии в 1917 - 1927 гг. // Известия Средазкомстариса. Вып. 3. – Ташкент, 1928
147. Матрасулов Ш., Садуллаев Б. Археологические раскопки в Кят-кале // В сб: Археологические исследования в Узбекистане - 2003 год. – Т., 2004.
148. Мусакаева А.А. О несторианах в Средней Азии (по нумизматическим данным) Из истории древних культов Средней Азии. Христианство. –Ташкент, 1994.
149. Наймарк А. И. Замечания о восточноевропейских находках бухарских и хорезмских монет VI–IX веков. // В сб.: Эпоха викингов в Восточной Европе в памятниках нумизматики VIII–XI вв. – СПб.: Старая Ладога, 2015.
150. Напольских В. В. Уральско-арийские взаимоотношения: история исследований, новые решения и проблемы. // Индоевропейская история в свете новых исследований. Сборник трудов конференции в память профессора В. А.

Сафронова. – М.: Московский государственный областной университет, 2010.
151. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981.
152. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афрагидского периода / ТХАЭЭ. Т. 4. – М., 1966.
153. Неразик Е.Е. Новые хорезмийские надписи из некрополя Ток-калы и проблема «хорезмийской эры» // Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР. – 1961. – № 1.
154. Неразик Е.Е. О некоторых направлениях этнических связей населения Южного и Юго-Восточного Приаралья в IV–VIII вв. // История, археология и этнография Средней Азии. – М.,1968.
155. Неразик Е.Е. Об этнических процессах в раннесредневековом Хорезме // Материалы по этнической истории населения Средней Азии. – Ташкент, 1986.
156. Неразик Е.Е. Раннее средневековье в Хорезме // Этнографическое обозрение. – 1997. – № 1.
